O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7.2023

научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, (UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI●2023 7 (194)

MUASSIS: Urganch davlat universiteti●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan●**GUVOHNOMA № 1131.**

Atamuratov Alimardon Abdirimovich (Matematika instituti Xorazm bo‘linmasi rahbari, f.-m.f.n., dots. e-mail: alimardon01@mail.ru),
Bekchanov Sardor Ergash o‘g‘li (Urganch davlat universiteti doktoranti; e-mail: bekchanovsardor1994@gmail.com),
Abdullayeva Zaynabxon Ganjaboy qizi (Urganch davlat universiteti magistranti; e-mail: zaynabxon2112@gmail.com)

PARABOLIK RIMAN SIRTLARIDA ANALITIK FUNKSIYALARNI YAQINLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada parabolik Riman sirtlarida maxsus potensial funksiya yordamida ko‘phad tushunchalari aniqlangan. Ko‘phadlari fazo analitik funksiyalari fazosida zich bo‘lgan maxsus parabolik Riman sirtlarida analitik funksiyalarni yaqinlashtirish masalasi o‘rganilgan. Polinomial qavariq kompaktlar uchun mashhur Runge teoremasining analogi isbot qilingan.*

Аннотация. *В данной работе дано определение полинома на параболических Римановых поверхностях с помощью специального функция исчерпания. Исследованы задачи полиномиальной аппроксимации аналитических функций на параболических римановых поверхностях с богатыми семействами полиномов. Для полиномиально выпуклых компактов доказывается аналог известной теоремы Рунге.*

Annotation. *In this paper, we give a definition of a polynomial on parabolic Riemann surfaces using a special exhaustion function. Problems of polynomial approximation of analytic functions on parabolic Riemann surfaces with rich families of polynomials are studied. For polynomially convex compact sets, an analogue of the well-known Runge theorem is proved.*

Kalit so‘zlar: *parabolik Riman sirti, Evans-Selberg potensiali, ko‘phadlar, polinomial qavariq to‘plamlar, regular parabolik Riman sirtlari.*

Ключевые слова: *параболическая риманова поверхность, потенциал Эванса-Сельберга, многочлены, полиномиальные выпуклые множества, регулярные параболические римановы поверхности.*

Key words: *Parabolic Riemann surface, Evans-Selberg potential, polynomials, polynomial convex sets, regular parabolic Riemann surfaces.*

Kirish. Bir bog‘lamli Riman sirtlari 3 xil turga bo‘linadi: elliptik, parabolik va giperbolik. Elliptik sirtlar yopiq bir bog‘lamli sirtlar bo‘lib, uniformatsiya teoremasiga ko‘ra, Riman sferasida akslantirish mumkin. Parabolik sirtlar kompleks tekislik $\left(\infty \;\; nuqtasiz\right)$ bilan konformal ekvivalent bo‘lib, giperbolik sirtlarni birlik doiraga konform akslantirilishi mumkin.

Biz ushbu tadqiqot ishida, umuman, parabolik Riman sirtlarida analitik funksiyalarni o‘rganamiz.

1-ta’rif. Agar $\mathbf{R}$ ochiq Riman sirtida o‘zgarmasdan farqli manfiy subgarmonik funksiyalar mavjud bo‘lmasa, bu Riman sirti parabolik deyiladi.

Parabolik bo‘lmagan barcha ochiq Riman sirtlari giperbolik deb ataladi.

Parabolik Riman sitlari uchun boshqa alternativ ta’riflar juda ko‘p, ular qyidagi tasdiqlarda o‘z aksini topadi.

1-teorema.[1] Quyidagi shartlardan biri bajarilgan Riman sirti parabolik bo‘ladi:

$\left(I\right)$ Maksimum prinsipi amal qiladi.

$\left(II\right)$ Grin funksiyasining mavjud emasligi.

Parabolik Riman sirtlarini tavsiflashda yana bir muhim jihatlardan biri bu maxsus potensial funksiyaning mavjud bo‘lishidir.

Evans-Selberg potensiali. $\mathbf{R}_0$ ochiq Riman sirti bo‘lsin.

Quyidagi 3 ta xossaga ega bo‘lgan $h\left(z\right)$ funksiya $\mathbf{R}_0$ Riman sirti uchun $\xi \in \mathbf{R}_0$ qutbli Evans-Selberg potensiali deb ataladi:

[1] Sario L., Nakai M. Classification theory of Riemann surfaces, Springer-Verlage Berlin-Heidelberg, 1970.

(a) h funksiya R_0 ochiq Riman sirtida garmonik, ξ nuqtadan tashqari.

(b) $h(z) - \log|z - \xi|$ funksiya ξ nuqtaning o‘yilgan atrofidan ξ nuqtaga garmonik ravishda davom etadi.

(c) z nuqta R_0 ochiq Riman sirtining Aleksandrov chegaraviy nuqtasi a_∞ nuqtaga intilsa, $h(z)$ funksiya ∞ nuqtaga intiladi.

2-teorema.[1] R_0 ochiq Riman sirti parabolik bolishi uchun, unda Evans-Selberg potensiali mavjud bo‘lishi zarur va yetarli.

Shunday qilib, har qanday parabolik Riman sirti $\mathbf{R}_0$ uchun shunday $h(z)$ potensial funksiya mavjud bo‘lib, bu funksiya bitta θ nuqtadan tashqarida garmonik va $\mathbf{R}_0$ ni barcha nuqtalarida subgarmonik bo‘ladi. $z \to \theta$ nuqtada $h(z) \sim \ln|z - \theta|$ ekvivalent bo‘lib, z nuqta $\mathbf{R}_0$ parabolik Riman sirtining chegarasiga intilsa, $h(z) \to \infty$. Bu degani $\forall c \in \mathbb{R}$ son uchun $\{h(z) < c\} \subset\subset \mathbf{R}_0$ munosabat bajariladi. Maxsus $h(z)$ potensial funksiyaning mavjud bo‘lishi parabolik Riman sirtlarida sodda funksiyalarni (ko‘phadlarni) aniqlash imkonini beradi. Parabolik Riman sirti $\mathbf{R}_0$ va unda aniqlangan $\rho(z)$ maxsus potensial funksiya berilgan bo‘lsin. $\mathcal{O}(\mathbf{R}_0)$ orqali $\mathbf{R}_0$ da aniqlangan barcha golomorf funksiyalar to‘plamini belgiaymiz.

2-ta’rif. Agar $f \in \mathcal{O}(\mathbf{R}_0)$ funksiya uchun shunday musbat c_f, d sonlar topilib, barcha $z \in \mathbf{R}_0$ uchun

$$|f(z)| \le c_f(1 + e^{\rho(z)})^d \tag{1}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda f funksiyaga ko‘phad deyiladi va yuqoridagi (1) tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun d sonlar orasidan eng kichigi ko‘phadning darajasi deyiladi. $\mathcal{P}_\rho(\mathbf{R}_0)$ orqali $\mathbf{R}_0$ Riman sirtida aniqlangan barcha ko‘phadlar fazosini belgilaymiz.

Har bir parabolik ko‘pxillikda ko‘phadlar to‘plami juda keng emas. Boshqa tomondan, parabolik ko‘pxilliklarning eng muhim misollari, analitik grafiklar,[2] Algebraik sirtlar[3] va ularning to‘ldiruvchilari,[4] ya’ni, bu misollarda ko‘phadlar fazosi analitik funksiyalar sinfida zich joylashishi isbot qilingan.(qarang [3], [4], [5]).

A.Sadullayev va A.Aytuna[5] tomonidan ko‘phadlar fazosi faqat o‘zgarmas funksiyalar bo‘lgan parabolik Riman sirtiga misol ko‘rsatilgan.

3-teorema. Shunday polar kompakt $K \subset \mathbb{C}$ va $\mathbb{C}$ kompleks tekislikda aniqlangan $u(z)$ subgarmonik funksiya mavjud bo‘lib, bu funksiya $\mathbb{C} \setminus K$ to‘plamda garmonik, $u|_K = -\infty$ hamda

---

[1] Sario L., Nakai M. Classification theory of Riemann surfaces, Springer-Verlage Berlin-Heidelberg, 1970.

[2] Atamuratov A., Turakhanov I. On regular parabolicity of complements of graphs of entire functions and polynomial basics, “Ilm Sarchashmalari”, 2021, № 3, pp. 7 – 13.

[3] A.S.Sadullayev, Kh.K.Kamolov. Green’s Function on a Parabolic Analytic Surface, J. Sib. Fed. Univ. Math. Phys., 2023, 16(2), p. 253 – 264.

[4] Atamuratov A. Polynomials on Regular Parabolic Manifolds. Contemporary Mathematics. Fundamental Directions. 2022, Vol. 68, № 1, p. 41 – 58. doi: 10.22363/2413-3639-2022-68-1-41-58

[5] Aytuna A., Sadullaev A. Polynomials on Parabolic Manifolds, Contemporary mathematics № 662, 2016, pp. 1–22 (arXiv:1504.08092v1 [math.CV] 30 Apr 2015).

$$\lim_{z\to K}\frac{u\left(z\right)}{\ln dist\left(z,K\right)}=0$$

tenglik bajariladi.

Regular bo‘lmagan parabolik Riman sirtiga misol. $W=\overline{\mathbb{C}}\setminus K$ ko‘phillikni ko‘rib chiqamiz, bu yerda K kompakt yuqoridagi teorema shartini qanoatlantiradi. Maxsus funksiya sifatida $\phi\left(z\right)=-u\left(z\right)$ ni qaraymiz. U holda $\phi\left(z\right)$ funksiya $W\setminus\left\{\infty\right\}$ to‘plamda garmonik, $\phi\left(\infty\right)=-\infty$ va $z\to K$ da $\phi\left(z\right)\to\infty$. Shuning uchun $\left(W,\Phi\right)=\mathbf{R}_{\mathbf{0}}$ parabolik. W to‘plamdagi ko‘phadlar f golomorf funksiya bo‘lib, ular uchun $\ln\left|f\right|\le C+d\phi\left(z\right),\quad d\in\mathbb{N}$ o‘rinli bo‘ladi. Bunda Koshining integral formulasi yordamida maxsus kuchli baholashlar yordamida shunga o‘xshash funksiyalarning trival ekanligi ko‘rsatiladi, ya’ni $f=const$. Bundan kelib chiqadiki, W to‘plamda notrival ko‘phadlar yo‘q, demak W noregulardir.

3-ta’rif. Agar $\overline{\mathcal{P}_{\rho}(\mathbf{R}_0)}=\mathcal{O}(\mathbf{R}_0)$ munosabat bajarilsa, u holda $\mathbf{R}_0$ parabolik Riman sirti regular deyiladi.

Regular parabolik Riman sirtlarida Polinomial qavariq to‘plamlar

$(\mathbf{R}_0,\rho)$ regular parabolik Riman sirti bo‘lsin. $K\subset\mathbf{R}_0$ kompakt uchun $\hat{K}$ orqali $\mathcal{P}_{\rho}-$ qavariq qobig‘ini belgilaymiz va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\hat{K}:=\left\{z\in\mathcal{P}_{\rho}:\ \left|P(z)\right|\le\left\|P(z)\right\|_K,\ \ \forall P(z)\in\mathcal{P}_{\rho}(\mathbf{R}_0)\right\}.$$

4-ta’rif. Agar $K\subset\mathbf{R}_0$ to‘plam uchun $\hat{K}=K$ tenglik bajarilsa, u holda bu to‘plamga $\mathcal{P}_{\rho}-$qavariq to‘plam deyiladi.

Polinomial qavariq to‘plamlarining ushbu xossasi juda muhim hisoblanadi.

4-teorema. $(\mathbf{R}_0,\rho)$ regular parabolik Riman sirtining qismi bo‘lgan $K\subset\mathbf{R}_0$ to‘plam $\mathcal{P}_{\rho}-$ qavariq bo‘lishi uchun ixtiyoriy $z^0\in\mathbf{R}_0\setminus K$ nuqta olinganda ham shunday $P(z)\in\mathcal{P}_{\rho}(\mathbf{R}_0)$ polinom topilib, $\left\|P(z)\right\|_K\le\frac{1}{2}$ va $\left|P(z^0)\right|>2$ tengsizliklar bajarilishi zarur va yetarli.

Isbot. Zarurligi. $K\subset\mathbf{R}_0$ to‘plam $\mathcal{P}_{\rho}-$qavariq bo‘lsin. U holda har bir $z^0\in\mathbf{R}_0\setminus K$ uchun shunday $Q(z)$ polinom topilib, $\left\|Q(z)\right\|_K<\left|Q(z^0)\right|$ bo‘ladi. Biz ushbu $T(z)=\frac{1}{\left\|Q(z)\right\|_K}Q(z)$ funksiyani olamiz va $\left\|T(z)\right\|_K=1<\left|T(z^0)\right|$ bo‘ladi. U holda shunday $m\in\mathbb{N}$ son topilib, $\left|T(z^0)\right|^m>4$ bo‘ladi va agar ushbu $P(z)=\frac{1}{2}\left(T(z)\right)^m$ polinomni olsak $P(z)$ teorema shartlarini qanoatlantiradi.

Yetarliligi. Tasdiqning yetarliligi trivial bo‘lib, yuqoridagi, $\left\|P(z)\right\|_K \le \frac{1}{2}$ va $\left|P(z^0)\right| > 2$ shart bajariladigan hech bir nuqta $\mathcal{P}_\rho$ −qavariq qobiqda yotmaydi va har bir $z^0 \in \mathbf{R}_0 \setminus K$ nuqta uchun $z_0 \notin \hat{K}$ bo‘ladi, demak, $\hat{K} = K$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu ishning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

5-teorema. $(\mathbf{R}_0, \rho)$ regular parabolik Riman sirti va $\mathcal{P}_\rho$ −qavariq kompakt to‘plam $K \subset \mathbf{R}_0$ berilgan bo‘lsin. Agar $f\left(z\right)$ funksiya K to‘plamning biror atrofida golomorf bo‘lsa, u holda $\forall \varepsilon > 0$ son uchun shunday $P\left(z\right) \in \mathcal{P}_\rho(\mathbf{R}_0)$ ko‘phadlar ketma-ketligi topilib,

$$\left\|f\left(z\right) - P\left(z\right)\right\|_K < \varepsilon$$

bo‘ladi.

Isbot. $K \subset \mathbf{R}_0$ polinomial qavariq kompakt to‘plam bo‘lib, $U \supset K$ atrofda golomorf $f \in \mathcal{O}\left(U\right)$ funksiya berilgan bo‘lsin. holda shunday $P_1, P_2, P_3, ..., P_N$ ko‘phadlar sistemasini topilib, $\left\|P_j\right\|_K < 1,\ j = 1,2,...,N$ va $\forall \xi \in \partial U$ uchun $\max\limits_{j=1,N}\left\{\left|P_j(\xi)\right|\right\} > 1$ bo‘ladi. Bunga yuqoridagi 4-teoremani qo‘llash orqali erishishimiz mumkin. Haqiqatan ham, agar ∂U chegarani hamma yerida zich bo‘lgan $\xi_1, \xi_2, ..., \xi_n, ...$ sanoqli sondagi nuqtalarni tanlab olsak, u holda yuqorida 4-teoremaga ko‘ra bu nuqtalarning har biri uchun mos ravishda $P_{\xi_j}(z) \in \mathcal{P}_\rho(\mathbf{R}_0),\ j = 1,2,3,...$ funksiyalar topiladi va $\left\|P_{\xi_j}(z)\right\|_K \le \frac{1}{2}$ va $\left|P_{\xi_j}(\xi_j)\right| > 2$ tengsizliklar bajariladi. Biz U_j orqali $\left|P_{\xi_j}(z)\right| > 2$ tengsizlik bajariladigan ochiq to‘plamlarni belgilaymiz. U holda $\{U_j\}$ sistema ∂U uchun ochiq qoplama bo‘ladi. ∂U kompakt ekanidan $\{U_j\}$ni qoplaydigan chekli $\{U_{j_k}\}, k = 1,2,...,n$ qoplama ajratish mumkin. Demak, biz $P_k(z) = P_{\xi_{j_k}}(z),\ k = 1,2,...,n$ deb olsak, yuqoridagi shart bajariladi.

Endi $\pi = \left(P_1, P_2, ..., P_N\right)$ akslantirish olaylik. $P : \mathbf{R}_0 \to \mathbb{C}_w^N$ bo‘lib, bu akslantirishda

$$\Pi = \left\{z \in \mathbf{R}_0 : \left|P_1\right| < 1, \left|P_2\right| < 1, ..., \left|P_N\right| < 1\right\} \subset\subset U \subset \mathbf{R}_0$$

$\mathbb{C}_w^N$ fazodagi $W = \left\{w = (w_1, w_2, ..., w_N) \in \mathbb{C}_w^N : \left|w_1\right| < 1, \left|w_2\right| < 1, ..., \left|w_N\right| < 1\right\}$ birlik polidoiraning ichidagi biror yopiq $A \subset W$ analitik sirtga akslanadi. Agar zarur bo‘lgan hollarda ko‘phadlarimiz sonini oshirib, ya’ni, yana yetarlicha ko‘phadlar qo‘shib, bu akslantirish xos akslantirish bo‘lishini ta’minlash mumkin. Boshqa tomondan, $f \in \mathcal{O}\left(\mathcal{P}_\rho\right)$ funksiya ham $A \subset W$ analitik sirt

ustida aniqlangan golomorf funksiyadan iborat bo‘ladi. Bundan Oka va Kartanning[1] golomorf davom ettirirsh haqidagi teoremasiga ko‘ra, shunday $g(w) = g(w_1, w_2, \ldots, w_N) \in \mathcal{O}(W)$ golomorf funksiya topilib, $f(z) = g(\pi(z))$ tenglik bajariladi.

Biz g golomorf funksiyani karrali darajali qatorga yoyamiz.

$$g(w) = \sum_{|k|=0}^{\infty} c_k w_1^{k_1} w_2^{k_2} \ldots w_N^{k_N}$$

Bu yerda $k = (k_1, k_2, \ldots, k_N),\ k_j \in \{0,1,2,\ldots\}$ multindekslar va $|k| = k_1 + k_2 + \ldots + k_N$ bo‘lib, bu qator W polidoiraning har bir kompakt qismida absolyut va tekis yaqinlashuvchi bo‘ladi. $K \subset\subset \Pi$ ekanidan $\pi(K) \subset\subset W$ bo‘ladi va ushbu

$$f = g(\pi(z)) = \sum_{|k|=0}^{\infty} c_k P_1^{k_1} P_2^{k_2} \ldots P_N^{k_N}$$

Qator K da absolut va tekis yaqinlashishi kelib chiqadi. Demak, har qanday $\varepsilon > 0$ son uchun, shunday m no‘mer topilib,

$$\left\| f - \sum_{|k|=0}^{m} c_k P_1^{k_1} P_2^{k_2} \ldots P_N^{k_N} \right\|_K < \varepsilon$$

Agar biz $P(z) = \sum_{|k|=0}^{m} c_k P_1^{k_1} P_2^{k_2} \ldots P_N^{k_N}$ funksiyani polinom bo‘lishini hisobga olsak teorema to‘liq isbot bo‘lganini ko‘ramiz.

Bozorov Zavqiddin Ravshanovich (katta ilmiy xodim, PhD; e-mail: zavqiddinbozorov2011@mail.ru),
Oltiyev Azizbek Bayramovich (stajyor-tadqiqotchi; e-mail: azizbekolot1993@gmail.com)

KIMYODA MATEMATIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Bizga ma’lumki, ikkita eritmani aralashtirib uning foiz konsentratsiyasini topish masalasining bir necha usullari bor. Ushbu maqolada bir necha marta quyishdan hosil bo‘lgan aralashmaning foiz konsentratsiyasini topish masalalarini qaraymiz.*

Аннотация. *Как известно, существует несколько способов нахождения процентной концентрации двух растворов путем их смешивания. В данной статье мы рассмотрим задачи нахождения процентной концентрации смеси, образовавшейся после нескольких переливаний.*

Annotation. *It is known that there are several ways to find the percentage concentration of two solutions by mixing them. In this article, we will consider the problem of finding the percentage concentration of a mixture formed after several overflows.*

Kalit so‘zlari: *foiz, konsentratsiya, aralashma, eritma, tasavvur, ko‘nikma, qobiliyat.*

Ключевые слова: *процент, концентрация, смесь, раствор, воображение, умение.*

Key words: *percentage, concentration, mixture, solution, imagination, skill, ability.*

Kimyo fanini o‘rganish, ayniqsa, unga doir masalalarni bajarish uchun kimyoviy bilim bilan bir qatorda, matematik bilimlarni ham bilishlari talabalarning kimyoviy jarayonlar haqidagi tasavvurini kengaytiradi, darsga faolligini oshiradi, kimyoga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Har xil ko‘rinishdagi masalalar talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ayniqsa, ularni kimyoviy usullardan boshqa matematik usullarni qo‘llab ishlaganda dunyoqarashini kengaytiradi. Masalalar o‘quvchilarga kimyoviy tushunchani

[1] F.Forstnerič Stein manifolds and holomorphic mappings (The homotopy principle in complex analysis), volume 56 of Ergebnisse der Mathematik und ihrer Grenzgebiete. 3. Folge. A Series of Modern Surveys in Mathematics. Springer, Cham, second edition, 2017.

shakllantirishga, hayotni kimyo bilan bog‘lashga, kimyoning nazariy asoslarining keng qo‘llash usullarini topib, yuqori natijalar olishlari mumkin.

Kimyo fanini o‘zlashtirishda eng muhim bo‘limlardan biri bo‘lgan eritmalar bo‘limini o‘rganish davomida olingan bilimlarni masalalar yechish yordamida ham mustahkamlash maqsadga muvofiq, bunda “oddiydan murakkabga” tamoyili qo‘llaniladi. Odatda, kimyoga doir masalalarni to‘g‘ri bajara olish uchun, birinchi navbatda, nazariy bilim, kimyoning asosiy tushunchalari, qonunlari, moddalarning xossalari hamda kimyoviy tenglama va formulalarni bilish talab etiladi [1]. Kimyoga doir masalalarni muntazam ravishda yechib borish olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Aynan kimyo fani boshqa fanlardan farqli ravishda, biroz murakkab hisoblanadi, chunki bu fanni chuqur o‘rganish uchun ham nazariy, ham tasavvur qobiliyati bo‘lishi zarur. Kimyo darsida nazariy ma’lumotlarni o‘rganish bilan birga doimo parallel ravishda turli xil usulda bajariladigan masalalar yechib boriladi. Kimyo kursi faqatgina nazariy emas, balki amaliy ko‘nikma hamda masalalar yechishni o‘rganishni talab qiladi.

Kimyoning hisoblanadigan masalalarini, shartli ravishda, ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin.

1) kimyoviy formulalar asosida yechish;

2) reaksiya tenglamalari bo‘yicha yechish.

Lekin masalalarning shart va mazmunlari turlicha bo‘lishi mumkin [2]. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kimyodan mustahkam bilimga ega, matematikadan yaxshi tayyorgarligi bor bo‘lgan ko‘pchilik talabalar uchun hisoblanadigan masalalarni yechish uncha qiyinchilik tug‘dirmaydi [3]. Shunday bo‘lsa-da, barcha talabalar uchun qiyinchilik tug‘diradigan va ularni yechish usullarini o‘zlashtirish uchun uzoq mashq talab qilinadigan ayrim masalalar ham bor [4], [5]. Masalan, eritmalarni bir necha marta quyish natijasida eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlash bilan bog‘liq masalalar shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada bir necha marta quyishda eritma foiz konsentratsiyasini ifodalashga oid masalarni qaraymiz. Bu turdagi masalalar matematikadan masalalar to‘plamlarida ham ko‘plab uchraydi [6], [8].

1-masala. Sof glitserin bilan to‘ldirilgan idishdan bir litr glitserin olinib, o‘rniga bir litr suv qo‘shildi. Aralashtirgandan so‘ng, aralashmaning bir litri olinib, o‘rniga bir litr suv qo‘shildi. Natijada u idishdagi suv miqdori undagi glitserin miqdoridan 3 baravar ko‘p bo‘lib qoldi. Shundan so‘ng idishda necha litr glitserin va suv bo‘ldi?

Yechish. Idishdagi glitserin hajmi $x\ l$ bo‘lsin. Birinchi marta uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\cdot 100\% + 1\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\%,$$

bunda hosil bo‘lgan aralashmadagi glitserin konsentratsiyasi hosil bo‘ladi. Endi ikkinchi jarayon uchun aralashma konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\% + 1\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-1}{x}\right)^2\cdot 100\%,$$

bundan esa $x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\ l$ aralashmadagi glitserin miqdori, $x - x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\ l$ aralashmadagi suv miqdorini aniqlaymiz va shartga ko‘ra, quyiqagi tenglamani tuzamiz:

$$\frac{x - x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^2}{x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^2} = 3.$$

Tenglamani yechib, $x = 1{,}5\ l$ ekanini aniqlaymiz va aralashmadagi glitserin $\frac{1}{6}\ l$, suv $\frac{4}{3}\ l$ ni topamiz.

Javob. Glitserin hajmi $\frac{1}{6}\ l$, suv hajmi $\frac{4}{3}\ l$.

Keyingi masalada shu jarayonni uch marta bajargan hol uchun yechamiz.

2-masala. Sof glitserin bilan to‘ldirilgan idishdan bir litr glitserin olinib, o‘rniga bir litr suv qo‘shildi. Aralashtirgandan so‘ng, aralashmaning bir litri olinib, o‘rniga bir litr suv qo‘shildi. Keyin yana bir bor shu jarayon bajarildi. Natijada idishdagi suv miqdori undagi glitserin miqdoridan 7 baravar ko‘p bo‘lib qoldi. Amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida idishga necha litr glitserin va suv bo‘ldi?

Yechish. Idishdagi glitserin hajmi $x\ l$ bo‘lsin. Birinchi marta uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\%,$$

endi ikkinchi jarayon uchun aralashma konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\cdot 100\%,$$

yana bir bor uchinchi jarayonga ham qo‘llaymiz:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)^3\cdot 100\%,$$

topilgandan foydalanib, $x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^3$ l aralashmadagi glitserin miqdori,

$x-x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^3$ l aralashmadagi suv miqdorini aniqlaymiz va shartga ko‘ra, quyiqagi tenglamani tuzamiz:

$$\frac{x-x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^3}{x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^3}=7.$$

Tenglamani yechib, $x=2$ l ekanini aniqlaymiz va aralashmadagi glitserin $\frac{1}{4}$ l, suv $\frac{7}{3}$ l ni topamiz.

Javob. Glitserin hajmi $\frac{1}{4}$ l, suv hajmi $\frac{7}{3}$ l.

Endi shu jarayonni n marta bajarganda yechamiz.

3-masala. Glitserin solingan idishdan 1 litr glitserin olinib, o‘rniga 1 litr suv qo‘shildi, keyin aralashmadan 1 litr olinib, yana 1 litr suv qo‘shildi va hokazo (n marta), shundan keyin glitserin hajmining aralashmadagi suv hajmiga nisbati K ga teng bo‘ldi. Dastlab, idishda qancha glitserin bor edi?

Yechish. Idishdagi glitserin hajmi x l bo‘lsin. Birinchi marta uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\%,$$

endi ikkinchi jarayon uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\cdot 100\%,$$

yana bir bor uchinchi jarayonga ham qo‘llaymiz:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)^2\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)^3\cdot 100\%,$$

va hokazo $n-$ marta uchun:

$$\frac{(x-1)\left(\frac{x-1}{x}\right)^{n-1}\cdot 100\%+1\cdot 0\%}{x}=\left(\frac{x-1}{x}\right)^n\cdot 100\%,$$

topilgandan foydalanib, $x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^n$ l aralashmadagi glitserin hajmi,

$x-x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^n$ l aralashmadagi suv hajmini aniqlaymiz va shartga ko‘ra, quyiqagi tenglamani tuzamiz:

$$\frac{x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^n}{x-x\cdot\left(\frac{x-1}{x}\right)^n}=K.$$

Tenglamani yechib, $x=\frac{1}{1-\sqrt[n]{\frac{K}{1+K}}}$ l ekanini aniqlaymiz.

Javob. Dastlab, glitserin $\frac{1}{1-\sqrt[n]{\frac{K}{1+K}}}$ l ekan.

Yuqoridagi masalalarda quyishlar uchun hajm 2 l bo‘lsin.

4-masala. Glitserin bilan to‘ldirilgan idishdan 2 litr glitserin olinib, o‘rniga 2 litr suv qo‘shildi. Aralashtirgandan so‘ng, aralashmaning 2 litri olinib, o‘rniga yana 2 litr suv qo‘shildi. Nihoyat, yana bir bor shu jarayon bajarildi. Ushbu operatsiyalar natijasida idishdagi suv hajmi undagi glitserin hajmidan 3 litr ko‘p bo‘ldi. Bu quyishlardan so‘ng idishda qancha litr glitserin va suv bo‘ldi?

Yechish. Idishdagi glitserin hajmi $x\ l$ bo‘lsin. Birinchi marta uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-2)\cdot 100\% + 2\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-2}{x}\right)\cdot 100\%,$$

endi ikkinchi holat uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-2)\left(\frac{x-2}{x}\right)\cdot 100\% + 2\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-2}{x}\right)^2\cdot 100\%,$$

yana bir bor uchinchi holat uchun aralashmadagi glitserin konsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{(x-2)\left(\frac{x-2}{x}\right)^2\cdot 100\% + 2\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-2}{x}\right)^3\cdot 100\%,$$

oxirgi hosil bo‘lgan aralashma uchun uning tarkibidagi glitserin hajmi $x\cdot\left(\frac{x-2}{x}\right)^3\ l$ ga teng, suv hajmi esa $x - x\cdot\left(\frac{x-2}{x}\right)^3\ l$ ga teng. Bulardan foydalanib, shartga ko‘ra, quyiqagi tenglamani tuzamiz:

$$x - x\cdot\left(\frac{x-2}{x}\right)^3 = x\cdot\left(\frac{x-2}{x}\right)^3 + 3\,.$$

Tenglamani yechib, $x = 4$ natijaga ega bo‘lamiz, bundan glitserin hajmi $\frac{1}{2}\ l$, suv hajmi $\frac{7}{2}\ l$ ekanini aniqlaymiz.

Javob. Glitserin hajmi $\frac{1}{2}\ l$, suv hajmi $\frac{7}{2}\ l$.

Endi yuqorida keltirilgan masalalarni umumiy holat uchun yechamiz.

5-masala. A sof modda solingan idishdan a litr olinib, unga a litr suv qo‘shildi, keyin hosil bo‘lgan aralashmadan a litr olinib, yana a litr suv qo‘shildi va hokazo n martadan keyin hosil bo‘lgan aralashmadagi A modda hajmining undagi suv hajmiga nisbati K ga teng bo‘ldi. Dastlab, idishda necha litr A modda bo‘lgan.

Yechish. Idishdagi A modda hajmi $x\ l$ bo‘lsin. Ushbu masalani ham yuqoridagi masalalar kabi qaraymiz:

$$1)\quad \frac{(x-a)\cdot 100\% + a\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-a}{x}\right)\cdot 100\%,$$

$$2)\quad \frac{(x-a)\left(\frac{x-a}{x}\right)\cdot 100\% + a\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-a}{x}\right)^2\cdot 100\%;$$

$$3)\quad \frac{(x-a)\left(\frac{x-a}{x}\right)^2\cdot 100\% + a\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-a}{x}\right)^3\cdot 100\%;$$

$$\ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots\quad \ldots$$

$$n)\quad \frac{(x-a)\left(\frac{x-a}{x}\right)^{n-1}\cdot 100\% + a\cdot 0\%}{x} = \left(\frac{x-a}{x}\right)^n\cdot 100\%,$$

$n-$ martadan keyin aralashmadagi A modda hajmi $x\cdot\left(\frac{x-a}{x}\right)^n\ l$, suv hajmi $x - x\cdot\left(\frac{x-a}{x}\right)^n\ l$ ekanidan masala shartiga ko‘ra, quyiqagi tenglamani tuzamiz:

$$\frac{x\cdot\left(\frac{x-a}{x}\right)^n}{x - x\cdot\left(\frac{x-a}{x}\right)^n} = K\,.$$

Hosil bo‘lgan tenglamani yechib, $x = \frac{a}{1-\sqrt[n]{\frac{K}{1+K}}}\ l$ natijani topamiz.

Javob. A modda hajmi $\frac{a}{1-\sqrt[n]{\frac{K}{1+K}}}\ l$ ekan.

Bu turdagi masalalarni yechishda har bir aralashma uchun har gal aralashma konsentratsiyasini topish kerak va bu hisoblashlar vaqt talab qiladi. Bu hisoblashlarni kamaytirish uchun matematik bilimlarimizdan foydalanamiz, ya'ni murakkab foiz formulasini qo'llash mumkin. Chunki A sof moddadan har safar suv qo'shilgani sabab aralashmaning konsentratsiyasi kamayadi, ya'ni $\frac{a}{x}\cdot 100\%$ ga buni n martadan keyin uchun qarasak:

$$B = x\left(1-\frac{\frac{a}{x}\cdot 100}{100}\right)^{n},$$

ekanligidan

$$B = x\left(1-\frac{a}{x}\right)^{n},$$

natijaga ega bo'lamiz bu esa oxirgi masalamizning aralashmadagi A modda hajmiga tengdir. Yuqorida keltirilgan $B-n$ marta aralashtirilgandan keyingi A modda hajmi. Bu formuladan foydalanish modda miqdorini bir qadamning o'zida topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Masharipov, I.Tirkashev. Kimyo. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, T., "O'qituvchi", 2014, 320-bet.

2. G.G'.Sadullayeva, S.A.Karimova. Eritmalar konsentratsiyasini ifodalash bo'yicha masalalar yechish usullari. Innovative, educational, natural and social sciences (March 2022).

3. Qodirova Zulfiya Kobilovna. Organik kimyodan aralashmalarga doir masalalar yechish. Zamonaviy jamiyatda fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2021-yil 19-oktabr).

4. I.R.Asqarov, M.A.Baxodirova, K.F.G'ofirov. Kimyodan masalalar va mashqlar yechish usullari. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010, 232-bet.

5. I.A.Toshev, I.I.Ismoilov, R.R.Ro'ziyev. Anorganik kimiyodan mashq va masalalar to'plami. T., "O'qituvchi", 2003, 288-bet.

6. Шарыгин И.Ф. Факультативный курс по математике. Решение задач. Учеб. пособие для 10 кл. сред. школа, Москва, «Просвещение», 1989, с. 355.

7. В.Н.Литвиненко, А.Пмордкович. Практикум по элементарной математике, алгебре, тригонометрии. Учебное пособие для студентов физико-математических специальностей педагогических институтов и читателей, Москва, «Просвещение», 1991, с. 35.

8. Umid Ismoilov. Matnli masalalarning turlari va ularni yechish usullari (oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun matematikadan qo'llanma). III kitob, Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2008.

Qurbanov Davron Shavkatovich (UrDU; davronkurbanow89@gmail.com),
Bekchanov Munisbek Mahmudovich (UrDU magistranti),
Yakubov Komlijon Ruzmetovich (UrDU),
Karajanov Smagul Jangaberganovich (Norvegiya Energiya texnologiyalari instituti katta ilmiy xodimi)

α-Al_2O_3 QOPLAMASI YORDAMIDA CdTe/Se YUPQA QATLAMLI QUYOSH ELEMENTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida SCAPS-1D dasturida α-Al_2O_3 qoplamali va qoplamasiz CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementlari samaradorligiga o'zgaruvchan Se qalinligining ta'sirini o'rganish uchun nazariy hisob-kitoblar amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementlarining samaradorligi Se qalinligi oshishi bilan pasaydi. Biroq α-Al_2O_3 qoplamasini qo'llash orqali quyosh elementlari samaradorligining oshishi kuzatildi.*

Аннотация. *В данной исследовательской работе были проведены теоретические расчеты в программе SCAPS-1D для изучения влияния различной толщины Se на эффективность тонкопленочных солнечных элементов CdTe/Se с покрытием из α-Al_2O_3 и без него. Результаты показали, что эффективность тонкопленочных солнечных элементов CdTe/Se снижается с увеличением толщины Se. Однако увеличение эффективности солнечных элементов наблюдалось при использовании покрытия α-Al_2O_3.*

Annotation. *In this research work, theoretical calculations were performed in SCAPS-1D program to investigate the effect of varying Se thickness on the efficiency of CdTe/Se thin film solar cells with and without α-Al_2O_3 coating. The results showed that the efficiency of CdTe/Se thin film solar cells decreases*

with increasing Se thickness. At the same time, an increase in the efficiency of solar cells was observed using the α-Al_2O_3 coating.

***Kalit so'zlar**: CdTe/Se, yupqa qatlamli quyosh batareyalari, α-Al_2O_3 qoplamasi, samaradorlik, Se qalinligi o'zgarishi, SCAPS-1D.*


***Ключевые слова:** CdTe/Se, тонкопленочные солнечные элементы, покрытие α-Al_2O_3, эффективность, изменение толщины Se, SCAPS-1D.*

***Key words:** CdTe/Se, thin film solar cells, α-Al_2O_3 coating, efficiency, Se thickness variation, SCAPS-1D.*

Kirish. Yupqa plonkali quyosh elementlaridan foydalanish ularning tejamkor va samarali tabiati tufayli ortib bormoqda. CdTe/Se yupqa plonkali quyosh batareyalari tijoratlashtirish uchun eng istiqbolli materiallardan biri hisoblanadi. Biroq bu CdTe/Se yupqa quyosh elementlari samaradorligining atrof-muhit ta'siriga bardoshli emasligi va haroratga sezgirligi tufayli ularni an'anaviy kremniy quyosh elementlari kabi qo'llash imkoniyatini bermaydi. Bunday muammoni hal qilishda elementlar yuzasini tashqi muhit ta'siriga bardoshli va yorug'lik nurini yaxshi o'tkazuvchi α-Al_2O_3 qoplash orqali erishish mumkin.

Ushbu maqolada Se qalinligi o'zgarishining CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementlarini α-Al_2O_3 qoplanishidan oldin va keyingi samaradorligiga ta'siri o'rganildi.

Metodologiya. Nazariy hisob-kitoblar SCAPS-1D dasturi yordamida amalga oshirildi. CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementida turli xil Se qalinligi bilan 10 nm.dan 100 nm.gacha bo'lgan oraliqda modellashtirildi (1-rasm). Yupqa CdTe/Se quyosh elementida α-Al_2O_3 qoplamasi qo'llanilishidan oldin va keyingi samaradorlik hisoblangan. Modellashtirish parametrlari har bir qatlamning taqiqlangan zona kengligi, kirishma konsentratsiyasi va qalinliklari eksperimental sharoitlarga mos keladigan tarzda tanlandi (1-jadval) [1.2.3.4.5.6.7.8].



1-rasm. CdTe/Se va CdTe/Se/Al_2O_3 qatlami yupqa quyosh elementlari.

1-jadval

SCAPS-1Dda nazariy hisoblashlarni bajarish uchun ishlatiladigan simulatsiya parametrlari (T=300K)

Parametrlar	Al_2O_3	Se	CdTe
Qalinlik **(nm)**	80 [14]	10-100	2000
Dielektrik singdiruvchanlik	9[10,11,12]	10	9.4
Elektron yaqinligi **(eV)**	3 [9]	4	3.9
Taqiqlangan zona kengligi **(eV)**	8.8[13]	1.95	1.5
O'tkazuvchanlik zonasidagi holatlar zichligi **(1/cm^3)**	-	$2\cdot10^{18}$	$8\cdot10^{18}$
Valent zonasidagi holatlar zichligi (1/cm^3)	-	$3\cdot10^{17}$	$1.8\cdot10^{19}$
Elektron harakatchanligi (cm^2/Vs)	-	$5.1\cdot10^{6}$	$3.20\cdot10^{2}$
Kovak harakatchanligi (cm^2/Vs)	-	20	40
Elektron termal issiqlik harakat tezligi (cm/s)		$1.00\cdot10^{7}$	$1.00\cdot10^{7}$
Kovak termal issiqlik harakat tezligi (cm/s)		$1.00\cdot10^{7}$	$1.00\cdot10^{7}$

Donor konsentratsiyasi ($1/cm^3$)	-	$1.00 \cdot 10^{15}$	$1.00 \cdot 10^{17}$
Akseptor konsentratsiyasi ($1/cm^3$)	-	$1.00 \cdot 10^{5}$	0.00

Natijalar va muhokama. Modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Cd/Tee yupqa plonkali quyosh batareyalarining samaradorligi α-Al_2O_3 qoplamasidan oldin Se qalinligi oshishi bilan kamaydi. Eng yuqori samaradorlik 10 nm Se qalinligi bilan erishildi, bu tajriba natijalariga mos keladi. α-Al_2O_3 qoplamasini qo‘llashdan so‘ng, quyosh batareyalarining samaradorligi barcha Se qalinligi uchun sezilarli darajada oshdi (2-jadval). Aluminiy oksid qoplangandan keyin samaradorlik 5%ga oshdi.

2-jadval

CdTe/Se yupqa quyosh elementining α-Al_2O_3 bilan qoplanmasidan oldin va keyingi holatdagi Se qalinligining o‘zgarishiga samaradorlikning bog‘liqligi

Qalinlik (Se(nm))	CdTe/Se/ Al_2O_3 (η(%))	CdTe/Se (η(%))
10	21,87	16.87
20	21.68	16.68
30	21.53	16.53
40	21.39	16.39
50	21.28	16.28
60	21.18	16.18
70	21.09	16.09
80	21.01	16.01
90	20.93	15.93
100	20.87	15.87

α-Al_2O_3 qoplamasidan keyin samaradorlikning oshishi bir necha omillar bilan bog‘liq bo‘ldi. Birinchidan, qoplama zaryad tashuvchilarning rekombinatsiya tezligini pasaytirdi [15]. Ikkinchidan, qoplama quyosh batareyalarining yorug‘likni kam akslantirish qobiliyatini oshiradi, bu esa qisqa tutashuv tokining zichligini oshiradi [14]. Uchinchidan, qoplama sirt kamchiliklarini kamaytiradi, bu esa zaryad tashuvchilar hosil bo‘lishini oshiradi [16.17].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementlarining samaradorligi α-Al_2O_3 qoplamalarini qo‘llash orqali yaxshilandi. Qoplama bilan qoplangandan keyin samaradorlik 5% ga oshdi. Samaradorlikning oshishi rekombinatsiya tezligining pasayishi, yorug‘likni kam akslanishi va interfeys sifatining yaxshilanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu tadqiqot natijalari CdTe/Se yupqa plonkali quyosh elementlarini oldindan loyihalash va optimallashtirish uchun zarur ma’lumotlarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Burgelman, P.Nollet and S.Degrave. Modelling polycrystalline semiconductor solar cells. Thin Solid Films, pp. 361-362; 527-532, 2000. This is the basic reference for SCAPS (Full text, pdf).
2. M.Burgelman, K.Decock, S.Khelifi and A.Abass. Advanced electrical simulation of thin film solar cells. Thin Solid Films, 535, 2013; pp. 296 – 301.
3. K.Decock P.Zabierowski M. Burgelman, Modeling metastabilities in chalcopyrite-based thin film solar cells. Journal of Applied Physics, 111 (2012), 043703.
4. K.Decock, S.Khelifi and M.Burgelman. Modelling multivalent defects in thin film solar cells. Thin Solid Films, 519, 2011, 7481–7484.
5. M.Burgelman and J.Marlein. Analysis of graded band gap solar cells with SCAPS. Proceedings of the 23rdEuropean Photovoltaic Solar Energy Conference (Valencia, E, September 2008), 2151-2155, WIP, München, 2008, This describes graded solar cells, introduced in SCAPS2.8..
6. J.Verschraegen and M.Burgelman. Numerical modeling of intra-band tunneling for heterojunction solar cells in SCAPS. Thin Solid Films, 515 (15), 6276–6279. 2007 (This describes tunneling, introduced in SCAPS2. 7 .
7. S.Degrave, M.Burgelman, P.Nollet. Modelling of polycrystalline thin film solar cells: new features in SCAPS version 2.3. Proceedings of the 3rd World Conference on Photovoltaic Energy Conversion (Osaka, Japan, may 2003), pp. 487 – 490, WCPEC-3, Osaka, 2003.
8. A.Niemegeers and M.Burgelman. Numerical modelling of ac-characteristics of CdTe and CIS solar cells. Proc. 25nd IEEE Photovol-taic Specialists Conference (Washington D.C., april 1996), pp. 901–904, IEEE, New-York, 1996.

9. Electron-affinity and surface-stability of aluminium-oxide terminated diamond surfaces. J.M.A.Beattie, J.P.Goss, M.J.Rayson, P.R.Briddon. Diamond and Related Materials Volume 94, April 2019, pages 137–145

10. Materials Science and Engineering B 106 (2004), 269–274 Studies on optical and dielectric properties of Al_2O_3 thin films prepared by electron beam evaporation and spray pyrolysis method. K.S.Shamala, L.C.S. Murthy, K. Narasimha Rao.

11. Studies on optical and dielectric properties of Al_2O_3 thin films prepared by electron beam evaporation and spray pyrolysis method February 2004Materials Science and Engineering B 106 (3):269–274 DOI: 10.1016. j.mseb.2003.09.036, K.S.ShamalaL, C.S.MurthyK. Narasimha RaoK. Narasimha Rao.

12. Thickness Dependence of the Physical Properties of Atomic-Layer Deposited Al_2O_3 Yael Etinger-Geller, Ekaterina Zoubenko, Maria Baskin, Lior Kornblum and Boaz Pokroy.

13. Elucidating the high-k insulator α-Al_2O_3 direct/indirect energy band gap type through density functional theory computations.R.C.R.Santos, E.Longhinotti, V.N.Freire, R.B.Reimberg, E.W.S.Caetano . Chemical Physics Letters Volume 637, 16 September 2015, pages 172–176. Chemical Physics Letter.

14. Silicon solar cells with Al_2O_3 antireflection coating Research Article Leszek A. Dobrzański, Marek Szindle , Aleksandra Drygała, Magdalena M. Szindler.

15. Recombination velocity less than 100 cm/s at polycrystalline Al2O3/CdSeTe interfaces. Darius Kuciauskas, Jason M.Kephart, John Moseley, Wyatt K. Metzger, Walajabad S. Sampath, Pat Dippo.

16. CdTe surface passivation by electric field induced at the metal-oxide/CdTe interface. Lingling Wu, Zihan Li , Dongming Wang , Xunyong Lei , Yanbo Cai , Hualing Zeng , Peng Zhu , Deliang Wang . Solar Energy Volume 225, 1 September 2021, pages 83 – 90.

17. Numerical investigation of interface passivation strategies for Sb2Se3/CdS solar cells. Axel Gon Medaille, Kunal J. Tiwari, Sergio Giraldo, Marcel Placidi, Edgardo Saucedo, Zacharie Jehl Li-Kao.

FALSAFA

Karimova Ra'no Malikovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti katta o'qituvchisi)

MUSTAQILLIK FALSAFASI – YANGI O'ZBEKISTON FENOMENINI RIVOJLANTIRISHNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY ASOSI

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillik falsafasining mavzusi, obyekti, asosiy toifasi, vazifalari, tarixiy bosqichlari va zamonaviy ilmiy va amaliy ahamiyati qisqacha bayon etilgan.*

Аннотация. *В статье кратко изложен предмет, объект, основная категория, задачи, исторические этапы и современное научное и практическое значение философии независимости.*

Annotation. *The article briefly describes the subject, object, subject, main category, tasks, historical stages and current scientific and practical significance of the philosophy of independence.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik, falsafa, ma'naviyat, taraqqiyot, xalq, davlat, jamiyat, millat, elat, shaxs.*

Ключевые слова: *независимость, философия, духовность, развитие, народ, государство, общество, национальность, элат, личность.*

Key words: *independence, philosophy, spirituality, development, people, state, society, nationality, elat, personality.*

Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonlari shiddatli ravishda kechishi, moddiy va ma'naviy boyliklarni egallash uchun bo'layotgan "sivilizatsiyalashgan" raqobatlarning kundan kunga kuchayib borishi, rivojlangan davlatlarning har turfa "ittifoqlarga" birlashib harakat qilish jarayonlarining tobora qutublashib borish tendensiyalarining avj olayotganligi endigina qaddini rostlab rivojlanib kelayotgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mustaqilligi saqlab qolish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Bu esa mazkur mamlakatlarda yashovchi barcha xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy manfaatlarini o'zida aks ettiruvchi falsafiy dunyoqarashlarining ilmiy-amaliy asoslarini, ya'ni, mustaqillik falsafasini yaratish, shakllantirish, rivojlantirish, uni xalq e'tiqodiga aylantirish orqali amalga oshirilishini tarixiy zaruriyat qilib kun tartibiga qo'ymoqda.

Dunyoda inson zoti borki, u o'zining tug'ilgan joyida, diyorida mustaqil, erkin, osuda hayot kechirishni istaydi. Uning bu istaklarini amalga oshiruvchi asosiy omil davlat, ya'ni, har qanday davlat emas, balki milliy jihatdan mustaqil bo'lgan demokratik davlat hisoblanadi. Agar davlat bo'lsa-yu, ammo u mustaqil bo'lmasa, har qanday millatning, xalqning erkinligi, mustaqil yashashi xom xayol bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, mustaqillik har bir davlatning bosh atributi bo'lib, uni o'rganish va hayotga tatbiq qilish mustaqillik falsafasining asosiy masalasi hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning barcha shakllarini qaror toptirish o'z-o'zidan emas, balki o'zbek xalqining g'animlarga qarshi olib borgan tinimsiz kurashi, mashaqqatli mehnati, yoshlarning shijoati tufayli amalga oshirildi.

Mustaqillik ham tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib borishi natijasida tabiiy holatdan boshqa bosqichga o'tib, ijtimoiy borliqda yangi fenomen sifatida paydo bo'ladi. Ana shu jarayonning o'rganish esa mustaqillik falsafasining paydo bo'lish sabablaridan biri hisoblanadi. Demak, mustaqillik falsafasi – shaxs, elat, millat, xalq va davlatlarning mustaqil tarzda, o'zgalarga tobe, qaram bo'lmasdan hayot kechirishining umumiy qonunlari haqidagi ta'limot bo'lib, uning predmetini mustaqillikning mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanish prinsiplari va qonuniyatlari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Mustaqillik falsafasi, bir tomondan, O'zbekistondagi islohotlarning yo'nalishlari va mezonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda mustaqillik qachon paydo bo'lgan, qanday rivojlangan, qayoqqa qarab ketayapti, uning o'ziga xos jihatlari, rivojlanishining shakl va ko'rinishlari qanday, mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud milliy va umuminsoniy mazmundagi ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot o'zanidan ketayaptimi, uchinchi tomondan esa mustaqillik qanday tajovuzlardan, kimlar tomonidan, qanday qilib himoya qilishnishi kerak, degan savollarga javob topish imkonini beradi. Ana shu muammolar mustaqillik falsafasining asosiy masalalarini tashkil etadi.

Mustaqillik falsafasi – shaxs, elat, millat, xalq va davlatlarning mustaqil hayot kechirishlariga tegishli hodisa va jarayonlarining muhim, zaruriy, umumiy tomonlarini o'rgangan holda jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini tushuntirib berish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy maqsadlarini belgilash va mavjud ijtimoiy munosabatlarni kishilar ongi va qalbiga singdirish yo'li bilan boshqarish mexanizmlarini ochish, ularning rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib berish bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, mustaqillik falsafasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Mustaqillik falsafasi – ijtimoiy hodisa bo‘lmish shaxs, elat, millat, xalq va davlatlarning mustaqil hayot kechirishining kelib chiqishi, shakllanishi, rivojlanishi, faoliyat ko‘rsatishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan dunyoqarashlarning mantiqan umumlashgan tizimidir.

O‘zbekiston xalqlarining mustaqilligini har tomonlama yovuz kuchlardan himoya qilish barcha fuqarolarning muqaddas burchi hisoblanadi. Shuning uchun fuqarolarimizning mamlakat mustaqilligini himoya qilishga bo‘lgan e’tiqodini, ularning milliy mafkuraviy ongini shakllantirib, rivojlantirib borish orqali ma’naviy jihatdan tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Mustaqillik falsafasining asosiy masalasi mustaqillikka erishish, uni mustahkamlash va himoya qilish hisoblanadi. Bu masalani hal etishning ikki tomoni mavjuddir. Birinchi tomoni, mustaqillik tabiat va jamiyat olamida mavjud narsami yoki yo‘qmi (ontologiya)?, ikkinchi tomoni esa odamzot mustaqillik haqida mustaqil tafakkur qilish xususiyati bormi? (gnoseologiya) degan masalaga yechim topish hisoblanadi. Demak, siyosat nuqtayi nazaridan bu masalalarga javob berishlariga qarab davlat suverenitetini tan olgan holda xalqlarning mustaqil hayot kechirishini oliy saodat deb bilguvchi kishilarga, shuningdek, ularni, umuman, tan olmaydigan mustamlakachilarga ajratish mumkin.

Asosiy masalaning ikkinchi tomonini esa mustaqillik fenomenining subyekti bo‘lgan turli xil odamlarning dunyoqarashi tashkil qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqillik falsafasi, bir tomondan, millat, boshqa tomondan, davlat falsafasi shaklida o‘zini namoyon qiladi.

Mustaqillik falsafasi elat, millat va xalqlarning tarixiy rivojlanishida jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti jabhalarida tadrijiy gohida inqillobiy, gohida koevolyutsion tarzda shakllanib borgan. Ma’naviy-madaniy mustaqillik deb, har bir inson, millat va xalqning olamda yuz berayotgan voqea, narsa, hodisa va jarayonlarga nisbatan erkin fikr bildirishiga, o‘zining milliy xislatlarini, fazilatlarini umuminsoniy qadriyatlarga mos ravishda namoyish qilish asosida betakror ma’naviy-mafkuraviy borliq yaratish faoliyati asosiga kurilgan madaniy borligiga aytiladi.

Shuning uchun mustaqillik falsafasining rivojini, birinchidan, mustaqillik uchun kurashlar; ikkinchidan, erishilgan mustaqillikni mustahkamlash, uni himoya qilish, rivojlantirish va kelgusi avlodlarga eson-omon yetkazib berish kabi tarixiy bosqichlariga ajratish mumkin. Mustaqillik falsafasining mohiyati, mazmuni va metodologik ahamiyati ana shulardan iborat. Shu sababli biz mustaqillik falsafasini “Falsafa” fanining tarkibiy qismiga kiritib, alohida mavzu sifatida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishni hamda “Mustaqillik falsafasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlab nashr etishni tavsiya qilamiz. Zero, mustaqillikning ma’no-mazmunini, amaliy qadr-qimmatini talabalarimizga tushuntirib borish barchamiz uchun ham farz, ham qarzdir.

Dehqonova Muattar Ilhomovna (Angren universiteti o‘qituvchisi)

DUNYONI KASBIY O‘ZIGA XOS TARZDA ANGLASH G‘OYASINING YARATILISH TARIXI

Annotatsiya. *Bu maqolada turli tillarda so‘zlashuvchi odamlar yashaydigan bu dunyo, amalda turli dunyolardan iborat bo‘lishi, faqatgina til ijtimoiy borliqni anglash uchun qurol vazifasini o‘tashi, olamni kasbiy o‘ziga xos tarzda anglash g‘oyasining yaratilish tarixi esa tillarni nomlash jarayonida vujudga kelishi haqida ma’lumot berilgan.*

Аннотация. *Этот мир, населенный людьми, говорящими на разных языках, на самом деле состоит из разных миров, только язык служит инструментом для понимания социального бытия, а история создания идеи реализации мира в профессиональный путь родился в процессе именования языков*

Annotation. *This world, inhabited by people speaking different languages, actually consists of different worlds, only language serves as a tool for understanding social existence, and the history of the creation of the idea of realizing the world in a professional way was born in the process of naming languages*

Kalit so‘zlar: *abstraksiya, davriy munosabatlar, nisbiylik nazariyasi, gipoteza, etnolingvistika, tensializm.*

Ключевые слова: *абстакция, временные отношения, теория относительности, гипотеза, этнолингвистика, тенциализм.*

Key words*: abstraction, temporal relations, theory of relativity, hypothesis, ethnolinguistics, potentialism.*

Mazkur maqolada olg‘a surilayotgan gipoteza shundan iboratki, dunyoni bilishning o‘ziga xosligi, asosan, tillarning nomlash jarayonida kuzatiladigan abstraksiya ko‘lami va hajmi hamda borliqdagi narsalar, xossalar va munosabatlarni til sistemasining qanday unsurlar bilan qanday qatlamda berayotganligiga qarab farqlanadi. Ushbu holatda bir necha hukmlar keltirib chiqarish mumkin:

1) har bir til unsurlari nomlash potensialining hajmi va ko‘lami turlicha bo‘ladi. Bu potensialning katta-kichikligi bu tilning funksional jihatdan rivojlanganligi, yosh-qariligi va ijtimoiy jihatdan faol yoki nofaolligiga bog‘liq bo‘ladi;

2) bir arealda mavjud bo‘lgan tillarda dunyoni bilishlikning o‘ziga xosligi o‘xshash bo‘ladi. Bu narsa jug‘rofiy hudud va ijtimoiy tarix umumiyligi bilan izohlanadi;

3) jahon tillari bir-biridan borliqdagi uch asosiy unsur – narsalar, xossalar va munosabatlarni o‘z vositalari yordamida qay tartibda va yo‘sinda ifoda etishiga qarab farqlanadi.

Borliqdagi doimiy narsalar tillardagi aniq turdosh otlar tarzida beriladi. Davriy narsalar mavhum otlar sifatida beriladi. Borliqdagi doimiy xossalar tillardagi sifatlar yordamida beriladi. Borliqdagi davriy hossalar tillardagi sifatdoshlar orqali beriladi. Borliqdagi doimiy munosabatlar tillardagi fe’l shaxsli [yoki tuslangan] shakllari yordamida beriladi. Borliqdagi davriy munosabatlar tillardagi fe’l shaxssiz shakllari yordamida beriladi. Bu umumiy holat bo‘lgan holda, uning bir qancha xususiy ko‘rinishlari mavjud.

“Tilning subyektiv xarakteri” deb atalmish g‘oyaning eng taniqli ko‘rinishlaridan biri bu Sepir va Uorflar tomonidan ilgari surilgan lingvistik nisbiylik nazariyasidir. Bu gipoteza o‘zida ko‘pgina filosof va tilshunoslar tomonidan tillarning formal-strukturaviy jihatdangina emas, balki uning semantik [kognitiv-informativ] jihatdan ham o‘ziga xosligi haqida fikr yuritgan qarashlarning umumlashtirilgani va eksplikatsiyasidir. Bu qarash doirasi tilning semantik mohiyati tilning “ruhiy qurilishi” deb qaraladi.

Nafaqat tashqi formal, balki ichki [semantik] tomonlarining milliy subyektiv o‘ziga xos ekanligini tasdiqlash va uning inson tafakkuri, aniqrog‘i, ongiga ta’siri haqida gapirish, boshqacha qilib aytganda, muayyan tilda so‘zlovchi shaxs uchun uning tili “dunyoni o‘ziga xos” tarzda anglash va fikr yuritish tartibini aniqlab berishi haqidagi ta’limot “lingvistik nisbiylik nazariyasi” deb atalmish konsepsiyaning mohiyatini tashkil qiladi.

Y.Sepirtilni insonning boshqa faoliyatlari, madaniyati bilan o‘zaro aloqada deb hisoblagan holda analiz qildi. U Yevropa tilshunosligi traditsiyalariga yaqin turadi. Shuning uchun uning qarashlarida V.Gumboldt asos solgan lingvistik qarashlarining ta’sirini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, V.Gumboldt kishining predmetga munosabati butunlay til orqali yuzaga keladi, tilni inson bilan tashqi dunyo orasida turuvchi “oraliq dunyo” deb hisoblar edi. Shuning uchun leksikada milliy dunyoqarash ifodalanadi.

Y.Sepir ham kishilar o‘zlarining aloqa qurollari bo‘lgan konkret tillari ta’siri ostida bo‘ladi, ularning madaniyati qanday bo‘lishi tillarga bog‘liq deb hisoblar yedi. Uning izdoshi va fikrlarini nihoyasiga yetkazgan Benjamen Uorf [1897–1941] etnolingvistikaning xatolarini aniq payqab olish imkoniyatini tug‘dirdi. Uning fikricha, “har bir tilning o‘z metafizikasi bor”. Shuning uchun agar Nyuton inglizcha gapirmaganida va inglizcha o‘ylamaganida edi, u yaratgan koinot sistemasi boshqacha bo‘lar edi. Y.Sepir va uning izdoshlari, dastlab, F.D.Sossyur ta’limotidan ilhomlangan bo‘lsalar ham, keyinchalik, chetga chiqib ketdilar. Masalan, ular ham F.D.Sossyur kabi tilning tabiiy sistemasi bilan ongda mavjud bo‘lgan sistemasini [modelini] farqlaydilar. Ongdagi sistema esa tildagi real va yeng muhim ibtido deb hisoblanadi. Chunki, masalan, fonetik elementlarning miqdorini, munosabatini va vazifasini belgilab beradigan fonologik model o‘zining mazmunini o‘zgartirgandan keyin ham uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

1. Har bir tilning o‘ziga xos “modeli”, “bichimi” bo‘lgani uchun, har bir til borliqni o‘zicha qismlarga ajratadi va shu tilda so‘zlashuvchilarning dunyoni bilish usulini bilishga majbur qiladi, chunki til fikrni shakllantiradi. Turli tilda so‘zlashuvchi xalqlar dunyoni har xil ko‘radi, masalan, Amerika hindlaridan bo‘lgan Nutka tilida so‘zlashuvchi kishi biror boshqa kishini eslar ekan yoki biror boshqa kishiga murojaat qilar ekan, bu tilning grammatik qoidasiga ko‘ra, u, albatta, o‘sha kishini chapaqaymi, yo‘qmi ekanini, taqir boshmi, yo‘qmi, pakanami, yo‘qmi, ishtahasi balandmi, yo‘qmi ekanligi kabilarni ko‘rsatishga majbur [S.Usmonov, U.T.102].

Antik dunyoning idealist olimlari [masalan Pifagor, Suqrot, Platon va boshqalar] tabiat bilan jamiyat orasida, shuningdek, so‘z bilan predmet orasida moslik bor, nom predmetning mohiyatini o‘z tovush sostavida aks ettiradi degan bo‘lsalar, materialist olimlar esa [masalan, Geraklit, Demokrit, Yepikur va boshqalar] bunga qarshi chiqdilar.

Predmetning u yoki bu belgisini nom qo‘yish uchun dastlabki obraz sifatida tanlash o‘sha predmetga qaysi xalqning qanday yondashishiga bog‘liq bo‘lgani uchun “ichki forma” turli tillarda goh mush-

tarak, goh farqli bo‘ladi. Ba’zan esa bir tilning o‘zida ham shevalararo atama asosida yotgan belgi bir xildir. Bir necha misol.

[Hiero “Temir” herrar “temirlamoq”], ruscha podkova, aftidan, oyoqning “ostiga urib qoqiladigan narsa” belgisi ostida yaratilgan bo‘lsa kerak. Turkiy tillarda, asosan, taqa II dag‘a qo‘llaniladi. U taq II daq hamda a morfemalaridan iborat. Buryat – mangol tilida ham shunga yaqin, ya’ni taxa qo‘llaniladi. Ammo halqa – mangol tilida taxning o‘zi shu ma’noni ifodalaydi. S.Y.Malovning ko‘rsatishicha, uyg‘ur tilida taqa [taqo‘] so‘zining “yopishtirilgan” ma’nosi ham bor [S.Y.Malov, Uygurskiy yazik, M.–L, 1954, c.181].

Demak, taqa so‘zi “taqiladigan”, “yopishtirilgan” belgisiga asoslangan degan xulosaga kelsa bo‘ladi. Shunday qilib, ot oyog‘iga qoqiladigan temir buyumga nom qo‘yishda yuqorida ko‘rsatilgan olti tilda [nemis, ispan, fin, arab, rus va o‘zbek, umuman, turkiy tillarda] olti xil “ichki forma” asos bo‘lganligi ko‘rinadi.

O‘zbek tilida “letuchaya mo‘sh” ma’nosida ikkita so‘z bor: biri ko‘rshapalak [qiyoslang: tojik tilida shabparak “letuchaya mo‘sh”, “nochnaya babochka”], ikkinchisi yorqanot. Keyingisi dialektal so‘z bo‘lsa ham, ba’zan badiiy adabiyotda uchrab qoladi. Masalan, A.Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” asarida Xo‘rozdan “tong otishini nimadan bilasan” deb so‘ralsa, “yorqanotning chiyillaganidan bilaman” degan ekan jumlasi bor. Unda ko‘rshapalak o‘rnida yorqanot qo‘llanilgan. Bu sinonimlarning “ichki forma”siga kelganda, ularning mutlaqo boshqa-boshqa ekanligi ko‘rinadi. Yorqanot so‘zining “ichki forma”si “parda qanot” bo‘lsa, ko‘rshapalak so‘ziniki birmuncha murakkab. U ko‘rshabbarrak qismlaridan tuzilgan. Birinchi qism, “so‘qir” ma’nosini, ikkinchi qism [shab yoki shap] tojikcha “tun” ma’nosini bildiradi. Uchinchi qism, ya’ni, par [o‘zbek tilida pal bo‘lib ketgan] tojik tilidagi paridan “uchmoq” fe’lining hozirgi zamon negizi bo‘lib, unga -chi ma’nosini bildiradigan -ak suffiksi qo‘shilgan. Shunday qilib, ko‘shapalak so‘zining asosida “kechasi uchadigan ko‘r” belgisi yotadi.

S.Usmonovning fikricha, shevalararo bir predmetni ifodalaydigan so‘zlargina emas, hatto “ichki forma”lar ham har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, suv ostida uchib yurib yashaydigan hasharotlardan birini o‘zbek tilida ninachi deydilar. Shunday deyilishiga uning ninaga o‘xshagan uzun qiyofali bo‘lishidir: ninachi, aslida, ninacha “kichkina nina” bo‘lgan. Tojik tilida ham shu belgi ifodalanadi. Tojik tilidagi so‘zanak ham, aslida, “ninacha” ma’nosida bo‘lib, so‘zan nina qismiga -ak suffiksi qo‘shib yasalgan.

“Ichki forma” yangi so‘zning mazmunidir. O‘zlashib ketgan yangi so‘zlar ham, yangilik belgisini saqlab qolgan neologizmlar ham o‘z ma’nolari bilan “ichki forma”ga tayanadilar.

Yangi so‘z yasash paytida unga asos bo‘lgan “ichki forma” bitta muhim belgidan iborat bo‘lgani uchun yangi so‘z sifat, ravish, sifatdosh xarakterida bo‘ladi. Masalan, ishchi-“ishlovchi” yoki “ishlaydigan” demakdir. Shuning uchun ishchi so‘zi o‘z “ichki forma”siga asoslangan ma’noda ham qo‘llanadi: Ishchi bo‘lgan kambag‘allar, savdo-sotiqqa dag‘allar, qalpoq bozori qaysidir? [E.Jumanbulbul o‘g‘li. Ravshan]

Hozirgi ot yasalishi shuning uchun ham, aslida, sifat yoki sifatdosh yasalishidan iborat bo‘lib, “ichki forma”ga shaxs, ya’ni bajaruvchi belgisi qo‘shilishi uni otga aylantirib yuboradi.

Vaqt o‘tishi bilan, “ichki forma” bilan tushuncha orasidagi bog‘lanish unutilishi mumkin. Unda so‘z ifodalaydigan hozirgi ma’no [real ma’no] boshqacharoq bo‘lib, o‘zgarib qoladi. Ba’zan esa hammaga tushunarli bo‘lgan “ichki forma” yordamida so‘z yasaladi, ammo o‘sha so‘z xalqqa tushunarli bo‘lmaydi, nutqda qo‘llanilmaydi. [S.Usmonov. 130].

“Ichki forma” yasama so‘zlarda yaqqol ko‘rinadi, ammo tub so‘zlarda yo‘qqa o‘hshaydi. Ko‘rinadiki, “ichki forma” bilan real ma’no orasidagi munosabat masalasi ham muhim va qiziqarlidir.

Sodda va qo‘shma yasama so‘zlarda “ichki forma”, uning sostavidagi morfologik elementlar ma’nosidan yuzaga keladi. Ammo tub so‘zlarda u, odatda, mavjud bo‘lmaydi. Masalan, kishi so‘zining “odam”, “har bir odam”, “erkak”, “xizmatkor”, “xotin” kabi bir nechta ma’nolari bo‘lganligi ma’lum. Ammo bu ma’nolarga asos bo‘lgan muhim belgi ma’lum emas. Demak, kishi, yoki shu kabi tub so‘zlarning “ichki forma”si nolga teng bo‘lib, u tovush tomoni bilan tushunchadan iborat. Tub so‘zlar yasama so‘zlardan “ichki forma” masalasida farq qiladi. Tub so‘zning oldingi ma’nosi, A.A.Potebnyaning fikricha, keyingi ma’noga nisbatan “ichki forma” deb hisoblanadi. Bunday paytda so‘zning dastlabki yoki ilk ma’nosi va hozirgi ma’nosi haqida gapirish lozim. Masalan, tojik tilidan kirgan juvon [chavon] so‘zining tojik tilidagi “yosh” ma’nosi uning o‘zbek tilidagi “ichki forma”si bo‘lsa, o‘zbek tilidagi “yosh ayol” ma’nosi o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun real ma’nosidir. Boshqa tildan olingan so‘zlarning “ichki forma”lari har vaqt o‘zgarishi shart emas, albatta. Ba’zan ma’lum tor doirada unga duch kelish mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan mardona so‘zi umumxalq tilida ruscha geroicheski so‘ziga ekvivalent ma’-

noda qo‘llangan. Ammo kosiblar orasida u “erkaklar kovushi” ma’nosida qo‘llanadi va zanona, ya’ni, “ayollar kovushi”ga hamda bachkana, “bolalar kovushi”ga zid qo‘yiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinishicha, “ichki forma”ning mavjudligiga dialektik ziddiyat yotadi. U ma’lum davrda zauriy narsa, ma’lum davrda esa ortiqchadir. Nom o‘zicha, tovush yoki tovushlar kompleksi sifatida, tushuncha bilan bevosita aloqada bo‘lmasa ham, u mazmuni jihatidan tushuncha bilan bog‘langandir.

“Ichki forma”ning ahamiyatiga doir bo‘lgan yuqorida ko‘rsatilganlarning bir xili so‘zning tarixiy-etimologik holatiga, bir qismi esa hozirgi holatiga taalluqli. Ammo aloqa protsessida, baribir, “ichki forma” emas, real ma’no nazarda tutiladi. Shuning uchun ham ichki forma, ko‘pincha, unutiladi. U etimologik izlanishlar yoki morfematik analiz chog‘idagina aniqlanadi.

Ichki fomaning unutilishi aloqa protsessida miya ishini osonlashtiradi: bir so‘z tufayli birdaniga ikki narsa – dastlabki va hozirgi ma’nosi xotirlanmay, faqat hozirgi real ma’no ko‘zda tutiladi. Aks holda, masalan, mashinaga tushdi gapi, so‘zlarning dastlabki ma’nolariga, ya’ni “ichki forma”lariga ko‘ra, “spustilsya v mexanizm”, hozirgi ma’nolariga ko‘ra, “sel v mashinu” kabi, ya’ni, ikki xil mazmunda anglanar, ulardan qaysi biriga qarab ish qilish lozimligini bilmay, eshituvchi qiyin ahvolda qolgan bo‘lar edi. Ko‘p hollarda, ichki forma ko‘zda tutilgan bo‘lsa, gap, umuman, mazmunsiz bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, “ichki forma” yoki dastlabki, belgi nom qo‘yishda har qancha zarur bo‘lsa ham, keyinchalik, ba’zan ortiqcha bo‘lib qoladi.

“Ichki forma”ning yo‘qolishi so‘zning fonetik jihatdan o‘zgarishi uchun zamin tayyorlaydi. Masalan, Toshkent atrofidagi ba’zi qishloqlarda “toza”, “chiroyli”, “saranjom” ma’nolarini ifodalaydigan gulmohday so‘zi ishlatiladi. Shu ko‘rinishida bu so‘zning “ichki forma”sini izohlab bo‘lmaydi. Agar va uni “gul” va “bog‘” ma’nolaridan tug‘ilgan, ya’ni, “gulbog‘day” deb o‘ylasangiz, gulbog‘ so‘zida qanday tozalik belgisi bor deysiz. Gulmohday, aslida, go‘lmohday, ya’ni o‘ bilan shakllangan. Bundagi go‘l hinderon tillarida “dumaloq”, moh esa “oy” ma’nolarini bildirib, butun qo‘shma so‘z “to‘lin oydek” belgisini ifodalaydi. Demak, toza, saranjom-sarishta hovlining yuzi to‘lin oyning yuziga o‘xshatiladi. Bu o‘xshatishning unutilganligi so‘zning tashqi qiyofasini o‘zgartirishga yordamlashadi: mazmun tirgagi bo‘lmagach, formani saqlashga ehtiyoj qolmaydi.

So‘zning ma’no xususiyati bilan bog‘langan bu hodisani tushunmaslik “bechiz nima uchun bejiz tarzida ishlatadilar, uning asli bechiz-ku!” degandagi kabi e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan, o‘zbek tili sharoitida tojikcha bechiz so‘zining tojik tilidagi ma’nosi bo‘lgan “hech narsasiz” tushunchasi o‘zgarib, “sabasiz” ma’nosini kasb yetgan. Shuning uchun uning dastlabki fonetik qiyofasi [ya’ni ch tovushi bilan shakllanishi] ham o‘zgarib, o‘zbek tilida j [dj] bilan shakllanadigan bo‘lib qolgan. Fonetik o‘zgarish bilan ma’no o‘zgarishi parallel yuz bersa, bunday o‘zgarish mustahkam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. T., “Fan”, 2004, 240-bet.
2. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. M., “Fan”, 2013, 248-bet.
3. Степанов Я.С. Антология семиотики. М., “ Наука”, 2012, с. 760.
4. Гумбольдт В.фон. Избранные труды.. М., “ Прогресс”, 1977, с. 850.
5. Болдырев Н.Н. Языковые категории как формат знания. Вопросы когнитивной лингвистики, Т., 2006, № 2, с. 5 – 22

Yaxyaeva Sojida Abdurahimovna (Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi (PhD)

YOSHLARDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada estetik madaniyat rivojlanishida yoshlarning tutgan o‘rni va ularning xalqimiz ma’naviy merosi, falsafiy tafakkuri rivojida innovatsion g‘oyalar asosida ijtimoiy hayotda amalga oshirilayotgan islohotlarga ijobiy ta’siri masalalari yoritilgan.*

Аннотация*. В статье описывается роль молодежи в развитии эстетической культуры и ее положительное влияние на реформы в общественной жизни, основанные на новаторских идеях в развитии духовного наследия и философского мышления нашего народа.*

Annotation*. The article describes the role of youth in the development of aesthetic culture and its positive impact on reforms in public life, based on innovative ideas in the development of the spiritual heritage and philosophical thinking of our people.*

Kalit so‘zlar: *estetik madaniyat, milliy qadriyatlar, falsafiy meros, innovatsion g‘oya, an’ana, diniy va dunyoviy bilim, estetik immunitet, mafkura, zavqiy munosabat.*

Ключевые слова: *эстетическая культура, национальные ценности, философское наследие, новаторская идея, традиция, религиозное и мировоззренческое знание, эстетический иммунитет, мировоззрение, наслаждение.*

Key words: *aesthetic culture, national values, philosophical heritage, innovative idea, tradition, religious and philosophical knowledge, aesthetic immunity, worldview, enjoyment.*

Kishilik jamiyat tarixida estetik madaniyat ajdodlarimizning yuksak falsafiy tafakkuri, ma’naviy dunyosi, noyob adabiy-estetik asarlari va milliy qadriyatlarni yaratishi natijasida shakllangan. Bunda qadimdan asrlar osha kelajakka yetib kelgan diniy e’tiqodlar yangi dinlarning vujudga kelishi bilan o‘z o‘rnini yangisiga bo‘shatib berishi, ya’ni, asrlar davomida xalqning eski e’tiqoddan yangisiga amal qilishi asosida o‘zgarib borishini tarix ko‘rsatadi. Shu kabi xalqning ma’naviy olamidagi boy meroslar, milliy qadriyatlar zamonaviy qadriyatlarga parallel ravishda rivojlanishga intiladi.

Yoshlarning estetik madaniyati shakllanishida jamiyatda ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar asosiy rol o‘ynaydi. Har bir davr oralig‘ida xalqning orasidan yetishib chiqqan ulamolar, donishmand va mutafakkirlar zamonaga mos ravishda inson kamolotiga xizmat qiladigan estetik ehtiyojlar va ma’naviy ne’matlarni yaratib, kelajak avlodlar uchun qoldiradi. O‘zbekistondagi estetik tafakkur tarixida ham bobolarimizning boy falsafiy durdonalari, ularning milliy qadriyatlar, mafkuraviy qarashlardagi roli ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda yoshlarning zamonaviy falsafiy tafakkurini shakllantirish borasida ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarda doimiy izlanishlar olib borilishi yo‘lga qo‘yildi. Jamiyatning ma’naviyat sohasidagi islohotlarda o‘sib kelayotgan farzandlarimizning ong-u tafakkurida voqelikning real hodisalariga asoslanish ko‘zda tutildi. Har bir sohadagi milliy taraqqiyot yo‘nalishlaridagi singari, bu borada ham Harakatlar strategiyasiga muvofiq yoshlarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda estetik idealni qaror toptirish muhim estetik obyekt sifatida tanlandi. Tafakkur rivojida “estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go‘zallik, ulug‘vorlik, mo‘jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi” [1]. Bu jarayonda ajdodlarimizning asrlar davomida sinovdan o‘tgan falsafiy dunyoqarash va mafkuraviy immunitetga e’tibor qaratildi.

Yoshlarning estetik madaniyatini tadqiq etish masalasi yurtimizda ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarning innovatsion g‘oyalar asosida rivojlanishiga yo‘l ochib berdi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy taraqqiyot rivojiga ta’sir etuvchi inson omilini zavqiy munosabatlar negizida voqelikdagi narsa va hodisalarga ta’sir ko‘rsatishga chorladi. Insonlarni tashqi olamga bo‘lgan intilishlarida ezgulik, go‘zallik, komillik kabi tuyg‘ular bilan yashashga, insoniyatning izlagan idealini topishida ijobiy g‘oyalarga tayanish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqdi. Chunki jahonda bo‘layotgan yoshlar o‘rtasidagi ayrim mafkuraviy tazyiqlar, millatlar o‘rtasidagi xunuklik kasb etuvchi noodatiy urflar, milliy qadriyatlarga qarshi qaratilgan egoistik dunyoqarash estetik madaniyatni chuqur tadqiq etishni talab etmoqda.

“Estetik madaniyat” tushunchasini falsafiy tadqiq etish jarayoni ilmiy bahslarga sabab bo‘lib, turlicha tarzda ta’riflar berib kelingan. Estetikshunos olim M.Abdullayev fikricha, “estetik madaniyatga ijtimoiy subyekt sifatidagi insonning estetik ehtiyoj va qobiliyatlarini moddiy, sotsial, siyosiy va ma’naviy sohalarda ro‘yobga chiqarishning tarixan shakllangan va doimo rivojlanuvcha xilma-xil shakllari deb ta’rif berish mumkin” [2]. Bunda estetik madaniyatga, asosan, qadriyatlar yig‘indisi nuqtayi nazaridan yondashilgan bo‘lib, inson estetik ehtiyojlariga nisbatan vorisiylik asosida zavqiy munosabat aks etgan. Jamiyatning voqelikka o‘zaro aloqadorlik negizida turli-tuman ijtimoiy holatlarning uyg‘unlashuvi sifatida moslashishi, yangicha ijod jarayonining rivojlanuvchi hodisalar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Falsafiy fanlar tizimida estetik madaniyatga xilma-xil yondashishlar negizida ta’riflar berilgan. Jumladan, «Estetik madaniyat – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste’mol qilish usullarining majmuyi» [3]. Ushbu ta’rifning asosida aksiologik qarashlar ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzviylikda ifodalangan. Bu esa estetik madaniyatning doimiy ravishda yangilanib, tabiatning inson tomonidan o‘zlashtirilishi asnosida yangicha zavqiy munosabatlar paydo bo‘lishiga olib kelishi, milliy qadriyatlarning zamona bilan parallel ravishda go‘zallik qonuniyatlarini keltirib chiqarishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatib bergan.

Bu tushunchaga o‘zining ta’rifini berishda har bir tadqiqotchi o‘ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Ushbu ta’rifda “estetik madaniyat – bu muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo‘lib, ularni

ma’naviy-estetik qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Shuningdek, estetik madaniyat, inson va jamiyat moddiy-ma’naviy darajasi, ijtimoiy-siyosiy omillar, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-tarixiy hodisadir” [4], deb talqin etilgan. Estetik madaniyatga bunday yondashuvda inson omilining ustunligi aks etib, tashqi muhitdagi go‘zallikka nisbatan his-tuyg‘ularning nozik jihatlari ochib berilgan. Insonning real voqelikka nisbatan zavqiy munosabatda bo‘lishiga olib keluvchi ma’naviyat olamining roli mantiqiy izchillik bilan ifodalangan. Go‘zallikni keltirib chiqaruvchi obyekt sifatida tarixiy jarayonda shakllangan qadriyatlarga falsafiy munosabat bildirilgan.

Ushbu ta’riflarda estetik madaniyatning umumiy belgilari, jamiyat rivojidagi ma’naviy jihatlari ochib berishga qaratilgan. Lekin bu tushunchaning ilmiy mohiyatini teranroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu ta’riflarni o‘rgangan holda mazkur tushunchaga falsafiy-estetik ta’rif berish lozim. Jumladan, estetik madaniyat – bu insonlarning voqelikka zavqiy munosabatlarini o‘zida ifodalovchi estetik qiymatga ega bo‘lgan ma’naviy, mafkuraviy, diniy, axloqiy, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirib boruvchi innovatsion yondashuvlar tizimidagi go‘zallik elementlari yig‘indisidir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida estetik madaniyat o‘zini ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon etib boradi. Bunda yoshlar estetik madaniyatiga nazariy-metodologik yondashuv asosida o‘ziga xos xususiyatlar shakllanadi.

Birinchidan, yoshlar estetik madaniyati jamiyatning kichik hujayralari sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga va qatlamlariga kirib borib, hodisaning mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Hatto yoshlarning tabiiy xususiyatlari madaniylik bilan uyg‘unlashib, ularni bir-biridan ajratish qiyin bo‘lib boradi. Estetik madaniyat jamiyatning barcha sohalariga kirib borishi universal madaniy hodisa o‘ziga xos ma’naviy-mafkuraviy omillarni vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, estetik madaniyat jamiyatda polifunksionallik vazifasini bajaradi. Bunda yoshlarni zamonaviy milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi go‘zallik olamida zavqiy munosabatlarni shakllantirish, insonga lazzat baxsh etish, tarixiy taraqqiyotda erishilgan tajribalarni ma’naviy meros sifatida kelajak avlodlarga yetkazib berish kabilar aks etadi. Masalan, estetika – go‘zallik va san’at falsafasi, etika-axloq falsafasi, aksiologiya – qadriyatlar falsafasi, gnoseologiya – bilish falsafasi sifatida polifunksional hodisalar.

Uchinchidan, estetik madaniyat yoshlarni borliqda, tabiat va jamiyatda zavqiy munosabatini shakllantiradi. Shu boisdan estetik madaniyatning tabiat va jamiyat bilan bog‘liqligi umumfalsafiy xarakterga ega bo‘lib, insonning voqelikdagi mohiyatini ochib beradi. Yoshlar nafosat olamida mavjud go‘zal his-tuyg‘ularni anglab yetishi asosida borliqdagi narsa va hodisalarga nisbatan estetik tafakkuri kamol topadi.

To‘rtinchidan, estetik madaniyat yoshlar valeoestetik tarbiyasi bilan uzviy ravishda hayotning metodologik mohiyatini ifodalaydi. Inson faoliyatining nazariy jihatlarini amaliyotga tatbiq etishda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi. Insonning hayotda tug‘ilishdan maqsadning mohiyati, nafosat olamida yashashi, voqelikda o‘z o‘rnini topishi, qanday go‘zal amallar bilan nom qoldirishi kabi falsafiy estetik mulohazalarni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi madaniyatning ishtirokisiz mavjud bo‘lmasligi va muammoni yechishyo‘llari tavsiya etiladi.

Beshinchidan, estetik madaniyat jamiyatda o‘zini qadriyatlar ko‘rinishida yaxlit fenomen sifatida namoyon qiladi. O‘z navbatida jamiyatning universal atributi sifatida aksiologik muammolarni yechishga xizmat qiladi. Bunda estetik madaniyat boshqa ijtimoiy fanlar bilan parallel ravishda qadriyatlarni tadqiq etadi, ularning obyektiv va subyektiv tomonlarini ochib beradi.

Oltinchidan, estetik madaniyat falsafa bilan uyg‘unlashgan holda, nafosat olamidagi dialektik jarayonlarni vujudga keltiradi. Shu asosda borliqdagi narsa va hodisalarning uyg‘unligi va mukammalligini shakllantiradi.

Faylasuf olima M.Nurmatova estetik qadriyatlarning obyektiv olamda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan uzviyligini ta’kidlaydi. Uningcha, “estetik qadriyatlar ikki munosabatga ko‘ra obyektiv xarakterga ega.

Birinchidan, estetik qadriyatlar o‘zida voqelikdagi narsa-hodisalarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni namoyon qiladi.

Ikkinchidan, estetik qadriyatlar inson va jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar (g‘urur, iftixor, sha’n, nomus kabi tuyg‘ular) asosida vujudga keladi” [5].

Demak, voqelikka estetik yondashuv negizida insonning qadriyatlari sayqallanib, zamonaviy qiyofa kasb etib boradi. Bunday estetik dunyoqarash asosida barcha millat va elatlarning qadriyatlarini e’zozlash, ularga nisbatan bag‘rikenglik va ixlosmandlik tuyg‘usini qaror toptirish ham dialektik aloqadorlikda bo‘lishi lozim.

Yoshlar estetik madaniyatini tadqiq etishda zamonaviy milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish, shaxs xulq-atvoridagi ruhiy-estetik holatlarni go‘zallik me’yorlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyatda yangi estetik qadriyatlar yaratilmaydi, mavjud estetik madaniyatlar muayyan tizimga solinib, shaxsning ehtiyojlariga qaratiladi. Jamiyatda zamonaviy qadriyatlarni yaratishda ijodiy faoliyat asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, an’anaviy madaniyatlarning ijtimoiy tuzilishlari adabiy jarayonlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Rus olimi V.S.Stepinning fikricha, ularda an’analar, afsonalar, tafakkurning bir qolipga tushgan usullari ifodalanadi [6]. Bunday ijodiy faoliyatda yangi qadriyatlar ijtimoiy guruhlarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Masalan, haykaltaroshlik san’atida yaratilgan haykallarning jamiyatga mos bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Toshkent shahrida 2020-yilda barpo etilgan “G‘alaba bog‘i” va “Adiblar xiyoboni” yodgorlik majmualaridagi manzaralar o‘tgan asar va bugungi kun voqeligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiradi.

Biz xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarini yoshlar estetik olami bilan bog‘liqligini tadqiq etarkanmiz, nafaqat o‘zbek milliy qadriyatlarini, balki umuminsoniy qadriyatlarning ham yurtimizda keng miqyosda rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu boisdan zamonaviy milliy qadriyatlarning yaratilish jarayoni bevosita ijtimoiy hayotdagi real voqelikka asoslanishi, innovatsion g‘oyalarining mahsuli sifatida vujudga kelishi, nafosat dunyosiga bo‘lgan zavqiy munosabatning boyib borishida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy qadriyatlarni har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongiga milliy va diniy qadriyatlar ko‘rinishida singdirib borish uchun ham amaliy, ham nazariy, ham mafkuraviy jihatdan xizmat qilishiga olib keladi.

Estetik madaniyatning shakllanishida jamiyatdagi siyosiy bilim, huquqiy madaniyat, axloqiy ideal va ma’naviy omillar muhim hisoblanadi. Bunda yoshlarning harakatchanligi va intilishlari muayyan bilimlar negizida yangilanib, ularning innovatsion rivojlanishiga ishlab chiqarish, adabiyot, san’at, madaniyat, ma’naviyat orqali ta’sir etadi. Bularning estetik madaniyatning ma’naviy-mafkuraviy asoslarini shakllantirishda, ma’rifat g‘oyalarini yaxshiroq tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniyatning ma’naviy asoslari qadimdan insoniyatning turmushi, estetik faoliyati, g‘oyaviy olami uchun xizmat qilib, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan badiiy-estetik tafakkur namunalaridir. O‘tmishda ota-bobolarimiz, oqila onalarimizning badiiy ijodi, teran aql-zakovati, o‘ziga xos falsafiy dunyoqarashi va hayot falsafasi tarixning sinovlaridan o‘tib, ajdodlardan kelajak avlodlarga xalq mafkurasi, ma’naviyati, ma’rifati va axloqiy-estetik ideallari sifatida etib kelgan. Yuksak estetik madaniyatning ma’naviy asoslari “mohir ajdodlarimiz uzoq tarix davomida yaratgan ajoyib obidalar shu kungacha etib kelibgina qolmay, ular ajoyib iste’dodli ijodkorlar tomonidan rivojlantirilgan” [7]. Demak, barchamiz joylarda aholi turmush tarzi, milliy an’analarini aholi o‘rtasida yangicha falsafiy dunyoqarash va estetik ideallar asosida matbuot, televideniya, san’at va madaniyat muassasalari orqali kuchaytirishimiz lozim.

Jamiyatda estetik madaniyatning milliy-etnomadaniy jihatlari turli etnik guruhlarning muayyan madaniyatlarni birgalikda rivojlantirishida yangilanib boradi. Mana shunday jarayonlar quyidagilarda aks etadi:

– muayyan jamiyatda yashayotgan turli millat va elatlarning bir maqsad yo‘lida birlashib, shu asosda xalqning, jumladan, yoshlarning axloqiy-estetik ideallarini o‘tmish tarixiy-madaniy meros bilan boyitishi, milliy qadriyatlarini zamon bilan hamnafas rivojlantirishida namoyon bo‘ladi;

– biror hudud aholisining etnik jihatdan ko‘pchilikni tashkil etishiga qaramasdan, shu joyda boshqa millat va elatlarning urf-odatlari, an’analari, madaniyati va qadriyatlarini hurmat qilishi hamda jamiyatda barchaning haq-huquqlari teng qo‘yilishi asosida milliy-etnomadaniyat omillarning erkin amalga oshishiga asoslanadi;

– jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan estetik dunyoqarash rivojida yoshlarning bag‘rikenglik madaniyatiga alohida e’tibor qaratish va ulardan tug‘ilib o‘sgan yurtga nisbatan yuksak umuminsoniy tuyg‘ularning kamol topganligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston yoshlarining bugungi axloqiy qiyofasi va estetik madaniyati ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardagi estetik idrok, his-tuyg‘u, kechinma, zavqlanish, did kabi tushunchalar, ayni chog‘da, ijtimoiy hayotning falsafiy-axloqiy tomonlarini, mohiyatini, ma’nomazmunini ham ifodalaydi. Yoshlarning estetik tafakkuri qotib qolgan va mavhum ma’naviy meros bilan chegaralangan emas. Ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar, barcha islohotlar va ularning natijalari yoshlarning axloqiy qiyofalari, estetik ongi va tasavvurlarida ham o‘zgarish yasaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sher A. Go‘zallik yog‘dusi. Toshkent, “Faylasuflar”, 2017, 52-bet.
2. Abdullayev M. Estetik madaniyat: nazariy-metodologik jihatlar. Toshkent, “Fan”, 2007, 32-bet.
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. Toshkent, “Sharq”, 2004, 466-bet.
4. G‘aybullayev O. Estetik madaniyat. Monografiya, Toshkent, “Navro‘z”, 2020, 9-bet.
5. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. T.,“Universitet”, 2009, 57-bet.
6. Степен В.С. Россия и Запад: вопросы философии. 1992, № 6, с. 4.
7. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma’naviyat maskani. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2012, 316-bet.

Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich (TKTI katta o‘qituvchisi; e-mail:rustam-mamatqulov@mail.ru)

MANFAATLAR TIZIMI VA UNI TASHKIL ETUVCHI ELEMENTLAR

Annotatsiya. *Maqolada ehtiyoj va manfaatning turlari, milliy manfaat, uning tarkibiy elementlari va ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida bir qator olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi, ilmiy xulosalar qilinadi.*

Аннотация. *В статье анализируются научные мнения ряда ученых о видах потребности и интереса, национального интереса, его структурных элементах и приоритетах, и делаются научные выводы.*

Annotation. *The article analyzes the scientific opinions of a number of scientists about the types of need and interest, national interest, its structural elements and priorities, and draws scientific conclusions.*

Kalit so‘zlar: *ehtiyoj, manfaat, milliy manfaat, manfaatlar tizimi, element, shaxsiy, xususiy, ijtimoiy, davlat manfaatlari.*

Ключевые слова: *потребность, интерес, национальный интерес, система интересов, элемент, личные, частные, общественные, государственные интересы.*

Key words: *need, interest, national interest, system of interests, element, personal, private, public, state interests.*

Manfaat tushunchasi mohiyatan murakkab bo‘lib, uning shaxsiy, jamoaviy, guruhiy, sinfiy, mahalliy, irqiy, qarindosh-urug‘chilik, mintaqaviy, milliy va umuminsoniy kabi boshqa tomonlari mavjud. Uning bu kabi turlarga ajralishi subyektning ma’lum ehtiyojlarni anglash, amalga oshirish ko‘lami va shu bilan bog‘liq faoliyat yuritishga qaratilgan muayyan munosabatlar bilan xarakterlanadi. Munosabatlar esa ma’lum bir ehtiyoj va manfaatlar tufayli yuzaga keladi.

Inson ehtiyojlari xilma-xil, rang-barang bo‘lishi bilan birga, cheksizdir. Minglab ehtiyojlardan muhimlari inson hayotida ustuvorlik kasb etishiga qarab shaxsiy, xususiy va undan ijtimoyilashuv kasb etishi manfaatning xilma-xil turlari mavjudligini bildiradi. Ehtiyojlarning shaxs va jamiyat, millat va davlat hayot faoliyatida muhimlilik darajasiga qarab, u yoki bu manfaat turlarining ustuvorlik mezonlari belgilanadi. Shu asosda manfaatlar to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil etish imkonini beruvchi elementlar va ulardan kelib chiquvchi tizim shakllanadi. Ijtimoiy tizimlar esa o‘zida yakka, xususiy, alohidalik holatlarni birlashtirgan ehtiyoj va manfaatlarning o‘zaro bog‘liq, umumlashgan munosabatlaridan iborat bo‘ladi. Mavhum tizimlar ham mavjud bo‘lib, unga ehtiyoj va manfaatlar haqidagi tushunchalar, taxminlar, nazariyalar, ilm, shuningdek, formallashtirilgan mantiqiy tizimlardan iborat bo‘ladi.

Manfaatlar borasida tizim kategoriyasini aniqlashtirish, xilma-xil manfaatlar muvozanatini ta’minlash ham murakkabdir. Chunki ehtiyoj va manfaatlar doimo tez harakatda, o‘zgaruvchan bo‘lib, subyekt xohish-istagi, irodasi, ongi va dunyoqarashi bilan bog‘liq holda, bir ko‘rinishdan ikkinchi bir sifatiy ko‘rinishga o‘tib turadi.

Lekin, shunday bo‘lsa-da, barcha moddiy va ijtimoiy hodisalar kabi inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan manfaatlar ham o‘zining ma’lum bir barqaror, uyg‘unlashgan yaxlit xususiyatiga egadir. Manfaatlarning yaxlitlik kasb etishi tarixiy taraqqiyot evolutsiyasi mahsuli hisoblanadi. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, “...milliy manfaat tuzilishi, funksional elementlari, ularning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siri va aks ta’sirini olim-tadqiqotchilar qanchalik aniq tasavvur etsalar, uning samarasi shunchalik ijobiy bo‘ladi”,[1] degan fikrdalar. Ya’ni, manfaat, milliy manfaat mohiyatini, tuzilishini anglash uni tashkil etgan barcha elementlarini qanchalik tasavvur etish bilan bog‘liq, deb hisoblaydilar. Yana bir tadqiqotchi fikricha, “... manfaatlar doimo o‘zaro ta’sirda bo‘lib, milliy manfaatlar tizimidagi koordinatsiyaviy va subordinatsiyaviy funksional aloqalarni taqozo etuvchi, tuzulmaviy o‘zaro bo‘ysunuvda va yaxlitlikda mavjud bo‘lib,

[1] Миллер А.И. О дискурсивной природе национализмов. Pro et Contra. 1997, т. 2, № 4, с. 141 – 152.

milliy manfaatlar shakllanishida fuqarolik jamiyati va uning institutlari taraqqiy etganligi darajasidan, turli manfaatlar muvozanati mexanizmlari ishlab chiqilgan “millat – davlatning uyg‘unlashgan yaxlit tizimi kelib chiqadi”.[1] Aksariyat tadqiqotchilar milliy manfaatlar, milliy g‘oya, milliy xavfsizlikni davlatning xalqaro maydondagi faoliyati sohasiga taalluqli deb bilishadi. A.V.Kulakov fikricha, “milliy g‘oyaning siyosiy fanlardagi ushbu kategoriyasiga taalluqlilik darajasiga ko‘ra, davlat hududidagi milliy manfaatlarning o‘zi qamrab olgan doiradagi manfaatlariga nisbatan umumiy hisoblanadi”.[2]

Tadqiqotchi olim S.A.Proskurin fikricha, “...milliy davlat manfaatlari millat manfaatlari o‘rtasidagi barqaror yaxlit aloqalarni tashkil etuvchi guruh va institutlar bilan shartlangandir. Bu aloqalar koordinatsiyaviy va subordinatsiyaviy hamda korrelatsiyaviy aloqalardir. Muallif mazkur aloqalar ichida ahamiyatlisi deb, koordinatsiya va subordinatsiyani oladi. Koordinatsiyaviy aloqalar manfaatlar strukturasida kelishuvchilikni, uyg‘unlikni ta’minlovchi bo‘lib, doimo asosiy maqsadlar amalga oshuvi sari harakat qilishni ta’minlab turadi. Subordinatsiyaviy aloqalar manfaatlar tizimida ustuvorlikni ajratish uchun mo‘ljallangandir. Manfaatlarda bir yoki bir necha sohada qandaydir maqsadlar amalga oshuvida ongli tarzda chegaralanadiki, bu bilan qo‘yilgan maqsadga muvaffaqiyatli erishuvda boshqa bir sohadagi manfaatlarni amalga oshuvi evaziga ta’minlanadi. Muallif milliy davlat manfaatlarini konkret tarixiy sharoitda ustuvorligiga ko‘ra, asosiy, muhim va ikkinchi darajalarga ajratadi. Muhim manfaatlar millat hayot faoliyatini ta’minlash va taraqqiy ettirish muammolari bilan aloqadordir. Bularga masalan, harbiy xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va tarbiyasi kabilarni keltiradi. Ikkilamchi manfaatlar milliy davlat manfaatlari barcha ustunida yotsa-da, millat hayot faoliyati amal qilishi va taraqqiyotiga qulay sharoitni ta’minlash bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog’liq emas. Masalan, kosmosni tadqiq etish, arxeologik izlanishlar kabi boshqa masalalardir. Muallif fikrini davom ettirib, asosiy va ikkinchi darajali manfaatlar bilan birga, tub ildiziy manfaatlar ham mavjud. Ular millatning ijtimoiy organizm, yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lishi bilan to‘g‘ridan tug‘ri aloqadadir. Bularga, masalan, milliy yaxlitlik, milliy-madaniy o‘ziga xoslik, millat mavjud bo‘lish xavfsizligi kabilar bo‘lib, ularsiz biron-bir millat o‘zoqqa bormaydi. Mazkur manfaatlar milliy davlat manfaatlari tizimining yuksak darajasini tashkil etadi. Ular hech bir vaqtda boshqa bir manfaatni deb chetga surilmasligi, ortga tashlanmasligi kerak”.[3]

Ba’zi ilmiy adabiyotlarda milliy manfaatni iyerarxiek strukturasi keltirilgan:

a) “Milliy manfaatlar sohasiga ko‘ra: siyosiy, iqtisodiy, harbiy, mafkuraviy, madaniy, informatsiyaviy;

b) zamonga qarab (vaqtli) barqaror: ma’lum bir muddatlarga qaratilgan;

d) jamiyat va davlat uchun muhimligi darajasiga ko‘ra: hayotiy muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarini saqlash va himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning mavjud bo‘lishini belgilaydi;

e) ishtirok etuvchi (tomonlar) konfrontatsion, ajraluvchi, birgalikda tomonlar o‘rtasida;

f) geografik yo‘nalganligi: global, mintaqaviy, lokal, keltirilganlardan tashqari, milliy manfaatlarning boshqa klassifikatsiyalari ham mavjudligi ta’kidlanadi”.[4]

Bu yerda tadqiqotchi milliy manfaat tizimini ijtimoiy, davlat manfaati maqomida talqin etmoqda. Shu bilan birga, milliy manfaat tizimini ma’lum bir muddatli rejaviy dastur shaklida ifodalaydi. Tadqiqotchi milliy manfaat tizimida millatning muhim belgilari va ulardan qay biri ustuvor negizga egaligi masalasiga alohida e’tibor qaratmagan.

“Milliy manfaat, umuman, mavhum va subyektiv kategoriya bo‘lib, uning o‘lchamlari ma’lum jamiyat va davlatda hukumronlik qiluvchi qadriyatlar tizimi va olam manzarasi bilan belgilanadi”.[5]

Siyosiy realizmning taniqli vakillaridan Dj.Rozenau milliy manfaat tizimini subyektning mulohazalari majmuyidan iborat deb biladi: “Milliy manfaatlar tasnifi siyosatchilarning analitik va qadriyatlar bazasidan kelib chiquvchi mulohazalar sistemasidan boshqacha bo‘lishi mumkin emas”.[6] K.S.Gadjiyev esa milliy manfaatlar tizimini manfaatlar amalga oshuvining mavjud imkoniyati, shart-sharoiti va vositalari darajasidan kelib chiqib belgilash, mumkin degan fikrni ilgari suradi: “Milliy manfaatlar realligi uning

[1] Трухачёв В.В. Национальные интересы: сущность, структура, политические механизмы формирования. РУДН, М. http://cprsob. ru/ load/16-1-0-41

[2] Кулаков А.В. Геополитика и актуальные проблемы национальных интересов России на государственной границе. М., 2004, с. 122.

[3] Проскурин С.А. Система национально-государственных интересов России. М., 1998, с. 24.

[4] http//www.Unn/ru/pages/vestniki jornales/9999-0200 west MO 2003 1)16pay

[5] O'sha joyda.

[6] Розенау. National Jnterst. Jutevnational En cyclopedia of the Sasial Sciances. M.V., 1968,vol. XI.P, 37.

amalga oshuvi darajasi va jarayonlarida yuzaga chiqadi. Bu esa, o‘z navbatida, irodaviy va faoliyatli asosni, shuningdek, qo‘yilgan maqsadni ro‘yobga chiqarish vositalarini taqoza etadi”.[1] М.В.Ильин esa milliy manfaat tizimini suveren huquqiy davlat va fuqarollik jamiyati birligidan iborat deb, davlat manfaati milliy manfaatlar bilan mazmunan bog’liq bo‘lib qolmasdan, u qaysidir sezilarli darajada uning strukturaviy ma’nosini belgilaydi ham. Shuning uchun biz «milliy davlat manfaati tushunchasini ishlatishga haqlimiz»,[2] deb hisoblaydi. Bu yerda davlat manfaati bilan birgalikda fuqarolik jamiyati manfaatlarini uyg‘unligini e’tirof etgan holda, milliy manfaat tizimida davlat manfaatiga ustuvorlik berilmoqda. A.G. Zdravomislov va B.G.Nestrov nuqtayi nazaricha, manfaat – ijtimoiy hodisa bo‘lib, obyektivlik va subyektivlik birligidan iboratdir, bir tomondan, u moddiy asosga egadir (shaxs, gruh, sinf, jamiyat obyektiv ehtiyojlari mavjudligi tufayli), ikkinchi tomondan, ...ular ongda aks etadi va maqsad tarzida qiyofa kasb etadi. Olim bu yerda manfaat tizimida obyektivlik va subyektivlikni dialektik birlikda mavjud bo‘lishini, biri – ikkinchisiga ta’sirini, namoyon bo‘lishi, egalik qilishiga qarab turlarini ajratib ko‘rsatadi.[3]

Rus olimi Y.A.Tixomirov fikri milliy manfaat tizimini aniqlashda muhim metodologik ahamiyat-ga egadir. U milliy manfaatlar tuzilishini quyidagicha sinflashtiradi:

a) shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari. Shaxsning jamiyat ishlarida, etnik identichligini saqlashda ishtiroki, o‘z ehtiyojlarini tatbiq etishi;

b) jamiyat manfaatlari. Jamiyat ehtiyojlarining ijtimoiy taraqqiyotdagi keskin ziddiyatlarni hal etishda milliy identichligini saqlashda namoyon bo‘lishi;

d) davlat manfaatlari. Davlatning milliy o‘ziga xosligini saqlashda jamiyat ishlarini sifatiy boshqarish ehtiyojlarining namoyon bo‘lishi”.[4] Olimning fikriga shu ma’noda qo‘shilish mumkinki, milliy manfaatlar mavjud bo‘lishini (milliy manfaatlar tizimi shakllanishini) himoya etilishini shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari pozitsiyasi va vazifasi nuqtayi nazaridan ta’minlash ko‘rsatilmoqda.

A.G.Zdravomislov esa manfaatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy tizimi tasnifini beradi. Uning fikricha, inson faoliyatining barcha turlari maqsad va vositasiga ko‘ra, ro‘yobga chiqishi va amalga oshishi usullariga qarab hamda ijtimoiy yaxlitlikka nisbatan harakat munosabatiga binoan, bir-biridan ajralib turadi. Ayni paytda, faoliyatning bu ko‘rinishlari qandaydir umumiylikka ham ega ekanligi hamda bu umumiylik faoliyat turlarining manfaatlar vositasida o‘zaro bog‘langanligida ko‘zga yaqqol tashlanishi ta’kidlab o‘tiladi”.[5]

Xulosa qilganda, yuqorida keltirilgan manfaat tizimi yuzasidagi fikrlar o‘z obyektiv asosiga ega bo‘lib, obyektiv va subyektiv omillar birligini, o‘ziga xosligi va umumiy yaxlitligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, jamiyat rivoji bilan manfaatlar subyekti va faoliyati manfaat tizimida yangicha sifatiy o‘zgarishlar, qo‘shimchalar hosil qiladi. Manfaat tizimidagi elementlar ijtimoiy hayotda amal qilishi, tub hal etuvchi roli va ahamiyatiga ko‘ra biri ikkinchisini belgilab, ustuvorlik kasb etib boradi. Inson ehtiyojlari anglanishida yangicha sifatiy o‘zgarishlar manfaat tizimida ham o‘zgarishga olib keladi.

Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna (Navoiy davlat Pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: jurayevagulshanoy1@gmail.com)

JADID TA’LIM FALSAFASINING MILLIY MAFKURA VA MILLIY TA’LIM TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada jadid ta’lim falsafasining milliy mafkura va milliy ta’lim taraqqiyotidagi o‘rni, diniy va dunyoviy ilmlarni birlashtirish hamda bolaning moddiy va ma’naviy tarbiyasi haqida so‘z yuritilgan. Vadud Mahmud, A.Fitrat, A.Avloniyning fikr tarbiyasi, ma’naviy tarbiya, badantarbiya, axloq tarbiyasi va zamonaviy pedagogika haqidagi fikrlari tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль джадидской педагогической философии в развитии национальной идеологии и национального образования, интеграции религиозных и светских наук, материальном и духовном воспитании ребенка. Проанализированы мысли Вадуда Махмуда, А.Фитрата, А.Авлони об интеллектуальном воспитании, духовном воспитании, физическом воспитании, нравственном воспитании и современной педагогике.*

[1] Гаджаев К.С. Ун. Соч., с. 261.

[2] Ильин М.В. Критерий современности в политике (материалы круглого стола). “Полис”, 1995, №1, с. 81.

[3] http//www/allptava. ru/libraty/doc 108 p/instrem 4247/item 4250. html /tn 27#-fsn27

[4] Тихомиров Ю.А. Теория компетенций. М., изд. 2, 2001, с. 6.

[5] Здравомыслов А.Г. Потребности, интересы, ценности. М., 1986.

Annotation. *The article discusses the role of Jadid educational philosophy in the development of national ideology and national education, the integration of religious and secular sciences, and the material and spiritual upbringing of a child. Vadud Mahmud, A.Fitrat, A.Avloni's thoughts on intellectual education, spiritual education, physical education, moral education and modern pedagogy were analyzed.*

Kalit so'zlar: *milliy mafkura, milliy ta'lim, diniy va dunyoviy ilmlar, farzand tarbiyasi, ma'naviy tarbiya, badantarbiya, fikr tarbiyasi, zamonaviy pedagogika.*

Ключевые слова: *национальная идеология, национальное образование, религиозные и светские науки, воспитание детей, духовное воспитание, физическое воспитание, мыслительное воспитание, современная педагогика.*

Key words: *national ideology, national education, religious and secular sciences, child education, spiritual education, physical education, thought education, modern pedagogy.*

Milliy mafkura va milliy ta'lim bir-biri bilan bog'liq tushuncha bo'lib, har qanday mafkuraning negizi ta'limdir. Mafkura ta'limning hosilasi bo'lib, unda inson ongiga singdirilgan fikrlar amaliyotga aylanadi. Boshqacha aytganda, "mafkura muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir".[1]

Jadid ta'lim falsafasining milliy mafkura va milliy ta'lim taraqqiyotidagi o'rni beqiyos. Ahmad Donishdan boshlangan shaxs erki va ma'rifat uchun kurashning davomchilari Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Sidqiy Xondayliqiy, Ajziy, Ibrat, Tavallo, Avaz O'tar, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Hoji Muin, Avloniy, So'fizoda, Hamza singari yuzlab hurfikrli zotlarning hayoti, ijodi, faoliyati har birimiz uchun namuna. Milliy mafkuramizning asos tamoyillarini va ta'lim taraqqiyotining ustuvorligini belgilashda jadidlar amalga oshirgan ishlar, yozib qoldirgan asarlar dasturulamal vazifasini bajaradi.

XIX asr oxiri–XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadid ta'lim falsafasi o'zida ijtimoiy ongning barcha shakllarini birlashtirdi. Unda falsafa, din, ilm-fan, badiiy adabiyot, san'at, siyosat, huquq yagona maqsadga qaratildi. O'z atrofida juda katta guruhni birlashtirgan jadid ta'lim falsafasi tarixiy zarurat sifatida shakllandi va rivojlandi.

Diniy va dunyoviy ilmlarni birlashtirishdan ko'zlangan maqsad jamiyatni rivojlantirish, dunyoning yetakchi davlatlaridagi eng so'nggi yutuqlarni o'zlashtirish, xalqni ma'rifatli qilish, fan-texnika sohasidagi yangiliklarni hayotga joriy qilish, shuning barobarida, insonning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirish edi. Moddiyat va ruhiyatni muvozanatda saqlab turib, farovon va baxtli hayot tarzini bunyod qilish g'oyasi millatparvarlik siyosatining negizi, jadidlarning barcha xatti-harakatlari shunga qaratilgan.

Tarbiya oiladan boshlanadi, keyin u o'rta maktabda davom etadi. Ma'lum bir bosqichdan keyin inson o'z tarbiyasi uchun o'zi mas'ul. Demak, tarbiyaning o'chog'i oila, bola oilada o'rgangan odatlari uning ilk ko'nikmasi, shuning uchun farzand tarbiyasiga sharqda barcha zamonlarda katta e'tibor berib kelingan. Kaykovusning "Qobusnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridan tortib, hozirga qadar yozilgan va yozilayotgan kitoblarda bola tarbiyasiga jiddiy diqqat qaratilgan.

Vadud Mahmud "Bolalar tarbiyasi"[2] nomli maqolasida bolaning moddiy va ma'naviy tarbiyasi to'g'risida fikr yuritadi. Muallif "eski tirikliligimizda badan ilmi birinchi darajani tutar edi. Biz avvaldan askarlikka ahamiyat bergan millatlarning birinchilaridanmiz. Bu tarix kitoblarini mutolaa qilg'on har kishiga ma'lumdir", ded ta'kidlaydi va O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridan o'z fikrini dalillash uchun misol keltiradi. Hozirda esa askarlik nari tursin, badantarbiyaning, hatto boshlang'ich nuqtasidan uzoqlashib ketilganligini yozadi. Bolaning beshikka bog'lanishi haqida ham to'xtalib, "bu bolaning hanuz qotmag'on miyasini aljitmakdan boshqa ish" emas, degan fikrni aytadi. Bolalarni ovqatlantirish xususida ularning cho'ntagiga mayiz va boshqa narsalar bilan to'ldirish, ularni qo'llari tushgan narsalarni yeb yurishlari sog'liqlariga zararligini, ovqatlanish vaqtini tayin qilish zarurligini, chunki hazm qilish bilan bo'lishini, me'dani kuchsizlantirishini qayd etadi. Qolaversa, bu narsa bolani ochko'z, erka bo'lishiga olib keladi, deb fikr bildiradi.

Ma'naviy tarbiya to'g'risida bolalarni "ana ola po'stak keldi, ana ola bo'ji tovushi kelayotibdir, (o'rusga beray olib ketsun bo'lmasa" degan so'zlar bilan qo'rqitishni qoralaydi.

[1] G'oya va mafkura. T., "Ijod dunyosi", 2002, 15-bet.

[2] Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. T., "Ma'naviyat", 2007, 109 – 111-betlar.

Jadid matbuotidan keltirilgan bu maqola bugun ham o‘z kuchini yo‘qotmagan deb aytish mumkin. Maqolada sanab o‘tilgan holatlar, afsuski, hayotimizda hozirgacha saqlanib qolgan. Milliy ta’limda jadid ta’lim falsafasi yutuqlaridan o‘rinli foydalanish ijobiy natija berishi, tabiiy.

Bizning milliy qadriyatlarimizning asosini, poydevorini ming yillik tajribadan o‘tgan qadriyatlarimiz asosiga qurilgan.

Sharqda tarbiya deganda uch narsa: fikr, badan, axloq tarbiyasi tushunilgan. Agar ana shu uch omildan bittasida nuqson, kamchilik bo‘lsa, tarbiya mukammal bo‘lmaydi.

Fitratning yozishicha, “badantarbiya – badanni sog‘lom va kuchli hamda a’zolarni mukammal darajaga yetkazishdan iborat, busiz baxt-saodatga erishib bo‘lmaydi”.[1] Badan tarbiyasida ovqatlanishga e’tiborli bo‘lish, tozalikka rioya qilish kerak. Bolalarni toza havoda harakatli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishlari lozim. chunki harakatsizlik bolalarning o‘sishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. ”Jadid maktablarida, deb yozadi Fitrat, bolalar uchun ilmiy yo‘naltirilgan o‘yinlar joriy qilingan”.[2] Madrasada bolalar kaltak bilan o‘qitilgan bo‘lsa, jadid maktablarida bolalarni bunday jazolash uning ham jismonan, ham ma’nan rivojlanishini susaytiradi, ruhiyatini sindiradi deb tushunilgan. Psixologiya bolalarni jazolash salbiy oqibatlarga olib kelishini tasdiqlaydi, shuning uchun zamonaviy pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonida bunday jazolashni keskin rad etadi.

Avloniyning fikricha, badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsa, chunki o‘qish, o‘qitish, o‘rganish va o‘rgatish uchun insonga kuchli, sog‘lom tana kerak. Tana kuchsiz, zaif, kasalmand bo‘lsa, insonning amalida, ibodatida kamchilik bo‘ladi. Sog‘likka e’tiborli bo‘lish, unga zarar yetkazuvchi yomon odatlar (ichkilik, chilim, nos, sigaret, ko‘knor, nasha)dan tiyilish, nafsni jilovlash aqli komil insonlarga xos. Tana va ruh bir choponning o‘ng va tersiga o‘xshaydi. Tananing tarbiyasi tozalikka rioya qilish, yomon odatlardan saqlanishdir. Choponning o‘ngi qolib, teskarisini yuvilsa, kiri ichiga uradi. shuning uchun salomatlik to‘g‘risida qayg‘urish, sog‘likka beparvo bo‘lmaslik kerak.

Insonning koinot gultoji, guhari sharifligining sababi unga Yer yuzida boshqa biror jonzotga berilmagan ne’matlar fikr, aql, axloq berilgan. Inson ana shu xislatlari bilan boshqa yaratiqlardan farq qiladi. Fikr har qanday ishning boshlang‘ich nuqtasidir, negaki, yaxshi yoki yomon ishlar avval insonning miyasida paydo bo‘ladi. Amalga oshgan har qanday amal fikrning natijasidir. Fikr turli-tuman bo‘lishi, tabiiy, aql uni to‘g‘ri yo‘lga solib turadi.

“Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”,[3] deb yozadi Avloniy. Ta’lim va tarbiya o‘rtasida muayyan farq bo‘lsa ham, bu ikki tushuncha bir-birini taqozo qiladi, ularning birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydi, fikrsizlik inson uchun eng katta fojia, fikrsizlik bu qullik, o‘zligini, insoniy qiyofasini yo‘qotishdir. Fikrsiz odam o‘z-o‘zidan boshqalarning buyruqlarini bajarishga mahkum. Ch.Aytmatov nazarda tutgan manqurtlik fikrsizlikning aynan o‘zidir. Fikrsizlik yoki noto‘g‘ri fikrlash nafaqat o‘sha odamning o‘zini, oilani, butun boshli saltanat, mamlakatlarni parchalab, barbod qilganiga tarixda misollar juda ko‘p.

Jadidlar jamiyat tanazzulining va mustamlakachilikning bosh sababi jaholat va ma’rifatsizlikda. Ular og‘ir vaziyatdan chiqish uchun ma’rifat yo‘lini tanladi va mavjud imkoniyatdan juda unumli foydalanib, milliy madaniyatimiz, ma’naviy merosimizni xalq ong-tafakkuriga singdirish lozim, deb hisobladi. Chunki kishilarning ongi o‘zgarmas ekan, ko‘riladigan biror tadbir, chora, vosita bilan hech narsa o‘zgarmasligini alloma chuqur idrok qilardi. Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishining asl sababi taxt tepasidagi turgan amir-u xonlarning dunyoqarashidagi noqislik, ma’naviy ojizlik edi, xolos. Agar amir-u xonlar sal boshqacha fikr yuritganlarida, bir bayroq ostida birlashganlarida, ehtimol, vatan tarixi mutlaqo boshqa o‘zanga burilib ketarmidi. Amir Temur saltanatini inqirozga yetaklagan fojia temuriy shahzodalarning xato fikr yuritishlari – o‘z manfaatlarini butun millat, xalq manfaatidan ustun qo‘yishlari natijasi ekanligiga tarix guvoh.

“Fikr tarbiyasi odamning aqlini kamolga yetkazish va baxt-saodatga yetishi uchun qobiliyatli qilib tarbiyalashdir. Odam aqli to‘g‘ri va yaxshi muhokama eta olsagina, kamolga yetgan hisoblanadi”.[4] Dunyodagi jami ezgu va yovuz amallar odamlarning fikrlari hosilasidir. Qirg‘inbarot urushlar, oilalardagi ajrimlar, do‘stlar o‘rtasidagi munosabatlarga darz ketishi, o‘zaro kelishmovchiliklar, sadoqat va xiyonat,

[1] Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild, T., “Ma’naviyat”, 2010, 193-bet.
[2] Shu manba. 194-bet.
[3] Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., “O‘qituvchi”, 1992, 15-bet.
[4] Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild, T., “Ma’naviyat”, 2010, 195-bet.

havas va hasad, yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va yalqovlik, boylik va kambag‘allik inson fikrlarining samarasi, oqibatidir. Aytish mumkinki, inson taqdiriga uning qanday fikrlashi juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘z qismatini fikrlari orqali o‘zi belgilaydi. Jadid ta’lim falsafasida fikrlashga alohida e’tibor berilgan. Darslar ikki qismga bo‘lingan: nazariy va amaliy. Bolalarni, avval, fikrlashga o‘rgatilgan, keyin shu fikr amalda sinalgan, natijani o‘quvchi his qilgan, ko‘rgan va shu tariqa boshlangan ishning oqibati nima bilan tugashi unga ko‘rsatilgan. Masalan, dars jarayonida qo‘llangan turli xil o‘yinlar nazariy fikrning amaliy ifodasi sifatida bolaning xotirasiga muhrlanadi. Jadid ta’lim falsafasida qo‘llangan metodlar bugun ta’lim tizimida ommalashganligi o‘qish-o‘qitishning sifat darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xudjaqulova Feruza Raxmatovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi)

MAFKURAVIY ONG IJTIMOIY ONG TIZIMI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida o‘quvchi-talaba yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning falsafiy jihatlarini o‘rganishdan iborat.*

Аннотация. *Данная статья представляет собой исследование философских аспектов формирования национального мировоззренческого сознания студенческой молодежи на основе анализа содержания событий, явлений и процессов, происходящих в обществе на новом этапе развития Узбекистана.*

Annotation. *This article is a study of the philosophical aspects of the formation of the national ideological consciousness of students based on the analysis of the content of events, happenings and processes taking place in society at a new stage of development of Uzbekistan.*

Kalit so‘zlar: *mafkura, milliy mafkura, g‘oya, g‘oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy tajovuz, g‘oyaviy ziddiyat, g‘oyaviy qaramlik, gnoseologiya, jamiyat, ideosfera, ma’naviy dunyo, vosita, usul, ta’lim, tarbiya.*

Ключевые слова: *идеология, национальная идеология, идея, идейно-идеологическая жизнь, идейное сознание, идеологическая деятельность, идеологическая установка, идеологическое пророчество, идеологическая ситуация, идеологическая цель, идеологическая идеология, идеологическая политика, духовный мир, средства, метод, обучение, воспитание.*

Key words: *ideology, national ideology, idea, ideological and ideological life, ideological consciousness, ideological activity, ideological attitude, ideological prophecy, ideological situation, ideological goal, ideological ideology, ideological policy, spiritual world, means, method, training, education.*

Jamiyat tushunchasi ko‘p ma’noli bo‘lib, jamiyat ijtimoiy munosabatlarning yig‘indisidir.[1] Bugungi kunda inson ongini, uning xususiyatlarini tushunib yetish masalasi eng murakkab va jumboqlarga boy bo‘lgan muammolar qatoriga kiradi. Bunga sabab uni qo‘l bilan ushlash, ko‘z bilan ko‘rish, turli xil asboblar bilan o‘lchash orqali bilish imkoniyatining yo‘qligidir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, odamlar ming yillar davomida uning mohiyatini o‘rganish, sir-asrorlarini bilishga harakat qilib kelganlar va bu sohada muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi. Bu sohalar uchun umumiy jihat ularning mavjudligidadir. A.G.Spirkin shunday yozadi: «Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma’naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chuqur hayolotning mevasi bo‘lgan yertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham, borliqning qismi bo‘lgan ma’naviy reallik sifatida mavjuddir».[2]

Xo‘sh, ong nima? Bu savolga faylasuf olimlar hozirgi kun ilm-fan yutuqlaridan kelib chiqqan holda, quyidagicha javob beradilar:

Inson ongi:

- ♦ *birinchidan,* yuksak darajada tashkil topgan materiya inson miyasining xususiyatidir;
- ♦ *ikkinchidan*, voqelikni in’ikos etishning oliy shakli, moddiy dunyoning ma’naviy obrazidir;
- ♦ *uchinchidan,* ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsulidir;

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 68-бет.

[2] Спиркин А.Г. Философия. М., 2000, 243-бет.

♦ *to‘rtinchidan*, insonning biron-bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini tartibga soluvchisi, boshqaruvchisidir.

Shunday qilib, ong – bu inson tomonidan mavjud voqelikni aks ettirish va ma’naviy o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, yuksak darajada tashkil topgan materiya – inson miyasining mahsuli, obyektiv olamning subyektiv obrazi, biron-bir faoliyat yuritishning harakat dasturini yaratish, uni amalga oshirish va boshqarish uchun kerakli bo‘lgan axborotlarni olish, to‘plash, saqlash, qayta ishlashni tashkil qilish asosida boshqarishga qaratilgan faoliyat shaklidir.[1]

Inson ongining tarkibiy qismlarini sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutqlardan iborat bo‘lgan hissiy va aqliy bilish jarayonlari tashkil qiladi. U sohiblariga ko‘ra, individual va ijtimoiy ong shakllariga bo‘linadi. Bu xususda S.E.Krapivenskiy: ”Individual ong deb ijtimoiy borliqni alohida kishilar tomonidan hayot kechirish sharoiti va faoliyati prizmasi orqali in’ikos etishidir”, – degan ta’rif beradi.[2]

Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga, dinamik xususiyatga ega bo‘lgan fenomen bo‘lib, asosan, ikkita: gnoseologik va sotsiologik aspektda o‘rganiladi. Ijtimoiy ong gnoseologik aspektda mavjud borliqni aks ettirishning kundalik va nazariy darajasi, sotsiologik aspektda esa uning faoliyat momenti, faoliyat olib borishidagi munosabatlar tizimi sifatida talqin va tadqiq qilinadi. Sotsiologik aspektga ko‘ra, ijtimoiy ongni ijtimoiy psixologiya va mafkura (ideologiya)ga bo‘lib o‘rganish qabul qilingan.

Ijtimoiy psixologiya bu shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, xalqlarning bevosita mehnat va turmush sharoitlari ta’sirida vujudga keladigan kundalik qarashlari, odatlari, sezgilari, axloqiy xususiyatlari, tuyg‘ulari, yangilishuvlari va xayollarining yig‘indisidir.

Mafkura – bu ijtimoiy guruh, sinf, millat, jamiyatning mavjud reallikni o‘zining manfaatlari, ideali, maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ifodalaydigan qarashlar, g‘oyalar, tamoyillar tizimi bo‘lib, u jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi.

Mafkura va ijtimoiy psixologiya o‘rtasidagi farq quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy psixologiya biron-bir ijtimoiy guruh yoki sinfning manfaatlarini bevosita tarqoq holda aks ettirish tufayli yuzaga kelsa, mafkura esa ma’naviy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan muayyan kishilar guruhi tomonidan biron-bir maqsadni ko‘zlagan holda yaratiladi;

2) ijtimoiy psixologiya voqelikni aks ettirishning birinchi quyi darajasi – oddiy ongni tashkil etsa, mafkura esa voqelikni ifodalashning tartibga solingan va ilmiy jihatdan shakllantirilgan ikkinchi yuqori darajasi – nazariy ong sifatida o‘zini namoyon qiladi;

3) ijtimoiy psixologiya odamlarning barcha qarashlarini yaxlit qorishiq tarzda qamrab olsa, mafkura esa bir-biridan ajratilgan siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy, diniy, estetik qarashlar tizimidan tashkil topgan bo‘ladi;

4) ijtimoiy psixologiya kundalik hayotiy vazifalarni amalda yechishga, mafkura esa global ijtimoiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ong ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, uni olimlar siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, din, fan, san’at kabi shakllarga bo‘lib o‘rganadilar. Ijtimoiy ongning mazkur shakllari mavjud voqelikdagi vaziyatga qarab, biron-bir mafkuraning obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Mafkura esa ijtimoiy ong shakllarining mazkur voqelikni qanday darajada in’ikos etganligiga qarab, ularni biron-bir maqsad sari yo‘naltiradi. Bu esa mafkuraviy ongning qanchalik darajada shakllanganligiga va rivojlanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Demak, shunday ekan, mafkuraviy ong nima va u qanday xususiyatlarga ega degan savol tug‘iladi.

Mafkuraviy ong – bu jamiyat hayotining mafkuraviy sohasida yuz berayotgan narsa va hodisalarning kelib chiqish, shakllanish va rivojlanish jarayonlarini yuqori darajada tashkil topgan moddiy a’zo inson miyasida sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, xulosalar tarzida aks ettirilishi.

Mafkuraviy ongga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) mafkuraviy ong ma’naviy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan muayyan kishilar guruhi tomonidan biron-bir maqsadni ko‘zlagan holda yaratiladi;

2) mafkuraviy ong ijtimoiy ongning voqelikni ifodalash borasidagi tartibga solingan va ilmiy jihatdan shakllantirilgan yuqori darajasi – nazariy ong sifatida o‘zini namoyon qiladi;

3) mafkuraviy ong bir-biridan ajratilgan siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy, diniy, estetik qarashlar tizimidan tashkil topgan bo‘ladi;

---

[1] Муҳаммадиев Н.Э. Ўзбек халқининг миллий ғоя ва мафкураси. Монография, Т., ТошПТИ, 2018, 36-бет.

[2] Крапивенский С.Э. Социальная философия. М., “Владос”, 1998, с. 229.

4) mafkuraviy ong kundalik hayotiy vazifalarni amalda yechishga emas, balki global ijtimoiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, mafkuraviy ongning obyektini jamiyat hayotining mafkuraviy sohasi – ideosfera, uning predmetini esa insonning g‘oya va mafkura sohasidagi turli shakllarda namoyon bo‘ladigan, muayyan maqsadga qaratilgan ijtimoiy faoliyati tashkil qiladi.

Mafkuraviy ong ijtimoiy ong tizimida, uning barcha shakllari uchun quyidagi funksiyalarni:

♦ *birinchidan*, barcha ijtimoiy ong shakllarining ijtimoiy borliqning qaysi muhim ma’naviy-mafkuraviy ahamiyatga ega molik bo‘lgan passiv emas, balki faol bo‘lgan g‘oyaviy qirralarini oldindan bilish orqali jamiyatni istiqbol sari boshlab borish;

♦ *ikkinchidan,* akkumulativ (to‘plash, yig‘ish), ya’ni, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni, shuningdek, zamondoshlari to‘plagan bilim va tajribalarni bir joyga to‘plab, ularni tahlil qilib, ulardan qaysi biri ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish uchun mafkuraviy manba–ozuqa bo‘lishini aniqlab olish;

♦ *uchinchidan*, aksiologik, qaysi bir ijtimoiy ong shaklining mavjud reallikdagi jamiyat uchun ko‘p-roq qadr-qiymatga ega ekanligini bilish va undan foydalanish;

♦ *to‘rtinchidan*, ijtimoiy ong shakllarining maqsad-muddaolarini shakllantirish, ya’ni, jamiyatning ko‘zlagan maqsadlarini aniq ifodalash va unga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berish vazifasini amalga oshirish;

♦ *beshinchidan,* ijodiy (konstruktiv), ya’ni, har bir ijtimoiy ong shakllarii yangi element, komponentlar bilan to‘lg‘azib borish;

♦ *oltinchidan,* kommunikativ (aloqa), ya’ni, ijtimoiy ong sohiblari o‘rtasidagi o‘zaro mafkuraviy munosabatlarni o‘rnatish orqali aloqada bo‘lishni ta’minlash;

♦ *yettinchidan*, regulativ (boshqarish), ya’ni, ijtimoiy ong sohiblarining shaxsiy va jamoaviy xatti-harakatlarini muayyan g‘oya asosiga qurilgan mafkura asosida tartibga keltirish, boshqarish kabilarni bajaradi.

TILSHUNOSLIK

Nasirov Davranbek Palvannazirovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti; e-mail: nosirov-d@mail.ru)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA VARIABELLIK, VARIATIVLIK HAMDA VARIANTLILIK MUAMMOSI

Annotatsiya. *Maqaloda zamonaviy tilshunoslikda variabellik, variativlik va variantlilik muammosi ko‘rib chiqiladi, bu terminlarning semantik farqlari ochib beriladi, til tizimi variativligi namoyon bo‘lishining ijtimoiy xarakteri aniqlanadi. Tilning variativligi tabiiy jarayondir, chunki u lingvistik va ekstralingvistik omillar ta’sirida til rivojlanishining obyektiv natijasidir. Variativlik – til tizimining ontologik xususiyati. U tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi: fonetik, leksik, morfemik, so‘z yasalishi, aynan morfologik, sintaktik, stilistik sathlarida. Til birliklarining variantlari o‘z xilma-xilligi va turlari bilan xarakterlanadi. Variativlik tilning tuzilishi, uning hududiy shartlanganligi, til mavjudligining vaqtinchalik parametrlari bilan cheklanmaydi. Lingvistik variativlik, variabellik va variantlilik tushunchalarini farqlash zarur. Variabellik deganda adabiy til birliklarining o‘zgaruvchanlik qobiliyati tushuniladi. Variativlik adabiy til faoliyatining ma’lum bir bosqichida til birliklarining ana shu qobiliyatini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Variantlilik variantlarning turli belgilar bo‘yicha o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема вариабельности, вариативности и вариантности в современном языкознании, раскрываются семантические различия данных терминов, выявляется социальный характер проявления вариативности языковой системы. Вариативность языка является закономерным процессом, поскольку представляет собой объективное следствие языкового развития под влиянием лингвистических и экстралингвистических факторов. Вариативность выступает онтологическим свойством языковой системы. Она проявляться на всех уровнях языка: фонетическом, лексическом, морфемном, словообразовательном, собственно морфологическом, синтаксическом, стилистическом. Варианты языковых единиц характеризуются разнообразием типов и видов. Вариативность не ограничена ни структурой языка, ни территориальной его обусловленностью, ни временными параметрами существования языка. Следует разграничивать понятия языковой вариативности, вариабельности и вариантности. Вариабельность означает способность языковых единиц литературного языка к варьированию. Вариативность проявляется в реализации данной способности языковых единиц на определенном этапе функционирования литературного языка. Вариантность предполагает корреляцию вариантов по различным признакам.*

Annotation. *The article deals with the problem of variability, variation and variability in modern linguistics, the semantic differences of these terms are set out, the social nature of the manifestation of the variability of the language system is revealed. Language variability is a natural process, since it is an objective consequence of language development under the influence of linguistic and extralinguistic factors. Variation is an ontological property of a language system. It manifests itself at all levels of the language: phonetic, lexical, morphemic, derivational, proper morphological, syntactic, and stylistic. Variants of language units are characterized by a variety of types and ways. Variability is limited neither by the structure of the language, nor by its territorial conditionality, nor by the temporal parameters of language existence. It is necessary to distinguish between the concepts of linguistic variability, variation and variability. Variability means the ability of literary language units to vary. Variability is manifested in the implementation of this ability of language units at a certain stage in the functioning of the literary language. Variance implies the correlation of variants on various grounds.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy birlik, til tizimi, adabiy til, til birligining varianti, variabellik, variativlik, variantlilik.*

Ключевые слова: *языковая единица, языковая система, литературный язык, вариант языковой единицы, вариабельность, вариативность, вариантность.*

Key words: *language unit, language system, literary language, language unit variant, variability, variation, variance.*

Kirish. Lisoniy birlikning parallel ravishda ishlatiladigan, odatda, teng huquqli maqomga yoki qo‘llashning ma’lum semantik-stilistik o‘ziga xosligiga ega bo‘lgan ikki va undan ortiq variantlari mavjudligi tilga lingvistik va ekstralingvistik omillar ta’sirida yuzaga kelgan lisoniy rivojlanishning obyektiv oqibati bo‘lgan variativlik xosligini ko‘rsatadi.

Variativlik muammosini bayon qilishda biz variativlik hodisasi til tizimining ontologik xususiyatidir, degan postulatga tayanamiz. J.Bagana, Y.V.Bondarenko, O.O.Chernovalar til tizim sifatida uning ishlashiga ta'sir ko'rsatib unga sabab bo'ladigan bir qator xususiyatlarga ega deb yozishadi. Bunday til xususiyatlariga, eng avvalo, uning variativligini kiritish lozimdir: «Lisoniy tizim, dastlab, shunday tuzilganki, uning har bir birligi o'zining variantlaridan biri shaklida vazifasini bajarib bu variantlarning o'ziga xosligi ushbu birlik tegishli bo'lgan daraja bilan belgilanadi» (Bagana, Bondarenko, Chernova, 2012, 41).

Shunday qilib, variativlik lisoniy birliklarning o'zgaruvchanlikka moyilligi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ushbu birliklarning o'zgaruvchanligi ularning tegishli identifikatsiyasiga va dastlabki lisoniy birligi bilan bir-biriga bog'lanishiga to'sqinlik qilmaydi.

U. Labovning ishlarida mazkur lisoniy variativlikning quyidagi xususiyatlari qayd etilgan:

1) me'yor doirasida ruxsat etilgan har bir lisoniy variant nutq shartlariga, ya'ni, uslub, janr, vaziyatning rasmiylik-norasmiyligi, muloqot maqsadlari va boshqalarga bog'liqdir;

2) vaziyatga qarab yoki gapirayotgan shaxs puxtalik bilan aytilishi ravshan bo'lgan, ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan variantlarni tanlaydi yoki ularning chegaralari yuvilib ketib, birinchi o'ringa qulayroq shakllar qo'yiladi;

3) turli nutq uslublariga bir lisoniy birlikning turli variant (marker)lari tegishli bo'ladi;

4) markerlarning yig'indisi: a) suhbatdoshlarning ijtimoiy tavsiflariga oid; b) kontekstning stilistik differensiatsiyalanishiga (nutqiy muloqot vaziyatidan) bog'liq ijtimoiy lingvistik o'zgaruvchi miqdor sifatida aniqlanadi (Labov. 1975, 150).

Asosiy qism. Lisoniy variativlik ikki parametrga bog'liqligi hamda lisoniy variantlar ularga qarab o'zgarishi mumkinligini hisobga olib, u yoki bu variantining ishlatilishi mazkur omillar tomonidan ularning ta'siri orqali belgilanadigan lisoniy asosni aniqlash kerakligini qayd etish lozim. Ushbu holatda biz ijtimoiy lingvistikaning poydevor tushunchasi – lisoniy me'yor haqida so'z yuritamiz.

Modifikatsiyaga uchragan lisoniy birliklar boshlang'ich lisoniy birlikning variantlarini ifodalaydi. Lisoniy birlikning variantlari deganda «har bir o'zaro munosabatda bo'lgan lisoniy birliklar» tushuniladiki, «agar ularning paydo bo'lishi tilning rivojlanish dinamikasiga bog'liq bo'lsa, ularning ishlatilishi gapirayotgan shaxsning tuzilgan birliklar to'plamidan tilning ijtimoiy, makonga oid (territorial), funksional-ma'noviy yoki janr-uslubiy variatsiyalanishiga ko'ra, lisoniy yoki nolisoniy kontekstga qarab tanlaganlariga bog'liq bo'lsa» (Rivlina. 2014, 409).

Lisoniy birliklarning variantlari, lisoniy tizimning variativligi o'zi kabi, tur va shakllar xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Misol uchun, lisoniy birliklarning variantlarining quyidagi turlari ajratiladi:

– orfoepik variantlar;
– aksent variantlar;
– grafik variantlar;
– imloviy variantlar;
– fonematik variantlar;
– lug'aviy variantlar;
– semantik variantlar;
– so'z yasash variantlari;
– morfologik variantlar;
– sintaktik variantlar;
– uslubiy variantlar va boshqa.

A.A.Lebedeva ta'kidlashicha, «variativlik tilning tizim sifatida o'zgaruvchan, dialektik tabiatini aks ettirib, til birliklarining harakatchanlik xususiyatini belgilaydi. Variativlik muammosiga, odatda, misol uchun, fonemalarning nutqda turli amalga oshirilishini yoki adabiy tilning territorial, shu jumladan, milliy variantlarini solishtirishda murojaat qilinadi» (Lebedeva. 2014, 47).

Shu bilan birga, variativlik tilning barcha, ya'ni, fonetik, leksik, morfem, so'z yasash, morfologik, sintaktik, uslubiy darajalarida namoyon bo'lishi mumkin. Xarakterli tomoni shundaki, o'rganilayotgan hodisa tilning ham diaxron, ham sinxron jihatlarini qamrab olishi mumkin. Boshqa tomondan, u ham adabiy tilning ichida, ham uning doirasidan tashqari namoyon bo'lishi mumkin.

Bu borada S.N.Dubrovina «zamonaviy lingvistika lisoniy variativlikni lisoniy tizimning tilda shakl va mazmun jihatidan, sinxroniya va diaxroniyada, barcha ajratiladigan quyi tizimlar va birliklarga hamda tizim ichidagi munosabatlar va «til bu tashqi dunyo» munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan obyektiv immanent xususiyati sifatida ko'rib chiqadi», deb yozadi (Dubrovina. 2015, 44). Shunga ko'ra, variativlikning

na tilning tuzilishi, na uning territorial shartlanganligi, na til mavjudligining vaqt parametrlari bilan chegaralanmaganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Lingvistik adabiyotda lisoniy variativlik tushunchasi bilan bir qatorda, «ko‘pincha, differensiyasiz qo‘llanib, bunda bir necha turli tushunchalarni, birinchidan, tilda alohida turlarning, ya’ni, jug‘rofiy variantlar, shevalar, funksional turlar, janr-uslubiy til shakllari va hokazolarning mavjudligi, ikkinchidan, mazmun jihatidan yoki yasalishida yaqin bo‘lgan turli aytilishda nodistinktiv farqlardan tortib, rasman o‘xshash birliklarning ma’nosida (yoki ma’no tuslarida) lug‘aviy va grammatik ma’nodosh so‘zlar hamda farqlargacha bo‘lgan lisoniy darajalar birliklarining tilda uning bir yoki bir necha turlarida parallel ravishda vazifasini bajarishini belgilaydigan» lisoniy variabellik va variantlik tushunchalarini ham uchratish mumkin (https://pgu.ru/editions/un_reading/detail.php?SECTION_ID=2832&ELEMENT_ID=9638).

Variabellik deganda J.Bagana, Y.V.Bondarenko, O.O.Chernovalar «til yoki, umuman, uning darajalarining xususiyati, me’yoriy vositalarni variatsiyalash (turlash) qobiliyatini» tushinishadi. «Variativlik bu sinxron yondashuvning ichida va adabiylik, me’yorlik doirasida variantlarning o‘zaro almashinuvi; me’yoriy variantlarni nutqiy faoliyatda vazifasini bajarishi. Variantlik bu ishlatilishi nutqda qayd etilgan variantlarni yonma-yon joylash (ham sinxroniyada, ham diaxroniyada) (Bagana, Bondarenko, Chernova. 2012, 48).

Ko‘rib turibmizki, lisoniy variativlik, variabellik va variantlik bu aynan o‘xshash bo‘lmagan tushunchalar: variabellik bu adabiy tilga tegishli bo‘lgan lisoniy birliklarining variatsiyalanish qobiliyati, variativlik bu lisoniy birliklarning ushbu qobiliyatini adabiy til ishlashining ma’lum bir, odatda, zamonaviy, bosqichida amalga oshirilishi, variantlik bu adabiylik-noadabiylik, zamonaviylik-eskirish, to‘g‘rilik-noto‘g‘rilik, umuman, me’yorlik-nome’yorlik belgilari bo‘yicha variantlar korrelyatsiyasini (munosabatdorligini) namoyon bo‘lishi.

Lisoniy variativlik o‘zaro nisbatini o‘rganish jarayonida S.N.Dubrovina variativlikni «tilning rivojlanish va o‘zgarish dinamikasi, jarayoni», variantlikni esa «til tizimining o‘zida aks ettirilgan va mazkur tilning ma’lum variantlari mavjudligida namoyon bo‘ladigan variativlik (tilda dinamik o‘zgarishlar) natijasi sifatida» ko‘rib chiqadi. «Boshqa so‘z bil aytganda, variativlik doim shaklini o‘zgartirish qobiliyati borligini ko‘rsatadi – nutqda bu lisoniy ekspressiyada eng aniq namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, variantlik nutqda qayd qilib bo‘lingan, uning hamisha yashab u yoki bu lisoniy o‘zgarishlarni sababi bo‘ladigan potensial harakatlantiruvchi kuchi yo‘q» (Dubrovina. 2015, 47).

Mazkur talqinda variativlik va variantlik sabab va oqibat sifatida namoyon bo‘ladi, variantlik bu variativlikning tarixiy evolutsiyasi natijasidir.

Variativlikning tarixiy evolutsiya qilishga moyilligi va keyingi variativlikning variantlik turkumiga o‘tishini O.O.Chernova ham qayd etgan: «tarixiy jihatdan til variantligi bu tashqi va tizim ichidagi omillarning o‘zaro ta’siri tufayli yuzaga kelgan lisoniy evolutsiyaning natijasidir» (Chernova. 2016, 84). Bizningcha, bu omillar orasida birinchi o‘rinda «tilning zamon va makonda harakatlanadigan dinamik tizim sifatida» mohiyatini ko‘rsatish lozimdir. «Konstantlik – variativlik ontologik oppozitsiyasi (barqarorlik, o‘zgaruvchanlik dixotomiyasi kabi) tilning zamon va makonga oid dispersiyasini juda aniq aks ettiradi» (Lebedeva. 2014, 49).

Lisoniy birliklarning variativligi lisoniy iyerarxiyaning barcha bosqichlarida, lekin turli darajadagi faollik bilan namoyon bo‘ladi, chunki «lisoniy tizim parametrlarining o‘zgarish tezligi bir xil emas. Misol uchun, so‘zlashuv leksika va frazeologiya fonetik va grammatik tomonlarga nisbatan ancha o‘zgaruvchanroq. Shunday qilib, diaxroniya nuqtayi nazaridan, har bir tilning tizimida turli davrlarga oid bo‘lgan to‘planishlar nazarda tutiladi» (Lebedeva. 2014, 48).

O.O.Chernovaning o‘rinli fikriga ko‘ra, «til variantligining dastlabki sharti ham tilning ichki tabiatining o‘zida, ham uning borligining ijtimoiy-tarixiy shakllarida» (Chernova. 2016, 84). Bu holatdan kelib chiqadiki, variantlikning mohiyati bu nafaqat lisoniy, balki ijtimoiy hodisadir.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikda variativlikning ijtimoiy tabiatini o‘rganish tobora dolzarblik kasb etmoqda. S.A.Ziyayeva talabalarning boshqa tilga oid nutqining shakllanish jarayoniga ijtimoiy lingvistik omillarni kiritish va «ular tomonidan nutqiy etiket formulalari, gapirayotgan shaxslarning maqomi, ularning yosh toifasi, genderga mansubligi, niyatining xususiyati va hokazolarga qarab ijtimoiy munosabatlarni ifodalashning lisoniy vositalarini jiddiy o‘rganishi» (Ziyayeva. 2020, 61) kerakligini ta’kidlagan. Bu borada variabellik, variativlik va variantlik tushunchalarining o‘zaro nisbati muammosini tadqiq qilish, mazkur atamalarning ma’noviy nyuanslarini aniqlab tahlil qilish, lisoniy tizim variativligining namoyon bo‘lishiga oid xususiyatlarni ochish nafaqat zamonaviy tilshunoslik, balki ona tili va xori-

jiy tillarni o‘qitishning nazariya va amaliyoti uchun ham, shubhasiz, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Багана Ж., Бондаренко Е.В., Чернова О.О. Теоретические основания изучения проблемы языковой вариативности. Научные ведомости. Серия гуманитарные науки, 2012, № 6 (125), Выпуск 13, с. 41 – 49.

2. Дубровина С.Н. Вариативность как универсальное свойство языка. Верхневолжский филологический вестник, 2015, № 3, с. 44 – 48.

3. Зияева С.А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку. Дисс. ...докт. пед. наук (DSc), Т., 2020, с. 344.

4. Лабов У. Исследование языка в его социальном контексте. Новое в лингвистике. М., 1975, вып. 7, с. 96 – 181.

5. Лебедева А.А. Константность и вариативность как свойства языковой системы. Rhema. Рема, 2014, № 4, с. 47 – 50.

6. Ривлина А. Лексическая вариативность в свете глобализации английского языка. The Handbook of World Englishes. Wiley-Blackwell, 2014, p. 407 – 429.

7. Чернова О.О. Вариативность системы современного литературного немецкого языка и национальное своеобразие лексики его австрийского варианта (на материале названий продуктов питания). Научные ведомости. Серия «Гуманитарные науки», 2015, № 12 (209), выпуск 26, с. 84 – 88.

8. https://pgu.ru/editions/un_reading/detail.php?SECTION_ID=2832&ELEMENT_ID=9638.

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi)

TURLI TIZIMLI TILLARDAGI ANTONIMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotasiya. *Ushbu maqolada turli tillardagi antonimiya hodisasi haqida mulohazalar keltirilgan va misollar yordamida tahlilga tortilgan. Antonimiya juft so‘zning o‘zaro leksik ma’nolari asosida yuzaga keladi. Bu munosabatga ko‘ra, ma’lum bir so‘z ikkinchi bir leksik birlikka nisbatan uning antonimi deb yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье комментарии к феномену антонимов в разных языках представлены и проанализированы на примерах. Антонимы возникают на основе взаимных лексических значений пары слов. В соответствии с этим отношением определенное слово рассматривается как антоним для другой лексической единицы.*

Annotation. *In this article, the antonymic phenomenon in different languages is discussed and analyzed with the help of examples. Antonyms arise on the basis of mutual lexical meanings of a pair of words. According to this relationship, a certain word is treated as its antonym for another lexical unit.*

Kalit so‘zlar: *antonim, argumentatsiya, leksik, sinonim, fonetik, morfema, suffiks, konversiv, strukturaviy-semantik.*

Ключевые слова: *антоним, аргументация, лексика, синоним, фонетика, морфема, суффикс, конверсия, структурно-семантическая.*

Key words: *antonym, argumentation, lexical, synonym, phonetic, morpheme, suffix, conversion, structural-semantic.*

Antonim ham biror gapdagi ikkinchi bir so‘zga nisbatangina antonim bo‘la oladi. Juft so‘zning o‘zaro antonim bo‘lishi uchun yana bir necha shartlar bor. Ulardan biri so‘zning turli talaffuzga ega bo‘lishi shartidir, ya’ni bu antonimlar turli fonetik tarkibga ega bo‘ladi. Haqiqatan ham, antonim juftliklar muayyan fonetik tarkibga ega bo‘lishi kerak, juftlikning har bir a’zosi alohida nomema tabiatini namoyon etishi zarur.

So‘zlarning o‘zaro antonim bo‘lishi uchun asosiy shart sifatida ular ma’nosi o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilik ko‘rsatiladi [1].

So‘zlarning o‘zaro antonim bo‘lish shartlaridan biri ularning juft so‘zlardan tarkib topishidir. Bu haqda tilshunos olimlar o‘z mulohazalarini bildirib o‘tganlar. Rus tilshunosi V.I.Koduxov esa “...antonimlar sinonimlarga o‘xshab qatorlarga emas, juftlikka birlashadilar”, deb ta’kidlaydi. Qarama-qarshi hodisalar o‘rtasida uchinchi hodisa yoki holat bo‘lishi mumkin emas. Lekin o‘zbek tilshunosligida qarama-qarshi narsa va voqelik o‘rtasida “mantiqiy markaz” borligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Hatto “...antonim ekanini belgilashda mantiqiy markaz prinsipidan ham o‘rinli foydalanish zarur”ligi shart deyiladi [2]. Ularning ko‘rsatishicha, *yaxshi* va *yomon* o‘rtasida o‘rtacha, *baland* va *past* o‘rtasida tekislik holatini ko‘rsatuvchi mantiqiy markaz bor. Bu antonimlikni belgilovchi shartlardan ekanligi qayd etilgan.

Har holda, mantiqiy markazni bildiruvchi so‘z ba’zi antonimik juftliklardagina emas, balki antonimik juftliklarning deyarli barchasida mavjud emas, ya’ni, antonimlar uchun mantiqiy markaz tushunchasi mutlaqo asossizdir. Shu o‘rinda bir qator tilshunoslarning “antonim faqat yopiq juftliklardan iborat” [3] degan qat’iy fikriga qo‘shilish birmuncha to‘g‘ri bo‘ladi. Bu fikrga qo‘shilgan nemis tili mutaxassisi M.D.Stepanova va I.I.Chernishevalar antonimik juftliklar bir semantik maydonda bo‘ladilar deb, *erta* va *kech* antonimi *vaqt, sevgi* va *nafrat* antonimi *tuyg‘u* semantik maydoniga mansubligini ko‘rsatadilar. Bu fikr nihoyatda obyektiv bo‘lib, antonimlar leksik ma’nolari paradigmatik qatorni tarkib toptirishini ham asoslaydilar.

Bizningcha, qarama-qarshi birliklar o‘zaro antonim bo‘lishi uchun qarama-qarshi semaga ega bo‘lishi va qat’iy so‘z juftligidan tarkib topgan bo‘lishi shart. Antonimlar ana shu belgilari bilan ayrim til hodisalaridan tafovut qiladi.

Ayrim tilshunoslar “...morfemalar, suffikslar vositasida ham antonimlar yasaladi”, degan fikrni ilgari suradilar. Tilshunos olim F.K.Kamolov ham xuddi shu fikrni yoqlaydi [4]. Tilshunos olimlarning ko‘plari fe’llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini antonim sanamaydilar. Masalan, o‘zbek tilidagi *keldi/kelmadi, chiqdi/chiqmadi, to‘ydi/to‘ymadi* juftliklari o‘zaro antonim emas, ikkinchisi birinchisining bo‘lishsiz shakli, xolos. Bu fe’lning grammatik kategoriyasidir. Vaholanki, kel fe’lining antonimi *ket, chiq* fe’lining antonimi *tush* fe’li, *yop* fe’lining antonimi *och* fe’lidir. Bularda, haqiqatan ham, qarama-qarshilik bor. Shuningdek, rus tilidagi prishyol/ne prishyol, tojik tilidagi *guftam/na guftam* juftligi ham fe’lning bo‘lishli-bo‘lishsizlik shaklidir. Ingliz tilida fe’lning bunday grammatik shakli not inkor yuklamasi orqali amalga oshiriladi. Biroq nemis tilida bo‘lishsizlik shakli vazifasini fe’llardan oldin keladigan nicht, kein fe’llari bajaradi. Fe’llardagi bo‘lishsizlik shakli anglashilgan harakat yoki holatning amalga oshmaganligini ifoda etadi. Antonimik juftliklar tarkibidagi har bir so‘z mustaqil ma’noga ega bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshi ma’no beradi va ular bir-birlarining ma’nolarini ochadi [5].

Antonimlar og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham vazifasi jihatidan muhim ahamiyatga ega, chunki ular matn yoki nutqning asosiy g‘oyasini ifodalaydi. Badiiy asarlarda antonimlar turli uslubiy maqsadlarda qo‘llaniladi. Antonimlar hikoya qilishda, argumentatsiyada, tavsiflash va tushuntirishda yordamchi vositalardan sanaladi. Har bir til lug‘atida zid ma’noli so‘zlar muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, sifat turkumiga oid so‘zlarda namoyon bo‘ladi va juda ko‘p sifatlar antonimik juftlikni hosil qiladi: *long-short, wide-narrow, old-new, rough-smooth, light-dark, straight-crooked, deep-shallow, fast-slow (uzun-qisqa, keng-tor, eski-yangi, dag‘al-silliq, och-to‘q, to‘g‘ri-egri, chuqur-sayoz, tez-sekin* kabi).

Antonimiya hodisasi, odatda, sifatlar orasida ko‘p uchraydi, lekin shu birgina so‘z turkumi bilan cheklanmaydi: bring-take (fe’llar), (otlar) dead-live, (qo‘shimchalar) noisily-quietly, (old qo‘shimchalar) above-below, (bog‘lovchilar) after-below yoki predloglar). Yuqoridagilarga muvofiq, Finegan (2004) prototip antonimlar juft sifatlar ekanligini ta’kidlaydi: *large and small//katta va kichik, wide and narrow // keng va tor, hot and cold//issiq va sovuq, married and single//uylangan va yolg‘iz, alive and dead // tirik-o‘lik.*

Antonimlik ot so‘z turkumi doirasida ham namoyon bo‘ladi: *girl (qiz) va boy (yigit)* otlari ham o‘zaro antonimdir, chunki shaxsni bir vaqtning o‘zida ikkala atama bilan tasvirlab bo‘lmaydi, shu sababli bu so‘zlar qarama-qarshi ma’noga ega so‘zlar hisoblanadi. *Always (har doim) va never (hech qachon)* so‘zlari ham antonimik juftlik hosil qiladi, ular o‘zaro ziddiyatdagi referentlar hisoblanadi. *Love (sevgi) va hate (nafrat)* fe’llarini ham antonim sifatida olish mumkin, chunki ular bir-birini inkor qiladigan his-tuyg‘ularni anglatadi.

Ko‘pgina Yevropa tillarida qarama-qarshi munosabatlarni bildiruvchi so‘zlar qarindoshlik yoki jinsga qarab ham farqlanadi (erkak-ayol kabi). Lekin bular leksik antonim-konversivlar emas, balki so‘nggi bo‘g‘in bilan bir-biridan farq qiluvchi morfologik antonim-konversivlardir. Masalan, ingliz tilida juft leksik konversivlar mavjud: *uncle-aunt* kabi inglizcha so‘zlar, rus tilida *dyadya-tetya, italyan tilida zio-zia, ispan tilida tio-tia* va b. Ko‘rib turganimizdek, bu juftliklar faqat oxiridagi bir harf bilan bir-biridan farq qiladi, minimal darjadagi ikkita so‘z qarama-qarshiligini ko‘rsatadi. Bu so‘zlarning erkak va ayol ma’nosi bor, lekin oxirgi bir harf tushib qolsa, bir xil so‘z bo‘lib qoladi. Ushbu tahlilga ko‘ra, S.Jons bizga antonimlar degan nuqtayi nazarni tasdiqlash imkonini beradi, aslida juda ko‘p umumiylikka ega bo‘lgan juft so‘zlar konversiv antonimlar ekanligiga shubha uyg‘otadi (ayniqsa, bu semantik guruhga tegishli).

Xulosa qilib aytganda, antonimlar og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham vazifasi jihatidan muhim ahamiyatga ega, chunki ular matn yoki nutqning asosiy g‘oyasini ifodalaydi. Badiiy asarlarda antonimlar turli uslubiy maqsadlarda qo‘llaniladi. Antonimlar hikoya qilishda, argumentatsiyada, tavsiflash va

tushuntirishda yordamchi vositalardan sanaladi. Har bir til lug‘atida zid ma’noli so‘zlar muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Булаховский Л.А. Введение в языконание. С. 21; Арнолдь И.В. Лексикология современного английского языка. С. 285.
2. Мирзаев М., Усманов С., Расулов И. Ўзбек тили. 32-бет; Хазерге бошкорт теле. 30-бет; Калинин А.В. Лексика русского языка. С. 60; Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. С. 64; Рахманова А.И. Антонимы... С. 31; Дудников А.В Лексика и фразеология русского языка. С. 21; Заявлова В. М. Антонимы. М., ВШ, 1969, с .6.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. С. 183.
4. Рахматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. 9-бет; Худди шу фикрни ўз «Қўлланма»сида Х.А.Жамолхонов ўзгаришсиз келтиради ва унга тўла қўшилади. Жамолхонова Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм, Тошкент, 2004, 38 – 39-бетлар.
5. Левковская К.А. Ўша асар. С. 145; Введенская Л.А О взаимодействии антонимии и синонимии. Вопросы лексики и фразеологизмы русского языка. Ростов-на-Дону, 1968; Шанский Н.М. Ўша асар, ўша бет; Сидоренко М.И. Антонимы – кспрессивно стилистическая принадлежность слов. Слово в лексико- семантической системе языка. Л., 1972.
6. Зиндер Л.Р., Строева Т.А. Современный русский язык. М., 1957, с. 396; Гельблу Я.Н. Способы выражения антонимичности и немецком языке. Учёные записки БашГУ, вып. 6, серия филол 5, Уфа, 1958, с. 93–108; Стефанова М.Д. Словообразование современного немецкого языка. М., 1960, с. 229 – 252.
7. Claus-SchulzeA. Verknupfen von sanzen und Textteilen… P. 156.
8. Biber Douglas, Susan Conrad and Randi Reppen. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
9. Oripova K. (2022). Literary Discourse as a Basic Element of Linguocultural Study. European Multidisciplinary Journal of Modern science.

Saliyeva Shaxlo Saydaliyevna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: shakhlo.rakhimova.84@mail.ru)

TURLI TIZIMLI TILLARDA OKKAZIONALISTIK BIRIKMALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Tilning rivojlanishi va taraqqiy etishida til birliklari, so‘z va so‘z birikmalari, usuallik va okkazionallik kabi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tizimli tillarda okkazionallik birikmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi. Okkazionallik tilshunoslik, adabiyotshunoslik va stilistika sohalarida, bir paytning o‘zida, muhim bo‘lgan sohadur. Ushbu maqolada okkazionallikning va uzuallikning o‘ziga xosliklari yoritib berilgan.*

Аннотация. *В развитии и прогрессе языка важны такие признаки, как языковые единицы, слова и словосочетания, единичность и окказиональность. В данной статье исследуются особенности сочетаний окказиональности в структурированных языках. Окказионализм представляет собой область, важную одновременно в области языкознания, литературоведения и стилистики. В данной статье освещаются особенности казуальности и уникальности.*

Annotation. *Features such as language units, words and word combinations, singularity and occasionality are important in the development and progress of the language. This article explores the special features of occasionality combinations in structured languages. Occasionalism is an area that is important at the same time in the fields of linguistics, literary studies, and stylistics. This article highlights the peculiarities of casualness and uniqueness.*

Kalit so‘zlar*: okkazionallik, uzuallik, leksik, frazeologik birlik, umumiylik, xususiylik.*

Ключевые слова*: окказиональность, единичность, лексическое, фразеологическое единство, общность, специфика.*

Key words: *occasionality, singularity, lexical, phraseological unity, generality, specificity.*

Kirish. Til insoniyat hayotdagi eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyat tarixiy taraqqiyoti bilan birgalikda uzluksiz o‘zgarib, rivojlanib boradi. Buning pirovardida ayta olamizki, til dinamik xarakterga ega bo‘lgan ochiq sistemadir. Tilning dinamik tabiatini e’tiborga olgan V.Gumboldt, F.Sossyurlar unda o‘zgarmaslik va o‘zgaruvchanlik antinomiyasi amal qilinishini ta’kidlagan edi [1.309]. Bundan anglash mumkinki, tilning har bir sathi uzoq davrlardan buyon xalqning o‘zligi, ma’naviy merosi sifatida saqlanib kelayotgan barqaror, markaziy birliklar bilan birga, til tarixiy taraqqiyotining muayyan davri uchun xos

bo‘lib, markaziy birliklar atrofida joylashgan chegara birliklarga ham ega bo‘ladi. Demak, uzluksiz rovojlanishda, o‘sishda bo‘lgan tilning har bir sathi markaziy va chegara birliklar munosabatidan tashkil topgan sistema sanaladi. Barqaror birliklarni o‘rganish tilshunoslik uchun qanchalik zarur bo‘lsa, o‘zgaruvchan birliklarni o‘rganish ham shunchalik ahamiyatli bo‘ladi chunki, har ikkisi ham tilning eng asosiy ajralmas qismlaridur. Xususan, tilshunoslikning davriy bosqichlaridan ko‘rish mumkinki, o‘zgaruvchan birliklarning ayrimlari davrlar o‘tishi bilan barqaror birliklar qatoridan o‘rin olishi yoki aksincha ayrimlari esa muvaqqatlik belgisini saqlagan holda qisqa muddatda iste’moldan chiqib ketishi mumkin. Okkazionalistik birikmalarni ham shu turlarga ajrata olamiz.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi. Okkazionalizmlar deb umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, faqulodda o‘zgacha qo‘llashlarga aytiladi. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan yurtimizning va jahonning ko‘plab tilshunos olimlarini aytishimiz mumkin. Ulardan S.Sultonsaidova, O‘.Sharipova, Z.Alimova, Sh.Imomovalarning tadqiqot ishlari e’tiborga molik bo‘lsa, bundan tashqari, A.E.Mamatovning “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari” nomli doktorlik dissertatsiyasi (1991), S.Toshaliyevaning “O‘zbek tilida okkazionalizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasi (1998) kabilar o‘zbek tili stilistikasini yanada boyitdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotida ko‘plab yozuvchilarning, shoirlarning asarlarida, xususan, Omon Matjon she’rlarida ham alohida ahamiyat kasb eta oladi.

“Qisqa muddatlilik” va “doimiylik” xususiyatlari birliklarni uzual va okkazional turlarga bo‘lishga imkon beradi. Uzuallik asardagi an’anaviy yondashuvni ko‘rsatsa, okkazionallik o‘ziga xoslikni, aynan bir muallifga yoki faqat bir vaziyatga tegishligini ifodalay oladi. “Uzuallik – okkazionallik” tilning dinamik aspektini belgilovchi omillardan biri ekan, ma’lum bir tilning muayyan bir davridagi holatini ham ana shu aspektda o‘rganish tilning tadrijiy takomilidagi “doimiylik – o‘zgaruvchanlik” xususiyatini yoritishda qulay imkoniyat tug‘diradi. Har bir davr buyuk adiblarga ega va shu adiblarning o‘z ijod mahsullarida shu davrga xos umumiylik va xususiylikni ko‘ramiz. Umumiylik – uzuallik bo‘lsa, xususiylik – okkazionallik tarzida tadqiq etiladi. Bu adiblar o‘z asarlarida ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga o‘zlari ham bu tilning boyish va rivoji uchun o‘z hissalarini qo‘shadilar. Har bir muallifning yaratgan individual lingvistik birliklari ham shu davr tilining o‘zgaruvchan birliklari tarkibidan o‘rin oladi. Xalq yaratgan so‘zlar tilshunoslikda og‘zaki nutq okkazionalizmi, ma’lum ijodkor tomonidan yaratilgan so‘zlar esa individual – yakka nutqqa xos, ya’ni badiiy okkazionalizmlar deb yuritiladi [2.3].

Tahlillar va sharhlar. Umumistemolga to‘gri kelmaydigan, ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan individual va o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, faqat shu matndagina qo‘llanadigan til birliklari okkazionallik deb ataladi. Okkazionallikning qarama qarshi tushunchasi uzuallik bo‘lib, unga ko‘ra, matn, nutq, she’riyat yoki baddiy diskursda foydalanilgan birliklar faqatgina shu berilgan vaziyat uchungina xos bo‘ladi. Bu ayniqsa so‘z yasalish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, davlatxona (hukumat uyi), gazetaxona (muharririyat), barakaxona (tug‘ruqxona), qo‘ng‘iroqxona (ko‘p telefonli xona), shaharsozlar (quruvchilar), da’vatnoma (hukumat notasi), musibatnoma (ta’ziyanoma), dildosh. dunyodosh. ruhshunos. ziyokor kabi leksik birliklar fikrimizning aniq dalili bo‘la oladi.

Yuqorida ham ta’kidlab o‘tganimizdek, yozuvchilar tomonidan yaratiladigan neologizmlaming stilistik imkoniyati beqiyosdir. Bular okkazionalizmlar deyiladi. Masalan, G‘afur G‘ulom -dosh so‘z yasovchi affiksi yordamida quyidagi yangi so‘zlarni yaratgan va o‘zbek tili so‘z boyligiga o‘z hissasini qo‘shgan: *eldosh, yerdosh, kurashdosh, qalamdosh* kabi. Boshqa bir o‘z davrining buyuk yozuvchisi Mirtemir esa *yurakdosh, to‘ydosh, soqoldosh* kabi so‘zlami, Maqsud Shayxzoda esa *nuriston, quyoshiston, nurobod, quyoshobod, xalqobod* kabi so‘zlarni, Erkin Vohidov *changiston, balchig‘iston* kabilami yaratgan. Yozuvchilarning birgina ffiksdan foydalanib, o‘z asaralriga yangicha leksik birliklarni qo‘shishlari ular yaratgan asarning tilshunoslik, adabiyotshunoslik va stilistika sohalarida qanchalar qimmatli ekanini ko‘rsatadi.

Bunday leksikaga yana dialektizmlar, terminlar, kansclarizmlar, jargon va argolar ham kiradi. Bulaming hammasi funksional stil turlaridan badiiy, publitsistik, so‘zlashuv stillarida stilistik ma’no ifodalaydi.

Okkazionallik publistik usulda ham keng foydalaniladi. Chunki berilayotgan matnnning o‘ziga xoslik darajasi va keng tarqalishi uchun bu o‘ziga xos janr ayni muddaodir. Unda gap turlaridan, asosan qisqa, lo‘ndalikni ifodalovchi sodda gaplar ishlatiladi. Qo‘shma gaplar esa mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatishga, u yoki bu voqea haqida yaxlit, umumiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shunga ko‘ra, matbuotda chop etilayotgan materialning xususiyatiga ko‘ra, u yoki bu gap turidan foydalaniladi. Reportajda jumlalaming juda ixchamligi, nutq vaziyatiga ko‘ra gap qurilishining o‘zgarib turishi kuzatiladi. Chunki re-

portajda bayon qilinayotgan voqealar tez-tez biri ikkinchisini almashtirib turadi. Shuning uchun ularga ixcham jumlalar tuzish o‘rinlidir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida ayta olamizki, okkazionaliz bu tasodifiy yaratilgan yoki bir martagina ishlatiladigan so‘zlardur. Ular aynan ma’lum bir matn yoki asar uchun ishlatilgani va takror qo‘llanmasligi bilan ham asarning darajasini yuqori saviyaga ko‘tarib tura oladi. shunigndek, okkazionalizm har bir ijodkorning o‘z haqiqiy ijod mahsuli bo‘lib, u o‘z ijodkorining mahsulidir.

Botirova Adiba Erkinovna (Navoiy Innovatsiyalar universiteti dotsenti)

LINGVISTIK HAMDA QOMUSIY LUG‘ATLAR TUZISHDA MULOQOT UCHUN FAOL MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada ta’limiy korpus uchun lingvistik hamda qomusiy lug‘atlar tuzishda muloqot uchun faol mustaqil so‘z turkumlaridan foydalanish, ot va fe’l so‘z turkumiga doir iboralar ham frazeologik lug‘atning asosiy qismini tashkil etganligi, shakldosh so‘zlar bilan ishlash mashq va topshiriqlari o‘quvchilar so‘z boyligining oshishi, ularning bir xil ko‘rinishli birliklarni farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishi, aynanlik va tafovutlarni ilg‘ay olish malakasini o‘stirishda ustuvorlik qilishi haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В статье отмечено активное использование самостоятельных словарных категорий для общения при составлении лингвистических и компаративных словарей для учебного корпуса, указано, что фразы, относящиеся к словарю существительного и глагола, также составляют основную часть фразеологического словаря, а упражнения и задания по работе с формообразующими словами способствуют увеличению словарного запаса учащихся, формированию и совершенствованию их умения различать однотипные единицы, повышению точности, также считалось, что продвижение различий имеет приоритет в развитии навыков.*

Annotation. *The article considers the use of actively independent word categories for communication in the construction of linguistic and comprehensive dictionaries for the educational corpus, that phrases for the noun and verb word category also form the core of the phraseological dictionary, exercises and tasks for working with formative words, an increase in the vocabulary of students, their formation and improvement of skills.*

Kalit so‘zlar: *ta’limiy korpus, lingvistik lug‘at, qomusiy lug‘at, frazeologik lug‘at, mustaqil so‘z turkumlari, ot, fe’l.*

Ключевые слова: *учебный корпус, лингвистический словарь, комплексный словарь, фразеологический словарь, самостоятельные категории слов, существительное, глагол.*

Key words: *educational corpus, linguistic dictionary, general dictionary, phraseological dictionary, independent word categories, noun, verb.*

Bugungi kunda amaliyotga joriy etilayotgan kognitiv ta’limning talablariga muvofiq holda o‘quv lug‘atlari yaratildi. O.Shukurov va B.Boymatovaning “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, Y.Hamrayevaning “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati”, U.Torayeva va D.Shodmonovaning “O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug‘ati”, B.Mengliyev va B.Bahriddinovaning “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati”, X.Suvonova va G.Turdiyevaning “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, T.Nafasov va V.Nafasovaning “O‘zbek tilining o‘quv toponimik lug‘ati”, “O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, X.Norxojayevaning “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati”, B. Mengliyev, B.Bahriddinova, O.Xoliyorov, M.Zaripova va M.Xushvaqtovning “O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati” kabilar shular jumlasidan. Lug‘atlarni jamoatchilik iliq kutib oldi. Bu haqda «Ma’rifat» gazetasida “Beshikdagi Alpomish”, “Beshikdagi Alpomish – lug‘atlar guldastasi”, “Til va adabiyot ta’limi” jurnalida “Yangi o‘quv lug‘atlari”, “O‘quv lug‘atlarini yaratish – dolzarb vazifa” kabi maqolalar e’lon qilindi. Ayniqsa, “Ona tili. Tilshunoslik atamalari lug‘ati”, “Ona tili. Qomus”[1] kabi vositalarning nashr etilayotganligi quvonarli hol. Bu ona tili kognitiv ta’limining ayrim vositalari va ilk tajriba namunalari. Algoritmik dastur ularning takomillashgan, sifat va son jihatdan yuksak, yangidan yangi va noan’anaviy turlarini yaratishni talab qiladi.

Amaldagi lug‘atlarda berilgan qo‘shma ot yoki fe’llardan o‘quv grammatik lug‘atlar tayyorlanganda o‘quvchilar talaffuz qilishda va yozishda qiynaladigan so‘zlarni ajratib olish lozim. Masalan, quyidagi so‘zlarning aksariyati o‘quvchi uchun notanish bo‘lishi mumkin:

[1] Mengliyev B., Xolyorov O‘., Qodirova M. Ona tili. Qomus. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007, 270-bet.

alomatirizo	aluminosilikat
alomatchoy bot	aluminoterapiya
aloebargli bot	aluminotermik
aloqadrihol	aluminqog‘oz
albedometr	alumoborosilikat
albomqog‘oz	alumoxromokaliy
alplager	amakibachcha
alpechki	amakijon
alfazarra	amaltalab
alfametr	amarantdaraxt
alfanurlar	amiralmuslimin
alfaspektrometr	amiralmu’minin
alfaterapiya	ammoniykarbonat
aluminiyorganik	

Keltirilgan lug‘atdan faqat amakibachcha, amakijon, amaltalab so‘zlari o‘quvchiga tanish bo‘lishi mumkin, ammo boshqa so‘zlarning yozilishi aksariyat o‘quvchilar uchun yangi bo‘lishi mumkin.

Shu ma’noda, asosiy qismi ot turkumiga aloqador bo‘lgan bunday qo‘shma otlarning o‘quv lug‘ati yaratilishi va ularning elektron variantlari ham ishlab chiqilishi lozim.

Ot so‘z turkumiga doir iboralar ham frazeologik lug‘atning asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, fel turkumiga doir iborlar ham mavjud lug‘atlarning katta qismini tashkil etadi. Masalan, istalgan tana azolari bilan bog‘liq iboralar mavjud: Burni ko‘tarildi – gerdayib ketdi, kibrga berildi. Burni osmonga ko‘tarilgan – gerdaygan, kibrlangan. Burnini yerga ishqadi – qattiq jazoladi. Burnini suqmoq – 1) kirmoq 2) aralashmoq. Burnini tiqmoq – aralashmoq, yoki bosh so‘zi bilan bog‘liq aksariyat iboralar fel so‘z turkumiga tegishli ekani ham mazkur sohadagi grammatik o‘quv lug‘atlarining tasnifini ixchamlashtirish imkonini beradi: Bosh egdi – itoat qildi, bo‘ysundi. Bosh qo‘shdi – aralashdi, qatnashdi. Bosh qotirdi – astoydil o‘yladi, chuqur fikrladi. Bosh suqdi – 1) gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaradi 2) aralashdi. Bosh og‘rig‘i – ortiqcha tashvish, dahmaza. Bosh ko‘tardi I –1) qaradi. 2) qilib turgan ishini to‘xtatdi. 3) qo‘zg‘aldi, harakat qildi 4) kurashga chog‘landi. Bosh ko‘tardi II – unib chiqdi. Boshlarini bir joyga qovushtirdi – 1) hamjihat bo‘lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi. Boshi aylandi – 1) behud bo‘ldi, muvozanatini yo‘qotdi. 2) esankiradi. Boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi – butunlay berilib ketdi. Boshi chiqmadi – xalos bo‘lmadi, qutulmadi. Boshi ikkita bo‘ldi – uylandi. Boshi ko‘kka yetdi – behad sevindi. Boshi shishdi – o‘ylayverib gangidi. Boshi yostiqqa yetganda – kasal bo‘lib qolganda. Boshi oqqan tomon – duch kelgan tomon. Boshi osmonda – nihoyatda xursand. Boshi g‘ovladi – o‘ylayverib gangidi. Boshida danak chaqdi – ortiq darajada azobladi. Boshidan kechirdi – 1) o‘z hayotida ko‘rdi 2) malum bir muddat fikrladi. Boshidan oshib yotibdi – ortiq darajada, benihoya ko‘p. Boshdan oyoq – to‘la-to‘kis, bus-butun. Boshiga keldi – o‘yladi, idrok qildi, fahmladi. Boshiga ko‘tardi I – qattiq shovqin soldi. Boshiga ko‘tardi II – yuksak darajada izzat-hurmat qildi. Boshiga qilich kelsa ham – har qanday sharoitda ham. Boshiga urmaydi – kerak emas. Boshiga yetdi – halok qildi. Boshi aylantirdi – esankiratdi. Boshi achidi - fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi. Boshini achitdi – me’yoriy fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi. Boshini bukdi – uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holatga tushirdi. Boshini yedi – yo‘q qildi, halok qildi. Boshini og‘ritdi – 1) o‘yladi 2) miyasini charchatdi. Boshini olib ketdi – butunlay tashlab ketdi. Boshini ko‘tardi - yotib qolgan xastalikdan keyin sog‘aya boshladi. Boshini qayoqqa urishini bilmadi – ilojini topa olmadi. Boshini xam qildi – uyat-nomusdan boshini ko‘tarolmaydigan holatga tushirdi. Bog‘dan kelsa, tog‘dan keladi – suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo‘q gap-so‘z aytdi. «Berdi»sini aytguncha urib o‘ldirdi – gapirib bo‘lguncha kutmay (chidamay) biror narsa dedi.[1]

X.Suvonova va G.Turdiyevalarning[2]“O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”da bu borada lug‘at tuzishda quyidagilarga etibor qaratish lozimligini uqtiriladi: “Lingvistik so‘zliklar sirasida shakldosh so‘zlar lug‘ati o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, shakldosh so‘zlarning maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan ko‘rinishi alohida talimiy ahamiyatga molik bo‘lganligi bois bunday lug‘atni yaratish masalasi yanada jiddiy tus kasb etadi.

[1] Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007, 39-bet.

[2] Suvonova X., Turdiyeva G. O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2007, 38-bet.

Malumki, shakldosh so‘zlar bilan ishlash mashq va topshiriqlari o‘quvchilar so‘z boyligining oshishi, ularning bir xil ko‘rinishli birliklarni farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, aynanlik va tafovutlarni ilg‘ay olish malakasini o‘stirishda ustuvorlik qiladi.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan shakldosh so‘zlarning maxsus turi yaratilmagan. Mavjud lug‘atlar (“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”), avvalo, katta yoshdagi kishilarga mo‘ljallanligi, ikkinchidan, ularning kirill alifbosida ekanligi yangi tipdagi lug‘at tartib berishni taqozo qiladi. Tuzuvchi lug‘at tartib berishda o‘zbek lug‘atchiligi boy an’analari va namunalaridan keng foydalanganligini etirof etadi. Lug‘atda tavsiflarning o‘quvchilarbop bo‘lishiga harakat qiladi. Professor B.Mengliev va boshqalar ishtirokida “Ona tili qomusi” grammatik lu-g‘ati yaratilgan. Mazkur qo‘llanma o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun zarur adabiyot hisoblanadai. Undagi lingvistik terminlar hamda ularga berilgan tavsiflar o‘quvchilarga qulay, ularning yosh xususiyatiga moslab tuzilan. “Ijtimoiy hayotning soha va jabhalari keng, fan va texnika, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari ko‘p, ularning har biri juda ko‘plab o‘ziga xos hodisa va voqeliklarga boy, jamiyat, insoniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan uyg‘un holatda o‘zgarib, yangilanib, taraqqiy etib boradi”.[1] Bu holat tilning leksik qatlamida, xususan, maxsus leksikasida ham maxsus birliklar – termin va atamalar orqali o‘z ifodasini topadi.

Xullas, har bir sohaning tushuncha va hodisalarini ifodalashning birlamchi vositasi so‘z/terminlar, ular tilning leksik tizimida alohida terminosistemalarning shakllanishi va tarkib topishida eng muhim omil sifatida xizmat qiladi. Kasb-hunar terminlarining o‘quv lug‘ati bo‘lmagani sababli umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilar, sohalarga doir terminlarni yetarli darajada o‘rgana olmaydi. Shu ma’noda milliy til korpusiga mos holda grammatik terminlari o‘quv lug‘atini ham tuzish mumkin.

Yuldasheva Dilorom Aliyevna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti
“Fakultetlararo tillar” kafedrasi o‘qituvchisi)

MORFOLOGIYANING KOGNITIVLIGI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada funksional, semiologik va funksional-semiologik grammatika nazariyalari asosida ingliz tili morfologiyasining kognitiv masalasi haqidagi savollar muhokama qilinadi. Morfologiyani kognitiv nuqtayi nazardan olib borilgan aniq tadqiqotlari, keyinchalik, so‘nggi yillarda chop etilgan Y.S.Kubryakovaning qator ishlarida keltirilgan ta’riflari ko‘rib chiqiladi. Masalalarni belgilab berishda, Y.S.Kubryakova morfologiyani bilish jarayonlari bilan bog‘liqligi va ularning natijalarini aks ettirish hamda yetkazish uchun xizmat qilishi kerakligidan kelib chiqadi. Shu asnoda, “morfologiya funksiyalari morfemalar darajasida emas, balki so‘zlarning turli sinflarini ifodalovchi to‘liq morfologik tizimlarida aniqlanadi” kabi fikrlari ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы когнитивности морфологии английского языка на основе теорий функциональной, семиологической и функционально-семиологической грамматики. Конкретные исследования морфологии с когнитивной точки зрения были рассмотрены в нескольких работах Е .С.Кубряковой, которые были опубликованы позже, в последние годы. Определяя вопросы, Е.С.Кубрякова исходит из того, что морфология связана с познавательными процессами и должна служить для отражения и передачи их результатов. В этом контексте рассматриваются такие мнения, как «функции морфологии определяются не на уровне морфем, а в полных морфологических системах, представляющих разные классы слов».*

Annotation. *This article discusses questions about the cognition of the morphology of the English language based on the theories of functional, semiological and functional-semiological grammar. The specific studies of morphology from a cognitive point of view were later published in recent years by Y.S.Kubryakova the definitions given in a number of works are considered. In defining the issues, Y.S.Kubryakova derives from the fact that morphology is related to cognitive processes and should serve to reflect and convey their results. In this context, such ideas as “the functions of morphology are determi-ned not at the level of morphemes, but in complete morphological systems representing different classes of words” are considered.*

Kalit so‘zlar: *morfologiya, morfologik konsept, kognitiv jihatlari, kognitiv grammatika, kognitiv-diskursiv paradigmasi, grammatik predikativ.*

[1] Islomov I. O‘zbek tilining geografik terminologiyasi: tizimi, genezisi, semantik strukturasi va leksikografik talqini. Filol. fan. dokt. ... diss., Qarshi, 2021, 36 – 37-betlar.

Ключевые слова: *морфология, морфологическая концепция, когнитивные аспекты, когнитивная грамматика, когнитивно-дискурсивная парадигма, грамматический предикат.*

Key words: *morphology, morphological concept, cognitive aspects, cognitive grammar, cognitive-discursive paradigm, grammatical predicate.*

Morfologiyaning kognitivligi masalasini yo‘lga qo‘yish, avvalambor, funksional, semiologik va funksional-semiologik grammatikaning so‘nggi paytlarda yaratilgan nazariyalariga tayanadi.

Morfologiyadagi funksional aspektning har tomonlama ishlab chiqilishi XX asrning 80-yillarilanoq uning kognitivligi haqidagi tezisning yaratilishiga imkon berdi. Lekin morfologiyani kognitiv nuqtayi nazardan olib borilgan aniq tadqiqotlari, keyinchalik, so‘nggi yillarda chop etilgan Y.S.Kubryakovaning qator ishlarida ta’riflangan. Masalalarni belgilab berishda, Y.S.Kubryakova morfologiyani bilish jarayonlari bilan bog‘liqligi va ularning natijalarini aks ettirish hamda yetkazish uchun xizmat qilishi kerakligidan kelib chiqadi. Shu asnoda, “morfologiya funksiyalari morfemalar darajasida emas, balki so‘zlarning turli sinflarini ifodalovchi to‘liq morfologik tizimlarida aniqlanadi”, deydi. Muallifning fikricha, aynan shunday holatda fiksatsiya, klassifikatsiya va dunyo haqidagi tushunchaning ma’lum kategoriyalari bo‘yicha ajratish va morfologiyaning so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tabiatini aniqlab beradi.

Kategorizatsiya va subkategorizatsiya jarayonlari, ularning rasmiy ifodalanish vositalari bilan bo‘lgan bunday aloqasi morfologiya qay tarzda dunyo haqidagi tushunchani mujassamlashtirishi va tasniflab berishini aniqlashga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar Y.S.Kubryakova tomidan morfologiyaning kognitiv aspektlari haqida aytib o‘tilgan fikrlariga asos bo‘la oladi. Muallifning xulosasi bo‘yicha, morfologik hodisalarning kognitiv funksiyasi “ularning fikrlash jarayonlari davomida ishtirok etishi, inson ongining mental va intellektual faoliyati ma’lumotni qayta ishlash, uni saqlash, ajratib olish, nihoyat, uni qayta o‘zgartirib foydalanish faoliyati” bo‘yicha aniqlanadi.

Morfologiyaning kognitiv jihatlarining o‘ziga xos ahamiyatini ta’kidlagan holda, Y.S.Kubryakova bu narsa “so‘zlovchining biror holatni tasvirlashda uning e’tiboridan chiqib keta olmaydigan tafsilotlar", va “inson tajribasidan nimalar o‘z aksini dunyo til tasvirida topgan va tasnif qilingan”ligi uchun ko‘p muhim masalalarning mohiyatini aniqlashda yordam beradi deya xulosa qiladi [Kubryakova Y.S. 113]

Morfologiyaning kognitiv aspektiga bo‘lgan e’tibor (yuqorida keltirilgan tushuncha sifatida) morfologik kategoriyalarning muammolarini tadqiqot qilishda yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Kognitiv grammatikani uning nuqtayi nazaridan o‘rganish, morfologik kategoriya va shakllarni kengroq rakursda ko‘rish, ularni insonning aqliy va bilish jarayonlari, insonning dunyo va til haqidagi bilimlari bilan bog‘lash, konseptlarning morfologik bayoni jarayonlarini o‘zgacha talqin etish sharoitini yaratib beradi. Mazkur jihatga mos ravishda, morfologik kategoriyalarni o‘rganishda paydo bo‘ladiganbir qator savollarni belgilab olamiz. Eng birinchi, bu narsa morfologik kategoriyalarning konseptual asosini aniqlab berishga hamda so‘zlashish, fikrlash jarayonida ma’noni shakllantirishda ularning rolini tahlilqilish, boshqacha qilib aytganda, morfologik reprezentatsiyaning kognitiv mexanizmlarini o‘rnatishiga mo‘ljallangan. Yanada tushunarli bo‘lishi uchun, konseptlarning morfologik reprezentatsiyasi deganda, nima nazarda tutilishi haqida aytib o‘tamiz.

Morfologik reprezentatsiya morfologik kategoriya va shakl yordamida konseptual mazmunni strukturlashtirishning kategorial uslubi tushunchasiga mos keladi. Bu holatda morfologiya konseptual tizimining eng muhim tomonlarining kategorizatsiyasini aks ettiradi va o‘ziga xos konseptual kenglikni tashkil etuvchi, uningtartibini belgilovchi fundamental konseptlarni shu yo‘l bilan butun konseptual tizimni voqelantiradi. Morfologik reprezentatsiyani amalga oshuviga misol tariqasida konseptlarga, masalan, vaqt, miqdor, munosabat konseptlarini kiritish mumkin [Maslova V.A. 46–47].

Morfologik jihatdan reprezentatsiya qilinuvchi konseptual tizimning kategorial qismi, tilda morfologik reprezentatsiyaning asosini ta’minlovchi morfologik konseptlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu mental birliklarning o‘ziga xosligini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Morfologik konsept tushunchasi ham hozirda eng izohtalab Tilshunoslikning kognitiv-diskursiv paradigmasi rivojlanib borgan sari, “konsept ikki xil ko‘rinishga ega” degan fikr o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda: ular til birliklari va til usullarida ifoda etilgan bilim strukturalari sifatida qaralmokda. Bundan biz morfologik konseptlar deganda, bir tomondan, morfologik kategoriya va shakllar yordamida reprezentatsiya qilinadigan konseptual bosqichning kategorial qismiga tegishli aniq birliklar (masalan, zamon, son)ni, ikkinchi tomondan, o‘z morfologik kategoriyalariga ega bo‘lgan konkret grammatik ma’no ko‘rinishidagi (masalan, grammatik zamon, son, aspekt. mayl va h.k.) konseptlarni tushunamiz [Arutyunova N.D. 412].

Biz ko‘rib chiqayotgan konseptlar til orqali dunyoni aks ettiradi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asosan, shuni taxmin qilish mumkinki, har bir tilning grammatik tizimi o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘ziga

xoslik ularning konseptual tizimidagi boshqa tillarda bir-biriga mos kelmaydigan morfologik konseptlar to‘plamidan iborat, ularda morfologik hisoblangan hamma kategoriyalar to‘liq berilmagan. Masalan, ingliz tilida tarixiy rivojlanish jarayonida rod tushunchasi yo‘q bo‘lib ketgan. Mana shu asosda tillarni qiyoslashga Y.S.Kubryakova diqqatimizni qaratadi, chunki morfologik kategoriyalar orqali berilgan tilning shartli konseptlari kontekstdagi muayyan sharoitlarda eksplikatsiya qilinadi.

Til tizimida konsektual faollanishi mo‘ljallangan morfologik konseptlar tasnifiy deya atalishi mumkin, chunki ular tafakkurimizda til yordamida paydo bo‘lgan. Ular morfologik jihatdan konseptual makonni shakllantiruvchi unsurlar bo‘lib qoladi hamda ularsiz dunyo haqida fikr yuritish va dunyo tasavvurining kontekstda shakllantirib bo‘lmaydigan konseptual tasvirining ahamiyatga ega bo‘lgan barcha jihatlarini aks ettiradi. Shunga yarasha ularning mazmuni kontekstual jihatdan belgilanadi va barcha morfologik kategoriyalarni aniqlashda ishtirok etadi. O‘ziga xosligi sababli bu konseptlar tomonidan aks ettirilgan dunyo va til dunyosi muayyan birliklarini kontekstda bevosita tarzda ifodalaydi. Tilda bu holat morfologik shakllar orqali beriladigan tegishli grammatik ma’nolarni umumlashtirish shaklida beriladi [Petrov V.V., Gerasimov V.I. 8].

Morfologik konseptlar leksik konseptlariga nisbatan ancha uyg‘un hisoblanadi. Shunga asoslangan holda, ko‘rib chiqilayotgan konseptlar guruhli, regional va individual ma’nolarini hisobga olmagan tarzda, umummilliy darajada standartizatsiya qilinadi. Bu turdagi konseptlar ma’nosi turg‘unligi, ular asosida faqatgina morfologik kategoriya va shakllar orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan kategorial ma’nolarni topamiz.

Turg‘unlik nisbiy tushuncha bo‘lishi mumkin, chunki diskurs holatlari va tilning tarixiy rivojlanish faktorlariga tayangan holda, morfologik konseptlarning o‘zgaruvchanligi va ma’no jo‘shqinligi hisobga olinadi. Morfologik konseptlarning bunday harakatchanligi ba’zi bir hollarda morfologik kategoriyalarning chegaralarinishi aniq emas degan fikrga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan barcha morfologik konseptning umumiy ta’rifini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni shunday xulosalash mumkin. Morfologik konsept – bu bir qator morfologik shakllar orqali ifodalangan, tilda dunyo tasvirini yaratib beruvchi bilim birligi bo‘lib, ensiklopedik bilimning tilda reprezentatsiya usuli bilan voqelantiradi. Ushbu ta’rif morfologik konseptning asosiy tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, bir tomondan, kognitiv nuqtayi nazardan tilda konseptning morfologik reprezentatsiyasini ko‘rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, bunday yo‘nalishdagi izlanishlar uchun asos yaratib beradi.

An’anaviy grammatikada predikativlik termini mutaxassislar tomonidan har xil talqin qilinib, turli hodisalarni nomlashda ishlatiladi. Odatda, predikativlikni gapning eng asosiy xususiyati yoki unsuri deb atashadi. “Predikativlik” terminini “kesimlik” ma’nosida qo‘llashda esa “gap mazmunining borliqqa munosabati” deb talqin qilinishi mumkin. Biroq, bizningcha, ushbu talqin ham biroz izoh talabdir, chunki voqelikka munosabat ma’lum bir gapning emas, balki butun bir nutqiy faoliyatning xususiyatidir.

Kesim grammatik predikativlikni ifoda etishning asosiy vositasi bo‘lib, u gap tarkibida turfa xil aloqalarga kirishadi. A.I.Smirniskiyning kesimni predikatni bildiruvchi va predikatsiyani ifoda etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida ko‘rishi noaniqdek tuyuladi [Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. Библиотека филолога. 115, 122, 173 с.с.].

Chunki predikat to‘lig‘icha kesim qaramog‘idagi hodisa bo‘lmasdan, balki mantiqiy ifoda rasmiylashtirilgan ikki yoki undan ortiq predikativ aloqaga ega bo‘lgan sintaktik qurilmalar – qo‘shma gaplarga nisbatan qo‘llaniladi.

Predikativlik kognitiv jihatdan borliqdagi har xil narsa, voqea-hodisa o‘rtasidagi turli xarakterdagi munosabatlarni lingvistik belgilar yordamida inson ongida aks ettirish, o‘sha narsa, voqea-hodisalarning xossalari haqida tugal ma’lumotni shakllantirish va uni verbalizatsiya qilish yordamida boshqa insonlarga yetkazishdek murakkab vazifani bajaradi.

Hukmning predikativligi va uning tilda verbalizatsiyasi (ayrim manbalarda bu tushuncha grammatik jihatdan rasmiylashtirilish deb qabul qilingan)ning kognitiv asosi har doim ham tilshunoslar e’tiboridagi masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bunga sabab esa tilning asosiy, ya’ni kommunikativ funksiyasi aynan predikativlik orqali voqelanadi. Hozirgi vaqtda ko‘plab tillarda kuzatiladigan til birliklari tejamkorligi an’anasi doirasida tilshunoslar hukmning informatsion jihatdan boyitilishiga, ya’ni kam kuch sarflab, ko‘proq axborot yetkazishga harakat qilmoqdalar. Bu narsaning isboti hukmning ifoda birliklari sirasiga kiruvchi predikativlikning qo‘shimcha vositalari va uni ifodalovchi tip unsurlaridan biri bo‘lmish ikkilamchi predikatsiyali qurilma (keyingi o‘rinlarda IPQ)larning turlicha bo‘lishiga intilishda ko‘rinadi. Ikkilamchi predikativ qurilmalar orqali gapning informatsion jihatdan to‘liqliligi ta’minlanadi. Bu qo‘shimcha

predikativ birliklar sintaktik jihatdan soddalashishi mumkin, lekin bu hol har doim ham hukmni ifodalovchi birliklar hajmini oshirish evaziga yuz bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, ular gapning oddiy sintaktik strukturasini informatsion jihatdan birmuncha boyitadi.

Har qanday fe’lda ikki xususiyat potensial ravishda mavjud bo‘ladi: fe’llik xususiyati va kesimlik xususiyati. Hozirgacha bu ikki xususiyat ajratilmagan va grammatikada “fe’l bo‘lsa, albatta, kesimlik xususiyati mavjud bo‘ladi, demak, ularni olib, yakka-yakka baholab o‘tirishning keragi yo‘q” degan fikr hukmron bo‘lib kelgan.

Bu o‘rinda fe’llik kesimlilikning, aniqrog‘i, kesimlik fe’lning ajralmas xususiyati deb kelingan. Fe’llik xususiyati so‘zini ish-harakat, holat yoki jarayonni bildirishda ifodalansa, kesimlilik xususiyati fe’l grammatik kategoriyalarni ifodalash uchun xizmat qiladi (shaxs, son, zamon, nisbat, mayl, aspekt kabi grammatik kategoriyalar).

Hukm fikr ifodalanishining mantiqiy shakllaridandir. Tasdiq va inkor har bir hukmning xarakterli belgisidir. Tushunchaning hukmdan asosiy farqi shundaki, unda hukmga mos bo‘lgan tasdiq va inkor holatlari – subyekt, ikkinchi element – predikat va uchinchi element – bog‘lovchi deb aytiladi [Xayruilayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. Toshkent, 1993, 235].

Kognitiv tilshunoslikda izlanish obyekti bo‘lib qabul qilingan «voqea» (event) termini kognitiv grammatikaga XX asr oxiri va XXI asr boshlarida L.Talmy, T.Parsons, L.A.Furs, R.Jackendoff va boshqalar tomonidan olib kirildi va keng qo‘llanila boshladi.

Foydalaingan adabiyotlar:

1. Кубрякова Е.С. Основы морфологического анализа. На материале германских языков. Монография, изд. 2-е, М., изд-во ЛКИ, 2008.

2. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. Москва, издательство литературы на иностранных языках, 1957.

3. Фурс Л.А. Когнитивные аспекты синтаксиса английского простого предложения. Учебное пособие, Тамбов, изд-во ТГУ им. Г.Р.Державина, 2005.

4. Xayruilayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. Toshkent, 1993, 235-bet.

5. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Vol.1. Concept Structuring Systems. Cambridge Massachusetts: The MIT Press, 2000.

6. Terence Parsons. Events in the Semantics of English: A Study in the Sub-atomic Semantics. Cambridge, Mass., MIT Press, 1990.

7. Jackendoff Ray. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. Oxford, Oxford University Press, 2002.

Normatov Azamatbek Abduxalilovich (Andijon davlat Chet tillari instituti “Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi doktoranti; e-mail: azamatbek.normatov@mail.ru)

SIFAT INTENSIVLIGI DARAJALARINING NUTQ IFODALANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada fransuz tilida sifat darajalari va intensivlik kategoriyasining lingvostilistik xususiyatlarini, shuningdek, ulardan samarali muloqot va stilistik effektlarni yaratishdagi ahamiyatini o‘rganish muammolari ifodalangan.*

Аннотация. *В статье анализируются проблемы изучения лингвистических особенностей уровней прилагательных и категории интенсивности во французском языке, а также выражается их важность в создании эффективной коммуникации и стилистических эффектов от них.*

Annotation. *The article analyzes the problems of studying the linguistic features of the adjective levels and intensity category in French, as well as their importance in creating effective communication and stylistic effects from them, are expressed.*

Kalit so‘zlar: *sifat darajalari, intensivlik, gradatsiya, kuchaytirish, qiyoslash.*

Ключевые слова: *уровни прилагательных, интенсивность, градация, подкрепление, сравнение.*

Key words: *adjective levels, intensity, gradation, reinforcement, comparison.*

Zamonaviy fransuz tili dunyo tillari ichida o‘zining murakkabligi va o‘ziga xosligi, lingvistik xususiyatlarining rang-barangligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Bular orasida fransuz tilida sifatlarning intensivligi darajalarining tadqiqi chuqur o‘rganishga loyiq bo‘lgan muhim jihat hisoblanadi.

Sifatlar intensivlik darajalarining qo‘llanilishi zamonaviy fransuz tilining eng keng tarqalgan va ko‘p qo‘llaniladigan lingvistik xususiyatlaridan biridir [1.767]. Bu ma’lum bir jumla yoki kontekstda si-

fatning ahamiyati yoki kuchini aniqlik bilan ifodalashga imkon beradi. Shuning barobarida, vaqt o‘tishi bilan ushbu lingvistik xususiyat tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va tilshunoslar uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda fransuz tilidagi ta’sirini o‘rganib kelmoqdalar. Ushbu maqolada zamonaviy fransuz tilidagi sifatlar intensivligining ba’zi lingvostilistik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Mazkur masala fransuz tilida sifatlarning intensivligini ifodalovchi ta’riflar va asosiy tushunchalar bo‘lgan *intensivlik, gradatsiya, intensivlashtirish* va *o‘zgartirish*, shuningdek, *qiyosiy* va *orttirma darajalarni* o‘rganishdan boshlanadi. Zamonaviy fransuz tilida sifatlar intensivligi ifodalanishida sifatlarning turlari va gapdagi ahamiyatini aniqlash hamda ularning til yoki nutqning umumiy intensivligiga ta’sirini o‘rganish lozim. Shuningdek, fransuz tilidagi sifatlar intensivligining lingvostilistik xususiyatlarini tahlil etishda turli til birliklari xususan, ravishlardan foydalanish, urg‘u, kinoya yoki hazil kabi intensivlikni ifodalashning turli shakllari va ularning nutqqa bo‘lgan uslubiy ta’sirini tasvirlash talab etiladi, bunda sifatlarning intensivligi ta’siridan ilmiy, badiiy va adabiy kontekstlarda foydalanilishi hisobga olinadi.

Ushbu lingvistik xususiyatning tilda muhim ahamiyat kasb etishining sabablaridan yana biri, uning samarali muloqot va stilistik effektlarni yaratishdagi rolidir. Quyida biz sifat intensivligi tushunchasiga doir ayrim terminlarning izohiga to‘xtalib o‘tamiz:

Intensivlik – ifodaning, xususan, sifatning kuchi yoki kuchining o‘lchovidir. U kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi va bir necha usul bilan ifodalanishi mumkin: *très, extrêmement, assez* iboralari yoki *plus, moins* kabi ravishlari shular jumlasidandir (Le Petit Larousse. Larousse. 1993).

Gradatsiya – bu sifatning intensivligini ma’lum darajaga ko‘ra o‘lchash hisoblanib, u nutq elementlari o‘rtasida taqqoslash va qarama-qarshiliklarni yaratish uchun ishlatiladi. Fransuz tilidagi gradatsiya darajalari oddiy, qiyosiy va orttirma darajalardir.

Kuchaytirish – ifoda intensivligini qo‘shish yoki kuchaytirish jarayoni bo‘lib, u maxsus qo‘shimchalar, iboralar yoki grammatik konstruksiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Qiyoslash – ikki yoki undan ortiq elementlarni taqqoslash jarayoni bo‘lib, ular orasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni topishdir. Fransuz tilida taqqoslash, ko‘pincha, qiyosiy tuzilish yordamida amalga oshiriladi *(plus...que, aussi…que, moins...que)*.

Superlativ (orttirma) – sifat gradatsiyasining eng yuqori darajasi bo‘lib, u boshqalardan ortiq bo‘lgan belgi yoki xususiyatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Orttirma daraja *Le plus/le moins...de tous* shakli yordamida ifodalanadi (Le Petit Robert, Les dictionnaires Robert-Canada S.C.C.Montreal, Canada. 1990).

Sifatlarda intensivlik kategoriyasini ifodalashda fransuz tilida uning turlarini aniqlash lozimdir. Asliy va nisbiy sifatlar o‘zlarining gapdagi o‘rni va vazifalariga ko‘ra, intensivlikning turli darajalarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, asliy sifatlar fransuz tilida eng ko‘p ishlatiladigan sifatlar hisoblanib, ular otning belgi yoki xususiyatini belgilash orqali o‘zgartirib, neytral tavsifdan tortib kuchli hissiy ifodagacha bo‘lgan turli intensivlik darajalarini ifodalash uchun qo‘llaniladi:

Le ciel est bleu: bu yerda ***bleu*** asliy sifati osmon rangini tasvirlash uchun neytral tarzda ishlatilgan.

– *Le ciel est magnifique!* gapida esa ***magnifique*** sifatining qo‘shilishi kuchli ijobiy hissiyot yoki go‘zallik tuyg‘usini anglatuvchi kuchli intensivlikni ifodalaydi.

Nisbiy sifatlar – bu ichki ma’noga ega bo‘lmagan, ammo boshqa obyekt yoki boshqa shaxs bilan munosabatlarni yoki taqqoslashni ifodalash uchun ishlatiladigan sifatlar bo‘lib, ular, ko‘pincha, hissiy intensivlikni keltirib chiqaradigan kontrastlar yoki taqqoslashlarni yaratish uchun ishlatiladi:

– *Ce gâteau est le meilleur:* mazkur gapda ***le meilleur*** boshqa predmetlar bilan belgi, xususiyatni taqqoslashni nazarda tutadi va shu bilan afzallikning ijobiy-hissiy intensivligini anglatadi.

– *Cet hôtel est pire que je ne l’imaginais:* bunda ***pire*** belgisidan foydalanish dastlabki tasavvur bilan taqqoslashni nazarda tutadi va shu bilan salbiy-hissiy intensivligini yaratadi.

Umuman olganda, tilda sifatlardan o‘z o‘rnida foydalanib, biz ekspressiv va samarali muloqot uchun o‘ziga xos nyuanslar va intensivlik darajalarini hosil qilishimiz mumkin [2.66].

Shu bilan birga, fransuz tilida *très, vraiment, extrêmement, incroyablement, un peu, peu* kabi ravishlar, ko‘pincha, sifatning intensivligini oshirish uchun ishlatiladi. Mazkur ravishlarning qo‘llanilishi kontekstga qarab sifatning intensivligini pragmatik tarzda o‘zgartirishi mumkin:

– *C’est une journée chaude* jumlasida ***chaude*** sifati haroratni tasvirlash uchun neytral ishlatiladi.

– *C’est une journée très chaude* jumlasida esa ***très*** ravishi yordamida yuqori harorat tuyg‘usini anglatuvchi kuchli hissiy intensivlik ifoda etilmoqda [3.27].

Ilmiy va institutsional kontekstlarda sifatlarning intensivligi, ko‘pincha, neytral va faktik, adabiy kontekstda esa til, asosan, ifodali bo‘lib, bunda sifatlarning intensivligi muhimroqdir.

Zamonaviy fransuz tilidagi sifatlar intensivligining lingvostilistik xususiyatlari matn mazmuni, uslubi va kerakli effektiga bog‘liq bo‘lib, ulardan foydalanish orqali mazmunli va samarali muloqot uchun aniq yo‘l hamda stilistik bo‘yoqdorlikni yaratish mumkin. Bunda sifatlarning intensivligi darajalarining ifodalanishi ushbu muloqot uchun juda muhimdir, chunki u gapda anglashilayotgan ma’noni tinglovchiga aniq va ifodali tarzda yetkazish imkonini beradi. Vaziyat, shaxs yoki obyektni tasvirlash uchun mos sifatlarni tanlash orqali, biz boshqacha tarzda ifodalash mumkin bo‘lmagan nozik ma’nolar (fine nuance) va his-tuyg‘ularni yetkazamiz [4.24].

Sifatlarning intensivligidan o‘z o‘rnida, samarali foydalanib, nutqda aniq stilistik bo‘yoqlarni yaratish mumkin. Masalan, siyosiy mazmundagi nutqlarda sifatlarning yuqori intensivlik darajalaridan foydalanish hissiy taranglikni keltirib chiqarishi va siyosiy arboblar o‘zlarining siyosatdagi pozitsiyalarini mustahkamlashida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan: *Je veux que chacun d’entre vous retrouve la certitude que nos enfants pourront bâtir* ***une vie meilleure****. Et ce sont nos services publics qui devront porter cette espérance, de la* ***petite enfance au grand âge*** (Allocution d’Emmanuel Macron, le 17 avril 2023) Xuddi shunday, fransuz matbuot va media tilida ham turli mahsulotlar reklamalari va ularning matnlarida sifatlar intensivligining shakllari iste’molchilarni diqqatini jalb etish hamda shu mahsulotni sotib olishga ishontirish uchun ishlatilmoqda. Masalan: *Buvez l’eau de Savoie, c’est* ***tellement savoureux****! Une boisson originale de l’eau de* ***la plus haute montagne*** *qui est* ***réellement rafraichissante****!* (publicité de l’eau).

Ayniqsa, sifatlarning intensivligi fransuz adabiyotida ham muhim madaniy ta’sirga ega bo‘lib, ulardan foydalanish badiiy asarda jonli va hissiy-ruhiy tasvirni yaratadi.

Fransuz adabiy asarlaridagi sifatlarning intensivlik darajalarini qo‘llanilishiga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

– Kam intensivlik: *Il portait une petite veste en toile grise.*

– O‘rtacha intensivlik: *Elle avait de grands yeux noirs pleins d’expression.*

– Yuqori intensivlik: *Je veux être avec vous ou mourir!* (“Le Rouge et le Noir”, de Stendhal. La Bibliothèque électronique du Québec Collection *À tous les vents* Volume 776 : version 1.0).

– Kam intensivlik: *Le vieillard avait une chemise de grosse toile bleue et un pantalon de coutil gris.*

– O‘rtacha intensivlik: *Sa voix était d’un timbre bas et triste, ses yeux doux et profonds avaient cet éclat qui vient des larmes retenues.*

– Yuqori intensivlik: *Elle était belle comme une extase, et magnifique comme un songe* (“Les Misérables”, de Victor Hugo. Independently published Avril 29, 2021).

– Kam intensivlik: *Le petit pan de mur jaune.*

– O‘rtacha intensivlik: *Elle avait des joues pleines et vermeilles, des yeux d'un bleu profond.*

– Yuqori intensivlik: *Mon cœur battait à se rompre, mon amour était plus fort que la mort* (“À la recherche du temps perdu”, de Marcel Proust. Bibebook; edition June 9, 2015).

Yuqoridagi misollar fransuz badiiy adabiyotida sifatlarning intensivligi kontekst va muallifning maqsadiga qarab qanday o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sifatlar predmet va shaxslarni sodda tarzda tasvirlash yoki o‘quvchi uchun kuchli hissiy tasvirlarni yaratish uchun ishlatilganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy fransuz tilidagi sifatlar intensivligining lingvostilistik xususiyatlari, shuningdek, ulardan samarali muloqot va stilistik effektlarni yaratishdagi ahamiyatini o‘rganish nafaqat fransuz tilida, balki boshqa tillarda ham dolzarb masalaligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Grevisse, A.Goosse. Le bon usage. p.767; Groupe De Boeck s.a., 2011, 1760 pages.
2. B.Chovelon, M.Barthe. Expression et style. p. 66, PUG, 2002, 210 pages.
3. M.L.Chalaron, R.Roesch. La grammaire autrement. p. 27, PUG,1990, 138 pages.
4. M.Boulares, J.-L.Frerot. Grammaire progressive du francais. p. 24. CLE International, 2012, 192 pages.
5. Le Petit Robert. Les dictionnaires Robert-Canada S.C.C. Montreal, Canada, 1990.
6. Le Petit Larousse. Larousse, 1993.
7. Allocution d’Emmanuel Macron, le 17 avril 2023 https://www.elysee.fr/emmanuel-macron/2023/04/17/adresse-aux-francais-2

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ro‘ziboyev Bobir Mirzaqulovich (Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi;
e-mail: rozibayevbobur@gmail.com)

MA’NAVIY-AXLOQIY MAVZUDAGI HIKOYALARDA YOZUVCHI MAHORATI MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so‘nggi davr o‘zbek nasrida yaratilgan hikoyalar va ularning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan bo‘lib, asosan, ma’naviy-axloqiy mavzudagi hikoyalar yaratilishida yozuvchi mahorati masalasiga diqqat qaratilgan. Hikoyalarning badiiy-estetik qiymati yozuvchi mahorati bilan bog‘liq ekanligi hikoyalarda qo‘llanilgan tasvir vositalari tadqiqi orqali aks ettirilgan.*

Аннотация*. В данной статье исследуются рассказы, созданные в узбекской прозе последнего периода и их специфические аспекты, в основном акцентируется внимание на мастерстве писателя в создании рассказов на духовно-нравственные темы. Тот факт, что художественно-эстетическая ценность рассказов связана с мастерством писателя, находит свое отражение в исследовании изобразительных средств, используемых в рассказах.*

Annotation*. In this article, the stories created in Uzbek prose of the last period and their specific aspects are researched, and the writer’s skill in creating stories on spiritual and moral topics is mainly focused on. The fact that the artistic-aesthetic value of the stories is related to the writer’s skill is reflected through the research of the image tools used in the stories.*

Kalit so‘zlar: *hikoyachi qahramon, badiiy mahorat, obrazlilik, badiiy to‘qima, badiiy-estetik xususiyat, tasvir vositalari, yozuvchi mahorati, inson ma’naviyati, estetik ta’sir va boshqalar.*

Ключевые слова: *повествовательный герой, художественное мастерство, образность, художественная фактура, художественно-эстетическая особенность, средства изображения, писательское мастерство, духовность человека, эстетический эффект и др.*

Key words: *narrative hero, artistic skill, imagery, artistic texture, artistic-aesthetic feature, image tools, writing skill, human spirituality, aesthetic effect, etc.*

Ma’lumki, istiqlol davri ijodkorlari, xususan, hikoyanavislari asarlarida yetakchi mavzulardan biri inson ma’naviyati bo‘ldi. Chunki o‘tish davri qiyinchiliklarini yengib o‘tishi, o‘ziga mustaqil yo‘l topa bilishi uchun zamon ularni sinadi. «Adabiyot – abadiyatga da’vogar. Adib betizgin vaqtni tizginlashga urinadigan zot. U tarixchidan farq qilaroq, zamon haqida axborot, ma’lumot bermaydi. Bil’aks, vaqtni, odam umrining biror qismini hissiyot-u sezimlari bilan tasvirga muhrlab to‘xtatib qo‘yadi» [3.35]. Demak, yozuvchilar ma’lum bir davr voqeliklari va insonlari hissiyotlari, kechimlari o‘z asarlari orqali qog‘ozga muhrlay oladilar.

Quvondiq Siddiq qalamiga mansub aksar hikoyalarning jamiyatimizdagi aynan ma’naviy-axloqiy muammolarga bag‘ishlanganligini ko‘rish mumkin. Yozuvchining “Qishdagi ishq”, “Nogiron qiz farosati”, “Arosatdagi sadoqat”, “Birga o‘lmaymizmi, do‘stim?!”, “Onamni yig‘latib qo‘ydim”, “Futbolga tikilgan “bosh”, “Yomon yaxshilik”, “Uvol bo‘ladi” kabi hikoyalari shular jumlasidan.

Yozuvchining “Qishdagi ishq” deb nomlangan hikoyasi insonlar o‘rtasida taqchil bo‘lib borayotgan samimiy ishq-muhabbat tasviriga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Nogiron qiz farosati” nomli hikoya shikasta qalb nogiron qizning unga bo‘lgan muhabbat izhoriga bergan samimiy javobi haqidadir. “Arosatdagi sadoqat” hikoyasida esa bugungi kunda el orasida “urf” darajasiga chiqqan qo‘shxotinlilik muammosi va muhabbatga sadoqat kabi dolzarb masala aks ettirilgan bo‘lsa, “Birga o‘lmaymizmi, do‘stim?!” hikoyasida ham shunga o‘xshash, ya’ni do‘stlikka sadoqat mavzusi aks ettirilgan. “Onamni yig‘latib qo‘ydim” hikoyasida bugungi kun uchun ham dolzarb masalalardan bo‘lgan kitob o‘qish orqali inson ma’naviyatini shakllantirish va uning jamiyatda o‘z o‘rninin topishiga ko‘maklashish mavzusi ilgari surilgan. “Futbolga tikilgan “bosh” hikoyasida birovni ranjitish evaziga xursandchilik qilmaslik haqida. “Yomon yaxshilik” nomli hikoyada esa mehribon boboning o‘z yaqinlarini o‘ylab, ularni ayriliq jafosiga qo‘ymaslik maqsadida o‘zidan uzoqlashtirishga harakat qilishi aks ettirilgan.

Mazkur hikoyalar orasida “Arosatdagi sadoqat” hikoyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra inson o‘ziga to‘q bo‘lgani sayin qabihlikka yuz buraveradi. Oilali insonning yashirincha yana bir go‘zal ayol bilan yashashi, uni moddiy jihatdan ta’minlashi, unga yetarlicha sharoit yaratib berishi kabilar uning ma’naviy tanazzulini dalolatlaydi. Shuningdek, o‘zi og‘ir xastalikka chalinganida, o‘zidan xabar olishni ham xohlamagan bemehr ayolni ikkinchi xotinlikka olganligi, o‘z ayoli esa o‘z jonini berib bo‘lsa ham, uyda borini sotib bo‘lsa ham, uning jonini saqlab qolish orqali unga bo‘lgan kuchli muhabbatini ko‘rsatganligidan ushbu kimsaning noto‘g‘ri yo‘l tutganligini anglash mumkin.

Asarning hikoyachi qahramoni bo‘lgan Nargizaga “birinchi” xotin bo‘lgan Dilbarning yaqin dugonasi bo‘lganidan, unga telefon qilib, o‘z tashvishlari haqida so‘zlab berishi ham uning qanday sodda va jonkuyar inson ekanligini ko‘rsatadi: “Boshimizga tashvish tushib qoldi, Nargiz. Bir oydan beri erim og‘ir kasal, birdan yuragi xuruj qilib qoldi. Operatsiya qildirdik. Endi-endi o‘ziga keldi. Bor pulimizni, hatto mashinamizni sotib, uni davolatdik. ...Kerak bo‘lsa. Uning sog‘ayib ketishi uchun jonimni berishga tayyor edim. Xudodan shifo tilab, boshida bedor o‘tirdim. Iltijolarimni eshitib, mana, Allohimning boriga shukr, adamizni bizga qaytib berdi”. Ya’ni u o‘z erining qilib yurgan qing‘ir ishlaridan mutlaqo bexabar. Shu sababli u erini erta-yu kech oila g‘amida yurgan zahmatkash va mard inson sifatida biladi. Uning uchun o‘zi jonidan kechishga ham tayyor. Erni pir deb bilib, uning sog‘ayib ketishini Yaratgandan so‘rab nolalar qiladigan fidokor inson.

Ikkinchi xotin bo‘lgan yosh ayolning Nargizaga aytgan gaplari uning ma’naviyatini aniq ko‘rsatib bergan: “Ahvolimni qarang, uch yildan beri mana shu katalakdek xonada qiynalib yashayman. Lift o‘lgur ishlamay qolsa, tinkam qurib ketadi. Bu akam esa sal ko‘proq pul topsam, senga pastki qavatdan ikki xonali kvartira olib beraman, ammo hozir pulim bunga yetmaydi, deb meni aldab yurgan ekan. Bilsam, bir emas, uchta ikki xonali kvartiraga ham yetadigan puli bor ekan. Mana, kuni kecha aniqladim, operatsiyasiga naq uchta kvartiraning pulini sarflabdi...” [5.19]. Ya’ni, bu ayolni erining sog‘lig‘i emas, balki uning pullari qiziqtirishi, faqat qiyinchiliksiz, to‘kin hayot uchungina u bilash yashashga rozi bo‘lganligi anglashiladi. Aynan mana shu narsa – qiynalmasdan, jonini koyitmasdan farog‘atda yashash istagi tufayli qancha-qancha qizlar tubanlik yo‘lini tanlashi, qancha-qancha oilalarning buzilib ketishiga sabab bo‘layotganligi ham bugungi kundagi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Yozuvchi ayna mana shu muammoga diqqat qaratmoqda va masalani oydinlashtirish uchun baland qavatda joylashgan “bir xonali kvartira”, “bor puli”, “mashina” kabi predmet detallardan unumli foydalanilgan. Ya’ni, ularni har ikkala obrazning xarakter-xususiyatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun kerak bo‘lgan. Bir xonali kvartira qanoatsiz va sadoqatsiz, yengil hayot tarafdori bo‘lgan ayolning o‘zligini, xarakterini ko‘rsatsa, “bor puli” va “mashina” detallari esa Dilbarning oilaparvar va oqko‘ngil ayol ekanligini dalolatlaydi.

“Nargiza dugonasining gaplarini eshitar ekan, qo‘shni ayolning “er”i taqdiridagi bu qadar o‘xshashlikdan xavotirga tushib boraradi. Dilbar o‘z erining boshidan o‘tgan bu dard haqida yosh qo‘shni ayolning so‘zlari bilan deyarli bir xil tafsilotni gapirardi. Faqat ikki ayolda bu erkakka bo‘lgan muhabbat va mehr orasidagi farq yer bilan osmoncha ekanligi allaqachon Nargizaga ayon edi.

Dugonasi eriga shu qadar ishonar, unga jonini berishga tayyor edi. Ammo...” [5.19]. “Birinchi – Dilbar” va “Ikkinchi” xarakteridagi paradoksal tafovut yozuvchi tomonidan ularning o‘z nutqlari orqali jonli aks ettirilgan.

“Nachora, qo‘lidan nima ham kelardi. Har kim o‘z hayot tarzini o‘zi xohlab o‘zgartiradi. Shu tobda bu erkakning uni ko‘z ochib ko‘rgan ayolining arosatda qolgan sadoqatigina hayotga qaytarganligini bilishini chin dildan istadi, ammo qanday aytsin?.. Ishqilib, shifo bergan Alloh unga insof va iymon, oriyat va adolat, arosatsiz sadoqat ham bersin!” [5.19]. Ko‘rinadiki, Quvondiq Siddiq tomonidan ko‘tarilayotgan ma’naviy-axloqiy muammo jamiyatdagi insonlar uchun suv va havo kabi zarurat darajasida bo‘lgan insof va iymon, oriyat va adolat, sadoqat kabi tuyg‘ularning tobora taxchillashib borayotganligidan xavotirda ekanligida ko‘rinadi.

“Adabiyot badiiy obrazlarning murakkab sistemasi orqali inson tuyg‘ulari, ehtirosi, psixologiyasi va ongining jamiyat, davlat, tarix va tabiat bilan bog‘liqlik darajasini ochib beradi. Adabiyot insonni tasvirlash orqali real voqelikni gavdalantiradi” [5.20].

Yozuvchining yana bir hikoyasi “Birga o‘lmaymizmi, do‘stim?!” deb nomlangan bo‘lib, sralavhasidan ham ma’lumki, u do‘stlik mavzusini ilgari surgan asar ekan. Asar sujetidan Ukrainadagi harbiy xizmat chog‘ida, avval, qurol-aslaha ombori bo‘lgan joyni buzish vaqtida yerto‘ladan topib olingan eski qurollarni yigitlarga ko‘rsataman degan maqsadda granatalarni qo‘liga olib chiqqan hikoyachi qahramon o‘zi bilmagan holda, granataning ilgagini qo‘porib olib qo‘yadi. Lekin uni joyiga ildirsa, xavf bartaraf bo‘lishini bilsa-da, bu ishni qila olmaydi. Shu ishda o‘zining ikki yillik qadrdonini yordamga chaqiradi.

“Hoy, jo‘ra, bu yoqqa kel, dedim unga. – Mana bu ilgakchani joyiga sal siqib, ilintirib qo‘ysak, bo‘ldi, shu, xolos. Menga ozroq ko‘maklashib yubor...”.

Qarasam, devor ortidan mo‘ralab turgan do‘stimning ko‘zlaridagi qo‘rqinch menikidan ko‘proq-dek.

– Yo‘q, – dedi u. – Portlab ketishi mumkin-ku, undan ko‘ra qimirlamay tur! Hozir komandirlarni chaqirib kelaman. Bir yo‘li topilar...

Qo‘lim tolib borardi, zanglab ketgan o‘sha ilgakni qaytadan ilintirib qo‘yishga o‘zimning imkonim yetmay qolgandi.

– Kel endi, do‘stim, kuchim yetmay, qo‘limdan tushib ketadimi deb qo‘rqayapman, salgina yordamlashib yubor. Manavi ilgakni joyiga tiqib qo‘ysang, bo‘ldi, buni yaxshi bilasan-ku. Bekordan bekorga o‘lib ketging kelmaydi-da, axir!

– Men ham shuni aytayapman-da...– do‘stim kalovlana boshladi. – Ikkalamiz o‘lgandan ko‘ra, bir kishi o‘lgani yaxshiroq-ku!..” [5.22].

Mazkur dialogdan hikoya qahramonlarining eng og‘ir damdagi ruhiy holati va ma’naviy dunyosi ochiq-oydin anglashilgan. Chunki hikoyachi qahramonning o‘z do‘sti sifatida ko‘rib yurgan yigitning asli qo‘rqoq va nomard ekanligi uning “ikkalamiz o‘lgandan ko‘ra, bir kishi o‘lgani yaxshiroq-ku!” degan so‘zlaridan ayonlashgan. Ya’ni, asl ma’naviy olamini ochib berish uchun ana shu birgina jumla – nutqiy detal, shu bilan birga, “eski granata” predmet detali ham yetarli bo‘lgan.

Uning asli kim ekanligini anglagan hikoyachi qahramonning o‘sha ondagi ichki kechinmalari quyidagicha bayon qilinadi: “Mana, sizga do‘stlik... Axir, shu damgacha hamma narsamizni baham ko‘rib kelayotgan yaqin o‘rtoqmiz-a! Ikki yilda boshimizdan nimalar o‘tmadi... Uning uchun kimlar bilan mushtlashmadim. O‘limga ham birga boramiz, degan ahdlar qiluvdik-ku...” [5.22]. Qahramonning mazkur monologik nutqidan o‘limga ham birga borishni ahdlashish darajasidagi bu do‘stga ko‘proq hikoyachi qahramon yordam berib kelganligi, uning uchun ko‘p marotaba mushtlashganligi, borini baham ko‘rganligi ayonlashadi, ya’ni, ayni damda qo‘lida ilgagi chiqarilgan granata bilan turgan bu yigit undan uzoqda jon saqlab turgan, uning chorloviga qo‘rqoqlarcha rad javobini bergan bu yigitga faqat manfaat nuqtayi nazaridangina kerak bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi.

Granataning xavfli emasligi ma’lum bo‘lgach, bunday “do‘st”dan voz kechish ma’nosida quyidagi tasvir beriladi: “Kim kulgan, kim tanbeh bergan... Shu tobda hech kimning gapi qulog‘imga kirmasdi. Do‘stim esa hazilnamo kulib, yonimga keldi. Unga zarda bilan, “Rahmat!” dedim-u ochilolmay tayyor musht bo‘lib qotgan qo‘lim bilan naq jag‘iga tushirdim!..” [5.22].

Ko‘rinadiki, mazkur hikoya hamma zamonlarda va makonlarda barcha insonlar uchun dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan do‘stga sadoqat mazmunida bo‘lib, chin ma’nodagi do‘stlik uning boshiga biror bir sinov tushgandagina ayonlashishi yozuvchi tomonidan mahorat bilan badiiy detallar, poetik nutq yordamida aks ettirilgan.

Quvondiq Siddiqning yana bir “Onamni yig‘latib qo‘ydim” nomli hikoyasi ham yuqorida aytib o‘tilganidek, bugungi kun uchun dolzarb ma’naviy muammolardan biri bo‘lgan kitob mutolaasi mavzusiga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Hikoya qahramoni yozuvchining o‘ziga xos uslubiga ko‘ra hikoyachi qahramon bo‘lib, uning onasini yig‘latishi voqeasi asarning asosiy sujetini tashkil etadi.

Yozuvchi asosiy voqea boshlanish joyigacha bo‘lgan holatni, ya’ni, asosiy qahramonning hammani quvontirib yashagan otasi erta vafot etgandan so‘ng farrosh bo‘lib ishlaydigan onasining yetti farzandni boqish uchun boshidan o‘tkazayotgan qiyinchiliklari va to‘kkan ko‘z yoshlari xususida qiqacha ma’lumot bergach, o‘zining yettinchi sinf ekanligida ularga sinf rahbari qilib tayinlangan yangi kelgan adabiyot o‘qituvchisining sinfdagilarning kitoblarning sehrli olamiga olib kira olganligi xususida ma’lumot berib o‘tadi.

O‘sha o‘qituvchining o‘z shaxsiy kutubxonasidan sinfdagi barcha o‘quvchilarga kitob ulashib, faqat unga – Shodibekka bermaganligiga barcha ajablanadi. Shu o‘rinda Shodibekning, balki, uni o‘qituvchi ilg‘amay qolgandir, degan gumon bilan kitob so‘raganida berilgan javob uning ko‘ngliga og‘ir botadi:

“Nima-a-a? – dedi o‘qituvchi istehzoli kulib. – Sen kitob so‘rayapsanmi? Kitob nimaligini bilasanmi o‘zi? Senga o‘xshagan bolalarga kitobni ishonib bo‘larkanmi? Qo‘y, yaxshisi, ko‘cha-ko‘yda tuproqqa boti-i-ib sanqib, daydib yuraver!..” [5.28].

Bunday gap har qanday kishi qatori, Shodibekning ham izzat-nafsini uyg‘otadi. Bunday gaplardan so‘ng o‘qituvchisini juda yomon ko‘rib qolgan bo‘lsa ham, ertasiga berilgan kitoblar bo‘yicha savol-javob qilinib, yaxshi baholar olayotgan sinfdoshlariga havas qilib, u yana kitob so‘rashga jur’at qiladi. Hartugul bu safar o‘qituvchi kitobdan kamida beshta hikoyani o‘qib kelishni shart qilib qo‘yib, kitob beradi. Ertasiga adabiyot darsidagi holat undagi o‘zgarishni ifodalagan, ya’ni, uni o‘qituvchi doskaga chorlaganida boshida tutilib-tutilib gapirsa-da, keyinchalik, dadil-dadil so‘zlab, deyarli darsning oxirigacha faqat u so‘zlaydi. O‘qituvchi: “Barakalla, bolakay! – deb yelkasiga qoqib qo‘ydi va Shodibekka o‘sha kitobni tutqazdi. – Bu kitob endi seniki, mendan sovg‘a! Bahoying esa “besh!” [5.29].

Shodibek o‘qituvchiga rahmat aytib, joyiga o‘tirdi. Maktabga kelib, shu kungacha “4” baho ham olmagan bola, hayotida birinchi marta “5” oldi. Yuragi o‘ynab ketardi. Bolalarning ham unga munosabati birdan o‘zgardi” [5.29].

Keyingi kuni onasi ham u bilan maktabga birga kelib, adabiyot o‘qituvchisiga katta rahmat aytadi:

“Men... men shu bolaning qo‘lida kitob ko‘raman deb o‘ylamay ham qo‘ygandim... Rahmat, sizga! – onasi shunday deya, yig‘lab yubordi” [5.27].

Ko‘rinadiki, onasining ko‘z yoshlari quvonch ko‘z yoshlari edi. U kitob o‘qisa, o‘g‘lining ma’naviyati ham yaxshi bo‘lishini, o‘qib-o‘rganib, yaxshi ishlarda ishlab, hayoti yaxshi o‘tishiga chin dildan ishongani uchun bolasidagi ijobiy o‘zgarish sababchisi bo‘lgan muallimga minnatdorchilik bildirmoqda.

Kitob o‘qish orqali inson ma’naviyatini shakllantirish mavzusi yozuvchi tomonidan personaj nutqi va psixologik detal – onaning samimimy ko‘z yoshlari, o‘qituvchining rag‘bati kabilar vositasida ifodalanmoqda.

Xullas, so‘nggi davr o‘zbek hikoyanavisligida ma’naviy-axloqiy muammolar talqini yozuvchilar tomonidan mahorat bilan aks ettirilmoqda. Sobir O‘nar jamiyatda xavfli illat darajasida ko‘rilayotgan tabaqalanishdek muammoni o‘zining “Tarvuz” hikoyasi orqali aks ettirayotgan bo‘lsa, Quvondiq Siddiq esa kichik-kichik hikoyalari orqali yirik muammolardan bo‘lgan do‘stga sadoqat, mehr-oqibat, vafo va iymon, to‘qlikka sho‘xlik, kitob orqali inson ma’naviyatini shakllantirish kabi bir qator muamolarni yoritib berishga harakat qilgan. Bunday mavzular ifodasida badiiy tasvir vositalarining yozuvchi mahorati tufayli o‘rinli qo‘llanilganligi ham qo‘l kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiy tur va janrlar. III jildlik, II jild, Toshkent, “Fan”, 1982, 248-bet.
2. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 1-tom, Toshkent, “Fan”, 1978, 153-bet.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. O‘zbek nasri ufqlari («Yoniq so‘z» kitobi). T., “Yangi asr avlodi”, 2006, 35-bet.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., Akademnashr, 2010, 480-bet.
5. Quvondiq Siddiq. Futbolga tikilgan bosh. T., “O‘zbekiston”, 2011, 19-bet.
6. To‘ychiyev U. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik, 2-tom, Toshkent, “Fan”, 1992, 297-bet.
7. Хализев В.Е. Теоретическая литература. Москва, “Высшая школа”, 1999, с. 240.

Axrorova Mahina Avazovna (Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi)

ADABIY AN’ANALAR ADABIYOTSHUNOSLIKDA MADANIY-IJODIY DIALOG SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada badiiy asar yashovchanligini ta’minlovchi xususiyatlar, adabiy an’ana, adabiy ta’sir va vorislik kabi tushunchalar yoritib berilgan hamda tahlil qilingan. An’ana va vorislik nafaqat badiiy adabiyot va san’atga xos hodisa, balki u falsafiy kategoriya hamda jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekani ham o‘z davrida aniqlab berilgan. Adabiyotshunoslikda o‘zaro ta’sirlanishning ta’sir qiluvchi va ta’sirlanuvchi jihati jadid adabiyoti namoyandalarining asarlari orqali dalillangan.*

Аннотация. *В статье выделяются и анализируются признаки, обеспечивающие жизнеспособность художественного произведения, такие, как литературная традиция, литературное влияние и преемственность. Традиция и наследственность являются не только явлением, специфическим для художественной литературы и искусства, но и философской категорией, важным фактором развития общества. Влияющий и влияемый аспект взаимодействия в литературоведении подтверждается работами представителей современной литературы.*

Annotation. *The article highlights and analyzes the features that ensure the viability of an artistic work, such as literary tradition, literary influence and succession. Tradition and inheritance are not only a phenomenon specific to fiction and art, but also a philosophical category and an important factor in the development of society. The influencing and influenced aspect of interaction in literary studies is proved by the works of modern literature representatives.*

Kalit so‘zlar: *biografik metod, mangu asarlar, adabiy an’ana, jadid adabiyoti, poetik mohiyat, vorislik aloqalari, aspekt.*

Ключевые слова: *биографический метод, вечные произведения, литературная традиция, современная литература, поэтическая сущность, отношения преемственности, аспект.*

Key words: *biographical method, eternal works, literary tradition, modern literature, poetic essence, succession relations, aspect.*

Badiiy ijod tajribasidan yaxshi ma’lumki, har qanday iste’dodli ijodkor adabiyotga buyuk ustozlarning munosib shogirdi va izdoshi sifatida kirib keladi. Chunki yosh talant ijodda yangi, original badiiy kashfiyotlar uchun ochmoqchi bo‘lgan yo‘lni doimo ungacha yaratilgan an’analar zamiridan topadi [1. 90]. Iste’dod egasining an’analarga munosabati esa, birinchidan, uning dunyoqarashi, qanday ijtimoiy muhit ta’sirida bo‘lganligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, katta hayot bo‘sag‘asida “haqiqatlar”ga uyg‘un bo‘lmagan g‘oyaviy ziddiyatlarga dosh bera olish bilan belgilanadi. Tasavvur qilaylik, iste’dod egasi ijodining shakllanish jarayonida sinfiy, g‘oyaviy ziddiyatlar girdobida qoladi yoki ma’lum bir keskin qarama-qarshiliklarga duch keladi. U davr bilan hamnafas ijod qilishi, qaysi pozitsiyani egallashi bilan ikki yo‘l oralig‘ida turib qoladi. Mehnatkash xalq manfaatiga yoki davr siyosatiga xizmat qilishi zarur bo‘ladi. Agar ijodkor haqiqiy iste’dod egasi bo‘lsa, uning dunyoqarashi har qancha ziddiyatli va murakkab bo‘lsada, tub mohiyatda uning ijodida asosiy g‘oya, asosiy yo‘nalish belgilanadi. Ana shu iste’dod egasining yaratgan ijodi el ko‘nglidan umrboqiy joy oladi. Savol tug‘iladi: Adabiyotda “mangu barhayot” asarlar bormi? Bor bo‘lsa, ular boqiyligining siri nimada?

A.Rasulovning fikricha, “Mangu asarlar, qadriyatlarning ichki tuzilishi, tartiboti o‘rganilsa, ularda ziddiyatlar kurashi, ruhiy holatlararo “inkor” etish harakati mavjudligini sezish mumkin” [2.35]. Olimning fikrini davom ettiradigan bo‘lsak, asarlarning manguligi qadriyat, badiiy an’analarning “qadrlanishi”, “hayoti”, “tirikligi”, “uzoq umr ko‘rishi” bilan bog‘liq jarayon. Chunki har bir xalqning, har bir shaxsning o‘z intilishlari, o‘z ehtiyojlari mavjud. Ana shu intilish va ehtiyojlarni u psixologik jihatdan hech bo‘lmasa, adabiyotdan topadi.

A.Rasulov badiiy asar zamiridagi ziddiyatlar haqida fikr yuritganda, uning yashovchanligini ta’minlovchi beshta xususiyatga batafsil to‘xtaladi. Jumladan, yetuk badiiy asar moddiy ne’mat sifatida ma’naviy hayotdagi o‘zini namoyon etish orqali mavqega ega bo‘ladi va shu asosda badiiy bo‘sh asarlarni inkor etadi. Ikkinchidan, bunday asar aql va qalb mahsuli, uning zamirida tirik insonlarga xos intilishlar, ziddiyatlar, murakkabliklar yotadi va ushbu xususiyatlar uning abadiyligini ta’minlaydi. Uchinchidan esa yetuk badiiy asarda ijodkor ijtimoiy hayot bilan munosabatga kirishadi: nimanidir tasdiqlaydi, nimanidir inkor qiladi va bu ziddiyatli munosabat orqali o‘zligini namoyon etadi. To‘rtinchidan, badiiy asar matni serqatlam bo‘lib, unda ideal va borliq o‘rtasidagi ziddiyat aks etadi. Shu ma’noda olim: “Ontologiya – ruhiy ziddiyatlar, uning miqyosi darajasini ko‘rsatuvchi ruhoniy ta’limot”, deganda haq. Beshinchidan, ijodkor badiiy asarda “aniq, izchil g‘oya va obrazlar orqali o‘z badiiy dunyosini yaratadi” [2.33]. Demak, badiiy asar yashovchanligi, manguligi an’analarga “sodiq qolganligi”da ko‘rinadi. Shundan kelib chiqib, adabiy an’ana, adabiy ta’sir va vorislik kabi tushunchalarga aniqlik kiritib olishimiz darkor.

Ma’lumki, har qanday yangilanish uchun bir necha muhim omillar asos vazifasini o‘taydi va bu omillarsiz yangi yo‘nalish yuzaga kelmaydi. Borliq moddiy va ma’naviy olamdan tashkil topgan bo‘lib, uning “mangu barhayot”ligi, boqiyligi “yo‘qlik”ning muqobili, ziddi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi azaliy va mangu zidlik hamda bog‘liqlik munosabatlari bu tushunchaning abadiyligi garovidir.

Fan o‘tmish yutuqlarini tanqidiy o‘zlashtirish jarayonida ularning faqat obyektiv haqiqatga muvofiq keladigan tomonlarini meros qilib oladi. Adabiyot va san’at esa hayotni tasvirlash jarayonida tasvir usullari, shakllari va vositalarini boyitib va mukammallashtirib boradi. Shunga ko‘ra, adabiy an’ana deyilganda, dunyoni badiiy idrok etish sohasida asrlardan asrlarga, ajdodlardan ajdodlarga ehtiyoj tufayli o‘tib kelgan ilg‘or adabiy tajribalar nazarda tutiladi [3].

An’ana va vorislik nafaqat badiiy adabiyot va san’atga xos hodisa, balki u falsafiy kategoriya hamda jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekani ham o‘z davrida aniqlab berilgan. “Butun tarix davomida, – deb yozadi faylasuflar, – madaniy merosdan foydalanish va uni o‘zlashtirish jarayoni ikki xil aspektda sodir bo‘lgan. Vorislikning birinchi (“vertikal”) aspekti o‘tmish bilan hozirgi zamonning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Boshqa bir (“gorizontal”) aspekti esa bir davrda mavjud bo‘lgan madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jarayonidagi vorislik ko‘rinishidir” [4.21]. Garchi formal bo‘lsa-da, bunday qarash adabiy an’ana va vorislik muammosiga yondashishning ikki xil yo‘lini belgilab beradi. Ikkinchi yo‘nalishni D.Dyurishin “Adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish nazariyasi” kitobida o‘zaro ta’sirlanishdagi “Ichki aloqalar” deb belgilaydi va unda bevosita va bilvosita ta’sirlanish hollari mavjudligini ajratib ko‘rsatadi. Bevosita ta’sirlanishda ikki obyekt: ta’sir qiluvchi va ta’sirlanuvchi ishtirok etadigan bo‘lsa, bilvosita ta’sirda uchinchi obyektga ehtiyoj tug‘iladi va bu obyekt birinchi va ikkinchi obyektlarni bog‘lovchilik vazifasini bajaradi [5.118–119].

Jadid adabiyotida ta’sirlanishning har ikki jihatini kuzatamiz. Birinchi holat nisbatan faol bo‘lib, unda jadid shoirlari to‘g‘ridan to‘g‘ri ulug‘ ijodkorlar asarlariga murojaat qiladilar. Masalan, Avloniy g‘azallarining Navoiyga bog‘lanishi, Qodiriy asarlarining Bobur nasri bilan bog‘liq jihatlari kabi. Ikkinchi

tur bog‘lanishda Avloniy hikoyatlarida, bir jihatdan, Sa’diy “Guliston” asarining ta’siri yaqqol kuzatilsa ham bu an’ana jadid nasriga yetib kelgunga qadar Navoiy yoki Xoja hikoyatlarida qo‘llanilgani tufayli Sa’diy-Avloniy munosabatida Navoiy yoki Xoja asarlari bilvosita “o‘rta obyekt” vazifasini bajaradi. Demak, “adabiy ta’sir nazariyasi”da ijodkorlararo munosabat bevosita amalga oshishi mumkin (buni D. Dyurishin “genetik aloqadorlik” deb atagan), davrlararo munosabatda esa bevosita ta’sirdan tashqari, “ta’sir etuvchi” va “ta’sirlanuvchi” o‘rtasida uchinchi obyekt orttirilishi ham mumkin ekan. Har qanday taraqqiyot u yoki bu darajada o‘zigacha bo‘lgan adabiyot bilan vorislik aloqalari asosida shakllanadi. Bu jihatni bir til yoki biror hudud hamda mintaqa adabiyoti misolida ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, ayrim ulug‘ daholar tajribalari, ularning ijodiy tamoyillari biror millat yoki mintaqa va adabiy muhit hududidan toshib chiqib, butun dunyo madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi ham mumkin [6.14].

Olmon olimi Maks Verli yozishicha, “umumjahon madaniy jarayoniga o‘z an’analari, ifoda tarzi, taraqqiyot yo‘llari bilan kirib kelgan Yevropa adabiyoti nafaqat an’ana va vorislikning bog‘lovchi vositasi sifatida qatnashgan, balki badiiy adabiyotdagi poetik mohiyat (substansiya)lar kristallashuviga ham ta’sir ko‘rsatgan” [7.218]. Ayni holatni Markaziy Osiyo adabiyotiga, ya’ni, islom madaniyati ta’sirida rivojlangan adabiyotlarga nisbatan ham kuzatish mumkin. “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” kitobiga jamlangan maqolalarda har ikki yo‘nalish o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, bu jihatdan olimlar ko‘proq birinchi obyekt doirasida fors va turkiy adabiyotlarning o‘zaro munosabati bilan ish ko‘rganlar [7.3–27].

Jadid adabiyotining buyuk namoyandalaridan Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Vadud Mahmud o‘zlarining badiiy yuksaklikka erishuv sabablarini mumtoz adabiyotdan o‘rganganliklari boisidan deb bildilar. O‘zbek jadid adabiyoti ham yangilangan sharoitda taraqqiy etishga yuz tutgan ekan, u milliy adabiyotimizning ko‘rki bo‘lgan, boqiy qadriyatlar sifatida avloddan avlodga o‘tib kelgan, jahon adabiy-badiiy xazinasini boyitgan Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk shoir va mutafakkirlar ijodidan ma’naviy oziqlangan, ular ijodida barqaror bo‘lgan ma’rifiy g‘oyalar, an’anaviy timsollar, badiiy vositalardan unumli foydalangan [6.14]. An’anaga aylangan g‘oyalar va adabiy tajribalar mohiyatini dunyoqarash jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lgan adiblar ijodi misolidagina olib qaraydigan bo‘lsak, masala mohiyatini cheklab qo‘ygan bo‘lamiz. “Tarixiy an’analarga vorislik, – deb yozadi A.Bushmin, – jamiyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida qonuniy hol sanaladi. Bu qonuniyatlarning ilmiy to‘g‘ri yoritilishi badiiy ijod jarayoniga ongli ravishda ta’sir etishning zarur shartidir” [8.5]. Shu kabi “Adabiyot ensiklopediyasi”da “Olamni badiiy idrok etishda avlodlardan o‘tib kelgan tajribalarga izdoshlik, sobitlik bilan bir qatorda, uni yangilash, o‘ziga xoslik asosida takomillashtirilgandagina, har qanday badiiy topilma an’anaga aylanishi mumkin”ligi ko‘rsatilgan [9.218].

An’ana doimiy mashq, uzluksiz izlanish, sabr-toqat va mashaqqatli mehnat tufayli erishiladigan ijodiy jarayon, ulug‘ san’atkorlarning badiiy mahorat “sirlar”ini, adabiy merosi va tajribalarini ijodiy o‘rganish hamda davom ettirish bilan bog‘liq hodisadir. An’ana deganda dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan davrga, bo‘g‘indan bo‘g‘inga o‘tib kelgan adabiy tajribalarni ko‘zda tutamiz. Zotan, arabcha so‘z bo‘lgan “an’ana” atamasining lug‘aviy ma’nosi ham keksa bo‘g‘inning maishiy hayoti-yu, ijodiy maktabida sinalgan, jilosi uchmaydigan narsalarni, vositalarni yangi bo‘g‘inga oshirish, demakdir [10. 69].

Har qanday milliy adabiyot o‘z taraqqiyoti davomida o‘zigacha yashagan ijodkorlar ma’naviy merosga tayanadi, o‘tmish adiblari ijodini qayta badiiy idrok etadi va ularning ijodiy xususiyatlari, badiiy elementlari, obrazlarini o‘zida jamlaydi. Mumtoz badiiy merosga vorislik ana shu an’analarni yangilashda, ularni yangi davr sharoitiga mos holda kelajakka taqdim qilishda ko‘rinadi. Shuning uchun ham adabiy jarayon hodisasini o‘rganishda an’ana va yangilik, madaniy merosga vorislik va adabiy ta’sir masalalari adabiyotshunoslikning muhim ilmiy muammolari sanaladi.

O‘zbek adabiyoti eskirmagan, zamon sinovidan o‘tgan, barhayot, ilg‘or an’anaga suyanadi. Ilg‘or adabiy an’ana hamma vaqt novatorlikka chorlaydi. An’ana va novatorlik esa bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, orasida mantiqiy aloqa bor. Ularni bir-biridan ajratib, ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz uchun an’ana hisoblanadigan ko‘p g‘oya va mayllar o‘z vaqtida yangilik sanalgan. Masalan, Nizomiy uchun qisman yangilik bo‘lgan “Xamsa” yaratish Navoiy uchun an’ana edi. Shu bilan birga, Navoiy “Xamsa”si o‘tmishdoshlarining takrori, taqlidi emas. Unda zamonasining o‘ziga xos g‘oyaviy-estetik masalalari yoritilgan va “Xamsachilik an’anasi” yangi bosqichga ko‘tarilgan.

Adabiyotshunoslikda adabiy aloqa va adabiy ta’sir xususida so‘z ketganda, muayyan badiiy asarni namuna sifatida taqdim etish ustunlik qiladi. Vaholanki, har ikki o‘xshash hodisa chog‘ishtirilganda faqat yuzadagi umumiy holatlar bilan kifoyalanmay, mohiyatni ko‘rsatuvchi xususiy jihatlar ham e’tiborga olinishi shart. Masalan, Abdusalom Abduqodirovning “Saddi Iskandariy”: an’ana va o‘ziga xoslik” nomli

maqolasida muallif Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiyning Iskandar mavzusidagi dostonlarini qiyosiy o‘rgangan [11]. Maqolada asosiy diqqat har ikki ijodkor dostonlaridagi mushtarak nuqtalarga qaratilib, Navoiy “o‘z asarini yaratishda ustoziga ergashgan, uning an’analarini davom ettirgan” degan tezis asos sifatida ilgari suriladi. Albatta, sharq adabiyotida adabiy an’ananing o‘rni o‘zgacha bo‘lib, ijodkor salaflari yaratgan badiiyat namunalariga ma’lum ma’noda asoslanadi va bu holat butun o‘rta asrlar adabiyoti uchun xosdir. Bu davrda yangi mavzularni kuylash emas, balki avvaldan ma’lum mavzuni yangidan talqin qilish, oldin kamroq diqqat qaratilgan nuqtalarga o‘quvchi e’tiborini jalb etish bosh estetik omil edi. Har bir ijodkor ko‘hna mavzuga murojaat etar ekan, uni o‘z davri adabiy muhiti ehtiyojlari bilan bog‘lashga va ma’lum estetik idealni ilgari surishga harakat qiladi. Bunga Alisher Navoiy ijodi yorqin misol bo‘la oladi [12.143].

“Xamsa” tarkibiga kirgan birorta doston yo‘qki, unda Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy yoki Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy yoki Abdurahmon Jomiyning muborak nomlarini tilga olgan, ularning sehrli qalamlariga tahsinlar o‘qilgan. Alisher Navoiy kishilik tafakkuri Yunoniston va Hindistonda, Xitoy va Arabistonda, Eron va boshqa o‘lkalarda yaratgan fan, adabiyot javohirlariga zo‘r ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan. Ustozlari Firdavsiy, Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy, Lutfiy singari siymolarning asarlarini ipidan ignasigacha o‘rgangan va ulardan ijodiy saboq olgan. Mutafakkir “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zidan oldin o‘tgan san’atkorlarni ko‘p o‘qigani haqida hikoya qilib, “...o‘qurga devonindin bu faqir mutolaasiga ko‘p mashg‘ul bo‘lmog‘an devon oz erkan”, degan va ulardan ilhomlanganini yozadi: *“*Barchasiga ko‘p qatla o‘qupmen, balki ko‘pini yod tutubmen va qasoyid va g‘azaliyotlarining g‘arib va latofatin bilibmen, balki g‘aribroq va latiflariga tatabbu dohi qilibmen” [13.25].

Ta’kidlash joizki, g‘oyibona ustoz-shogirdning madaniy-ijodiy dialogi samarasi o‘laroq, yangi asar, yangi san’atkor yuzaga keladi.

Tadqiqotchi N.Soatova Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni va Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini qiyosiy o‘rganar ekan, shunday ta’kidlaydi: “Farhod va Shirin”da romantik sarguzasht tasviri yetakchilik qiladi. Shirinni izlab yo‘lga chiqqan Farhod ko‘pdan ko‘p sarguzashtlarga duch keladi –Yunon yurtiga borib, Suxaylo bilan uchrashadi, ajdaho, Axriman, temir paykarni yengib, Jamshid jomini qo‘lga kiritadi, Suqrot Hakim bilan so‘zlashib, Iskandari Rumiy tilsimini ochadi. Bu – voqealarning birinchi bosqichi. Ikkinchi bosqichi – ko‘zguda Shirinning aksini ko‘rgan Farhodning unga yetish yo‘lida boshidan kechirgan voqealarni o‘z ichiga oladi.

Otabek, garchi o‘z salafi kabi Marg‘ilonga yor izlab emas, balki savdo ishi bilan kelgan bo‘lsa-da, “bu o‘rtada o‘xshashi” bo‘lmagan “ko‘hlik” bir qizning savdosiga giriftor bo‘ladi. Uning baxtli-baxtsiz sarguzashtlari shundan so‘ng boshlanadi. Asarda muhabbat masalasining vaqtincha ikkinchi o‘ringa tushirilishi yozuvchining xalq dostonlariga ergashmay, ijodiy yo‘ldan borganligini ko‘rsatadi. Demak, yozuvchi an’anani egallashda taqlidchilik yo‘lidan emas, balki ijodiy yo‘ldan borgan [14.81].

Umberto Ekoning fikricha, kitobning o‘zi o‘z o‘quvchisini shunday shakllantiradi, shuning uchun asar shunday bo‘lishi kerakki, o‘quvchi unda har safar yangilik kashf etsin. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, bunday ko‘p qiymatli asar “Atirgul nomi”dir. Roman bizga tanish bo‘lgan asarlarning alohida bo‘laklari kollajiga o‘xshaydi, lekin ayni paytda muallifning niyat chizig‘i bilan birlashtirilgan yaxlit bo‘lib qoladi. Ish tugallangan, ammo cheksiz miqdordagi yangi ma’nolarga ham ochiq, u o‘z-o‘zidan qulflanmagan, lekin har bir yangi o‘quvchi bilan suhbatni boshlaydi [15].

Demak, har bir asar ijodkor o‘z o‘quvchisi bilan doimo suhbat quradi, har safar takror va takror o‘qilgan asardan, ijodkor bilan amalga oshirilgan g‘oyibona suhbatdan o‘quvchi yangi mazmun, yangi g‘oya, yangi obraz kashf qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Наққул И. Анъана ва маҳорат. Навоий ва ижод сабоқлари. Тошкент, “Фан”, 1981, 90-бет.
2. Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси. Филол.фан. докт. дисс., Тошкент, 2002.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy_an’ana
4. Баллер Э.А., Исмоилов Ф.Ю. Ворислик нима? Тошкент, “Ўзбекистон”, 1978, 21-бет.
5. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. М., 1975, с. 118 – 119.
6. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фан.бўйича фан докт. (DSc) диссер.автореф., Тошкент, 2018, 14-бет.
7. Верли М. Единство литературной традиции. Общее литературоведение. М., «Иностр. литер.», 1957, с. 218.
8. Бушмин А. Преемственность литературного развития. М., «Наука», 1975, с. 5

9. Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи Ҳ.Болтабоев. Тошкент, «Mumtoz so‘z”, 2015, 218-бет.
10. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2019, 69-бет.
11. Абдуқодиров А. Saddi Iskandariy: an’ana va o‘ziga xoslik/https://kh-davron.uz/yangilikla.
12. Эшонбобоев А. Навоий ижоди ва адабий таъсир. “Шарқ юлдузи” журнали, 2016, 9-сон, 143-бет.
13. Навоий Алишер. Танланган асарлар. Муҳокамат ул-луғатайин. Тошкент, “Фан”, 2000, 25-бет.
14. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2019, 81-бет.
15. https://www.allsoch.ru/sochineniya/29777.

Kurbanova Saida (UrDU dotsenti)

SHUKRULLO IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Maqolada Shukrullo ijodining o‘zbek va turk adabiyotshunosligida o‘rganilishi masalasi tadqiq etiladi. Xususan, M.Qo‘shjonov, B.Nazarov, Shuayib Qoraqoshlarning Shukrullo hayoti va ijodiga oid tadqiqotlari ilmiy-nazariy tahlil etiladi.*

Аннотация. *В статье рассматривается изучение творчества Шукрулло в узбекском и турецком литературоведении. В частности, научно и теоретически анализируются исследования М.Кошжанова, Б.Назарова, Шуайиба Каракаша о жизни и творчестве Шукрулло.*

Annotation. *The article discusses the study of Shukrullo’s work in Uzbek and Turkish literary criticism. In particular, the researches of M.Koshdzhanov, B.Nazarov, Shuayib Karakash about the life and work of Shukrullo are scientifically and theoretically analyzed.*

Kalit so‘zlar: *Shukrullo ijodi, o‘zbek adabiyotshunosligi, turk adabiyotshunosligi, badiiy asar, badiiy ijod, maqola, munosabat.*

Ключевые слова: *творчество Шукрулло, узбекское литературоведение, турецкое литературоведение, художественное произведение, художественное творчество, статья, отношение.*

Key words: *creativity of Shukrullo, Uzbek literary criticism, Turkish literary criticism, work of art, artistic creativity, article, attitude.*

O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo Yusupov (1921–2020) ulkan ijod va hayot yo‘lini bosib o‘tgan shoir, nosir, dramaturg, publitsist va tarjimon sifatida o‘zining sermazmun asarlari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. U o‘zining qariyb sakson yillik ijodiy faoliyati davomida yaratgan “Hayot ilhomlari”, “Umrim boricha”, “Inson va yaxshilik”, “Zarralar”, “Inson – inson uchun”, “Suyanchiq”, “Yashagim keladi”, “Sening baxting”, “Bahor sovg‘asi”, “Yulduzlar” kabi she’riy to‘plamlari, “Kafansiz ko‘milganlar”, “Tirik ruhlar” romanlari, “Chollar”, “Ikki qoya”, “26-tongotar” dostonlari, “Javohirlar sandig‘i” nasriy asari, “Tabassum o‘g‘rilari”, “Xatarli yo‘l”, “O‘g‘rini qaroqchi urdi”, “Hasrat bog‘i” kabi dramalari, “Qasosli dunyo” singari badiiy-publitsistik asarlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy oldi. So‘z san’atkorining bu asarlarida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ona-Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Shukrulloning barkamol, badiiy yetuk asarlari rus, arab, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz kabi o‘nlab tillarga tarjima qilinib, nashr etilgani uning ijodiga qiziqish tobora keng tus olayotganidan dalolat beradi.

Adibning serqirra ijodi va matonatli hayoti “Shukrullo ijodining olmos qirralari” nomli 3 qismdan iborat “Umrboqiylik”, “Joziba”, “G‘oyibona muhabbat” kitobiga jamlangan. Mazkur kitobning “Umrboqiylik” nomli qismida Shukrulloning zamondoshlari, shogirdlari, olim-tadqiqotchilar, yozuvchi-adiblar (Q.Quliyev, G‘.G‘ulom, M.Karim, P.Ulshov, Shuhrat, N.Muhiddinov, L.Mkryatchyan, N.Xudoyberganov, Mirmuhsin kabi 70 dan ziyod mualliflar)ning maqola va xotiralari; “Joziba sehri” qismida tahliliy va tanqidiy maqolalar (Asror Samad, B.Nazarov, U.Normatov, Sh.Yusupov, Q.Yo‘ldosh, N.Karimov, Zoya Kedrina, N.Rahimjonov va boshqa 50 dan ziyod mualliflar), “G‘oyibona muhabbat” qismida esa maktublar (mahbuslikda yozilgan xatlar, rasmiy xatlar, taklif va istaklar, do‘stona maktublar, jami 120 dan ortiq maktublar; telegrammalar, xatlarga izohlar) tartiblanib, muhtasham kitob shakliga keltirilgan.[1]

Shukrullo adabiy fenomenini mukammalroq va teranroq tasavvur etish uchun ba’zi maqola mualliflarining o‘zbek adabiyotining yorqin vakili hayoti va ijodiga doir bildirgan fikr-mulohazalariga e’tibor qaratamiz. Xususan, akademik M.Qo‘shjonov shunday yozadi: “O‘z fikri, o‘z e’tiqodi bo‘lgan adiblarning hayot va ijod yo‘li silliq kechmaydi. Shukrullo ijod etishga boshlagan yillar qatag‘on davrlariga to‘g‘ri keldi. O‘sha paytlari Shukrullo asarlarini sevib o‘qiydigan Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabilar qatag‘onga uchrab, mahv etilgan edilar.

[1] Шукрулло ижодининг олмос қирралари. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2016, 732-бет.

Shukrulloning dastlabki she'rlarida Cho'lpon va Usmon Nosirning ta'siri sezilib turganligi shundan. Shukrullo she'riyatda shoir sifatida shakllanib ulgurmay urush boshlandi. Uni Qoraqalpog'istonga muallim qilib yuborishdi. Urush tugagandan keyin shoir Toshkentdagi turli redaksiyalarda va nashriyotlarda ishlay boshladi. Xuddi shu davrda chaquvga yo'liqib, "xalq dushmani" sifatida 25 yilga qamaldi. Mustabid Stalinning vafoti ko'plar singari, Shukrulloning ham ozod bo'lishiga yo'l ochdi. Qamoqdan ozod bo'lgan Shukrullo birinchi she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Bu to'plamga G'afur G'ulom muharrirlik qilgan edi. Ushbu to'plam va doston haqida 50-yillar oxiri, 60-yillar boshida faol ijod qila boshlagan Sharif Yusupov, Fathiddin Nasriddinov, Umarali Normatov kabi munaqqidlar taqriz va maqolalar yozdilar. Binobarin, Shukrullo keng jamoatchilikka, dastlab, shoir sifatida tanildi".[1]

Adabiyotshunos olim M.Qo'shjonov Shukrulloning hayoti va ijodi, uning adabiyot olamiga kirib kelishi haqida fikr bildirar ekan, aniq hayotiy fakt va dalillarga suyanadi.

Bugungi kunda Shukrullo Yusupov hayoti va ijodi bo'yicha katta material yig'ilgan. Adibning 8 jildlik "Tanlangan asarlar"i "Sharq" nashriyotida chop etildi. Unda adibning butun ijodi qamrab olingan. Shuningdek, yuqorida tilga olingan "Shukrullo ijodining olmos qirralari" (zamondoshlar xotiralari) kitobining uch marotaba qayta nashr qilinishi adib hayoti va ijodiga qiziqish nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo xalqlari uchun ham nihoyatda qizqarli, fenomenal hodisa ekani bilan xarakterlanadi.

Umuman olganda, Shukrullo ijodi haqida doimiy ravishda o'zbek matbuotida taqrizlar, maqolalar, munosabatlar bildirib kelingan. Bu jarayon o'zbek adabiyotshunosligida Shukrullo ijodiga munosabat va qiziqish susaymaganligini ko'rsatadi. Jumladan, o'zbek adabiyotshunoslaridan O.Sharafiddinov, I.G'afurov, O.Abdullayev, M.Mahmudov, N.Karimov, H.Abdusamatov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, B.Norboyev va boshqalar o'z vaqtida matbuotda, ilmiy anjumanlarda va to'plamlarda, hatto monografik tarzda adib hayoti va ijodiga munosabat bildirishgan. Ammo bu ishlarning barchasi fragmentar xarakterdagi tadqiqotlardir. Shukrullo hayoti va ijodini, asarlaridagi poetik obrazlar olami hamda shaxs va ijodkor konsepsiyasini o'rganish, uning hujjatli memuar nasri va dostonlarini tahlil etish, ikki tuzumda yashagan ijodkorning ijodiy laboratoriyasini tadqiq etish bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

Akademik Baxtiyor Nazarovning ham Shukrullo ijodiga alohida bir mehr va e'tibor bilan qaraganligini adabiyotshunosning adib haqidagi tadqiqotlari va maqolalari mazmunidan bilib olishimiz mumkin. Jumladan, B.Nazarov o'zining "Olmalar besabab to'kilmaydi" maqolasida Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" badiiy-publitsistik kitobiga baho berib, shunday yozadi: "Xalq ichida shoir sifatida tanilgan Shukrullo 70-yillarning ikkinchi yarmida nasrga murojaat etdi – "Javohirlar sandig'i" qissasini yaratdi. Asar tuzilishi, shakli, shunga monand mazmuni jihatidan o'zbek adabiyotida yangilik bo'ldi. "Javohirlar sandig'i" Shukrulloning grajdan va shoir sifatida butun umri davomida to'plagan hayotiy tajribalari, estetik qarashlari, falsafiy mushohadalarining kvintessensiyasi sifatida yuzaga keldi".[2] Mazkur taqriz-maqoladan parchani biz Shukrulloning "Tanlangan asarlar"i 8-jildidan oldik. Ammo mazkur maqola "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1983-yil 2-sentabr sonida bosilgan.

Shu o'rinda B.Nazarovning Shukrullo "Tanlangan asarlar"i 3-jildiga yozgan "Shukronalik" kirish maqolasidan keltirilgan quyidagi ta'sirchan bir hayotiy voqeani misol keltirmoqchimiz. Olim shunday yozadi: "Gruzin adibi Chabua Amirejibini ko'pchilik yaxshi biladi. U hozir jahonga mashhur yozuvchi. "Drujba narodov" jurnalining 1976–1977-yilgi to'rt sonida "Data Tutashxi" romani bosilganda duvduv gap bo'lgani xotiramizda. Keyinchalik, bu asar asosida yaratilgan ko'p seriyali telefilm ham mashhur bo'lib ketdi. Taqdirni qarangki, Amirejibi ham, Shukrullo ham dahshatli qatag'on davrida bir lagerda bo'lishgan, umumiy azoblarni boshqa-boshqa kazarmada kechirishgan, lekin bir-biridan voqif bo'lishmagan. Buni ko'p yillar o'tgach, tinchlik zamonlarida, do'stlar, birodarlar aniqlashadi va bir-birlariga ma'lum qilishadi. Taqdir, qismat g'oyibona ularni qadrdon, darddosh do'stga aylantiradi. …Ana shu Chabua Amirejibi Shukrullo akaga yuborgan o'zining suratiga shunday dastxat bitibdi: "O'z xalqining munosib farzandi va umuman, mustahiq grajdanin deb bilganim Shukrullo salomatligi uchun qadah ko'taraylik".

[1] Қўшжонов М. Сарҳисоб (шоир, носир, драматург). Шукрулло ижодининг олмос қирралари. Тошкент, "Мумтоз сўз", 2016, 3 – 4-бетлар.

[2] Шукрулло. Танланган асарлар. Мақолалар, тақризлар, хатлар, телеграммалар. VIII жилд, Т., "Шарқ", 2014, 152-бет.

Gap bu yerda gruzinlarga xos bo‘lgan qadahparvarlik so‘zidagi tantanavorlik haqida emas. Gap ushbu fikrda Shukrullo aka tabiatidagi yetakchi fazilatlar topqirlik bilan aniq, tiniq va muxtasar ifodalanganida”.[1]

Yuqorida akademik B.Nazarovning maqolasidan kattaroq parchani taqdim etdik. B.Nazarov Sho‘ro davrining ikki jabrdiydasi, mustahiq tuzumning ikki katta ijodkorining bir-biriga munosabatini hayotiy misollar yordamida ochib berishga harakat qilgan. Adabiyotshunos olimning ta’kidlashicha, Shukrullo shaxsiyati va ijodini o‘rganishning muhim talabi – uning haqiqiy millatparvar odam va ijodkor ekanligini esdan chiqarmaslikdir.

Shukrullo tavalludining 100 yilligi munosabati bilan 2021-yil 29-sentabrda O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o‘tkazilgan “Shukrullo ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasida o‘zbek-turk olimlari Shukrulloning hayotiy va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi. Jumladan, N.Karimov, S.Meliyev, Q.Yo‘ldoshev, Vali Savash Yelok, Sh.Ahmedova, S.To‘laganova, M.Qo‘chqorova, G.Sattorovalarning adibning hayotiy va adabiy faoliyatini aks ettirgan ma’ruzalari tinglandi.

Konferensiyadan so‘ng ushbu ilmiy anjumanda ishtirok etgan ba’zi adabiyotshunoslar (S.To‘laganova va M.Qo‘chqorova)ning ilmiy maqolalari “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etildi.[2]

2016-yilda Shukrulloning 95 yilligi munosabati bilan Yevroosiyo adabiyot jurnali “Qardosh qalamlar”ning 113-may oyi soni shoirga ehtirom sifatida nashr etildi. Bu o‘zbek adabiyotining haqiqatgo‘y shoiri va adibi Shukrullo tavalludining dunyo miqyosida nishonlanishidan darak edi.[3]

Turk adabiyotshunosligidagi Shukrullo ijodini o‘rganish, adibning nasriy asarlarini turk tiliga tarjima qilish ishlari o‘zbek va turk xalqlari o‘rtasidagi ma’naviyat rishtalarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, adib qalamiga mansub “Kafansiz ko‘milganlar” memuar romanining ikki turk tarjimoni tomonidan ketma-ket tarjima etilishi va turk kitobxonlari auditoriyasiga taqdim etilishi fikrimizning yorqin isbotidir. Bilamizki, Shukrullo XX asrning elliginchi yillari boshida bir guruh ziyolilar qatorida siyosiy qatag‘onga uchradi. Qatag‘on yillarining dahshatli voqealari adibning “Kafansiz ko‘milganlar” romanida hayotiy misollar asosida haqqoniy tasvirlangan bolib, bu asar turkiyalik tarjimonlar Ahsan Botir hamda Shuayib Qoraqosh tomonidan ikki marta turk tiliga o‘girilgan. Bu asar turk tiliga yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qilinganidan turk adabiy jarayonida ham shuhrat qozondi. Biz shu o‘rinda turkiyalik mashhur o‘zbekshunos olim Shuayib Qoraqoshning Shukrullo ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotiga kengroq to‘xtalamiz.

Albatta, turkiyalik olimning o‘zbek millatparvar adibi haqidagi fikrlari o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Olim shunday yozadi: “1956-yılında *Hayat ılhamları*şiir kitabının yayınlamasından sonra eserler vermeye devam eden Şükrullah, bilhassa 1960–1970 li yıllarda yeni şiir kitabları, destanlar, piyesler ve nesir türünde birçok eser verir. Bunlar arasında *Umrim Barıça* (1960), *İnsan ve Yaxşılık* (1962), *Zerreler* (1973), *Süyançık* (1977), *Yasagım Geledı* (1978), *Senın baxtın* (1986) gibi kitapları, *Rassiya* (1957), *İkki Kaya* (1961), *26. Tangatar* (1967), *Hatarlı yol* (1963) (manzum), *Tebessüm Oğrıları* (1965) (manzum), *Toydan Keyın Tamaşa* (1974)*, Cencel, Ogrını Karakçı Urdı* (1997), *Unsız Feryad, Hasret Bağı* (manzum) *gibi piyesleri, Cevâhirat Sandığı* (1977) ve *Kasasli Dünya* (1994) adlı hatıra kitapları, *Kefensiz Kömilgenler* (1990), *Tirik Ruhlar* (1999) ve *Agır Künler Sevinçi* (2002) gibi romanları en önemli olanlarıdır. Şükrallah’ın bunlardan başka *Yulduzlar* (1964), *İnsan İnsan Üçün, Şe’rler, Dastanlar, Uçaver Bürgüt ve son olarak bütün eserlerindan seçilmiş şiirlerini ihtiva eden Tökilgen Derdlerim* (2001) *gibi eserleri de yayimlanmıştır*”.[4]

Kuzatganimizdek, filologiya fanlari doktori Shuayib Qoraqosh Shukrullo ijodini bir butun sistemali tarzda tahlil etish maqsadida adibning barcha nashr etilgan asarlarini o‘qib-o‘zlashtirgan. Tadqiqotchi olim Shukrullo hayoti va ijodi haqida turk adabiy jarayoniga mukammal, batafsil ma’lumot berish maqsadida o‘zbek adabiyotshunosligida adib ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, u haqdagi xotiralar, ijodkorning tarjimayi holi, memuar romanlari, badiiy publitsistikasi, she’riyati, xullas, bir butun ijodi ha-

[1]Назаров Б. Шукроналик. Шукрулло. Танланган асарлар. Шеърлар, достонлар. III жилд, Т., “Шарқ”, 2009, 6-бет.

[2]Тўлаганова С. Ёзувчи кечинмаларининг бадиий ифодаси. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2021, 6-сон, 37–40-бетлар; Қўчқорова М. Шукрулло ҳаёти ва ижодининг ўзбек-турк адабиётшунослигида ўрганилиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2021, 6-сон, 41 – 44-бетлар.

[3]Kardeş kalemler. Sayı 113. Mayıs, 2016.

[4] Karakaş Şuayip. Özbek edabiyatı Yazıları. Ankara, “Kurgan edabiyat”, 2012, s. 425 – 426.

qida tizimli faktlarni ketma-ketlikda yoritib bergan. Xususan, Shuayib Qoraqosh “Shukrullo ijodining olmos qirralari” nomli uch qismdan iborat “Umrboqiylik”, “Joziba”, “G‘oyibona muhabbat” kitoblariga suyanib, adibning biografiyasi, uning badiiy ijod evolutsiyasi va ijodiy faoliyatini tadqiq etadi. Shuayib Qoraqosh Shukrullo ijodiga munosabat bildirar ekan, Q.Quliyev, P.Ulashov, O‘.Tohirov, M.Qo‘shjonov, S. Mirvaliyevlarning maqola va xotiralarida bayon etilgan xulosa va fikrlariga, shuningdek, boshqa o‘zbek adabiyotshunoslari (B.Qosimov, S.Azimov, S.Mirzayev va boshqalar)ning tadqiqotlariga tayanadi.

Shuayib Qoraqosh “Kafansiz ko‘milganlar” va “Tirik ruhlar” romanlari haqida fikr bildirar ekan, bu asarlar nafaqat Shukrullo badiiy ijodida, balki o‘zbek adabiyotida ham muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi: “Şükrullah’ın mensur eserlerine gelince, hiç şüphesiz onun kaleminden çıkan Kefensiz Kömilgenler ve Tirik Ruhlar adli romanlar, Özbek edebiyatı için de önemli kabul edilen eserlerdir. Bu eserlerde, yazarın hapishane ve çalışma kampları dışındaki hayatına dair hatıraları, 1917 Ekim İhtilâlinden başlayarak Sovyet politikaları, Sovyet toplum hayatı, Sovyet ideolojisi, Sovyet edebiyatı, Ceditçi şair ve yazarlar, istiklâl, hürriyet, millî dil, millî edebiyat, millî tarih, millî vatan anlayışı, insanî ve millî değerler hakkındaki düşünceleri yer almaktadır”.[1]

Tadqiqotchi olim “Kafansiz ko‘milganlar” romanida tilga olingan qatag‘on siyosati, “o‘lim lageri”-dagi voqea-hodisalar, Shukrullodek ziyolilarning ayanchli kechmishiga munosabat bildirar ekan, bu asar birgina Shukrullo hayotini emas, adolatsizlik hamda qattiq qiynoq va azoblarga duchor bo‘lgan barcha o‘zbek ziyolilari hayotini aks ettirgani uchun ham ahamiyatli ekanini ta’kidlaydi: “Roman bize, siyasî soykırım politikasının canlı şahidi ve kurbanı olarak sadece Şükrullah’ın hikâyesini anlatmaz. Eserin tek kahramanı olan Şükrullah, haksızlıklara ve ağır işkencelere maruz kalan bütün Özbek aydınlarını temsil eder. Bu itibarla bir nesil romanı olan eser, aynı zamanda Sovyet ideolojisine iman eden veya ettirilen bir neslin hayal kırıklığının da hikâyesidir”.[2]

Shuni alohida e’tirof etish joizki, turk adabiyotshunoslarining tadqiqot ishlari kuzatilganida, ularning o‘zbek jadid adabiyoti namoyandalari hamda qatag‘on qurbonlari yoki qatag‘on jabrdiydasiga aylangan ijodkorlar ijodini ko‘proq tadqiqot obyekti etib tanlashga urinishgani seziladi. Masalan, Shukrullo hayoti va ijodining maxsus o‘rganilishida ham adibning qatag‘on jabrdiydasi sifatida qamalib, Stalin vafotidan so‘ng ozodlikka chiqqani qaysidir ma’noda Shuayib Qoraqoshni qiziqtirgan va fundamental tadqiqot yaratishga undagan bo‘lsa, ajab emas. Ayniqsa, Shukrulloning qatag‘on yillari voqealarini aks ettirgan “Kafansiz ko‘milganlar”, “Qasosli dunyo”, “Tirik ruhlar” nomli bir qator hujjatli memuar asarlari Shuayib Qoraqosh singari boshqa turk olimlari va tarjimonlarini ham o‘ziga jalb etgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek zamonaviy adabiyotining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Shukrullo hayoti va ijodi davrlar osha avlodlarga ibrat namunasi bo‘lib qolaveradi. Shukrulloning hayoti va ijodi, uning badiiy ijodi poetikasi, adibning ijodiy laboratoriyasining o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida bu qadar keng miqyosda va izchil o‘rganilishi aslo tasodif emas. Balki Katta Iste’dodning adabiy, badiiy asarlarining yetarli va mukammaligidan dalolat beradi.

[1] O‘sha manba. 427-bet.

[2] Karakaş Şuayip. Özbek edabiyatı Yazıları. Ankara, “Kurgan edabiyat”, 2012, s. 430.

Ergasheva Malohat Tursunovna (A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy ilmiy tadqiqot instituti “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent)

O‘QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA XXI ASR KOMPETENSIYALARINING ROLI

Annotatsiya*. XXI asr bilim va kompetensiyalari, o‘quvchilarining bilim va kompetensiyalari borasida umumiy talablar, PISA, ko‘nikmalar: ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ, hamkorlik kabi sifatlarni tashkil qiladi.*

Аннотация. *Знания и компетенции XXI века, общие требования к знаниям и компетенциям воспитанников, PISA, составляют такие качества, как умения, креативность, критическое мышление, коммуникативность, сотрудничество.*

Annotation. *The 21st century constitutes qualities such as knowledge and competencies, general requirements for the knowledge and competencies of its students, PISA, skills: creativity, critical thinking, communicative, collaborative.*

Kalit so‘zlar: *PISA, XXI asr kompetensiyalari, ko‘nikmalar: ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ, hamkorlik.*

Ключевые слова: *PISA, компетенции XXI века, навыки, креативность, критическое мышление, коммуникативность, сотрудничество.*

Key words: *PISA, competencies of the 21st century, skills: creativity, critical thinking, sociability, ability to cooperate.*

Kirish. XXI asr bilim va kompetensiyalari umumta’lim tizimini xalqaro standartlarga ko‘proq integratsiyalashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa ushbu asr bilim va kompetensiyalarini aniqlashni, tahlil qilishni maqsad va vazifa qilmoqda. XXI asr bilim va kompetensiyalarining ahamiyati, ularni o‘zlashtirish, takomillashtirish va doim o‘rganish muhim o‘rin tutmoqda.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda ish beruvchilar uchun fanlarni yoki mavzularni yodlab olgan bitiruvchi yoshlar emas, vaziyatlarga farqli yoki tanqidiy qaray oladigan va muammolarni hal qila oladigan ijodkor ishchi-mutaxassis kerak. Fan va mavzularni maqsadsiz yodlab olish bilan ta’lim sifati yaxshi tomonga o‘zgarmayapdi.

Gap shundaki, ko‘pchilik davlatlarida kuzatilganidek, O‘zbekistonda ham ta’limda systematic reasoning (tizimli mulohaza) yoki critical thinking (tanqidiy fikrlash) ko‘nikmalari yaxshi shakllantirilmaydi. Afsuski, ko‘plab maktablarimizda darslar va pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarni nima uchun shunaqa deb emas, balki bu aynan shu va sen buni yodlashing kerak degan formulaga asoslanib faoliyat olib boradi. Albatta, bu faqat ta’lim sohasi bilan emas, balki jamiyat muammosi bilan ham bog‘liqdir. Biroq, o‘qituvchi-pedagoglar yosh avlodni yetishtiruvchi va tarbiyalovchi eng katta vositadir. Shu bois ularning yondashuvi o‘quvchilarning shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Tahlil va natijalar. Individual o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholaydigan mintaqaviy va xalqaro sinov va standart tizimlardan biri Programme for International Student Assessment (PISA, o‘zb. Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi) dasturi bo‘lib, u OECDning (7) xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturidir. PISA 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hayotdagi qiyinchiliklarni hal qilishda qo‘llay olish qobiliyatini o‘lchaydi [8].

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlarda maktab o‘quvchilarining bilim va kompetensiyalari borasida umumiy talablarni va jihatlarni ko‘rish mumkin. Shunday tadqiqotlardan M.Bialik, Ch.Fadel va b.ning Skills for the 21st Century: What Should Students Learn? maqolasida [1] bilim, ko‘nikma, xarakter va metabilish kesishmasidan bahs yuritadi.

Unga ko‘ra, bilimlar an’anaviy (tabiiy, matematika, til va b.) va zamonaviy (robototexnika, tadbirkorlik va b.) ko‘rinishga bo‘linadi, ko‘nikmalar: ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ, hamkorlik kabi sifatlarni tashkil qiladi, xarakter hushyorlik, qiziquvchanlik, jasorat, chidamlilik, axloq, yetakchilik kabi hislatlarni aks etadi, metabilish (metacognition) esa o‘z-o‘zini aks ettirish (self-reflection) va qanday o‘rganishni o‘rgatish jarayoni, shuningdek, qolgan uch o‘lchovni qurishni rag‘batlantiradi.

Partnership for 21st Centuryning 2009-yilgi tadqiqotida o‘quvchilarda bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni “tanqidiy fikrlash”, “ijodkorlik”, “muammolarni hal qilish”,

“hamkorlik”, “universal savodxonlik”, “moslashuvchanlik” va “global kompetentlik” ekanligini ilgari suradi [2].

2011-yil Qo‘shma Shtatlarda (AQSH) oralarida American Association of School Librarians, National Education Association kabi fondlar va Microsoft, Lego, Pearson, ETS, İntel, HP, Dell, Apple, Crayola, Cisco kabi texnologiya kompaniyalarining ishtirokida, ta’lim sohasi olimlari jami 32 kishilik a’zodan iborat ishchi guruh “XXI asr bilim va kompetensiyalari” nomli tadqiqot olib bordi va tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’ruza tayyorlandi. Ushbu ma’ruzada o‘quvchilarning kelajakda biznes va hayotda muvaffaqiyatli va namunali fuqaro bo‘lishlari uchun qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi ta’kidlandi va bu malakalarni egallashlari borasida barcha xalqlarga da’vat qilindi. Hisobotga ko‘ra, XXI asr bilim va kompetensiyalari: ijodkorlik, muammolarni hal qilish, innovatsiya, tanqidiy fikrlash va axborot texnologiyalari savodxonligi deb ta’riflangan va bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarning muvaffaqiyatli ta’lim islohotlariga ishora qilingan [3].

Bu maqsadlarda Yevropa Ittifoqi parlamenti va kengashi tomonidan 2008-yilda qabul qilingan va 2017-yilda yangilangan turli mamlakatlar va tizimlardagi malakalarni yanada tushunarli va shaffof qiladigan, milliy malaka standartlarini Yevropa malakaviy doirasiga (European Qualifications Framework – EQF) havola qilish (referans) tavsiflari bo‘yicha qaror qabul qilgan edi [4]. EQF bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borgan va Yevropa Komissiyasi a’zosi Marianne Thyssen bu haqda shunday yozadi: “Zamonaviy dunyomizda odamlar o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va qobiliyatlarini kasblar, ish turlari va ta’lim o‘rtasidagi o‘tishlarda foydalanish imkoniyatlariga muhtoj. Yevropa malakaviy doirasi (EQF) odamlarning o‘z vatanida yoki chet elda o‘qish yoki ishlash uchun ko‘chib o‘tayotganda ularning ko‘nikma va malakalari osonroq tushunilishi va tan olinishini ta’minlash bo‘yicha hamkorligimizning muhim elementi hisoblanadi.

Yuqoridagi bilim va kompetensiyalarning barchasi muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga, eng muhimi, muammoni yechish tanqidiy fikrlashdir. Ikkala ko‘nikma alohida yoki birgalikda ko‘rib chiqilishi mumkin, lekin, ko‘pincha, muammoni hal qiluvchi ayni paytda buyuk bir tanqidiy (ijodiy) fikrlovchi hamdir. Har qanday muammoning ikkita umumiy xususiyati bor: yechim va to‘siq. Tanqidiy (ijodiy) fikrlaydigan kishi muammoni hal qilish uchun to‘siqni metodik ravishda yengib o‘tishga qodir bo‘ladi. Ehtimol, shuning uchun ish beruvchilar muammolarni hal qilish qobiliyatlarini juda yuqori baholaydilar. Muammoni hal qilish va uning asosiy tarkibiy qismlari, masalan, tanqidiy fikrlash deyarli har qanday ish yeriga mos keladi.

Leksington shaharchasida joylashgan Danville maktabi o‘quvchilarni qiyinchiliklarga duch kelganda sabr-toqat qilish va muammolarni yechish uchun tanqidiy fikrlash, muloqot va ijodkorligini oshirish uchun qasddan tajribalar o‘tkazishni taklif qiladi [5].

Maximum Potential jamoasi ham ta’kidlaganidek, o‘qituvchilar oldida juda qiyin vazifa turibdi, chunki ular o‘quvchilarni hali mavjud bo‘lmagan ish va kasblarga tayyorlamoqdalar. Dunyo tez o‘zgarib borayotgan bir paytda, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kelajak uchun asosiy ko‘nikmalar hisoblanadi [6].

Xulosa. O‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va unga ta’sir qiluvchi omillar ta’lim sifati va samarasi, ta’lim muhiti va alohida turdagi kompetensiyalar uchun o‘qitish metodi va hammasidan ham o‘qituvchining malakasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. o‘quvchilar bilim va kompetensiyasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘lchash va bu orqali ularning salbiy-ijobiy jihatlarini ajratib olish va o‘quvchilar hayotida muhim bo‘lgan bilim va kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak, deb o‘ylaymiz:

Birinchidan, ta’lim sifatini va samarasini o‘lchash lozim. Bunda ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi moddiy-texnikaviy va pedagogik resurslarni tahlil qilish va mavjud muammolarni hal qilish choralarini ko‘rish lozim.

Ikkinchidan, har bir fan va yo‘nalish uchun umumiy, xalqaro va milliy kompetensiyaviy talablarni o‘rganib chiqish orqali puxta ishlangan bilim va kompetentlik talablarini ishlab chiqish lozim. Bu ham o‘qituvchilar ham bitiruvchilar uchun bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, tajriba-sinov o‘tkazish orqali ishlab chiqilgan bilim va kompetensiyaviy talablarga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilishi va uning salbiy jihatlari bartaraf etilish va ijobiy jihatlari takomillashtirish choralarini ko‘rish lozim.

Zamonaviy ta’lim talablari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, xalqaro bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish va o‘zlashtirish uchun milliy ta’lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va ular qatoridan joy olishga harakat qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maya Bialik. Charles Fadelet al. Skills for the 21st Century: What Should Students Learn? Center for Curriculum Redesign, 2015.
2. Partnership21. Curriculum and Instruction: A 21st Century Skills Implementation Guide. The Partnership for 21st Century Skill, 2009. http://www.p21.org/storage/documents/p21-tateimp_curriculuminstruction.pdf.
3. P21Partnership for 21st Century Learning (Ma'lumotga erishilgan tarix: 11.12.2021) http://www.battelleforkids.org/networks/p21
4. The European Qualifications Framework: supporting learning, work andcross-border mobility. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018, p. 5.
5. Tom Vander Ark. What Should Graduates Know And Be Able To Do? Mar 17, 2015, https://www.gettingsmart.com/2015/03/17/what-should-high-school-graduates-know-and-be-able-to-do/
6. Lauri King. Top 5; Skills... o'sha manba.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). O'zbekchasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT). https://www.oecd.org/about/
8. What is PISA? https://www.oecd.org/pisa/

Alimov Elyor Kuriyaz o'g'li (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani, mustaqil tadqiqotchi)

TARIX FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI

Annotatsiya. *Maqolada tarix fanini o'qitishga integratsion yondashish, ya'ni badiiy adabiyot va tarix fanlarini bir-biriga bog'lab, solishtirish o'qitish haqida fikr yuritiladi. Unda talabalarnining ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ularga tarixiy faktlar va badiiy to'qima, yoki uydurma ma'lumotlar taqdim qilinadi. Natijada bo'lg'usi tarix o'qiuvchilarini mustaqil, mantiqiy fikrlashga, tarixiy faktlar bilan ishlash va bu jarayonda mavzuga doir tarixiy badiiy asarlardan foydalanish masalalari bayon qilingan.*

Аннотация. *В статье рассматривается идея комплексного подхода к преподаванию исторической науки, то есть сравнительного преподавания, связывающего дисциплины художественной литературы и истории. В нем представлены исторические факты и художественная литература, а также спутниковые данные для развития научных компетенций учащихся. В результате обсуждаются вопросы самостоятельного, логического мышления будущих читателей истории, работы с историческими фактами и использования исторических художественных произведений на эту тему.*

Annotation. *The article discusses the idea of an integrated approach to the teaching of historical science, that is, comparative teaching linking the disciplines of fiction and history. It presents historical facts and fiction, as well as satellite data for the development of students' scientific competencies. As a result, the issues of independent, logical thinking of future readers of history, work with historical facts and the use of historical works of art on this topic are discussed.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, tarixiy fakt, badiiy to'qima, uydirma ma'lumot, solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, aslini aniqlash, ajratish.*

Ключевые слова: *интеграция, исторический факт, художественная ткань, вымышленная информация, сравнение, сопоставление, обобщение, оригинальное определение, разделение*

Key words: *integration, historical fact, artistic fabric, fictional information, comparison, comparison, generalization, original definition, separation.*

Integrativ yondashuvning asosi bo'lgan ta'limning integratsiyasi ta'lim mazmunining turli tarkibiy qismlari, ta'lim sohalari va muassasalari, shuningdek, subyektlarning birlashishi va birlashish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik integratsiyaning ta'lim jarayonining umumiy nazariy xususiyatlari, V. S.Bezrukova asarlarida ochib berilgan [1], shuningdek, A.S.Belkina [2], M.N.Berulava [3], E.O.Galitskiy [4], O.M.Kosyanova [5] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ham integratsion yondashuvga doir tavsiyalar mavjud.

Integratsiya – axborot, bilim, fanlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishning umumiy va ko'p qirrali jarayoni hamda ularning yaxlitligini ta'minlash va dialektik birlikdagi barcha tarkibiy qismlarni qamrab olgan yagona tuzilma. Umumiy ilmiy hodisa sifatida integratsiya tushunchasining mazmuni haqida batafsilroq to'xtalamiz. Fransuz tilida "integratsiya" – qo'shilish, ishtirok etish, integratsiya – tiklash, to'ldirish, kabi ma'nolarni anglatadi. J.Bernulli (1654–1705) matematikaga "integral" atamasi, keyinchalik, "integratsiya" tushunchasi kiritgan. U bir qator gumanitar fanlar: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika

va boshqalarda foydalanib keladi. Shuning uchun integratsiyani quyida tarix fanini o‘qitishdagi ilmiy-metodik tushuncha sifatida ko‘rib chiqamiz.

Turli xil nuqtayi nazarlarni umumlashtirib, “integratsiya”dan xulosa qilishimiz mumkin, falsafiy nuqtayi nazar bilan bog‘liq bo‘lgan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi. To‘xtaydigan turli xil elementlar va qismlarning bir butuniga birlashish mustaqil ravishda mavjud bo‘lish, sotsiologik nuqtayi nazardan, bu tomonlardan biri ilgari qismlarga birlashtirish bilan bog‘liq rivojlanish jarayonining yoki allaqachon o‘rnatilgan tizim ichida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan elementlar – bunday holda, uning yaxlitligi va tashkil etilishi darajasi oshadi yoki bu ilgari bog‘liq bo‘lmagan yangi tizim paydo bo‘lganda shakllanadi.

Integratsiya tushunchasini tavsiflash uchun olimlar “tizim”, “izchillik”, “aloqadorlik”, “sintez”, “yaxlitlik”, “elementlar”, “tizimlar nazariyasidan kiritilgan” kabi atamalardan foydalanadilar. Aytib o‘tilgan xususiyatlar ko‘p qirrali hodisalar bo‘lib, ularning barcha tomonlarini bir doirada ochib berish mumkin emas. Integratsiyani tizimli deb talqin qilish haqida batafsilroq to‘xtalamiz.

Integratsiya (lot. integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan) – 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish [6].

Tizimning yetakchi g‘oyasi elementlarning o‘zaro ta’siri va ularning bir butunga integratsiyasi g‘oyasidir.

Ta’limdagi integratsiya bir xil komponentlarning (maqsadlar, bilimlar, ko‘nikmalar) o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini, ilgari ajratilgan to‘plamdan yaxlitlikni shakllantirish jarayonini o‘z ichiga oladi. bir xil komponentlar (maqsadlar, tarkib, usullar, vositalar, shakllari, tili, o‘quv predmetlari, metodlari, g‘oyalari va boshqalar). Bezrukova ta’biri bilan aytganda, integratsiya – obyektlarning o‘zaro munosabati va o‘zaro ta’siri shakllaridan biri, nazariya va amaliyotdagi hodisalar, ularning asl tabiiy yaxlitligini tiklashdan iborat. Shu bilan birga, integratsiya, bir vaqtning o‘zida, prinsip, jarayon sifatida ishlaydi, Integratsiyaning pedagogik mohiyati N.K.Chapayev asarlarida chuqur ochib berilgan bo‘lib, uni rivojlanish jarayoni va natijasi deb hisoblaydi, integrativ pedagogik faoliyat sharoitida ko‘p o‘lchovli inson yaxlitligini shakllantirish va shakllantirish [7].

M.Berulava ta’lim mazmunining integratsiyalashuvida “talabalar bilimlarining izchilligi va zichligi oshishi bilan birga, uning tarkibiy elementlarining o‘zaro ta’siri jarayoni va natijasi” degan ma’noni anglatadi [8].

M.Lopatkin fikricha, ta’lim makonidagi integratsiya ta’limning barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi. Integrativ o‘quv majmualarini yaratish orqali tizimlar; integrativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘quv kurslari, o‘qitish mashg‘ulotlar; integrativ o‘quv natijalarini olish bilan bog‘liqdir. Faoliyatida ta’lim tizimining integratsiya vositasi sifatida yaxlitlikni ta’minlaydi.

Integratsiya zamonaviy ta’lim jarayonining zaruriy atributidir. Didaktikaning vazifasi o‘qituvchiga bilimlarni maqsadli singdirish uchun samarali vositalarni berishdir. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida tarix o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ilmiy xabardaorlik kompetensiyani rivojlantirishdir, shuning uchun oliy o‘quv yurtlarida profilga yo‘naltirilgan o‘qitish kursi o‘tkazildi. Talabalar qaysi kasbga yo‘naltirilishidan qat’i nazar o‘z tarixini bilishi u bilan tfaxrlana olishi kerak. Bu borada ayrim muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Talabalarni darsga qiziqtirish, ularga mavzu bo‘yicha zarur bilimlarni taqdim qilish, eng muhimi, qanday shaklda berish, nima bilan birga taqdim qilish, tarix fanini qaysi fanlar bilan integratsiya qilish masalallari turibdi. Albatta, mazkur muammolar integrativ yondauv asosida qulay yechim topadi.

Tarix fani raqamlar orqali matematikaga, shuningdek, joy, makon nuqtayi nazaridan, geografiya va boshqa fanlarga bevosita aloqador. Shu o‘rnida tarix o‘qitishni adabiyot bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’kidlamoqchimiz. Tariximizning deyarli barcha bosqichlariga doir tarixiy asarlar mavjud. Ularni adabiyot darslarida o‘rganishi mumkinligini inobatga olib, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari, arablar istilosi (Muqanna), xorazmshohlar (Jaloliddin Manguberdi), qoraxoniylar, Amir Temur (Sohibqiron), Bobur (Yulduzli tunlar), Shayboniyxon (Shayboniynoma), “Ulug‘bek xazinasi”, “Alisher Navoiy” kabi asarlar o‘z davrining muhim tarixiy ma’lumotlarini ham o‘zida aks ettirishini inobatga olib, bunday badiiy asarlarni tarix darslariga bog‘lash va talabalarni mustaqil mushohada qilishga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Talabalar tarixiy haqiqatni uydurma yoki badiiy to‘qimadan ajratib olishni o‘rganadi. Bu ularning kelajakda yaxshi tarixchi bo‘lishiga yordam beradi va ta’lim jarayonini qiziqarli, har tomonlama

foydali bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’limning kasbiy yo‘nalishini hisobga olgan holda, o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradigan, shuningdek, talabaning shaxsiyati, qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatiga e’tibor qaratadigan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdan iborat [9].

Tarix fanidan mavzular va unga muvofiq keladigan badiiy asarlar ro‘yxatini tuzib olish mumkin

Tarix fani bo‘yicha mavzular	Mavzuga doir tarixiy-badiiy adabiyotlar
Arablar istilosi	“Muqanna” dramasi
Mo‘g‘illar istilosi	“Jaloliddin Manguberdi” dramasi
Temuriylar hukmronligi	“Sohibqiron” dramasi, “Navoiy”
Xonliklar davri	“O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”
Birinchi jahon urushi	“Shum bola”, “Yodgor”
Ikkinchi jahon urushi	“Ikki eshik orasi”, “Shinelli yillar”

Barkamol shaxsni shakllantirish va rivojlantirish shartlaridan biri tarix o‘qitishda kompleks yondashuvni qo‘llash, deb atash mumkin. “Integratsiya” atamasi alohida farqlangan qismlarni bir butunga birlashtirishni anglatadi. Ular moddiy dunyo yoki ijtimoiy hayotning muayyan hodisalari, tomonlari, xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy g‘oyalarning keng qamrovli, murakkab, dialektik o‘zaro bog‘liq tizimini shakllantirish uchun turli xil o‘quv fanlari mazmunining o‘zaro ta’siri, o‘zaro bog‘liqligi sifatida qabul qilinadi.

Tarixni o‘rganishga kompleks yondashuvni qo‘llash nafaqat turli fanlarni, shu jumladan, chet tilini o‘rganishda motivatsiyani kuchayishiga olib keladi, balki hayotning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi integratsiya jarayonlari sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishga yordam beradi. Aloqa vositasi sifatida tarix o‘qitishda integral yondashuv badiiy asar materiallarining sifat jihatidan yangi tanlovi asosida o‘quv va kognitiv, o‘quv va ishlab chiqarish va ta’lim funksiyalarini birlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, ilmiy bilish ko‘nikmalar va integratsiya o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun asos, shu bilan birga, ularni amalga oshirish natijasi bo‘lib, bu fanlararo aloqalarni to‘g‘ri o‘rnatish tufayli o‘quv jarayonining o‘zini optimallashtirish va amaliy yo‘nalishni mustahkamlashga imkon beradi. Muvaffaqiyatli integratsiyaning asosiy tamoyillaridan biri bu ma’lumotlarni saralash, farqlash va unga munosabat bildirishdir. Badiiy to‘qima va tarixiy faktni farqlay olish holati ta’lim jarayonini integratsiyasini joriy etishning eng samarali usuli bo‘lib, natijada kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi. Vaziyatlilik prinsipidan tashqari, tarixni o‘qitishda integral yondashuvning quyidagi tamoyillarini ajratish odatiy holdir: madaniy muvofiqlik prinsipi, ijodkorlik prinsipi; o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga yo‘naltirish prinsipi, o‘zgaruvchanlik prinsipi, ko‘p madaniyatli o‘zini-o‘zi boshqarish prinsipi–shaxsni aniqlash va o‘zini-o‘zi anglash, bag‘rikenglik prinsipi, madaniyatlar muloqoti prinsipi. Integratsiyalashgan yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘qitish mazmuni va o‘quv fanlari, mavzular, bo‘limlar doirasini aniq belgilashga imkon beradigan maqsadni shakllantirish kerak. Tarixni adabiyot bilan bog‘lab o‘qitishda kompleks yondashuvning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy va kognitiv-talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish; fanlarni o‘rganish maqsadini yaxshiroq tushunish va ular o‘rtasidagi aloqalarni anglash tufayli dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish; tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro boyitilishi tufayli yangi ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantirish; tolerant shaxsni shakllantirish, konstruktiv madaniyatlararo muloqotga tayyor va haqiqiy muloqotning nostandart vaziyatlarida yechim topishga tayyor bo‘lgan ijodiy shaxsni tayyorlashdir.

Tarixni o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarning tizimli fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish. O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari, fanlararo ko‘nikma va ularni rivojlantirish usullari va usullarini birlashtirish. Jamiyatga integratsiyalashuv sharoitida hayotiy muammolarni hal qilishga va atrofdagi dunyoni erkin boshqarishga qodir bo‘lgan intellektual rivojlangan, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash.

Integratsiyalashgan darslar o‘quvchiga o‘zi yashaydigan dunyo, hodisalar va narsalarning o‘zaro munosabati, o‘zaro yordam, turli xil moddiy va badiiy madaniyat dunyosi haqida juda keng va yorqin tasavvur beradi. Asosiy e’tibor muayyan bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu sizga barcha o‘quv fanlari mazmunidan foydalanishga, atrofdagi hayot hodisalari va ularga murojaat qilib, fan, madaniyat, san’atning turli sohalaridan ma’lumotlarni jalb qilishga imkon beradi.

Talabalar faoliyatini birlashtirish, ular o‘zlari bir xil hodisalar, ular haqidagi faktlarni, hukmlarni taqqoslashni boshlaganlarida, ular o‘rtasida aloqalar va naqshlarni o‘rnatganda, birgalikda ishlab chiqilgan o‘quv ko‘nikmalarini (integratsiyaning eng chuqur darajasi) qo‘llaydilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarix fani boshqa fanlar bilan qanchalik yaqin bo‘lsa, u badiiy adabiyot bilan ham shunchalik bog‘liq bo‘lgani bois, tarix mashg‘ulotlarida faqat tarixiy faktlar bilan emas, ularning yonida badiiy to‘qimalari bilan birga taqdim qilinsa, avvalo, talabada farqlab olish ko‘nikmasi, mantiqiy o‘ylash malakasi rivojlanadi, qolaversa, adabiyotga ham qiziqishi ortadi, ma’lumotlarning ishonchli yoki ishonchsiz ekanini ajrata olishni o‘rganadi. Tarix va badiiy adabiyotni integratsiya qilgan holda o‘qitish dars samaradorligini oshiradi, bo‘lajak o‘qituvchilarining ma’lumotlar bilan ishlash va taqdim qilish bo‘yicha tajribalarini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Безрукова В.С. Интеграционные процессы в педагогической теории и практике. Екатеринбург, 1994, с. 152.
2. Белкин А.С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство. Екатеринбург, 2004, с. 188.
3. Берулава М.Н. Теоретические основы интеграции образования. М., изд-во Совершенство, 1998, с. 28; Беспалько В.П. Педагогика и профессиональные технологии обучения. Инст.развития проф. Образования. М., изд-во инст. проф. образования, Мин. образования России, 1995, с. 336.
4. Галицких Е.О. Интегративный подход как теоретическая основа профессионально-личностного становления будущего педагога в университете. Дисс.…доктора пед.наук, 13.00.08. Санкт-Петербург, 2002, с. 387.
5. Касьянова О.М. Интегративный подход к формированию профессиональной коммуникативной компетентности студентов правовых специальностей. Автореферат доктора пед.наук, М., 2008, с. 46, 126.
6. https://qomus.info/
7. Чапаев Н.К. Педагогическая интеграция: методология, теория, технология. Екатеринбург, изд-во. Гос. проф.-пед.инст., Кемерово, изд-во Кемеровского проф-пед. колледжа, 2005, с. 325.
8. Клёнова А.В. Интегрированный урок. Волгоград, “Учитель”, 2009, с. 16 – 17.

Masadiqova Zulfiyaxon Hamdamovna (Qo‘qon DPI Xorijiy tillar fakulteti MBTIT kafedrasi katta o‘qituvchisi)

CHET TILI O‘RGANISHDA AXBOROT RESURSLARINING AHAMIYATI

Annotasiya. *Jamiyatda raqamli axborot vositalaridan foydalanish xilma-xildir. Ular yangi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi va yangi yo‘llarni ochadi. Ta’lim sohasida o‘quvchilar turli xil bilim manbalariga, ijtimoiy tarmoqlar uchun turli imkoniyatlarga va ta’limni qo‘llab-quvvatlaydigan ko‘plab raqamli vositalarga ega bo‘lishadi. Maqolada «kompyuter texnologiyalari» tushunchasining mazmuni va ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi egallagan o‘rni ochib berilgan. Masofaviy ta’limning muvaffaqiyatini biznes, texnologiya va jamiyatdagi o‘zgaruvchan ramka sharoitlari fonida tushuntirish mumkin.*

Аннотация. *Использование цифровых медиа в обществе разнообразно. Они открывают новые возможности. В области образования студенты имеют доступ к различным источникам знаний, различным возможностям социальных сетей и множеству цифровых инструментов для поддержки обучения. Успех дистанционного образования можно объяснить в контексте меняющихся рамочных условий в бизнесе, технологиях и обществе. Примеры показывают, что наиболее эффективный способ изучения языка – это предоставить учащимся мультимедийные инструменты для самостоятельной работы в классе и вне его, проектной работы и выполнения заданий, которые помогают им развивать все типы разговорной деятельности.*

Annotation. *The digital media implementation in society is diversified. That opens new opportunities. Nowadays, students have access to various sources of knowledge, such as social media and networking, a wide range of digital tools which help learning process. The success of distance learning is closely related to changes of conditions in business, technology and society. The examples show that the most effective way of learning language is to provide students with multimedia tools for independent work in and outside the classroom, project work and assignments that help them develop all types of language skills.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, internet tarmog‘i, kompyuterning roli, multimedia vositalari, motivatsiyani oshirish, talabalarning qiziqishlari, yangicha metodlar.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, дистанционное обучение, интернет, роль компьютера, мультимедиа, методы, интересы студентов.*

Key words: *digital technologies, distance learning, the Internet, the role of the computer, multimedia, methods, students' interests.*

So‘nggi yillarda yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash masalasi tobora kuchayib bormoqda. Bu nafaqat zamonaviy texnik vositalar, balki o‘qitishning yangi shakllari, balki o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv hamdir. Multimediya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘qishga yo‘naltirilgan yangicha yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, o‘quvchining xususiyatlari, o‘quv darajasi, qobiliyatlari hisobga olingan holda, indivduallashtirish va farqlashni ta’minlaydi.

Chet tillarini o‘qitishning zamonaviy-kommunikativ texnologiyalarida kompyuterning o‘rni. Bizning davrimizda kompyuter texnologiyalari juda muhim va mustaqil vositadir. Ko‘pgina bolalar, hatto kattalar ham buni faqat kompyuter o‘yinlarini o‘ynash uchun ishlatishadi. Ammo, xayriyatki, ko‘p odamlar bundan to‘g‘ri foydalanish yo‘lini topdilar. Qo‘limizda bunday yordamchining mavjudligi ishimizni yengillatadi va vaqtimizni tejaydi, chunki biz uydan chiqmasdan turib tezislar, hisobotlar va zarur bo‘lgan barcha narsalarni chop etishimiz mumkin. Bundan tashqari, kompyuter chet tilini o‘rganishda yordam beradi. Axir, chet tilini o‘rganishda yaxshi natijalarga olib keladigan ko‘plab disklar, elektron darsliklar, multimedia vositalari mavjud. Masalan, kompyuter o‘quv jarayonini boshqarishda moslashuvchanlikni ta’minlab, talabalar faoliyati ustidan nazorat sifatini yaxshilashga imkon beradi. Bu yerda o‘qituvchining o‘rni juda muhimdir. U dars uchun kompyuter dasturlarini, didaktik materiallarni va individual topshiriqlarni tanlaydi, talabalarga ish jarayonida yordam beradi, ularning bilimlarini baholaydi. Kompyuterdan ma’lumot bilan ishlash vositasi sifatida foydalanish juda xilma-xil. U bir necha soniya ichida elektron kutubxonani ko‘rib chiishi va kerakli ma’lumotlarni topishi mumkin.

Umuman olganda, pedagogika shiddat bilan rivojlanmoda, ta’limga innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish, chet tillarini o‘rganish, chet tilida dars o‘tish kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Mamlakatimizda chet tillarini o‘rgatish va maktabgacha ta’lim muaassalaridan boshlab barcha ta’lim muassasalarida o‘qitilishini tashkillash yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013–2014-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzliksiz o‘rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. Hozirgi kunda chet tilini, xususan, ingliz tilini o‘rganishning sababi, fan, madaniyat va iqtisodiyot rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili sifatida mana shu innovatsion jarayonga e’tibor berilmoqda.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Globallashuv sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta’lim oluvchilar, shu jumladan, o‘quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ingliz tili o‘qituvchisi o‘zining qo‘llayotgan metod, usul, yo‘llari, mashqlarning to‘g‘riligini bilish, o‘quvchilarga, talabalarga qanday bilim berayotganini, kamchiliklarini aniqlashi, tekshirish natijasi orqali bo‘ladi. Ingliz tilini o‘rganayotgan, o‘qiyotgan o‘quvchi va talabalar o‘zlarining bilimlari natijasini bilishga qiziqadilar. O‘qituvchining nutqi, imkoni boricha, sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta’sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan, o‘qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Til ma’lumotlar bazalari (lingvistik «Korpus») va multimedia resurslari (tematik internet saytlari, tarmoq ensiklopediyalari, galereyalar, muzeylar, o‘quv yurtlari virtual siyosatlari va boshqalar) talabalarning til va madaniy amaliyotni sezilarli darajada boyitishi va kengaytirishi mumkin. Endi hamma internet ulkan axborot imkoniyatlariga va teng darajada ta’sirchan xizmatlarga ega ekanligini tushunadi. Ayniqsa, u chet tillarni o‘rganuvchilar uchun asl matnlardan foydalanish, tinglovchilar va ona tilida so‘zlashuvchilar bilan suhbatlashish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Uning imkoniyatlari va resurslaridan qanday maqsadlarda foydalanishimizni aniqlash juda muhimdir. Misol uchun, talabalar tomonidan loyiha doirasida mustaqil izlanish uchun veb-tarkibni dars mazmuniga kiritish kerak.

Internetning axborot resurslaridan foydalangan holda, ularni o‘quv jarayoniga qo‘shib, darsda bir qator didaktik vazifalarni samarali hal qilish, ya’ni:

– har xil murakkablik darajasidagi tarmoq materiallaridan bevosita foydalangan holda, o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– internetning ovozli matnlari asosida tinglovchilarning malakasini oshirish;

– tarmoq materiallarini o‘qituvchi yoki kimdir tomonidan taqdim etilgan muammoli munozara asosida monologik va dialogik nutq mahoratini oshirish;

– faol hamda passiv, so‘z boyligini zamonaviy chet tilining lug‘ati bilan to‘ldirish;

– nutq odob-axloq qoidalarini, ayniqsa, turli xalqlarning nutq xatti-harakatlarini aloqa, madaniy xususiyatlar, o‘rganilayotgan til mamlakatining an’analari nuqtayi nazaridan qamrab olgan madaniy bilimlar bilan tanishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ta’lim tizimida va ta’lim muassasalarida chet tillarini, xususan ingliz tilini o‘rgatishning innovatsion usullarini qo‘llash orqali o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, har qanday xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishda va o‘qitishda o‘qituvchi nutq madaniyatining o‘rni katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-itishda-ra-amli-vositalarning-a-amiyati-va-masofaviy-talimning-salbiy-izhobiy-zhi-atlari

2. https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-itishda-innovatsion-yondashuv

3. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Современные учебные Интернет-ресурсы в обучении иностранному языку. “Иностранные языки в школе”, 2008, № 6, с. 2.

4. Аверкиева Л.Г., Чайка Ю.А. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 1 (8) 2011.

5. “Uzluksiz ta’lim”, ilmiy-uslubiy jurnal, 2020, 1-son, 101-bet.

Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna (Guliston davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchi); e-mail: bahoroybahoroy42@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI BADIIY ADABIYOTLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNIING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy adabiyotga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning mazmuni va mohiyati, kitoblarning bolaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdagi roli e’tirof etilgan. O‘qituvchilar o‘quv faoliyatida yosh maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalardan foydalanishlari mumkin. O‘quvchi dunyoqarashini kengaytirish, qalbining tub-tubiga kirib borish, ongini rivojlantirish va orzulari sari harakat qilishda kitob va badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Bugungi kunda dunyoda kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishni uslubiy takomillashtirish, kitob o‘qishni kuchaytirish, o‘quvchilarning ijodiy faolligi rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish alohida ahamiyatga ega.*

Аннотация. *В статье признается содержание и сущность формирования творческих способностей младших школьников на основе художественной литературы, роль книг в раскрытии внутренних возможностей ребенка. Педагоги могут использовать методические рекомендации по формированию творческих способностей младших школьников в учебной деятельности. Роль книги и художественной литературы в расширении кругозора читателя, проникновении в глубины его души, развитии его сознания и движении к своей мечте неоценима. Сегодня в мире особое значение имеет проведение научно-исследовательской работы по методическому совершенствованию формирования творческих способностей младших школьников, усилению чтения книг, развитию творческой активности учащихся, реализации их внутреннего потенциала.*

Annotation. *The article recognizes the content and essence of the formation of creative abilities of Primary School students based on fiction, the role of books in bringing to the surface the internal capabilities of the child. Teachers can use methodological recommendations for the formation of creative abilities of young schoolchildren in educational activities. The role of books and fiction in expanding the reader’s worldview, penetrating into the depths of his soul, developing his consciousness and moving towards his dreams is incomparable. Today, of particular importance in the world is the methodological improvement of the formation of the creative abilities of younger schoolchildren, the strengthening of reading books, the development of creative activity of students, the conduct of research work on the realization of their internal capabilities.*

Kalit so‘zlar: *tasavvur, ijodkorlik, qiziqish, yaratuvchanlik, ijodiy qobiliyat, ichki imkoniyatlar.*

Ключевые слова: *воображение, креативность, любопытство, креативность, творческие способности, внутренние возможности.*

Key words: *imagination, creativity, curiosity, creative abilities, internal capabilities*.

Kirish. Mamlakatimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori har tomonlama bilimli, yuksak salohiyatli, ijodkor, intiluvchan yoshlar hisoblanadi.[1] Prezidentimizning 2017-yil 13-sentabrdagi kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish borasidagi qarori bejizga emas, chunki kitob inson kamolotining mahsuli, uni o‘qigan jajji kitobxon yaxshi fazilatlar va yomon illatlarning farqini, asar qahramonlarining ichki kechinmalarini tushunadi, yozma og‘zaki nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi kengayadi. Kitobga mehr qo‘ya olgan o‘quvchi barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtira oladi. Kitob mutolaasi o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantiradigan omildir. Har bir xalqning qanday ekanligini uning ma’naviyatidan bilib olish mumkin. Millat ma’naviyatining to‘g‘ri shakllanishi ta’lim-tarbiya jarayonining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liqdir. O‘sib borayotgan yosh avlodni kitobsevar qilib tarbiyalash ertangi kunimiz kelajagi uchun muhimdir.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Amerikalik tadqiqotchi olim E.Djessinaning so‘zlariga ko‘ra, bugun bolalar kitobga qiziqmay qo‘ygan, bu esa yaxshilikka olib kelmaydi. U.Ollport, A.Bine. T. Simon, F.Galton, V.Shtern kabi bir qator g‘arb olimlarining ijodiy qobiliyatlarning yuzaga chiqishida ta’lim jarayoni va kitob mutolaasining o‘rni beqiyos ekanligini tushuntirganlar. Avstraliyalik pedagog olim M.Kristin Mergan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kitob o‘qishi ularning savodxonlik ko‘nikmasini shakllantirishini aytib o‘tgan. Tadqiqotchi muammo sabablarini ochiqlagan hamda pedagoglarni ushbu masalaning yechimini hal etishga chaqirgan.

Tadqiqot maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga mehr uyg‘otishni ta’lim jarayonida shakllantirish borasida tegishli ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning obyekti sifatida badiiy adabiyotlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun darslikdan ularning diqqatini tortuvchi hikoyalar va she’rlar, qolaversa, kitoblar tanlab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tasniflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleksva funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Faylasuflar ijodkorlikni materiyaning rivojlanishi, uning yangi qirralari shakllanishi, paydo bo‘lishi bilan birga, ijodning juda ko‘p shakllari o‘zgarishi uchun zarur shart sifatida belgilaydilar. Pedagogikada esa “ijodkorlik inson faoliyati va mustaqil faoliyatning eng yuqori shakli” deb belgilaydi. Vaholanki, ijodkorlik uning ijtimoiy ahamiyati va o‘ziga xosligi bilan baholanadi.[3] Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida badiiy adabiyotlar ta’lim vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Davr shart-sharoitlariga mos ravishda bolalarning qiziqishlari ham o‘zgarib boradi. Shu bois o‘qituvchilar qiziqish sohasini nazarda tutib, mavzuga mos adabiyotlarni tanlashlari kerak. Chunki bolalarning hammasi ham bir xil qiziqish va tafakkur doirasiga ega emas. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, qiziqishlariga mos bo‘lmagan asarlar bolaning o‘qish ishtiyoqini susaytirishi mumkin. Tanlangan adabiyotlar mana shunga muvofiq tarzda bo‘lishi kerak.[4]

Tadqiqotchilar ijod haqida shunday ta’rif berishadi: Ijod–murakkab ruhiy, aqliy jarayonki, u insonning xarakteri, qiziqishlari va qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ana shu tasavvur va xayolotlar zamirida yangi aqliy mahsulot vujudga keladi. Ijodkorlik mahsulotlari nafaqat moddiy mahsulotlar, balki yangi fikrlar, g‘oyalar, yechimlardir. Ijodkorlik – bu san’atda, adabiyotda, yangilik yaratish, kashfiyotlar yaratish demak. Ijodkorlikning ilk belgilari esa bolalarda o‘yinda, mehnatda, o‘qishda faollik, o‘ziga xoslik, mustaqil fikr va tasavvurning mavjudligi orqali namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, bolalardagi bu ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, yuzaga chiqarish uchun o‘qituvchidan ziyraklikni, dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni talab qiladi. Chunki ijodiy faoliyat bolaning shaxsiyatini rivojlantiradi. Unda axloqiy, ruhiy va estetik jihatlarni rivojlanishiga ham yordam beradi. Bu jarayonda bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ko‘rgazmali vositalar, adabiyotlar to‘g‘ri tanlanishi zarur. Mashg‘ulotlar mobaynida har bir bolaning qiziqishlari: rasm chizish, qo‘shiq aytish, hatto bir ikki satr she’r mashq qilishga intiluvchanlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ularning bu boradagi qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, rag‘-

[1] O‘zbekistan Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637, T., 2020.

[2] O‘zbekiston Respubikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori. T., 2017, 15-mart.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni. 1-ilova. T., 2019, 29-aprel.7–11-betlar.

[4] Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. T., “O‘qituvchi”, 1991, 40-bet.

batlantirib borish bolalarni iymanib-tortinishdan xoli qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni ham bevosita bolalarni qo‘shimcha va mavzuga doir adabiyotlarni o‘qishga qiziqtirishdan boshlanadi. Bolalar bu davrda fikr va tushunchalarini amaliyotda mashq qila boshlashadi. Olimlarning fikricha, bolalar yetti yoshdan o‘n uch yoshga qadar voqelikdagi zohir bo‘lib turgan, barchani hamda o‘zini qamrab olgan atrof-muhitini yanada yaxshiroq o‘rganishga qiziqadi. U bu yoshda qissalarni bir-biridan, misol uchun, voqelikka asoslangan to‘g‘ri qissadan to‘qimasini, yaxshisidan yomonini ajrata boshlaydi. Bolalar o‘qib o‘rganish jarayonida o‘z aql-zakovatlarini yanada mustahkamlab boradi. Qahramonlarga taqlid, o‘ziga yoqqanlarini yodda saqlashga intilishlar bolaning ijodiy qobiliyati shakllanib borayotganidan dalolat beradi.[1]

Bolalarga o‘qish uchun kitoblarni tavsiya qilishda, albatta, bolalar psixologiyasini hisobga olish zarur. Zotan, hikoya ularning ruhiy olamiga shikast yetkazmasligi, murg‘ak qalblarini behuda, yolg‘on makr-hiylalar bilan to‘dirmasligi kerak. Tanlangan adabiyotlar bolaga zavq-shavq ulashish barobarida, ularni ham yaratuvchanlikka, ezguliklar yo‘lida shijoatga undashi kerak. Shu boisdan ham ayrim rivojlangan mamlakatlardagi nashriyotlar qoshida pedagog va psixologlardan iborat maxsus kengashlar faoliyat yuritadi. Ular bolalar uchun chop etiladigan kitoblarni pedagogik va psixologik jihatdan tahlil etishgach, maqbullari chop etishga ruxsat beradi.[2]

Bizda ham so‘nggi paytlarda ushbu masala yuzasidan tahlil etish, jiddiy mushohada yuritib ko‘rishga undaydigan jihatlar mavjud. Masalan, boshlang‘ich sinflarimizning o‘qish kitoblaridagi she’r va hikoyalarning ayrimlarini ifoda, mazmun jihatidan bolalar tushunadigan sodda, qisqaroq satrlarda bayon etilishi shular jumlasiga kiradi.

Yana bolalarning ijodiy qobilyatini rivojlantirish xususida to‘xtalar ekanmiz, men bir muhim masalaga e’tiborni qaratish zarur deb hisoblayman. Bola rasm chizishga, qo‘shiq aytib, raqs tushishga qiziqsa, undagi bu intilish va qobilyatni, eng avvalo, ota-onalar payqashadi. Kamdan kam hollarda ota-ona tomonidan bu qabiliyat rag‘batlantirilib, to‘g‘ri yo‘nalish beriladi. Aksariyat ota-onalar esa “rasm chizib, bolachaqa boqolmaysan, rasm chizish muhim kasb emas”, deya istak va intilishlarni so‘ndiradilar. Maktabda bolalarning ijodiy qobilyatlarini darslar mobaynida yuksaltirish uchun sarflanadigan vaqt ham chegaralangan. Oilada esa vaqt va imkoniyat darajasi katta. Shuning uchun bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlanishini o‘rganish, ushbu jarayonning amalga oshiriladigan sharoitlarni, ya’ni rivojlanayotgan muhitini aniqlash talab etiladi. Tabiiyki, bu masala o‘qituvchi va ota-ona hamkorligida amalga oshiriladi.

Ko‘pgina qishloq maktablarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim hisoblangan musiqa, tasviriy san’at, mehnat ta’limi darslariga shunchaki, asosiy bo‘lmagan fan sifatida qaraladi. Bilamizki, bu fanlar o‘quvchilarning ijodkorlik va qobiliyatlari mahsulini ochiq-oydin yuzaga chiqarib berishda muhim sanaladi.

Xulosa.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, rag‘batlantirib borish bolalarni iymanib-tortinishdan xoli qiladi.

2. Mashg‘ulotlar mobaynida har bir bolaning qiziqishlari: rasm chizish, qo‘shiq aytish, xatto bir ikki satr she’r mashq qilishga intiluvchanlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

3. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida badiiy adabiyotlar ta’lim vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi.

4. O‘qituvchilar qiziqish sohasini nazarda tutib adabiyotlarni tanlashlari kerak.

Umarov Komil Majitovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti)

O‘SMIR VOLEYBOLCHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONIDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smir voleybolchilarning mashg‘ulot jaroyonida harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq xususiyatlar o‘rganilgan. 11–12 yoshli o‘smir voleybolchilar ishtirokida tadqiqot tashkil etildi, mashg‘ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatli o‘yinlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu harakatli o‘yinlar mashg‘ulot davomida tanlangan o‘quv guruhi a’zolariga qo‘llanildi, bu o‘quv guruhi a’zolarining tadqiqotdan keyin jismoniy va texnik elementlarni bajara olish qobiliyati sezilarli darajada o‘sdi. Olingan natijalar tahlili, shug‘ullanuvchilarning jismoniy sifat-*

[1] Bolalarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha taqdimot. Toshkent, 2019, 44 – 47-betlar.

[2] Roziqov O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish. T., 1996, 27-bet.

lari hamda texnik elemenltarni bajara olish imkoniyatlariga alohida ahamiyat qaratildi. O‘smir voleybolchilar mashg‘ulot jarayonlarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash nechog‘liq ahamiyatli ekanligi o‘rganildi va o‘tkazilgan tadqiqot natijalari alohida ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Аннотация. *В статье исследуется характеристика волейболистов-подростков с точки зрения эффективности использования двигательных игр на тренировках. Было проведено исследование с участием волейболистов 11–12 лет, в ходе которого был разработан комплекс игр-экшен для повышения эффективности тренировки. Эти игры-действия были применены к отобранным участникам исследовательской группы во время обучения, что значительно повысило способность участников исследовательской группы выполнять физические и технические элементы после исследования. Особое внимание было уделено анализу результатов, физическим качествам обучаемых и их способности выполнять технические элементы. Изучена важность использования двигательных игр в тренировочном процессе волейболистов-подростков, и исследования показали, что они имеют особое значение.*

Annotation. *This article examines the characteristics of adolescent volleyball players in the use of movement games in their training process. The study was conducted with the participation of 11-12-year-old volleyball players, during which a set of action games was developed to increase the effectiveness of the training. These action games were applied to the selected research group participants during the training, which significantly increased the ability of the research group participants to perform the post-research physical and technical elements. Particular attention was paid to the analysis of the results, the physical qualities of the trainees and their ability to perform technical elements. The importance of using movement games in the training processes of adolescent volleyball players has been studied and the results of the research have proved to be of special importance.*

Kalit so‘zlar: *mashg‘ulot jarayoni, harakatli o‘yinlar, jismoniy sifatlar, korrelatsion tahlil, voleybol.*

Ключевые слова: *тренировочный процесс, двигательные игры, физические качества, корреляционный анализ, волейбол.*

Key words: *training process, movement games, physical qualities, correlation analysis, volleyball.*

Dolzarbligi. Bugungi kunda Respublikamizda bolalar sportini rivojlantirish, ularni jismoniy tarbiyalashning ilmiy asoslangan zamonaviy tizimlari, shakl va uslublarni joriy etish, bolalarda sportga mehr uyg‘otish, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida sport bilan shug‘ullanish ehtiyojini kuchaytirish, ma’naviy va jismoniy kamolotga intilish, Vatanga mehr-muhabbat va o‘z mamlakati uchun iftixor tuyg‘usida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu konseptual hujjatlarda bolalar sportini ilmiy asosda tashkil qilish, ayniqsa, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga bazaviy ahamiyat qaratish zarurligiga e’tibor qaratilgan [1.2]. Shunday ekan, boshlang‘ich tayyorgalik bosqichida shug‘ulanuvchi voleybolchilarni jismoniy va texnik elemintlarini shakllantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish nechog‘liq samarali ekanligini ko‘rish mumkin.

Ko‘pgina olimlar tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarida harakatli o‘yinlar o‘smir sportchilarni har tomonlama tayyorlashning eng samarali vositasi sifatida tavsiya etilgan. Biroq o‘smir voleybolchilarni tayyorgarligini rivojlantirishda o‘yin yuklamalarining shiddati va hajmi me’yorlarini aniqlab, o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etish metodikasini takomillashtirish yuzasidan yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan [3.4.5]. Mazkur holat tadqiqot ishimizning o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanligini va dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi: mashg‘ulot jarayonida beriladigan harakatli o‘yinlar orqali 11–12 yoshli voleybolchilarning jismoniy va texnik elemintlarini shakllanganligini aniqlash va uni takomillashtirishda uslubiy ko‘rsatmalar berish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Sog‘lomlashtirish vazifalari. 11–12 yoshli voleybolchilarni sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularni o‘rganizmini chiniqtirish jismoniy sfatlarini rivojlantirish.

2. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi 11–12 yoshli voleybolchilarning mashg‘ulot jarayonini o‘rganib chiqish.

3. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi 11–12 yoshli voleybolchilarning jismoniy va texnik elementarini shakllantirishda samaradorligi yuqori bo‘lgan harakatli o‘yinlarni saralab olish.

4. Mashg‘ulot jaroyonida harakatli o‘yinlarni qo‘llash samaradorligini pedagogik tajribada tekshirish.

5. Mashg‘ulot jarayonida qo‘llangan harakatli o‘yinlar orqali 11–12 yoshli voleybolchilarni jismoniy va texnik elementlarini shakillanganlik darajasini aniqlash hamda olingan natijalarni tahlil qilish.

Tadqiqot usllari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash usuli, matematik statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish. Tajriba Samarqand shahar sportning o‘yin turlari va yengil atletika bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktabining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi 11–12 yoshli voleybolchilar mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqot 2 bosqichdan iborat. Muammoning nazariy tomonlari tahlil qilindi hamda ilmiy nazariy izlanishlar natijasida muammoning hozirgi holati o‘rganildi va zarur bo‘lgan tomonlari ustida ishlash kerakligi aniqlandi.

1. Bo‘lgan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, o‘smir voleybolchilarni mashg‘ulot jaroyonida harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligi o‘rganildi va shu maqsad yo‘lida tajriba olib borildi.

2. Tadqiqotning yakuniy natijalari olindi. Bu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi va tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar berildi.

Tadqiqot ishimizning vazifalaridan yana biri boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi 11–12 yoshli voleybolchilarning jismoniy va texnik elementlarini bajara olish darajasini baholashdan iborat edi. Mazkur vazifani hal etishda 12 nafar shug‘ullanuvchilar tanlab olindi va tadqiqot ishlari olib borildi.

1-jadval

11–12 yoshli voleybolchilarni jismoniy va texnik imkoniyatini maxsus testlar orqali aniqlash (tadqiqotdan oldin) (n=12)

№	Ismi, familiyasi	30 metrga yugurish (sekund)	6x5 metrga mokisimon yugurish (sekund)	1kg li to‘ldirma to‘pni uloqtirish (sm)	Yuqoridan ikki qo‘llab to‘pni 4-6–2-zonalardan 3-zonaga aniq uzatish (15 marotaba)	Yuqoridan ikki qo‘llab to‘pni aniq uzatish (devorga oraliq masofa 2,5–3 metr) (30 marotaba)
		Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan oldin
1.	**A.Y.**	**5.9**	**10.7**	**400**	**10**	**23**
2.	**R.J.**	**5.7**	**10.5**	**410**	**8**	**21**
3.	**G‘.O.**	**5.8**	**10.9**	**430**	**9**	**19**
4.	**S.I.**	**5.7**	**10.6**	**430**	**7**	**20**
5.	**J.K.**	**5.5**	**10.5**	**400**	**6**	**21**
6.	**Sh.F.**	**5.6**	**10.6**	**440**	**9**	**22**
7.	**Sh.S.**	**5.7**	**10.8**	**435**	**7**	**18**
8.	**T.D.**	**5.6**	**10.7**	**500**	**8**	**18**
9.	**F.L**	**5.8**	**10.8**	**470**	**8**	**19**
10.	**O.R.**	**5.8**	**10.7**	**430**	**7**	**18**
11.	**T.J.**	**5.8**	**11.4**	**400**	**7**	**15**
12.	**Y.B.**	**5.5**	**10.4**	**520**	**10**	**24**
ΣXi		**68.4:12= 5.7 %**	**128.6:12= 10.7 %**	**5265:12=439**	**96:12=8**	238:12= 20
Min-max		**5.5-5.9**	**10.4-11.4**	**520-400**	**10-6**	24-15
x±σ		5.9±04	11.4±1	400±120	6±4	15±9

Yuqoridagi jadvalga nazar tashlasak, test topshirgan 12 nafar shug‘ullanuvchilarni 5 yo‘nalishda ko‘rsatgan natijalari biz kutgan natijalarni bermadi. Shu sababli bu guruhga biz tomonimizdan kiritilgan qo‘yidagi harkatli o‘yinlardan foydalanish tavsiya etildi.

Yaxshi tanlangan o‘yin yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligi hamda texnik elimentlarini shakllantirishga olib keladi. Ba’zan yaxshi o‘yin tanlansada, lekin u qiziqishi va havaslariga mos kelmasligi ham mumkin. Bunday hollarda tanlangan o‘yin shug‘ullanuvchilarni jismoniy va texnik elementlarni yaxshi shakillanmaslikka olib keladi.

Murabbiy o‘yinni tanlashda mashg‘ulotning qaysi vaqtida qo‘llash (mashg‘ulot boshida, mashg‘ulot o‘rtasida yoki mashg‘ulot oxirida)ni bilishi kerak. Hamda o‘yin uchun oldindan tayyorlangan joy bo‘lishi kerak. O‘yinlarni o‘tkazish va tashkil qilishda qo‘yidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

1. Avvalo, kerakli jihozlarni, voleybol to‘plari, va boshqa to‘plar, irg‘itish uchun kichik hajmdagi to‘plar, bayroqchalar, kichik lentalar va boshqalar bo‘lishi kerak.

2. O‘yin o‘tkaziladigan maydoncha tekis bo‘lishi, va doimo toza tutilishi lozim.

3. Mashg‘ulot o‘tkazilayotgan paytda maydonchada begona kishilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ular shug‘ullanuvchilarni xayolini bo‘ladilar va ularni o‘yindan chalg‘itib, ortiqcha harakatlar qilishga majbur etadilar.

4. Maydonchani jihozlar bilan ta’minlash, bundan tashqari, u yerdagi tabiiy buyum va narsalardan ham foydalanish zarur.

5. O‘yinlarni o‘tkazishda quyidagi gigiyenik qoidalariga rioya qilinishi lozim:

a) o‘yin paytida kiyiladigan kiyim harakatni qiyinlashtirmaydigan, yengil bo‘lishi kerak;

b) jarohat yetkazadigan jihozlardan foydalanmaslik;

d) maydonchaga tupurmaslik hamda poyabzalsiz o‘ynamaslik.

Ma’lum bir o‘yin ampulasi tavsifi bilan usullar takomillashtiriladi. Avvaldan o‘rganilgan o‘yin usullari jamoadagi o‘yinlar ampulasi, jismoniy imkoniyatlari va texnik elementlarni jamoaviy hamda individual o‘zlashtirish usulini takomillashtiradi [3.6.7].

Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o‘yinlar. *Tez yugur*ish o‘yini.

O‘yinning tavsifi. O‘ynovchilar qo‘1 ushlashib, aylana hosil qiladilar va qo‘llarini pastga tushirib, erkin turadilar. Onaboshi davrani tashqaridan aylanib o‘tayotib, qo‘lini o‘yinchilardan birining yelkasiga tegizadi va istalgan tomonga qarab (davra bo‘ylab) qochadi. Onaboshining qo‘li teggan o‘yinchi ham davra bo‘ylab (ammo qarama-qarshi tomonga) yuguradi. Ulardan qaysi biri davrani tezroq aylanib chiqsa va birinchi bo‘lib bo‘sh o‘ringa turib qolsa, u qo‘lini baland ko‘taradi va “Men tezroq yugurdim!” deydi. Shundan keyin davrada tizilib turgan o‘yinchilar yugurgan o‘yinchilarning nomlarini aytib shunday deydilar:

– Karim Botirdan o‘tdi va marraga tez yetdi!

Ikknchi bo‘lib kelgan o‘yinchi yutqazgan hisoblanadi va onaboshi bo‘ladi.

Qurshovdan chiqib ketish o‘yini. O‘yinning tavsifi. Murabbiyning signalidan keyin doiraning o‘rtasida turgan jamoaning o‘yinchilari qurshovdan chiqib ketishga harakat qiladilar. Birinchi jamoaning o‘yinchilari esa ularga qarshihk ko‘rsatadilar. O‘yin ma’lum vaqtgacha davom etadi. Shundan keyin jamoalar joy almashadilar. O‘yinda raqib jamoaning ko‘proq o‘yinchilarini qurshovda ushlab turgan jamoa yutgan hisoblanadi.

Estafetali to‘p uzatish o‘yini. O‘yinning tavsifi. Har bir qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilarning qo‘llarida to‘ldirma to‘p bo‘ladi va murabbiy signal bergach, ular to‘plarni boshlaridan oshirib orqalaridagi ikkinchi o‘yinchiga uzatadilar. Ikkinchi o‘yinchi to‘pni olib, oldinga engashib, uni oyoqlari orasidan uchinchi o‘yinchiga uzatadilar va hokazo.

Qatorlar oxirida turgan o‘yinchilar to‘pni olgach, o‘z jamoasining chap tomonidan yugurib kelib, qator oldiga birinchi bo‘lib turadilar va to‘pni boshlaridan oshirib uzatadilar. Ular oldinga qarab yugurayotganda boshqa o‘yinchilar bir qadam yoki bir o‘rin orqaga suriladilar. O‘yin oldingidek yana takrorlanadi.

O‘yinni boshlagan ishtirokchi qator oxiriga yetgandan so‘ng to‘pni oladi va o‘ng tomondan yugurib kelib, qatorga birinchi bo‘lib turadi va to‘pni yuqoriga ko‘taradi. To‘p uzatishni boshqalardan tezroq bajargan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Avtomobil poygasi o‘yini. O‘yinning tavsifi. O‘yinchilar maydonining ikki tamonida juflikda joylashadi. Juftliklardan biri qo‘llarida polga tayanadi. Ikkinchi sherigi oyoqlaridan (g‘altakcha ko‘rinishda) tutadi. O‘qituvchining signaliga ko‘ra o‘yinchilar birinchi chiziqdan ikkinchi chiziqqa qo‘llarida harakatlanadi. Ikkinchi chiziqqa borgach juftliklar o‘rnini almashtiradi. Poygani birinchi bo‘lib tugatgan jamoa g‘alaba qozongan hisoblanadi.

Voleybol texnik elementlarini rivojlantiruvchi harakatli o‘yinlar. Voleybolchilar estafetasi.

O‘yinning tavsifi. O‘yin ishtirokchilari o‘zaro teng ikki jamoaga bo‘linadilar. Ikkala jamoa o‘yinchilari 2 tadan bo‘lib, oralaridan biroz joy qoldirib, o‘zaro parallel ikki qatorga saflanadilar. Oldinda turganlarning oyoqlari uchi oldidan chiziq o‘tkaziladi. Bu chiziqdan 10–15 qadam narida unga paralel qilib ikkinchi chiziq tortiladi. Qatorlar boshida turgan har qaysi juft o‘yinchining biriga bittadan to‘p beriladi.

O‘yinning tavsifi. Murabbiy signal berishi bilan oldinda turgan har qaysi juft o‘yinchilar oldinga qarab yugurib, yo‘lda to‘pni kaftlari bilan yuqoriga urib bir-birlariga qaytaradilar. Ular ikkinchi chiziqqacha yugurib borib, yana shu yo‘ldan o‘z qatorlariga qaytadilar, to‘pni so‘nggi marta urib navbatdagi juft o‘yinchilarga uzatib, o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. Navbatdagi o‘yinchilar, uchib kelgan to‘pni

ilib olmasdan, yuqoridan ikki qo‘llab, bir-birlariga uzatib, oldinga yugurib ketadilar. O‘yin har bir jamoaning hamma juft o‘yinchilari shu tarzda to‘pni bir-birlariga uzatib yugurib bo‘lgunlaricha davom ettiriladi. Navbat yana birinchi juft o‘yinchilarga kelganda ulardan biri to‘pni qo‘lga olib yuqoriga ko‘taradi va shu bilan jamoa yugurishni tamomlaganligini bildiradi. Uzatish harakatlarini aniq va masofani birinchi bo‘lib tamomlagan jamoa g‘olib hisoblanadi.

To‘p havoda o‘yini. O‘yinga tayyorlanish. Hamma o‘yinchilar o‘zaro teng 2–3 jamoaga bo‘linadilar va har bir jamoa alohida doira hosil qilib joylashadi. Doiralar, bir-birlaridan bir qadam oraliqda turadilar. Har bir jamoaga bittadan voleybol to‘pi beriladi.

O‘yinning tavsifi. Markazda joylashgan o‘yinchi to‘pni doirada turgan har bir o‘yinchiga uzatadi O‘yinchilarning vazifasi to‘pni yerga tushirmaslikdan iborat. O‘yin 5–8 daqiqa davom etadi. Belgilangan vaqt ichida kamroq jarima ochkosi olgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Tezlikda to‘p uzatish o‘yini. O‘yinga tayyorlanish. O‘yinchilar to‘rtta guruhga bo‘linib to‘rtta burchakka ketma-ket bir chiziqqa joylashadi. Guruhlar markaziga diametri 180^0 radiusli doira chiziladi. Doira ichida qo‘lida to‘p bilan to‘rtta o‘yinchi guruhlarga 1,5–2,0 m masofada qarama-qarshi joylashadi.

O‘yinning tavsifi. Murabbiy signaliga ko‘ra, doira ichida joylashgan o‘yinchilar yuqoridan ikki qo‘llab, to‘pni guruhning birinchi o‘yinchisiga uzatadi. Guruhning birinchi o‘yinchisi yuqoridan ikki qo‘llab, to‘pni qayta uzatadi va yerga o‘tiradi. Oxirgi o‘yinchi to‘pni uzatib, doira ichiga boradi. Doira ichidagi o‘yinchi guruh qatorining boshiga o‘tadi. O‘yin boshlangan vaqtda doiraga joylashgan o‘yinchi qayta joyiga borgunga qadar davom etadi. Qaysi guruh o‘yinni birinchi bo‘lib xatosiz yakunlasa, ushbu guruh g‘olib hisoblanadi.

To‘r orqali estafeta o‘yini. O‘yinga tayyorlanish. O‘yinchilar ikki guruhga bo‘linib maydonning ikki tomonida joylashadi. Qatorning barcha o‘ynovchilari qo‘lida voleybol to‘pi bo‘ladi.

O‘yinning tavsifi. O‘qituvchining signaliga ko‘ra, ular yuqoridan ikki qo‘llab to‘pni to‘r ustidan maydonning ikkinchi tomoniga uzatadi va o‘zlari maydonning oxirigacha yuguradi. Xuddi shu narsa qarama-qarshi tomonda ham amalga oshiriladi. Estafetani birinchi bo‘lib tugatgan jamoa g‘alaba qozonadi.

Qo‘shaloq to‘p o‘yini. O‘yinga tayyorlanshi. O‘yin maydoncha yoki zalda o‘tkaziladi. O‘yinni o‘tkazish uchun arqon va ikkita voleybol to‘pi bo‘lishi kerak. O‘ynchilar o‘zaro teng ikki jamoaga bo‘linib, maydonchaning ikki tomoniga xohlaganlaricha joylashib turadilar.

O‘yinning tavsifi. Murabbiy signal berishi bilan birinchi jamoa o‘yinchilari to‘pni qo‘l bilan urib ikkinchi jamoaga uzatadilar. Hamma o‘yinchilar ham to‘pni qarshi tomonga oshirib yuborishga va ikkala to‘pning bir vaqtda raqiblari tomonidan bo‘lishiga erishish uchun intiladilar. O‘yinning natijasi ochko bilan hisoblanadi. O‘yin jamoalardan birida 10 ta jarima ochkosi to‘plagunicha davom ettiriladi. Agar: a) jamoa uzatgan to‘p qarshi jamoa o‘ynchilarining birontasiga tegmasdan, maydoncha chizig‘idan tashqariga tushsa; b) ikkala to‘p ham bir vaqtning o‘zida shu jamoa tomoniga o‘tib qolsa; d) uzatilgan to‘p arqonga tegsa yoki uning tagidan o‘tib ketsa; e) uchib kelayotgan to‘pni qo‘l bilan urib yuborilmay ilib olib uzatilsa, xato qilingan hisoblanadi va har bir xato uchun jamoaga bittadan jarima ochkosi beriladi.

Uch variantli to‘p o‘yini.

1-variant. Bu o‘yinda nechta o‘yinchi qatnashishi oldindan belgilab qo‘yilmaydi. Unda ikkitadan 20–30 tagacha o‘yinchi qatnashishi mumkin.

O‘yin uchun voleybol to‘pi yoki oddiy rezina to‘p kerak.

O‘yinning tavsifi. O‘yinni yakkama-yakka yoki jamoalarga bo‘linib o‘ynash mumkin. O‘yinchilardan biri to‘pni zarb bilan yerga uradi va to‘p havoda vaqtida o‘zi bir aylanib, oldingi turgan holatiga qaytadi. O‘yinchi yana shu harakatni takrorlaydi. O‘yin shu tartibda davom ettirilaveradi. O‘yinchi to‘pni ura olmay qolsa yoki noto‘g‘ri urib yuborsa (to‘p boshqa tomonga sapchib ketsa), muvozanatini yo‘qotsa, o‘yin to‘xtatiladi.

2- variant. O‘yinni o‘tkazish tartibi va o‘ynchilarning soni birinchi variantdagidek bo‘ladi.

O‘yinning tavsifi. O‘ynchi devordan 1–1,5 metr masofada turib to‘pni devorga uradi. Devorga tekkan to‘p sapchib qaytgunicha qarsak urishi va to‘pni ilib olishi kerak. Bunda harakatning bir necha elementlarini: bir aylanib olish, cho‘qqayib o‘tirish va hokazolarni qo‘llash mumkin. Bu o‘yin ham kichik va o‘rta yoshidagi o‘yinchilar uchun tavsiya qilinadi.

3-variant. O‘yinchilar teng ikki jamoaga bo‘linib, 5–6 qadam oraliqda bir-birlariga yuzma-yuz bo‘lib qator turadilar. O‘yinda to‘pning to‘g‘ri uzatilishi va ilib olinishi e’tiborga olinadi. Agar o‘yinchi to‘pni noto‘g‘ri uzatsa yoki noto‘g‘ri ilib olsa, unga jarima belgilanadi

Kvadratdan to‘p otish o‘yini. O‘yinga tayyorlanish. Maydonchada o‘lchamlari 8x4 metrdan 20x10 metrgacha to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi. Tomonlarining nisbati 2:1 teng bo‘lishi shart. Maydonchaning

o‘rtasidan bo‘linib, ikkita kvadrat hosil qilinadi. O‘yin voleybol maydonchasida o‘tkazilsa, yana ham yaxshi. O‘ynovchilar teng ikki jamoaga bo‘linadilar. Har bir jamoa o‘z onaboshisini saylaydi, so‘ng qurra tashlab kim birinchi bo‘lib o‘yinni boshlashi aniqlanadi.

Jamoalarning o‘yinchilari o‘zlarining kvadratlarida erkin joylashadilar, onaboshilar esa kvadrat tashqarisida turadilar. O‘yinni boshlaydigan onaboshiga to‘p beriladi.

O‘yinning tavsifi. Murabbiyning signalidan keyin onaboshi o‘z jamoasidagi o‘yinchilarga to‘pni otadi, ular to‘pni ilib olib, raqib tomondagi o‘yinchilardan birortasiga teggizishga harakat qiladilar. Buning uchun to‘pni ilib olgach, bir necha marta bir-birlariga yoki onaboshiga uzatib, to‘satdan, raqib o‘yinchilarga qarab otadilar.

Ikkinchi jamoaning o‘yinchilari esa to‘pga chap berib, uni yerga tushmasidan ilib, to‘pni bir-birlariga yoki onaboshiga oshirib raqib jamoasining o‘yinchilariga otishga intiladilar.

To‘p tekkan o‘yinchi o‘z kvadratidan chiqib, raqiblar tomondagi kvadratning bir chetida turadi. Agar bir tomondagi kvadratda birorta ham o‘yinchi qolmasa, kvadrat ichiga onaboshining o‘zi tushishi shart. U ham to‘p bilan urilsa, o‘yinning birinchi qismi tamom bo‘ladi. Jamoalar o‘rin almashib, o‘yinni davom ettiradilar. O‘yin voleybol singari 2–3 yoki 3–5 partiyadan iborat bo‘ladi [3.6.7.8.9].

Yuqorida keltirilgan harakatli o‘yinlar orqali o‘smir voleybolchilarning jismoniy va texnik elementlarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulotlar 6 oy davomida olib borildi va samarasini aniqlash uchun yana testlar qabul qilindi.

2-jadval

11–12 yoshli voleybolchilarni jismoniy va texnik imkoniyatini maxsus testlar orqali aniqlash (tadqiqotdan keyin) (n=12)

№	Ismi, familiyasi	30 metrga yugurish (sekund)	6x5 metrga mokisimon yugurish (sekund)	1 kg.li to‘ldirma to‘pni uloqtirish (sm)	Yuqoridan ikki qo‘llab, to‘pni 4-6–2-zonalardan 3-zonaga aniq uzatish (15 marotaba)	Yuqoridan ikki qo‘llab to‘pni aniq uzatish (devorga oraliq masofa 2,5–3 metr) (30 marotaba)
		Tadqiqotdan keyin	Tadqiqotdan keyin	Tadqiqotdan keyin	Tadqiqotdan keyin	Tadqiqotdan keyin
1	**A.Y.**	**5.1**	**10.1**	**450**	**14**	**30**
2	**R.J.**	**5.2**	**10.0**	**470**	**11**	**28**
3	**G‘.O.**	**5.3**	**10.2**	**460**	**13**	**26**
4	**S.I.**	**5.2**	**10.0**	**475**	**10**	**27**
5	**J.K.**	**5.1**	**10.0**	**440**	**12**	**27**
6	**Sh.F.**	**5.1**	**10.1**	**480**	**13**	**28**
7	**Sh.S.**	**5.2**	**10.2**	**480**	**10**	**24**
8	**T.D.**	**5.3**	**10.2**	**530**	**12**	**25**
9	**F.L**	**5.3**	**10.1**	**490**	**13**	**24**
10	**O.R.**	**5.4**	**10.2**	**470**	**11**	**23**
11	**T.J.**	**5.3**	**10.6**	**445**	**10**	**21**
12	**Y.B.**	**5.0**	**10.0**	**590**	**15**	**29**
ΣXi		**62.5:12= 5.2 %**	**121.7:12= 10.1 %**	**5780:12= 482**	**144:12=12**	312:12= 26
Min-max		**5.0-5.4**	**10.0–10.6**	**590–440**	**15–10**	30–21
x±σ		5.4±0.4	10.6±0.6	440±150	10±5	21±9

Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga ko‘ra, shug‘ullanuvchilarni jismoniy va texnik elementlarni shakllanganlik darajasi tadqiqotdan oldingi ko‘rsatkichlariga nisbatan tadqiqotdan keyingi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘sganligi ma’lum bo‘ldi. Tajriba davomidagi mashg‘ulotlarga biz tomonimizdan tavsiya etilgan harakatli o‘yinlar muntazam qo‘llab borildi va tadqiqotdan keyin test natijalari quyidagicha bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkichlar birinchi test bo‘yicha 0,4 sek.ga, ikkinchi test bo‘yicha 0,6 sek.ga, uchinchi test bo‘yicha 150 sm.ga, to‘rtinchi test bo‘yicha 5 ta.ga beshinchi test bo‘yicha 9 ta.gacha yaxshilandi. Qayd etilgan tajriba natijalarini qiyosiy tahlil qilish, ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan harakatli o‘yinlar hamda qo‘llanilgan maxsus testlar ijobiy qiymatga ega ekanligi isbotlandi. Shunday ekan, ushbu

harakatli o‘yinlar dastlabki o‘rgatish bosqichida shug‘ulanuvchilarga hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkaziladigan dars mashg‘ulotlari jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Adabiyotlardagi manbalarni tahlil qilish hamda sportning har xil turlaridagi mashg‘ulotlarni ilg‘or tajribalari ko‘rsatadiki, o‘smir voleybolchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichlaridagi o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash vosita vazifasini o‘taydi.

O‘smir voleybolchilarning mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash, harakat qobiliyatlarining optimal rivojlanishiga va ularni yuksak sport mahorati bosqichida takomillashtirish uchun potensialni saqlashga ko‘maklashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni. Toshkent, 4-sentabr, 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmoni.
3. Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik, T., “Iqtisod-moliya”, 2015, 265-bet.
4. Pulatov A.A, Qodirova M.A. Sport pedagogik mahoratini oshirish (voleybol). O‘quv qo‘llanma, T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 256-bet.
5. Boltayev Z.B. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Samarqand, 2019, 160-bet.
6. Boltayev Z.B., Umarov K.M. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi (voleybol). O‘quv qo‘llanma, Samarqand, 2020, 225-bet.
7. Usmanxodjayev T.S., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A., Abdullayev D.X. Xalq harakatli o‘yinlari nazariyasi va amaliyoti. Darslik, Toshkent, 2014, 324-bet.
8. Глейзер М.М. Волейбол: теория и практика. Учебник для высших учебных заведений физической культуры и спорта, Москва, “Спорт”, 2016, с. 125.
9. Teri Clemens, Jenny McDowell. The volleyball Drill book. l25 technical and tactical Drills. American volleyball coaches association. 2012, 239 p.

Turanova Iroda Egamberdi qizi (Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI TALABLARIGA TAYYORLASHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi, tadqiqot uslubi, PIRLS dasturining obyekti va natijalarni baholash tartibi haqida so‘z yuritilgan. Mamlakatimiz o‘quvchilarining kelgusi safar PIRLS xalqaro baholash dasturida faol ishtirok etishi va quvonarli natijalarni qo‘lga kiritishi uchun tayyorgarlik jarayonida nimalarga e’tibor qaratish zarurligi haqida fikrlar bayon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о международной программе оценки PIRLS, методе исследования, объекте программы PIRLS и процедуре оценки результатов. Для того чтобы студенты нашей страны в следующий раз приняли активное участие в программе международного оценивания PIRLS и достигли удовлетворительных результатов, существуют мнения о том, на что необходимо обратить внимание в процессе подготовки.*

Annotation. *This article talks about PIRLS international assessment program, research method, object of PIRLS program and results assessment procedure. In order for the students of our country to take an active part in the PIRLS international assessment program next time and achieve satisfactory results, there are opinions about what needs to be paid attention to in the preparation process.*

Kalit so‘zlar: *PIRLS, ta’lim, obyekt, ijodiy fikrlash, ongli o‘qish, kashfiyot.*

Ключевые слова: *ПИРЛС, образование, объект, творческое мышление, осознанное чтение, открытие.*

Key words: *PIRLS, education, object, creative thinking, conscious reading, discovery.*

Kirish. Bugun dunyoda yuz berayotgan sanoat inqilobining asosiy harakatga keltiruvchi kuchi bu ijodiy fikr yuritishdir. Jamiyatning qaysi jabhasiga nazar tashlamang, inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga ko‘zingiz tushadi. Elektr avtomobillar, virtual realliklar, tuproqsiz hosil olish. … Bularning barchasi inson tafakkuri va tasavvuri mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan televizor, telefon, samolyot, hatto chiroq ham qachonlardir insonlarning orzu va tasavvurlarida bo‘lgan. Innovatsiyalar insonlar hayotiga yengillik va qulayliklar olib keldi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo‘lagiga aylangan.[1] Hayot jadallik bilan rivojlanib borayotgan bunday davrda o‘quvchi-yoshlarning

[1] http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/3305.htm

kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, keng dunyoqarash elementlarini tarkib toptirish bevosita ularda ongli o‘qish va matnni anglash ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq. Bola o‘rganilayotgan matndan ko‘zlangan asosiy maqsadni ongli ravishda anglab yetmas ekan, bu borada ijodiy izlanishlar olib borishi samarasiz. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aynan ongli o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida Respublikamizning PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazilayotganligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLS xalqaro baholash dasturida munosib ishtirok etishini ta’minlash maqsadida mamlakatimiz ta’lim sohasida olib borilayotgan o‘zgarishlar o‘quvchilarda ongli o‘qish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Boisi, o‘quvchilar matnni o‘rganishda faqat berilgan ma’lumotlarga tayanib xulosalar chiqarishi yetarli natijaga olib kelmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini qiyosiy o‘rganuvchi yirik xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016, 2021-yillarda o‘tkazilgan bo‘lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o‘tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini xalqaro darajada baholaydi.[1] PIRLS xalqaro dasturiga a’zo bo‘lgan bir necha mamlakatning talim tizimi ushbu xalqaro baholash dasturi uchun obyekt hisoblanadi va aynan PIRLS diqqat markazida to‘rtinchi sinfga teng sinflardagi bolalarning yutuqlari va o‘qish tajribasi sinovdan o‘tkaziladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinfda ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarda shakllanadigan eng asosiy qobiliyatlardan biri bu ongli o‘qish savodxonligi deyishimiz mumkin. Ushbu qobiliyat faqat ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘zlashtirish uchun emas, balki boshqa predmetlarni chuqur o‘rganish, shaxs sifatida yuksalish, hatto maroqli hordiq chiqarish uchun ham zarurdir. O‘quvchilarda onli o‘qish ko‘nikmalarining shakllantirilishi, ularda hayotda yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlarda faol ishtirok etish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish qobiliyatining o‘sishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ongli o‘qish savodxonligini nazoratdan o‘tkazish o‘qishni tushunishning yozma testini va o‘qishni rivojlantirish bilan bog‘liq omillarga qaratilgan bir qator anketalar orqali amalga oshiriladi.

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongli o‘qish savodxonligi qay darajada ekanligini sinovdan o‘tkazish bo‘yicha puxta tuzilgan testlardan iborat bo‘lib, PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo‘llaniladi:

– javobni tanlash usulidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;

– mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;

– erkin javob berish kerak bo‘lgan toshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab, 1 balldan 3 ballgacha baholanadi;

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o‘qiyotganda o‘qish qobiliyatining to‘rtta guruhi baholanadi:

– aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;

– xulosalarni shakllantirish;

– malumotlarni talqin va sintez qilish;

– mazmunni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.[2]

PIRLS xalqaro baholash dasturi sinovlariga o‘quvchilarni qanday tayyorlash yaxshi natijalar olib kelishi mumkin? Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

– sinfda o‘qish mashg‘ulotlarini eng yaxshi tarzda tashkil etilishi va olib borilishini ta’minlash;

– o‘quvchilarning uyda o‘qishlarini va bu orqali erishilgan natijalarini rag‘batlantirish;

– o‘quv dasturi va darsliklarning PIRLSga mos kelishini ta’minlash;

– PIRLS baholash dasturi vazifalarini puxta o‘rganish va egallangan bilimlarni o‘zlashtirish (ya’ni ko‘nikish).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ushbu sinovda munosib ishtirok etishi ularning bilim saviyasi bilan bir qatorda, dunyoqarashi, fikrlash va tasavvur qobiliyatining rivojlanganligiga bog‘liq. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga va ongli o‘qishga undovchi topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz.

[1] https://www.uzreport.news/society/

[2] Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma, T., 2019.

YALQOV VA QUNDUZ

Bir kuni Yalqov do‘sti Qunduzning oldiga kelib, dedi:

– Menga o‘rmondagi eng qo‘li yengil tabibni topib ber. Keyingi vaqtlarda tobim yo‘q, yurishga toqatim, turishga madorim, gapirishga istagim yo‘q. Qaniydi senga o‘xshab bardam va tetik bo‘lsam. Qunduz Yalqovning, aslida, soppa-sog‘ligini, uning birdan bir kasali tanballik ekanini bilgani uchun shunday dedi:

– Senga o‘zimning tabiblarimni tavsiya qilaman. Ular tufayli men sog‘lomman.

– Men ularni taniymanmi?

– Albatta taniysan. Ularning biri – O‘rmon tabib. Men uning bag‘rida yayrab yashayman. Musaffo havosidan to‘yib nafas olaman. Mevalaridan to‘yib yeyman. Ikkinchisi – Daryo tabib. Uning suvlarida miriqib cho‘milaman. G‘uborlarim tarqab, yengil tortaman. Uchinchisi esa eng saxovatlisi – Quyosh tabibdir. U faqat meni emas, butun olamni o‘zining issiq tafti bilan davolaydi. Barchaga hayot, umid bag‘ishlaydi. Bu tabiblar doim biz bilan birga. Negadur sen buni his qilmayapsan. Menimcha, sen dangasalik kasaliga chalingansan. Bilib qo‘y, bu kasallikni faqat mehnat va harakat bilan yengish mumkin. Ana shundagina tabiatdagi tabiblar senga ham yordam bera oladi.[1]

Shukrullo Abdullayev

Savol va topshiriqlar:

1. Yalqov Qunduzdan qanday maslahat so‘radi?

A. Chaqqonlikning sirini so‘radi.

B. Yaxshi tabib so‘radi.

D. Betobligining sababini so‘radi.

2. Yalqov qanday kasallikka chalingan deb o‘ylaysiz?

_____

3. Qunduz Yalqovga nima uchun aynan O‘rmon, Suv va Quyosh tabiblarni tavsiya qildi.

A.Chunki ular shu yerda yashar edilar.

B.Chunki Yalqov faqat dangasa edi.

D.Yalqovning kasaliga O‘rmon havosi, suv va Quyosh foydali edi.

4. Nega Yalqov aynan Qunduzdan maslahat so‘radi?

A.Chunki Qunduz chaqqon va serharakat edi.

B.Chunki Qunduz uning do‘sti edi.

D.Chunki Qunduz sog‘lom edi.

5. Qunduzlarning hayot kechirishi haqida nimalarni bilasiz?

_____

6. Inson hayotida Quyosh, suv va toza havoning ahamiayti qanday deb o‘ylaysiz?

_____

_____

Ushbu matnga berilgan savol va topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faqatgina matnni tushunishlari uchun emas, balki ularda ijodiy va tanqidiy fikrlay olish qobiliytalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qobiliyatlarning rivojlanishi nafaqat PIRLS xalqaro baholash dasturida yaxshi natijalar ko‘rsatish, balki o‘sib kelayotgan yosh avlodning hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning zaruriy bir bo‘g‘ini bo‘lib shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarini rivojlanishiga alohida ahamiyat berish mamlakatimizning navbatdagi PIRLS xalqaro tadqiqotida munosib ishtirok etishini ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistan Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637, T., 2020.

[1] Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf, 2-qism, T., 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma, T., 2019.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf, 2-qism, T., 2021.
5. https://www.uzreport.news/society/
6. https://new.tdpu.uz/news/7168
7. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/3305.htm

Yusupbaeva Amangul Saparboyevna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti “Jismoniy madaniyat metodikasi” kafedra o‘qituvchisi)

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI TARG‘IB QILISH XUSUSIDA

Annotatsiya. *Maqolada jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilganligi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish masalalari yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье создаются условия для формирования здорового образа жизни в нашем обществе, для населения, особенно подрастающего поколения, для регулярного занятия физической культурой и массовым спортом, укрепления доверия, укрепления мужества и патриотизма, улучшения чувств верности родине.*

Annotation. *The article creates conditions for the formation of a healthy lifestyle in our society, for the population, especially the younger generation, for regular physical education and mass sports, building confidence, strengthening courage and patriotism, improving feelings of loyalty to the motherland.*

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat, iqtidorli sportchi.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, мужество и патриотизм, верность Родине, талантливый спортсмен.*

Key words: *healthy lifestyle, courage and patriotism, loyalty to the motherland, talented athlete.*

Kirish. O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini jadal sur’atlar bilan izchil rivojlantirishdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda tarmoqlar uchun chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlash alohida o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, oxirgi yillarda, barcha sohalar kabi, jismoniy tarbiya va sportda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz rahbarining bir necha qaror va farmonlari qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kitobida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholi salomatligini ta’minlashda muhim omildir”, deb baho bergan. Shu bilan bir qatorda, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining rivojlantirish maqsadida; “Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish” ko‘rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 2022-yil 1-apreldagi ommaviy sportni rivojlantirishga bag‘ishlangan maxsus yig‘ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug‘ullanuvchilar sonini 6 millionga yetkazish bo‘yicha alohida ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbarining bu sohaga berayotgan katta e’tibori bejiz emas. Chunki bu soha strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat aholisining kasallikga chalinishining oldini olishda, pandemiya vaqtida odamlarni undan himoyalanish qobiliyatlarini oshirib, sog‘ligini mustahkamlashda, shaxsni har tomonlama jismoniy va ma’naviy kamol topishida, samarali mehnat qilishga hamda vatan himoyasiga tayyor bo‘lishda, inson jismoniy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlar orqali mamlakatni taraqqiy etishida o‘rni beqiyosligi kun sayin oydinlashmoqda [1].

Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish davlat siyosatining bosh masalasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati ham mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri bo‘lib, bunda jismoniy

tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni inobatga olgan holda, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik, vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olishni tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [3].

Salomatlik inson hayotining muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda u murakkab, ko'p bosqichli va ko'p ko'rsatkichli tushuncha bo'lib, rivojlangan davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgan. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, salomatlik insonda nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida ta'riflangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli farmonida quyidagilar sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan [2]:

♦ bunda har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

♦ ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish;

♦ aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;

♦ aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;

♦ sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish;

♦ ta'lim tashkilotlari va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirishdir.

Bu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika bo'yicha "Sog'lom turmush tarzi" platformasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. "Sog'lom turmush tarzi" platformasidan foydalanuvchilarni rag'batlantirish, ularning sonini yanada oshirish hamda bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida 2022-yilda davlat budjetidan 100 milliard so'm ajratilgan.

Shubhasiz, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyat mutaxassislarining o'rni kattadir. Bugungi kunda bu yo'nalishda ko'plab muammolar yig'ilib qolgan. Bu muammolarni hal qilish, sog'lom turmush tarzining zamonaviy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, ularni baholash, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy qilish, dasturlash va zamonaviy kompyuter texnologiyalarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi jarayoniga tatbiq etish masalalari shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, mutaxassislar tayyorlashda nazariya va amaliyotda ham o'ziga xos muammolar mavjud [4].

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda uni tashkil etuvchi omillarining mexanizmlarini chuqur o'rganib, takomillashtirib, ularni kishilarda o'z sog'ligiga bo'lgan e'tiborini hayotiy zaruriyat darajasiga olib chiqish muhim dolzarb muammodir. Buning uchun o'tmishga murojaat qilishimiz, asrlar osha turli xalq vakillari bu masalaga qanday ahamiyat berganliklarini bilishimiz juda muhimdir.

Albatta, sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jamiyatning rivojlanib, takomillashib borishida sog'lom muhit muhim rol o'ynaydi. Insonlar to'laqonli sog'lom turmush tarzini kechirish uchun ularga shart-sharoitlar yaratilib berilishi muhim masala hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'ligi haqida g'amxo'rlik, ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil shug'ullanish hamda jismoniy salomatligini diagnostik nazorat qilish ko'nikmalarini singdirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [5]. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati

oliy ta’lim tizimida yangi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o‘qitiladigan fanlar tarkib va mazmunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa. Oliy o‘quv yurtlarida yuqori darajali sportchilarni tayyorlash bilan birga, ko‘proq ommaviy sport sog‘lomlashtirish ishlariga e’tiborni qaratish, kishilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, oilaviy musobaqalarni muntazam o‘tkazish, jismoniy tarbiya darslarining mazmunli va sifatli o‘tkazilishini ta’minlash yoshlarni sog‘lom va barkamol inson hamda ilg‘or bilimli mutaxassislar bo‘lib yetishishiga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январь ПФ-5924-сонли “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғри-сида”ги фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрь ПФ-6099-сонли “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 ноябрь ПҚ-4877-сонли “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

4. Юсупбаева А.С. Совершенствование педагогических механизмов формирования здорового образа жизни в дошкольном образовании на основе физического воспитания «Мактаб ва ҳаёт» илмий-методик журнал, 3-сон, 2020 йил, с. 34.

5. Yusupbaeva A.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarni tashkil etish usullari. «Xalq ta’limi», 5-сон, 2021, 115-bet.

Raximov Atanazar (O‘zbekiston Milliy universiteti professori, p.f.d., Chirchiq davlat Pedagogika universiteti tabiiy fanlar fakulteti dekani; atanazarkarimov@gmail.com),
Mirzaeva Nodira (Guliston davlat universiteti doktoranti, p.f.f.d., v.b. dotsent; nodirabegim.2018@mail.ru),
Bekchanova Nilufar Boltaboyevna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; bekchanova.nilufar88@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK G‘OYALARI VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatshunoslik g‘oyalari va tushunchalarini shakllantirish metodologiyasi haqida so‘z boradi. Tabiatshunoslikka oid bilimlar va tushunchalar yordamida kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib borish usullari tavsiflanadi.*

Аннотация. *В данной статье говорится о методике формирования представлений и понятий о науке у младших школьников. С помощью знаний и понятий, относящихся к естествознанию, описываются способы проникновения в суть изучаемых вещей и явлений.*

Annotation. *This article talks about the methodology for the formation of ideas and concepts about science among younger students. With the help of knowledge and concepts related to natural science, ways of penetrating the essence of the studied things and phenomena are described.*

Kalit so‘zlar: *metodika, biologik obyekt, tabiatshunoslik, kichik maktab o‘quvchilari, sabab-oqibat munosabatlari, psixologik shakllanish.*

Ключевые слова: *методика, биологический объект, естествознание, младшие школьники, причинно-следственные связи, психологическое образование.*

Key words: *methodology, biological object, natural science, junior schoolchildren, cause-and-effect relationships, psychological education.*

Kirish. Tabiatshunoslik tushunchalarining shakllanishi uzoq jarayondir. U kamdan kam hollarda bitta darsda tugaydi, chunki talabalar kurs va mavzuning turli joylarida bir xil obyektlar bilan uchrashishda davom etadilar. Tushunchaning kengayishi va chuqurlashishi tufayli uning bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatiladi.

Tushunchani o‘rganilgan deb hisoblash mumkin, agar o‘quvchi:

– uning ta’rifi va mazmunini, ya’ni, tushunchaning muhim belgilarini, belgilari o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatni bilsa;

– o‘rganilayotgan biologik obyekt yoki hodisa haqida obrazli tasavvurga ega bo‘lishi;

– konsepsiyani ta’lim muammolarini hal qilishda mustaqil ravishda qo‘llay olsa.

Tabiatshunoslik tushunchalari o‘rtasida aloqalar o‘rnatiladi, ularni umumlashtirish amalga oshiriladi. Asosiy narsani bunday izchil tanlash (o‘quv materialini umumlashtirish) tabiatshunoslik bilimlarining o‘zagini, ya’ni ularsiz o‘quv predmeti mazmunini ongli ravishda o‘zlashtirib bo‘lmaydigan tushunchalarni aniqlashga yordam beradi. O‘quv materialini umumlashtirish doimiy ravishda o‘sib borayotgan ilmiy ma’lumotlar oqimini qayta ishlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi [1].

Asosiy qism. Boshlang‘ich maktabda o‘quv jarayoni, asosan, elementar tushunchalarni shakllantirish bilan yakunlanadi. Ular tevarak-atrofdagi olam haqidagi o‘quv materialini bilishning ma’lum darajasini aks ettiradi, o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning muhim belgilarini umumlashtiradi. Bu tushunchalar yordamida kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib boradilar, bu tushunchalar atamalar bilan ifodalanadi, ta’riflarga ega bo‘ladi, mazmuni esa ma’lum tushuntirish va tavsif usullari bilan ochiladi.

Metodika nazariyasida ham, o‘qitish amaliyotida ham tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish muammosi eng murakkab va dolzarb masalalardan biridir. Shu bilan birga, bu metodologiyaning muhim masalasini – mazmun va uslub o‘rtasidagi munosabatni hal qilish imkonini beradi.

Sabab-oqibat munosabatlari tabiiy obyektlar va hodisalar o‘rtasidagi sabab munosabatlarini ifodalaydi. Bu hodisalarning umumbashariy aloqa shakllaridan biridir. Sabab-oqibat munosabatlarining muhim xususiyati vaqtinchalik ketma-ketlikdir. Har bir tabiiy jarayon vaqt o‘tishi bilan sababdan ta’sirga qadar davom etadi. Sabab – o‘zaro ta’sir jarayoni, ta’sir – uning yakuniy natijasi (yangi holat, xususiyat, aloqa va boshqalar).

Odatda, natija bir emas, balki bir vaqtning o‘zida ta’sir qiluvchi ko‘plab sabablar tufayli yuzaga keladi. Sabab-natija munosabatlarini tahlil qilganda, kichikroq o‘quvchi uchun oqibatdan sababga ko‘ra, sababdan ta’sirga bog‘lanish osonroqdir. Bir xil bilim darajasiga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun: “Agar o‘simlik sug‘orilmasa, nima bo‘ladi?” degan savolga javob berish “Nega o‘simlik qurib qoldi?” degan savoldan ko‘ra osonroqdir.

Sabab-oqibat munosabatlarini ochish chuqurligi boshlang‘ich fan ta’limining nazariy darajasini belgilaydi.

Bolalarga o‘rgatish kerak:

– har qanday hodisa sabab va oqibatlarni (bu sabablarning natijasi) o‘z ichiga olishini bilish;

– bir qator sabablarga ko‘ra mumkin bo‘lgan natija (oqibat)ni “oldindan ko‘rish”;

– ma’lum bir natijaga olib kelgan mumkin bo‘lgan sabablarni gipotetik darajada tiklash;

– nafaqat individual sabab-oqibat munosabatlari bilan ishlaydi, balki sabablarning butun doirasini o‘rnatadi, munosabatlarning ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi;

– sabab-oqibat munosabatlarini diagramma shaklida tuzish.

Sabab-oqibat munosabatlari bilan bir qatorda, kichik yoshdagi o‘quvchilar obyektlar va hodisalar (tushunchalar) o‘rtasidagi boshqa munosabatlarni aniqlashni o‘rganishlari kerak: yonma-yon joylashtirish, ketma-ketlik, qarama-qarshilik, tarkibiy-funksional munosabatlarning mavjudligi, qism, butun va boshqalar.

Qonuniyatlar tabiiy obyektlar va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim, takrorlanadigan va nisbatan barqaror aloqalar va munosabatlarni ifodalaydi. Ular turli xil o‘zaro ta’sirlardan kelib chiqadigan omillar va hodisalarning keng doirasini tushuntirishga xizmat qiladi [2].

Qonuniyatlarni bilish empirik faktlardan nazariyani shakllantirishga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi. Har qanday qonuniyatning amalga oshirilishi obyektiv omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi, ammo u sezilarli darajada uning namoyon bo‘lishiga yordam beradigan yoki to‘sqinlik qiladigan tegishli shart-sharoitlarning mavjudligiga bog‘liq.

Muayyan qonuniyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish muntazamlikdan kelib chiqadigan oqibatlarning mumkin bo‘lgan doiradan reallik doirasiga o‘tishini ta’minlaydi. Tabiiy olamning barcha obyektlari va hodisalarini uch toifaga bo‘lish mumkin – obyektlar (fazoviy va vaqtinchalik tuzilishga ega bo‘lgan obyektlar), xususiyatlar (obyektning tuzilishiga tegishli xususiyatlar, belgilar) va munosabatlar (obyektlarning aloqasi).

Shunga ko‘ra, qonuniyatlarning uch turi ajratiladi:

– tabiiy jismlar va ularning xossalarining sifat jihatidan saqlanishini ifodalovchi jismlarning saqlanish qonuniyatlari (massa, energiya, hujayralar va boshqalarning saqlanish qonunlari);

– obyektlarda sifat jihatidan o‘zgarmagan holda tabiiy dunyoda harakatni ifodalovchi jarayonlarning takrorlanuvchanlik qonuniyatlari (Yerning Quyosh atrofida harakati, kun va tunning o‘zgarishi va boshqalar);

– tabiiy obyektlarning sifat jihatidan rivojlanishini ifodalovchi obyektlar xususiyatlarining o‘zgarishi qonuniyatlari (ekotizimdagi muvozanat qonunlari, moddalarning aylanishi va boshqalar).

O‘quvchilarlar tabiatshunoslik qonunlarini o‘rganayotganda, bog‘lanishlarning harakatchanligi, ya’ni, ham to‘g‘ridan to‘g‘ri, ham teskari aloqalarni o‘rnatish qobiliyati ustida ishlash juda muhimdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarga hodisalarni tushuntirish uchun qonuniyatlar haqidagi bilimlarni qo‘llashni o‘rgatish kerak. Shu shartdagina o‘quvchilar bilimi samarali xarakter kasb etadi [3].

Uslubiy bilimlar – bilish usullari, o‘quv faoliyatini tashkil etish qoidalari, me’yorlari va tamoyillari haqidagi bilimlar.

Uslubiy bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish asosida yotadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– fan malakalarini bajarish usullari haqida aniq bilim;

– umumiy ta’lim malakalarini bajarish usullari haqida bilim;

– fikrlashning mantiqiy usullari haqida mantiqiy bilim;

– sinfda kommunikativ faoliyat usullari haqida bilim.

Xulosalar. Shunday qilib, o‘rganish jarayonida olingan tabiatshunoslik bilimlari ularning mohiyatiga turlicha chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bu chuqurlik ushbu hodisalar sohasi bo‘yicha erishilgan bilim darajasiga va o‘rganish maqsadlariga, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga – ular allaqachon ega bo‘lgan bilimlar zaxirasiga, ularning aqliy rivojlanish darajasiga, olingan bilimlarning yetarliligiga bog‘liq.

O‘quv jarayonida o‘zlashtirilgan tabiatshunoslik bilimlari tizimli bo‘lishi, o‘rganilayotgan sohadagi asosiy narsani qamrab olishi, o‘zaro bog‘liqligi, ma’lum bir mantiqiy tuzilishga ega bo‘lishi va ma’lum bir ketma-ketlikda o‘zlashtirilishi kerak. Tabiatshunoslik bilimlarini tizimlashtirish deduktiv-induktiv usulda amalga oshirilishi kerak: faktlar va kuzatishlardan empirik bog‘liqliklar orqali umumiy qonuniyatlargacha.

Idroklilik, bilimlarning mazmunliligi, ularning o‘ziga xos mazmuni bilan to‘yinganligi, o‘quvchilarning nafaqat nomlash va tavsiflash, balki o‘rganilayotgan faktlarni tushuntirish, ularning o‘zaro aloqasi va munosabatlarini ko‘rsatish, o‘zlashtirilgan qoidalarni asoslash, ulardan xulosa chiqarish – ular mazmunli bilimlarni rasmiylashtirilganlardan ajratib turadilar. Bilimlarni o‘zlashtirishning asosi o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan talabalarning faol aqliy faoliyatidir. Bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash jarayonida amalda qo‘llash bilimlarni o‘zlashtirish va shakllantirishda rasmiyatchilikni bartaraf etishning eng samarali vositasidir.

Boshlang‘ich tabiatshunoslik ta’limi mazmunining muhim tarkibiy qismi bu ko‘nikmalar – faoliyat usullari bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar olingan bilimlar bilan ishlaydi, ularni o‘quv muammolarini hal qilishda qo‘llaydi va yangi bilimlarni oladi.

Har qanday mahorat murakkab psixologik shakllanish bo‘lib, u bir qator tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Ulardan biri bir xil faoliyat turiga oid asosiy malakalar tizimidir. Biroq malakalar tizimining o‘zi u yoki bu faoliyatni mustaqil bajarish imkoniyatini hali ta’minlamaydi. Faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun inson nafaqat tegishli ko‘nikmalar tizimiga, balki ma’lum bilimlar tizimiga ham ega bo‘lishi kerak. Mohirlik bilan harakat qilish har doim ishni bilgan holda harakat qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, har qanday malaka faoliyat jarayoni, uning vositalari va sharoitlari haqidagi keng bilimlar asosida shakllanadi. Bilimlar tizimi va malakalar tizimi shaxsning o‘ziga yuklangan vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishga tayyorligini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аквилева Г.Н., Клитрина З.А. Методика преподавания естествознания. Москва, “Владос”, 2001.

2. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 5-nashr, T., Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016.

3. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Darslik, T., «Barkamol fayz media», 2018.

Utayev Zafar Muxtarovich (Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktaranti)

O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHIDA QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILAR MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofaga yuguruvchilari uchun sport mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha mutaxassislar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalari va yetakchi olimlar fikr-mulohazalari o‘rganilgan hamda takliflar berib o‘tilgan.*

Аннотация. *В данной статье изучены результаты анкетного опроса, проведенного со специалистами по организации спортивной подготовки бегунов на короткие дистанции учебной группы, а также мнения ведущих ученых и внесены предложения.*

Annotation. *In this article, the results of a questionnaire survey conducted with experts on the organization of sports training for short-distance runners of the training group, and the opinions of leading scientists were studied and suggestions were made.*

Kalit so‘zlar: *sport maktab, mashg‘ulot, amaliy tajriba, tayyorgarlik tizimi, rejalashtirish, motivatsiya, musoboqa dasturi, samarali usullar, tayyorgarlik darajasi.*

Ключевые слова: *спортивная школа, подготовка, практический опыт, система подготовки, планирование, мотивация, соревновательная программа, эффективные методы, уровень подготовки.*

Key words: *sports school, training, practical experience, training system, planning, motivation, competition program, effective methods, training level.*

Dolzarblik. Mamlakatimizda ko‘plab sport turlarining rivojlanishi bilan birga, yengil atletika sport turi ham yuqori darajada rivojlana boshladi va uning zamirida rivojlantirish uchun ulkan shart-sharoit yaratildi. Olimpiya o‘yinlari dasturidan joy olgan yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turi ham mamlakatimizda tobora ommalashib borayotgan sport turlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda sportga oid qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, ko‘plab sport turlarini rivojlanishi qatorida yengil atletika sport turini ham yangi bosqichga olib chiqishga imkon yaratdi.

Bugungi kunda milliy terma jamoamiz yuqori malakali sportchilarni yetkazib berish sport maktablari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki sport maktablarida tarbiyalanayotgan o‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofaga yuguruvchilari ertangi kunga zaxira sportchi bo‘lib yetishadi va kelajakda yurtimiz sharafini nufuzli musoboqalarda himoya qilishadi. Shuning uchun ular bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulot jarayonlarini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish hamda yuklamalar nisbatlarini optimal rejalashtirish asosida mashg‘ulotlarni boshqarishni taqozo etadi. Shu bois ular bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunda sohadagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijalari sportchilar tayyorlash tizimini rang-barangligini ko‘rsatadi. Ayrim mualliflar tomonidan ko‘p yillik tayyorgarlikni oqilona rejalashtirish uchun, odatda, eng yuqori sport natijalari namoyish etadigan optimal yosh chegaralarining aniq belgilanishi muhimligi ko‘rsatilgan. Shu jumladan, mashg‘ulotlarning hamma shakllarida quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilish kerakligi, ya’ni mashg‘ulotning yuklamalarini asta-sekin oshirib borish lozimligini ko‘rsatadi.[1]

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya sportini rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor Respublikamiz ilmiy-pedagog kadrlar va soha mutaxassislari faoliyatiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, natijada yengil atletika bo‘yicha adabiyotlar yaratish va ilmiy ishlar tashkil qilish yanada rivojlandi. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan F.A.Kerimov, T.S.Usmonxo‘jayev, R.S.Salomov, A.N.Abdiyev, O‘.Ibrohimov, M.S.Olimov, H.T. Rafiyev J.Toshpo‘latov, J.Eshnazarov, E.Nuritdinov, Y.Masharipov kabilar jismoniy tarbiya va sportning tarixiy, nazariy, metodologik, tibbiy-biologik va psixologik masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borganlar, ular tomonidan sohani rivojlantirishning keng ko‘lamli asoslari yaratilgan. Mamalakatimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi yosh olimlar ilmiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Respublikamizda o‘tkazilgan turli darajadagi ilmiy-amaliy anjumanlar yengil atletika rivojiga ham samarali ta’sir etdi. Toshkent (1992, 1997, 1999, 2002, 2022), Samarqand (1993, 2004, 2019), Buxoro (2000, 2006, 2018), Andijon (2021) shaharlarida tashkil etilgan respublika va xalqaro anjumanlar muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu anjumanlarda olimlar sohaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etishgan. Biz mavzuni tadqiq etishda yuqorida bildirilgan va nomlari tilga olingan olimlar tajribalariga hamda ularning ilmiy izlanishlari natijalariga tayandik. Ular tomonidan yaratilgan tadqiqotlar unumli foydalanishga harakat qildik. Ilmiy tadqiqotlarning to‘laqonli bajarilishida xorijiy tajriba ham katta ahamiyatga ega ekanligi sababli yengil atletika bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ish tajribalarini o‘rganishga harakat qildik.[2]


Jamiyatda sportning rivojlanishi, uni fan sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar va intilishlar dunyo miqiyosida ortishiga olib keldi. Bu o‘rinda sport jurnallarida chop etilayotgan maqolalar, ilmiy izlanishlar buning yaqqol misolidir. Xorijiy mamlakatlarda (asosan, Rossiya, AQSH, Germaniya, Xitoy, Koreya) ham bu borada keng ko‘lamli izlanishlar amalga oshirilmoqda.

[1] Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, 2004, 4-bet.


[2] Olimov M.S., Soliyev I.R., Haydarov B.Sh. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Yengil atletika. T., 2017, 35-bet.

Mavzuni yoritish maqsadida 44 nafar mutaxassislardan so‘rovnomalar o‘tkazildi. Jami so‘raluvchilar soni 44 nafar, shulardan ilmiy darajalilar 5 ta (11%), murabbiylar 22 ta (50%), soha mutaxassislari 17 tani (39%) tashkil qildi. Soha mutaxassislariga mavzu yuzasidan quyidagi savollar bilan murojaat qilindi.

“Siz sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishga doir davriy nashrlarni (jurnal, maqolalar, kitoblar)ni o‘qib borasizmi?” savoliga ishtirokchilarning aksaryati – 33 kishi “ha” deb (75%), 10 kishi “ba’zan” (23%), 1 kishi “yo‘q” (2%) deb javob berishgan. Ammo “Sportchilar tayyorlashda qanday samarali usullarni taklif qilasiz?” savoliga ko‘pchilik murabbiylar noaniq javoblarni berishgan. Vaholanki, hozirgi kunga kelib, barcha davriy nashrlar, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda sportchilar tayyorlashga doir turli yangiliklar muntazam yoritib borilmoqda.



“Sportchilarni musoboqalarga tayyorlashda, asosan, nimalarga ahamiyat qaratish lozim deb hisoblaysiz?” deb berilgan savolga ishtirokchilarning ko‘pchiligi – 1 kishi “jismoniy tayyorgarligiga”(2%), 2 kishi “texnik-taktik tayyorgarligiga” (5%), 14 kishi “integral tayyorgarligiga”(32%), 3 kishi “sportchini imkoniyatiga mos ravishda” (7%), 1 kishi “javob yo‘qligini” (2%), 23 kishi “barcha fikrlar ahamiyatli” (52%) mazmunidagi javoblarni berishgan.



Ayrim ishtirokchilar sportchining individual tayyorgarlik darajasiga e’tibor qaratish va shu asosida mashg‘ulotni tashkil qilish lozimligi takidlangan bo‘lsa, ularning fikricha, sportchining individual tayyorgarlik darajasi mashg‘ulotni samarali tashkil qilishni ko‘rsatib beradi. Darhaqiqat, mazkur fikrlar adabiyotlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan mos keladi. Bir qancha so‘raluvchilar mashg‘ulotlar vaqt va mazmun jihatdan uyg‘un va mos bo‘lish kerakligi aytilgan bo‘lsa, bu nafaqat bir mashg‘ulot uchun, balki bu-

tun bir mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshirilishi tavsiya etilgan, shuningdek, mashg‘ulotlar tizimli va bir-birining mantiqiy davomi bo‘lishi kerakligi ilgari surilgan.[1]

So‘raluvchilardan, asosan, murabbiylik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar o‘rgatish jarayonida texnik elementlarni detallarga bo‘lib o‘rgatishning maqsadga muvofiqligi, o‘rgatish jarayonida turli jihozlardan keng foydalanish lozimligi, ya’ni, rezina bog‘ichlar, og‘irliklar va boshqalar bilan ishlashi lozimligi ilgari surilgan. Texnik elementlarni qismlarga bo‘lib o‘rgatish natijasida o‘rganish va o‘zlashtirish samarali kechishi ta’kidlangan.

So‘raluvchilar, asosan, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari mazkur so‘rovda o‘ziga xos ravishda ishtirok etganlar. Ular tomonidan bildirilgan fikrlar mazkur mavzuni yoritishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Aksariyat oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari mazkur masalada ilmiy yondashuv lozimligini aytib o‘tishgan. Unga ko‘ra, sportchini puxta o‘rganish, rejalarni maqsadga muvofiq ishlab chiqish va doimiy monitoring olib borish kerak. Shuningdek, turli jihozlardan maqsadga muvofiq foydalanish, texnikani takomillashtirishga yo‘naltirish asosiy hisoblanishi qayd etilgan.

Ayrim mutaxassislar, xususan, 10 yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan va ilmiy darajali ishtirokchilar harakatli o‘yinlardan foydalanishni tavsiya etishgan. Ularning fikricha, o‘yinlardan foydalanish yosh sportchilarning tez toliqishi va sportdan zerikishidan saqlanishi ta’kidlangan. Bir qancha so‘raluvchilar sportchining individual xususiyatlariga mos ravishda mashg‘ulotni tashkil qilish fikrini ilgari surishgan. Sportchining ruhiyati katta ahamiyatga egaligi, dastlab, sportchida motivatsiyani shakllantirish tavsiya etilgan.

Respublika miqiyosidagi yetakchi murabbiylar tanlash va sportchining ijtimoiy holatiga mos ravishda mashg‘ulot tashkil qilish kerakligini aytib o‘tishgan. Mashg‘ulotlarni puxta rejalashtirish natijalar yuqori bo‘lishini kafolatlashi nazarda tutilgan.[2]

Bugungi kunda o‘quv mashg‘ulot guruhlarida qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash borasida murabbiylarimiz o‘z ustida ko‘proq ishlashi mashg‘ulotlarni tashkil qilishdagi haftalik, yillik rejalarga tizimli o‘zgarishlar kiritib samarali uslublardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil qilishi lozim. Buning uchun har bir murabbiy ilg‘or chet el tajribalaridan foydalanishi kerak.[3]

Mavzuni yanada yoritish maqsadida Toshkent, Buxoro va boshqa viloyatlarining murabbiylariga so‘rovnomalar bilan murojaat qilindi, qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlash borasidagi fikr va xulosalar yangidan yangi takliflari eshitildi.

Xulosa. Murabbiy-o‘qituvchilardan olingan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash borasida sportchilarning qaysi jihatlariga alohida e’tibor berish o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra aniqlandi. Olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sport maktablarida qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash yuzasidan aniq xulosalarga kelishga asos bo‘ladi:

1. Sport maktablarida qisqa masofaga yuguruvchilarni tanlash jarayonlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Bu jarayonda, albatta, ilmiy yondashuv va puxta o‘ylangan maqsadli reja zarur.

2. Rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish, bunda, yillik, yarim yillik va qisqa muddatga mo‘ljallangan rejalarni mukammal darajada ishlab chiqish lozim. Rejalar sportchi imkoniyatlariga to‘la mos kelishi kerak.

3. Tayyorgarlik jarayonida bir butun texnikani muayyan qismlarga bo‘lib o‘rgatish va bu faoliyatni mashg‘ulotning birlamchi vazifasi sifatida amalga oshirish lozim.

4. Startdan chiqish jarayonini doimiy ravishda nazorat qilish, sportchilar qo‘zg‘alish jarayonini tezlashtirish maqsadida signal vositasidan foydalanish kerak. Bunda sportchiga odatdagidan ko‘ra boshqacharoq qo‘zg‘alish reyaksiyasini beruvchi signallar berish lozim.

Mazkur maqolani yoritishda shu narsa aniq bo‘ldiki, kelgusida mazkur mavzu bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lamini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Mavzuning hali o‘rganilmagan va yoritib berilmagan jihatlari bor. Yaqin kelajakda yuqoridagi mavzu bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va uning natijalarini amaliyotga izchil tatbiq etish sport natijalari o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

---

[1] Rafiyev H.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T., 2012, 346-bet.

[2] Haydarov B.T.Yengil atletikachilar ish qobiliyatini tog‘ sharoitida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yordamida oshirish. Pedagogika fanlari nomzodi. Dissertatsiya ishi, 13.00.04. T., 2009, 42-bet.

[3] Shakirjonova K.T. Yengil atletikada sport mashg‘ulotlari asoslari. O‘quv qo‘llanma, T., 2008, 72-bet.

Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna (Termiz davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi)

TA’LIM DIVERSIFIKATSIYASI IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada uzluksiz ta’limda diversifikatsiyaning o‘rni va ahamiyatiga doir muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan mufassal tanishilib, diversifikatsiya jarayonining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar, zamonaviy ta’limning o‘ziga xosligini ifoda etishga xizmat qiladigan ushbu tamoyilining imkoniyati haqida fikr bildirilgan.*

Аннотация. *В статье подробно представлены исследования роли и значения диверсификации в непрерывном образовании, факторы, положительно влияющие на возникновение и развитие диверсификационного процесса, принцип действия этого принципа, служащий для выражения уникальности современного образования. было сказано о возможности.*

Annotation. *The article introduces in detail the research on the role and importance of diversification in continuing education, the factors that positively affect the occurrence and development of the diversification process, the principle of this principle, which serves to express the uniqueness of modern education. an opinion was expressed about the possibility.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, sharoit, diversifikatsiya, ishlab chiqarish.*

Ключевые слова: *образование, условия, диверсификация, производство.*

Key words: *education, conditions, diversification, production.*

Kirish. Ta’limdagi diversifikatsiya ijtimoiy jarayon bo‘lgani holda, ma’lum darajada iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lib, bu xususiyat ikki tomonlama (ta’lim xizmati ko‘rsatish sohasi va yangi bilimlarga ehtiyojmand jamoatchilik) manfaat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim sohasida jiddiy islohotlarni amalga oshirayotgan har qanday mamlakatning milliy ta’limida diversifikatsiya jarayonining yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun quyidagi faktorlarning ahamiyati kattadir:

– aholi orasida sifat jihatdan yuqori, mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lgan bilimlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi;

– ilm-fan sohasida akademik o‘quv fanlarning ravnaqiga, ta’lim mundarijasining fundamentlashuvi va fanlararo aloqadorlikning rivojlanishiga zamin yaratuvchi yutuqlar;

– axborot va kommunikatsion texnologiyalar rivojining tezlashuvi;

– iqtisodiyotning tuzilmaviy va mulkka munosabat jihatdan yangilanishi: bu o‘zgarish yangi tarmoqlar, kasb sohalari va ilgari nazarda tutilmagan tuzimlarning joriy etilishi bilan bog‘liqdir;

– ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy-madaniy sohalarga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi: bu faktor ilm-fan va texnologiyalar sohasiga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi;

– ta’limning yangi paradigmalariga muvofiq, ta’limiy xizmat ko‘rsatish sohasida shaxs o‘rnining ahamiyat nuqtayi nazaridan o‘zgarishi, bunda shaxs ta’lim tizimining asosiy diqqat markazida turuvchi subyektga aylanadi;

– mehnat bozorida bilim, malaka, tajriba, kompetensiya uyg‘unligidagi sifatlarni o‘zida mujassam etgan mutaxassislarga ehtiyojning ortib borishi;

– ta’limning bosh maqsadlari va vazifalari o‘zgarishi hamda insonparvarlik va demokratiya tamoyillariga asoslangan yangilanishlar natijasida ta’lim sohasida ta’lim muassasalari rolining o‘zgarishi va shu kabilar [1].

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. O‘tgan asrning 60-yillaridan so‘ngiga mazkur tushunchani ta’limga joriy etish zarurati paydo bo‘ldi. M.Y.Lomakinaning fikricha, bu zarurat G‘arbiy Yevropa davlatlarida ta’lim tizimlarini tarkibiy-tuzilmaviy jihatdan isloh qilishga kirishish natijasida yuzaga keldi [4.5]. Diversifikatsiyaning G‘arbiy Yevropa ta’lim tizimida joriy etilishi samarasi o‘laroq, qayd etilgan samarali o‘zgarishlarni izohlar ekan, M.Y.Lomakina, ta’limdagi diversifikatsiyani quyidagicha talqin qiladi: “Biz oliy kasbiy ta’lim diversifikatsiyasi deganda oliy kasbiy ta’lim tizimi faoliyatining kengayishi va mazkur tizimning ilgari mavjud bo‘lmagan vazifa hamda funksiyalarga ega bo‘lishini tushunamiz” [4.5].

V.R.Dryaxlova talqinida “diversifikatsiya” tushunchasi yuqorida keltirilgan kabi iqtisodiy ma’noga ega bo‘lgani holda, ta’lim sohasiga tatbiq etilganda nisbatan keng ma’no kasb etadi. Uning fikricha, uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya:

1. Ta’limda yangi faoliyat turlarining joriy etilishi va buning natijasida tizimda bosh maqsad vazifa hamda funksiyalarning miqdor va sifat jihatdan yangilanishidir.

2. Zamonaviy ta’lim diversifikatsiyasi ta’lim tizimini innovatsion strukturaviylashtirish tamoyillari sifatida qaraladi va buning samarasi o‘laroq, o‘qitish dasturlari va ta’lim berish bilan bog‘liq xizmat ko‘r-

satishlar, ta’lim muassasalarining tur, shakl va ko‘rinishlari variativ tarzda mazmun-mohiyatan yangilanadi [5.14].

A.K.Kollegov diversifikatsiyasini muayyan ibtidoga bo‘lgan jarayon deb hisoblaydi va uning boshlanish muddati eng kamida ta’limdagi faoliyat turlarining kengaytirish va tizimdagi funksiyalarning dastlabki yangilanishiga zarurat paydo bo‘lgan vaqtdir, deya qayd etadi [5.12]. Uning fikricha, oliy ta’limdagi diversifikatsiya ikki bosqichda kechadi. Oliy ta’limdagi diversifikatsiyaning birinchi bosqichida OTM-lar soni, ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklarning turlari va bunga mutanosib ravishda o‘quv fanlari, o‘quv-amaliyoti turlari son jihatdan ortadi.

Tahlil va natijalar. Diversifikatsiya jarayonining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlarni aniqlash orqali biz uning quyidagi ko‘rinishdagi ahamiyatlarini qayd eta olamiz:

– diversifikatsiya muvofiqlikni ta’minlovchi omil bo‘ladi: jamiyatning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji qondirilishi natijasida iqtisodiy-ijtimoiy masalalar yechim topa boradi va bu bilan jamiyat bilan ishlab chiqarish rivojlanishi o‘rtasida muvofiqlik barqarorlashadi;

– diversifikatsiya uzluksiz ta’limda sifatga erishishni ta’minlaydi: jamiyat va mehnat bozoridagi talablarning natijasi o‘laroq, mutaxassis kadrlar tayyorlash va yetishtirib berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi muassasalar o‘z faoliyat turini sifat, miqdor jihatdan yangilaydi;

– diversifikatsiya alohida shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishida muhim rol o‘ynaydi: shaxs, ya’ni, ta’lim oluvchi kasbiy ta’lim va kasbga oid bilimlarni o‘zi istagan shakl hamda hajmda olish imkoniga ega bo‘ladi;

– diversifikatsiya ta’lim muassasalarining ravnaqi uchun tanlov erkinligini ta’minlaydi: milliy qonunchilik va tegishli huquqiy hujjatlarga tayangan holda, ta’lim muassasalari ta’limiy xizmat ko‘rsatishning yangi turlarini joriy etadilar.

Uzluksiz ta’limda diversifikatsiyaning o‘rni va ahamiyatiga doir muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan mufassal tanishib, biz uzluksiz ta’limda kechadigan diversifikatsiya jarayonlarini pedagogik tizimdagi diversifikatsiya bilan ta’lim muassasalaridagi diversifikatsiyasining umumlashmasi sifatida qarash o‘rinli, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv ta’lim tizimining rivojlanish darajasini keng miqyosda (respublika, mintaqa, tuman va soha), shuningdek, tor miqyosda (aniq bir ta’lim muassasasi) tashxislash va bashorat qilishga zamin yaratadi. Pedagogik tizimning yangilanishi uchun ishlab chiqilgan shart-sharoitlar, variantlilik xususiyatiga ega bo‘lgan o‘quv dasturlari, joriy etilgan yangi texnologiyalar hamda diversifikatsiya tamoyillari quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

– ta’lim oluvchi o‘zi uchun qulay, qiziqarli va maqbul bo‘lgan ta’lim traektoriyasini tanlay olishi;

– har bir mintaqa, hatto har bir ta’lim muassasasi uchun alohida ta’lim tizimi barpo etilishi;

– uzluksiz ta’limning har bir bosqichining davomiyligi joriy etilgan pedagogik tizimga bog‘liqligi;

– o‘quv rejalari va dasturlarni ishlab chiqishda navbatdagi bosqichda joriy etilgan pedagogik tizimning talablaridan kelib chiqish, ya’ni navbatdagi ta’lim bosqichining talablarini jamoatchilik talablari sifatida qabul qilish;

–ta’lim amaliyotiga zinali, ko‘p bosqichli va ko‘p qirrali o‘qitish tizimini joriy etish va shu kabilardir [2].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan birinchi xulosa shuki, difersifikatsiya joriy etilmaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy zarurat sifatida yuzaga keladi va uning tabiiy ravishda tatbiq etilishi tegishli huquqiy hujjatlar yordamida tartibga solinadi. Biz ushbu fikrni mamlakatimiz ta’lim tizimidagi negizli o‘zgarishlar, keyingi ikki yil ichida amalga oshirilgan tub islohotlar misolida asoslashga harakat qilamiz va shu orqali respublikamizda amal qilinadigan uzluksiz ta’lim sohasida diversifikatsiyaning tabiiy tarzda tatbiq etilganligi huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Biz ushbu o‘rinda, ta’lim oluvchi va ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni ishtirokchilari va ta’limi tizimi, ta’lim subyekti va ta’lim obyekti, umumiy tarzda esa jamoatchilik, ta’lim muassasasi hamda ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi doimiy o‘zgarib boruvchi munosabatlar ko‘zda tutilgan, deya olamiz. Binobarin, ta’lim sohasidagi munosabatlarning jamiyat taraqqiyotiga mutanosib tarzda o‘zgarib borishi diversifikatsiya jarayonining sodir bo‘lishi uchun eng birlamchi sharoit, deb hisoblashga haqlimiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya o‘z shakllanish sharoit va bosqichlari, hosil qiluvchi komponentlari, rivojlanish tamoyillari va namoyon bo‘lish darajasidan kelib chiqqan holda, ahamiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, ta’lim xizmatlari bilan mazkur faoliyat turi “iste’molchilari” va jamoatchilik talablarining mahsuli sifatida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga tabiiy ravishda kirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коллегов А.К. Диверсификация как основная тенденция развития высшего педагогического образования в России. Вестник ТГПУ, 2010, № 4 (94), с. 12–16.
2. Леонид Харченко. Диверсификация современных вузов и требований, предъявляемых к научно-педагогическим кадрам. Журнал “Мир науки”, 2015, №2.
3. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. «Народное образование», 2003, № 2, с. 58 – 64.
4. М.Ю.Ломакина. Диверсификация как принцип непрерывного образования, Журнал “Мир науки”, 2017 г. 2-номер.
5. В.Р.Дряхлова, Развитие довузовской подготовки в системе непрерывного профессионального образования управленческих кадров. На примере академии государственной службы, 2009, автореферат. дисс.
6. Otamurodova S.Q. Improving the methodology of expressing the creative potential of students on the basis of the principle of diversification. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022, T.3, №. 11, c. 414.
7. Т.И.Шакирова. Диверсификация в сфере образования. Журнал Вестник КГУ (Кемеровского государственного университети). Диверсификация как принцип непрерывного образования, Журнал “Мир науки”, 2017, № 2, с. 43.

Xalillayev O‘ktam Sobirjon o‘g‘li (UrDU talabasi)

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNI ANKETALASHTIRISH YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining yangi pedagogik texnologiyani bilish va uni qo‘llash darajasini anketalashtirish yordamida aniqlashni tashkil etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan parametrlar borasida fikr yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются параметры, на которые следует обращать внимание для определения уровня знаний учителей физической культуры и использования новых педагогических технологий с помощью анкетирования.*

Annotation. *This article discusses the parameters that should be paid attention to in order to determine the level of physical education teachers' knowledge and use of new pedagogical technology using questionnaires.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, pedagogika, texnologiya, innovatsiya, interfaol usul, anketa, jismoniy tarbiya, talaba, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Ключевые слова: *образование, обучение, педагогика, технология, инновация, интерактивный метод, анкетирование, физическое воспитание, студент, знание, умение, квалификация.*

Key words*. education, training, pedagogy, technology, innovation, interactive method, questionnaire, physical education, student, knowledge, skill, qualification.*

So‘nggi yillarda jahonda yoshlar masalasi keng jamoatchilik va olimlarning e’tiborini har qachongidanda ko‘proq jalb qila boshladi. Chunki bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, manfaatdor kuchlar tomonidan ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyatiga yoshlarni jalb etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari – son jihatdan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo‘lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e’tiborga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekanligini tushunish qiyin emas.[1]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi[2] O‘zbekiston Respublikasining qonuning qator moddalarida ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta’minlash kabi vazifalar alohida qayd etilgan.

Ta’lim-tarbiya har doim jamiyat taraqiyotining asosi bo‘lgan, shuning uchun ham mamlakatimizda yosh avlodga zamon talablari darajasida bilim berish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishlariga shart-sharoit yaratib berilmoqda. Jumladan, mamlakati-

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017, 16-bet.

[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020, 03/20/637/1313-son.

miz ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelgan pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, interfaol usullarni ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llanilishi, ta’limda yaxshi samara bermoqda.

Shu o‘rinda, bu tushunchalarning ma’nosi va tariflariga urg`u berib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Texnologiya so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “texnos” san’at, mahorat, hunar va “logos” fan degan ma’noni anglatadi.

Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi tomonidan o‘qitish, tarbiyalash va ta’lim vositalari yordamida o‘quvchi, talabalarga, kasbiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari va amalda mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va tinglovchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol usul – bu o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko‘nikmasini shakilantirishdir. Interfaol usullar ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi va ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘ladigan usullar tushuniladi.

Zamonaviy ta’limda pedagogik texnologiyalar bu jismoniy tarbiya darslarining tarkibiy qismi bo‘lmog‘i lozimdir. U nazariy o‘qitish va mustaqil amaliy faoliyat o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa bo‘lib, bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur tajribani egallashga yordam beradi.[1] Biz jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining yangi pedagogik texnologiyani bilish va uni qo‘llash darajasini anketalashtirish yordamida aniqlashga urinib ko‘rdik. Ushbu usul o‘qituvchilarda ma’lum bir muammolar (kamchiliklar)ni aniqlashga yordam berdi. Biz tomondan, shuningdek, yana bir jihat – ushbu usuldan oldinga qo‘yilgan vazifani bajarish uchun ishlatish imkoniyati ham ko‘rib chiqildi. Shu munosabat bilan, konkret material hal qilinayotgan vazifalar nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq bo‘lgan hajmda va kesimda ko‘rib chiqilishi kerak.

Anketalashtirish Urganch davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakultetining bo‘lg‘usi o‘qituvchilari, ya’ni 3-kurs talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. Anketa tuzilayotganida va anketalashtirish o‘tkazilayotganida anketa tuzishning ilmiy ishlarda batafsil bayon qilingan uslubiy va metodologik tamoyillaridan foydalanildi. Anketa uch qism: kirish, asosiy va xulosa qismlaridan iboratdir. U o‘z ichiga turli xil savollarni olgan. Ular, asosan:

a) shakl bo‘yicha (to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita savollar. Javoblarini yelpig‘ich bo‘laklariga o‘xshatib joylashtirsa bo‘ladigan savollar, ochiq, yopiq, yarim yopiq savollar, tuzoq savollar;

b) vazifasi bo‘yicha (nazorat savollari, filtrlovchi-saralovchi savollar);

d) mazmuni bo‘yicha (motiv-sabablar haqidagi savollar, faktlar haqidagi savollar va hokazolar)dir.

Anketaga savollar, shuningdek, demorgrafik qism kiritilgan bo‘lib, olingan ma’lumotlarni har xil tomondan tahlil qilish mumkin bo‘lishi uchun unda o‘qituvchilar yoshlarini, sport turlarini, sport malakalarini ko‘rsatar edilar.

Qo‘yilgan maqsadga yetishish uchun eng qulay va maqsadga muvofig‘i ijtimoiy usul – anketalashtirish bo‘lib chiqdi. Chunki u, masalalarning ancha keng doirasini ko‘rib chiqish, katta miqdordagi respondentlarni qamrab olish imkonini beradi. Qolgan boshqa usullar kabi anketalashtirish ham ayrim kamchiliklardan xoli emas, ammo shunga qaramay, biz yangi pedagogik texnologiya sohasida biz tadqiq qilayotgan muammolarni hal qilishga yordam beruvchi zarur ma’lumotlarni olishga muvaffaq bo‘ldik.

Talabalarni ta’lim-tarbiya jarayonida yangi innovatsiyon texnologiyalar, interfaol usullaridan foydalanish to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarda aniqlash maqsadida anketa savol-javoblari o‘tkazildi (1.1-jadaval).

1-jadaval

Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining anketa savollariga bergan javoblari bo‘yicha natijalar (n=80)

№	Savol	Ha	%	Yo‘q	%	Qisman	%
1.	Sizga jismoniy tarbiya darsi innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullari yordamida o‘qitilishi kerakmi?	64	80	4	5	12	15
2.	Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan foydalanasizmi?	17	21	40	50	23	29

[1]Baratov Sh. Yangi pedagogik texnologiya tatbiqining psixologik asoslari. Resp.ilm.-met.konf.materiallari,T., 2000.

3.	Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullari haqida tushunchaga egamisiz?	16	20	45	56	19	24
4.	Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullari kundalik turmushda zarurmi?	40	50	10	13	30	37
5.	Jismoniy tarbiya darslarini mazmunli o‘tishda Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullarining o‘rni bormi ?	56	70	9	11	15	19
6.	Innovatsion texnologiyalarni, interfaol usullaridan muntazam shug‘ullanasizmi?	24	30	40	50	16	20
7.	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan foydalanasizmi?	16	20	44	55	20	25
8	O‘qituvchingiz seminar va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullar usullaridan foydalanadimi?	24	30	40	50	16	20
9	Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan bilimingiz yetarlimi?	10	13	66	82	4	5
	$\overline{X}$		30		33		17

Anketa natijalariga ko‘ra talabalarning 80 nafari anketalashtirish jarayonida qatnashishdi. Unda

1-savol. “Sizga jismoniy tarbiya darsi innovatsion texnologiyalarni, interfaol usullar yordamida o‘qitilishi kerakmi? degan savolga” 64 (80%) nafar talaba “ha” deb, 4 (5%) nafar talaba “yo‘q” deb 12 nafari qisman (15%) javob berdi.

2-savol. “Uyda, ko‘chada innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan foydalanasizmi? Degan savolga” 17 (21%) nafar talaba “ha” deb, 40 (50%) nafar talaba “yo‘q” deb 23 nafari qisman (29%) javob berdi.

3-savol. “Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullari haqida tushunchaga egamisiz? degan savolga” 16 (20%) nafar talaba “ha” deb, 45 (56%) nafar talaba “yoq” deb 19 nafari qisman (24%) javob berdi.

4-savol. “Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullari kundalik turmushda zarurmi? degan savolga” 40 (50%) nafar talaba “ha” deb, 10(13%) nafar talaba “yo‘q” deb 30 nafari qisman (37%) javob berdi.

5-savol. “Jismoniy tarbiya darslarini mazmunli o‘tiida innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullarining o‘rni bormi? degan savolga” 56 (70%) nafar talaba “ha” deb, 9 (11%) nafar talaba “yo‘q” deb 15 nafari qisman (19%) javob berdi.

6-savol. “Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullaridan muntazam shug‘ullanasizmi? degan savolga” 24 (30%) nafar talaba “ha” deb, 40 (50%) nafar talaba “yo‘q” deb 16 nafari qisman (20%) javob berdi.

7-savol. “Jismoniy tarbiya darslarida innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan foydalanasizmi? degan savolga” 16 (20%) nafar talaba “ha” deb, 44(55%) nafar talaba “yo‘q” deb 20 nafari qisman (25%) javob berdi.

8-savol. O‘qituvchingiz seminar va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullar usullaridan foydalanadimi? degan savolga” 24 (30%) nafar talaba “ha” deb, 40 (50%) nafar talaba “yo‘q” deb 16 nafari qisman (20%) javob berdi.

9-savol. Innovatsiyon texnologiyalarni, interfaol usullardan bilimingiz yetarlimi? degan savolga” 10 (13%) nafar talaba “ha” deb, 66 (82%) nafar talaba “yo‘q” deb 4 nafari qisman (5%) javob berdi.

Anketa savol javoblari natijsiga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni, interfaol usullari asosida ta’lim berish haqidagi tushuncha va bilimlari yetarli emas, Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalarni, interfaol usullari asosida o‘tish muntazam qo‘llanilmagan. Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalarni, interfaol usullardan foydalanish ta’lim jarayoni o‘qituvchidan pedagogik mahorat va o‘z fanining tex-

nologiyasi mexanizmini yaratishni talab etadi. Bunda, albatta, guruh talabalarining soni ham e'tiborga olinishi lozim.

Niyozmatov Anvar (Urganch davlat Pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi)

O'ZBEK XALQ O'YINLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Bu maqolada milliy o'yinlarning o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashdagi pedagogik-psixologik o'rni yoritilgan. Shu bilan birga, xalq o'yinlarining insonni hayotga dastlabki tayyorlash jarayonida tarbiyaning muhim omil ekanligi ko'rsatilgan. Xalq o'yinlari, eng avvalo, o'quvchilarning xalqimizning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytirib kelajak hayotda o'z o'rnini topishga yordam berishi ochib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье описывается педагогическая и психологическая роль национальных игр в духовном воспитании учащихся. В то же время показано, что народные игры являются важным воспитательным фактором начальной подготовки человека к жизни. Выявле-но, что народные игры, прежде всего, помогают учащимся найти свое место в будущей жизни, расширяя их представления о культурных богатствах нашего народа.*

Annotation. *This article describes the pedagogical and psychological role of the National Games in the spiritual education of students. At the same time, it was shown that folk games are an important factor of education in the initial preparation of a person for life. It was revealed that folk games, first of all, help students to find their place in the future life by broadening their imagination about the cultural wealth of our nation.*

Kalit so'zlar: *xalq o'yini, milliy o'yin, bolalar o'yini, o'yin madaniyati, xalq pedagogikasi, «Gashir qo'pordi».*

Ключевые слова: *народная игра, национальная игра, детская игра, игровая культура, народная педагогика, «Гашир Копорди».*

Key words: *folk game, national game, children's game, game culture, folk pedagogy, "Gashir kopordi".*

Insoniy fanlar rivojining hozirgi bosqichining xarakterli xususiyati fanlararo aloqalarga e'tibor qaratishdir. Bu bolalik dunyosini o'rganishga ham tegishli. Bola nafaqat ta'lim, ijtimoiylashuv boshqa tashqi ta'sirlar obyekti, balki o'zini-o'zi anglaydigan, faol hayot subyekti ekanligi tobora ko'proq aytilmoqda. Bundan tashqari, bu bayonot mavhum falsafiy axloqiy fazilat emas, balki ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqot amaliy faoliyatning eng muhim nazariy uslubiy tamoyilidir.

Umuman, insonning o'yin faoliyati, xususan, xalq o'yinlari hamisha gumanitar fanlar vakillarining e'tiborini tortgan, madaniyatning o'yin elementlari, uzoq vaqtdan beri rivojlanish psixologiyasi pedagogikasining monopoliyasi bo'lishni to'xtatdi, o'yin hodisasi turli xil ilmiy fanlar pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik, falsafaning manfaatlarini birlashtiradi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat individual rivojlanishning muhim bosqichlari qonuniyatlarini aniqlabgina qolmay, balki qadriyatlarni yo'naltirish muammosini madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini ham yoritadi.

Tadqiqotchilar (D.B.Elkonin, I.I.Frishman, O.S.Gazman, E.A.Reprintseva) ta'kidlaganidek, o'yin mazmunining ijtimoiy qimmatli tabiati undagi o'yinchilarning o'zaro munosabatlari shakllari shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat o'yin maydonida, balki undan tashqarida ham o'zini namoyon qiladi. Bu holda mavjudlikning ijtimoiy ahamiyatga ega yo'llari real dunyoga o'tkaziladi. Shunday qilib, o'yin tashqi dunyoning, ongning ichki aqliy operatsiyalariga o'tishini moslashtiradi. Voqelikning ongda aks ettirilgan, qayta ishlangan tasvirlari shaxsning ijtimoiy tajribasini shakllantiradi.

O'yin hayot hodisasi sifatida ijtimoiy-pedagogik etnopedagogik tadqiqotlarning muhim obyekti hisoblanadi, chunki o'yin xatti-harakatlari jamiyatning ko'plab muhim xususiyatlarini, o'zini namoyon qilish shaxsiyat rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini, inson psixologiyasining madaniy obyekti sifatida ochib beradi. O'yinni pedagogik ijtimoiy-tarixiy tahlil qilish madaniy merosni (arxivlar, xotiralar boshqalar) o'rganish asosida, mavzuni umumiy, maxsus individual haqiqiy tashuvchisi yaratuvchisi sifatida o'rganish mumkin, turli xalqlar orasida shakllangan, umuman, milliy pedagogik tajribaning muhim qismi bo'lgan xulq-atvorning xilma-xil shakllarida namoyon bo'ladi.

Har qanday xalqning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida o‘yin kishilarni hayotga dastlabki tayyorlash jarayonida tarbiyaning muhim omili bo‘lgan. O‘yin ta’limning kuchli vositasi bo‘lib, ilmiy pedagogika paydo bo‘lishidan ancha oldin mavjud edi. Xalq o‘yini tushunchasi xalq pedagogikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni jamoa ahlining, xalq tomonidan to‘plangan hayotiy tajribaning aksi deyish mumkin. Xalq pedagogikasi amaliyot, ta’lim san’ati sifatida vujudga kelgan, u pedagogika fanidan qadimiy bo‘lib, uni doimo boyitib kelgan, o‘z navbatida, u bilan boyib kelgan. Bu doimiy o‘zaro ta’sir xalq va butun jamiyatning pedagogik madaniyatining yuksalishini ta’minlaydi.

Xalq o‘yini orqali ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlar g‘oyalar, axloqiy amallar, xulq-atvor madaniyati shakllanadi. Hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlarda izchillikni talab qiladigan individual qo‘shma o‘yinlar jarayonida bola tartibli, intizomli bo‘lishni, ijtimoiy axloqiy me’yorlarga rioya qilishni o‘rganadi.

O‘yinning umumiy nazariyasining rivojlanishining boshlanishini F.Shiller va G.Spenser asarlari bilan bog‘lash kerak. Bu nazariyaga K.Byuler, K.Gross, Z.Freyd, Beytendiyk, J.Piaget, V.Stern, J.Dyui, D. Kolozsa, E.Fromm, I.Huizinga, A.Vallonlar salmoqli hissa qo‘shgan.

Ushbu sohadagi tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi, ko‘plab fanlar ma’lumotlaridan foydalanadigan integrativ yondashuvni amalga oshiradi. Ikkinchisi, aniq bir fan natijalariga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuvni ta’kidlaydi. Ya’ni, o‘yinni shu qadar keng, global miqyosda o‘rganadigan nazariyalar mavjudki, alohida fanlar orasidagi har qanday chegaralar buziladi, ular bilan bir vaqtda savolning chuqur tabaqalashtirilgan, batafsil, tor ixtisoslashtirilgan shakllantirilishi asosida yaratilgan, o‘yinning to‘liq aniq, o‘ziga xos, alohida muammolarini o‘rganishga qaratilgan tushunchalar mavjud. Ikkala uslubiy o‘rnatish ham mavjud bo‘lish huquqiga ega.

Xalq o‘yinlarini ilmiy o‘rganish ularni ta’lim-tarbiyada amaliy qo‘llash g‘oyalari V.G.Belinskiy. Dobrolyubov. N.G.Chernishevskiy va boshqalar K.D.Ushinskiy kelajak pedagogikasining vazifasini xalq o‘yinlaridan “a’lo kuchli tarbiya vositasi”ni tashkil etish va yaratishda ko‘rdi.

Psixologik tadqiqotlarga muvofiq o‘yin, rivojlanish o‘rganish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilinadi. Bu yerda o‘yin “har qanday hayotiy hodisani to‘liq yoki qisman haqiqiy amaliy muhitdan tashqarida samarali takrorlashdan iborat bo‘lgan ijtimoiy amaliyotning bir turi sifatida namoyon bo‘ladi”.[1] Rivojlanish psixologiyasi, psixoanaliz o‘yin muammosining o‘zini psixologik tadqiqotlar doirasida ko‘rib chiqsa, sotsiologiya boshqacha yo‘naltirilgan tushunchalarni yaratib, boshqa urg‘u beradi. Sotsiologiya o‘zining asosiy e’tiborini o‘yin xulq-atvori muayyan ijtimoiy tizim o‘rtasidagi aloqalarga qaratadi. O‘yin, sotsiologiya nuqtayi nazaridan, qat’iy belgilangan qoidalar va aniq belgilangan vaqt fazoviy chegaralarga ega bo‘lgan model shaklida sun’iy ravishda qurilgan ijtimoiy xatti-harakatlar turidir, bu sun’iy ravishda qurilgan model bo‘lib, insonning omon qolishini ta’minlaydigan real faoliyatning muayyan tomonlarini taqlid qiladi. Sotsiologlar, shuningdek, sotsializatsiya jarayonlari va o‘yin xatti-harakatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan shug‘ullanadilar.

Madaniyatshunoslikda o‘yinning tarjima, madaniyatning rivojlanishi va rivojlanish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Bu yerda madaniyatning o‘zi bizga qoidalar bilan o‘ynashning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rinadi. Etnografiya o‘yinni bolalikning ijtimoiylashuv madaniyatining bir qismi deb biladi. Har qanday jamiyatda bola qandaydir universal biologik shartlar bilan tug‘iladi, ammo har bir madaniyat bu “kalitlardan” o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Shuning uchun bolalarni sotsializatsiya qilishning maqsadlari, vositalari usullarini qiyosiy o‘rganish nafaqat har bir berilgan (xorijiy) madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, balki o‘zining ijtimoiylashuv usullarini tushunishga imkon beradi. Shu asosda G.N. Volkov maxsus bilim sohasini – etnopedagogikani yaratdi, uning predmeti xalq pedagogikasi pedagogik ma’lumotlar ta’lim tajribasi majmuyi sifatida boshqa narsalar qatorida bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari, urf-odatlari, marosimlari boshqalarda aks ettirilgan.

Pedagogika o‘yin xulq-atvorini shaxsning ijtimoiy tarbiyasi, ta’limi rivojlanishi jarayoni bilan bog‘laydigan o‘yin va o‘yin xulq-atvori muammosiga o‘ziga xos yondashuvni amalga oshiradi, u shaxsni shakllantirish jarayonida qanday rol o‘ynashi mumkinligini aniqlashga harakat qilmoqda.

O‘yinning ijtimoiy-pedagogik konsepsiyalarida ham global, ham yuqori ixtisoslashgan tadqiqot modellaridan olingan g‘oyalar ta’sirchan rol o‘ynashi muhim ko‘rinadi. Shu sababli ijtimoiy pedagogikada o‘yinning mutlaqo boshqa talqinlari ilmiy an’analar yo‘nalishlari to‘qnashadi, ular bir-birini to‘ldirishi mustahkamlashi mumkin, ammo bir-biriga zid bo‘lib, ilmiy tortishuvlarni qo‘zg‘atishi mumkin.

O‘yin insonni faoliyat subyekti mavqeyiga qo‘yadigan hodisa sifatida o‘smirlik davrida alohida ahamiyatga ega bo‘lishi muhimdir, uning “soya tomoni” L.S.Vigotskiy “xayoliy dunyoga qochib, kuch va irodani to‘xtatuvchi” deb atagan [2].

N.N.Egovseva, shuningdek, o‘yin shaxsni faoliyat subyekti holatiga qo‘yadigan hodisa sifatida o‘smirlik davrida alohida ahamiyatga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. S.A.Shmakov o‘smirlar boshidan kechirgan “o‘yin tafsiloti” haqida gapiradi [3].

Ko‘pgina mualliflar bir ovozdan yosh o‘smirlikni eng “o‘ynoqi’ yosh deb tan olishadi. Gap shundaki, bir tomondan, o‘smirlik – bu o‘yin faoliyatining mehnatga eng jadal rivojlanishi davri bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘smirlarning kattalar maqomiga bo‘lgan intilishlari kuchayadi, bu ularning nazarida ko‘pchilik bilan mos kelmaydi. Paradoksal vaziyat o‘rta katta yoshdagi o‘smirlar ko‘pincha o‘yinni ular tomonidan jiddiy mashg‘ulot sifatida tan olingan taqdirdagina qabul qilganda paydo bo‘ladi. A.N.Leontyev aytganidek, “O‘yin avval ochiq bo‘lgan o‘yin rolidan, xayoliy vaziyatdan va yashirin qoidadan ochiq qoidaga va aksincha, yashirin xayoliy vaziyat rolga aylanadi” [4]. Bolalar har qanday yoshdagi o‘xshash o‘yinlarni o‘ynashadi, lekin ularni boshqacha o‘ynashadi.

Madaniyat turlarining tarixiy rivojlanishi kontekstida o‘yinning pedagogik jihati E.A.Reprintseva ta’kidlashicha, o‘yin madaniyatining “intuitiv” turi “ta’lim joyini”, o‘yinning mumkin bo‘lgan natijalarini ularga bo‘lgan munosabatni o‘z-o‘zidan ravshan haqiqat sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri taxmin qilish bilan tavsiflanadi. O‘yin madaniyatining “prognostik” turi o‘yinning bolaning rivojlanishiga mumkin bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida zamonaviy davr faylasuflari o‘qituvchilarining mulohazalari, umumlashtirishlari, xulosalariga asoslangan ehtimolli mulohazalar mavjudligini ko‘rsatadi. O‘yin madaniyatining “ratsional-pragmatik” turi (XIX – XX asr boshlari) vakillari birinchi marta bolalar o‘yinining mohiyatini talqin qilish uchun universal asosni topish zarurligini angladilar undan asosiy g‘oyalarni olishga harakat qildilar.

O‘yin madaniyatining “romantik” turi bolalarning havaskor chiqishlarini rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etish, bolalarning mustaqilligi uchun sharoit yaratish bilan tavsiflanadi. O‘yin madaniyatining “gumanistik” va “neogumanistik” turlari bolalar o‘yinining cheksiz ta’lim imkoniyatlariga ishonchni namoyon etadi, ayniqsa, bolaning individualligini, uning tasavvurini, fantaziyasini, ijodkorligini, shuningdek, o‘yin qobiliyatini rivojlantirishda, muhitni bolaning individual xususiyatlariga moslashtirish, zamonaviy o‘yin madaniyati tabiatidagi sezilarli o‘yin madaniyatining “gedonistik” (zavq) turini shakllantirish haqida gapirishga imkon beradi.

1. Mintaqaviy komponentni hisobga olgan holda, ta’lim mazmuniga xalq o‘yinlarini kiritish (xalq o‘yinlarini o‘rganish bo‘yicha tanlov kursini o‘tkazish, maktab fanlarining gumanitar siklini muloqot madaniyatini shakllantirish bilan singdirilishi kerak). Ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘yinni atrofdagi dunyo va insoniy munosabatlarning xilma-xilligi tarjimoni, xalq madaniyatini egallash usuli, shaxsning o‘zini o‘zi anglash sohasi sifatida tavsiflanishi mumkin. O‘quvchilarning rivojlangan xilma-xil o‘yin faoliyatining mavjudligi shaxsni pedagogik yo‘naltirilgan ijtimoiylashtirish sohasi, o‘quvchilarni rivojlantirish tarbiyalash vositasidir. O‘quvchilar o‘yinini tashkil etish bir qator nazariy qoidalarga asoslanadi:

– o‘yinning ta’lim va rivojlanish funksiyalarini yangilash zarurati;

– turi vazifalariga, yosh tarkibiga, muayyan ijtimoiy-pedagogik, psixologik-pedagogik vaziyatlarga mos keladigan o‘yinlarni talabalar guruhlari hayotiga kiritish;

– xalq o‘yinlaridan faoliyat turi yoki o‘quvchilar faoliyatining boshqa turlarini tashkil etish tamoyili, usuli, shakli sifatida foydalanish aniq pedagogik vazifalarga bo‘lishi kerak;

– o‘quvchilarni o‘yin faoliyatiga jalb qilish tamoyillarini izchil amalga oshirish;

– mutlaq ixtiyoriylik va havaskor ishlash prinsipi;

– zavqlanish prinsipi;

– erkinlik prinsipi;

– o‘yinning demokratik-gumanistik mohiyati tamoyili;

– madaniy an’analarni o‘yin orqali efirga uzatish tamoyili;

– o‘yin va o‘yindan tashqari faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar prinsipi.

O‘quvchilarning xalq o‘yinini tashkil etish, agar bir qator psixologik-pedagogik va tashkiliy-uslubiy shartlar kuzatilsa, samarali bo‘ladi.

– o‘yinning tarbiyaviy va rivojlanish imkoniyatlarini o‘rganish va aniqlash;

– o‘yin mazmunining o‘quvchilarning rivojlanish va tarbiya darajasiga muvofiqligi;

– ularning jinsi va yoshi xususiyatlari va shaxsiy resurslari;

– o‘yin mazmuni va shaklining o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi;

– o‘quvchilarning rivojlanishi bilan o‘yin mazmunini murakkablashtirish; ta’limning gumanistik tamoyillariga zid bo‘lmagan raqobatbardoshlikning mavjudligi;

– xalq o‘yinlarining individual, guruh va jamoaviy turlari va shakllarining kombinatsiyasi.

Tadqiqotimizning eng muhim tavsiyasi umumta'lim maktabining yuqori sinflari o'quv rejalariga majburiy fan – xalq o'yinlarini o'rganish bo'yicha fakultativ fanni joriy etishdan iborat. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish o'smirlar bilan muloqot qilish shakli bo'lib, unda muammoli vaziyatlarni hal qilish modellarini ishlab chiqish, bolalarni muloqot madaniyatiga osongina o'rgatish mumkin. Sinfda tengdoshlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ish munosabatlari normalarini, asosiy axloqiy tushunchalarni xatti-harakatlarning tegishli shakllarini o'zlashtirish zarurati amalga oshiriladi.

Xalq o'yinlari orqali muloqot madaniyatini shakllantirishga yaxlit yondashuv bo'lishi kerak. Bu talaba shaxsini har tomonlama ko'p qirrali shakllantirishning hozirgi tendensiyasiga mos keladi. "Yaxlit" tushunchasi ichki birlikni ifodalovchi, yaxlit bir butun sifatida idrok etiladigan tushuncha sifatida ta'riflanadi. Muloqot madaniyatini shakllantirish haqida gapirganda, o'quv jarayonini estetiklashtirish haqida gapirish kerak. Bolani muloqot madaniyatiga o'rgatish vositalari nutq madaniyatini o'rgatish, maktab o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish o'zbek tili darslari va adabiyotida sodir bo`ladi.

Xorazmda yaratilgan «Gashir qo'pordi» o'yini tarkibidagi topishmoqlar ham mohiyat jihatidan shu topishmoqlarga mos keladi, lekin ularda mahalliy sheva so'zlari va metaforalarning mahalliy sharoitga mosligi muayyan aloqadorlikni keltirib chiqargan [5].

O'yin jarayonida shart qo'yish jarayoni bolalardan yuksak badihago'ylikni va mantiqan fikrlashni talab qiladi. Bolani tortib olishga shaylangan o'yinchi gapga chechan, hozirjavob o'z navbatida, kuchli bo'lmog'i shart. Bunday bolalarni, aksariyat hollarda, guruhboshi qilib qo'yishadi. Qolgan bolalar ham kuchli bo'lmoqlari farz. Bunda bolalarni birin-ketin tizishga alohida e'tibor qilinadi: boshda eng kuchli, so'ngra sal kuchsizroqlar tizilishadi. Chunki sal zaif bola, o'rtaga tushib qolsa, raqib taraf bir emas, uchto'rt bolani birdan yulib olib ketishi mumkin. Bu esa katta muvaffaqiyatsizlik hisoblanadi. Ko'rinayotirki, bu o'yin taktikasining muhim tomoni bo'lib, guruhboshida harbiy malakani shakllantiradi.

Bordi-yu tortuvchi bola topishmoq ayta olmay qolsa, yengilgan hisoblanadi. Topishmoq ayta olsayu, lekin har safar amaliy ishni bajara olmasa ham yengilgan hisoblanadi. Shu tariqa, tortuvchi o'yindagi barcha bolalarni birma-bir tortib, o'z tarafiga o'tkazmog'i lozim. Mabodo, bu ishni oxiriga yetkaza olmasa, o'z safini mustahkam tutgan guruh g'olib hisoblanadi. «Gashir qo'pordi» o'yini «Suv oldi» parchasi bilan tamomlanadi. «Suv oldi»ning ma'nosi – sabzi tagiga suv ketganini, endi uni bemalol qo'poroverish mumkinligini anglatadi. Shu sababli endi kuch ishlatish to'xtatiladi va o'yin yakunlanadi.

O'yin faoliyatining o'zini ko'rib chiqish har qanday faoliyatning uchta eng muhim elementi: subyekt, obyekt va subyekt obyektga yo'naltiradigan faoliyatni tahlil qilishga asoslanadi.

O'yin mavzusiga kelsak, u alohida shaxs, guruh va jamoa bo'lishi mumkin. Bolalar o'yinda o'z oldiga qo'ygan maqsad orqali o'yin faoliyati obyektini ko'proq yoki kamroq aniq tavsiflash mumkin. O'yindagi subyekt o'z oldiga maqsad qo'yadi – o'yindan ma'lum bir zavq olish. Bunday holda, uning faoliyati obyekti, birinchidan, o'yinning o'zi, o'yinning vosita, zavq olish usuli bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, o'yin faoliyati obyekti subyektning o'zi bo'lib, o'zini tajribalar bilan boyitadi. Birinchi holda, o'zaro ta'sir natijasi bolaning, jamoaning hayoti uchun ijobiy hissiy fon hisoblanadi. Ikkinchidan, beixtiyor o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash shunday natijaga aylanadi.

Bolalar o'yinining tarbiyaviy salohiyatidan foydalanish g'oyasi so'nggi yillardagi zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ham o'z ifodasini topgan.

Halol o'yin qoidalari bolaga barcha yaxshi narsalarni o'rganishga yordam beradi. E.A.Kuteyevning ta'kidlashicha, o'yinni jamoaviy tahlil qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat ijro etish texnikasiga, balki chidamlilik, maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik, adolat va o'zaro yordam kabi shaxsiy namoyonlarga ham tegishli [6] Bu jihat muallifining mulohazalarida biz o'yin va uni boshqarishning pedagogik ahamiyatini tushunishni ko'ramiz.

O'quv jarayonida rolli o'yinlardan samarali foydalanish shartlaridan biri o'qituvchi va o'quvchilar o`rtasidagi muloqot darajasidir. "O'zaro tushunishni rivojlantirishning bunday darajasiga hamma bolalar ham darhol erisha olmaydi, lekin o'yin muloqoti bolada hissiy, psixologik va axloqiy sezgirlikni shakllantirishga yordam berishi aniq" [7].

O'yin odamga nisbatan qisqa vaqt ichida uning mavjudligining o'ziga xos sharoitida ijtimoiy tajribaning shaxsiy ma'nosini o'zlashtirish, unga munosabatni rivojlantirish, shaxsning ma'lum bir yo'nalishini egallash imkoniyatini beradi. Shaxs munosabatlari tizimini boyitib, o'yin uning motivlari tizimini shakllantirishga boshqa faoliyat turlariga, birinchi navbatda, mehnatga munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

O‘yin hayajonli, hissiy zo‘riqish, ishtiyoq sharoitida odam subyektiv qimmatli tajribalarni boshdan kechiradi, bu esa shaxsda uning ijtimoiy faoliyatini boshqaradigan ma’lum xususiyatlar va xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куприна Н.К. Применение адыгейских национальных игр в системе физического воспитания школьников среднего возраста. Автореф. дис... докт. пед. наук, М., 1993, с. 23.

2. Эльконин Д.Б. Послесловие. Собр. соч., в 6-ти т., т. 4, Детская психология. М., “Педагогика”, 1984, с. 86 – 403.

3. Шмаков С.А. Ее величество игра. М., “NB Магистр”, 1992, с. 160.

4. Леонтьев А.Н. Психологические основы дошкольной игры. Психологическая наука и образование, 1996, №3, с. 25.

5. «Авесто». “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2000, № 2, 79-бет.

6. Кутеев Е.А. Игра как средство элементов воспитания. “Начальная школа”, 1990, № 11, с. 13 – 15.

7. Репринцева Г.И. От игры к взаимопониманию. “Начальная школа”, 1991, № 3, с. 13 – 15.

Meyliyev Xusin (UrDU katta o‘qituvchisi)

OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING JORIY ETISHNING O‘RNI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kredit-modul tizimining tarixiy shakllanishi, tizimning mazmuni va mohiyati, asosiy tamoyillari hamda tushunchalari, talabalarni kredit-modul tizimida o‘qitishning qoidalari va unga qo‘yiladigan talablar ochib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье описывается историческое становление кредитно-модульной системы, содержание и сущность системы, ее основные принципы и понятия, правила и требования к обучению студентов по кредитно-модульной системе.*

Annotation. *This article describes the historical formation of the credit-module system, the content and essence of the system, its main principles and concepts, the rules and requirements for training students in the credit-module system.*

Kalit so‘zlar: *kredit, kredit-modul tizimi, USCS, ECTS, UCTS, CATS, Bolonya deklaratsiyasi, mustaqil ta’lim, sillabus, fan dasturi, reyting baholash.*

Ключевые слова: *кредит, кредитно-модульная система, USCS, ECTS, UCTS, CATS, Болонская декларация, независимое образование, учебный план, научная программа, рейтинговая оценка.*

Key words: *credit, credit-module system, USCS, ECTS, UCTS, CATS, Bologna declaration, independent education, syllabus, science program, rating evaluation.*

Dolzarblik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan (1).

Kredit-modul tizimi – bu ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tizimida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: birinchidan, talabaning mustaqil ishlashini ta’minlaydi, ikkinchidan, talabani reyting asosida baholashni ko‘zda tutadi. Kredit (credit) – talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi (kurs) bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasi (soati)ning o‘lchov birligidir. Kredit–talabaning me’yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda, bir hafta davomida audatoriyada va mustaqil ravishda ta’lim olish uchun ajratilgan minimal vaqt o‘lchoyidir. Talabaga kredit ma’lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgandan keyin beriladi.

Bugungi kunda mazkur kredit o‘lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha dunyoda to‘rtta model keng tarqalgan bo‘lib, bular AQSHnig kredit tizimi (USCS).

Yevropa davlatlarining kredit tizimi (ECTS).

Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS).

Buyuk Britaniya kredit tizimi (CATS).

Ushbu modellarning eng ko‘p tarqalgani AQSH va Yevropa modellaridir. 1869-yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini

iste'molga kiritadi (2).1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi. Ushbu tizimni yaratish uchun o'tgan asrning 70-yillaridan Yevropadagi barcha oliy ta'lim muassasalarining integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'limning yagona standartini yaratish, talabalar va o'qituvchilar mobilligini yo'lga qo'yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan ballarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlab yuboriladi. Mazkur harakatlarning samarasi o'laroq, 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolanadi. Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida 48 ta mamlakat ishtirok etadi. Hozirgi paytda mamlakatimizda kredit-modul tizimini joriy etishda Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishga ustuvorlik qaratmoqda.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Kredit-modul tizimining ta'lim tizimiga joriy etganda uning afzalliklari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan va quyidagi jarayonlarga ijobiy ta'sir etishi aniqlangan: o'qitish sifatini oshiradi, shaffoflikni ta'minlaydi, korrupsiyaga barham beradi, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqaradi, talabaning mustaqil o'qib-o'rganib o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi, professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni oshiradi, o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi, shuningdek, talabalar almashinuvini oshiradi, chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi, aynan ushbu tizim o'zbekistonlik talabalarning ilg'or xorijiy universitetlarda o'qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to'siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil etish, fanlar va kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash, talabalar bilimini reyting ballar asosida baholash, talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tizishlariga imkon yaratish, ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish.

Kredit-modul tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Talabalarga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish.
2. Ta'limda shaffoflikga erishish.
3. Ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirish.
4. Talabalar mobilligini kuchaytirish.

Natija. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli tizimda o'qituvchi talabaning o'zlashtrish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi va uni muntazam tekshirib boradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi, Bunda eng katta urg'u talabaning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayoida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijobiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Talabalar har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olsh imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z yo'lida hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikma va malakalarini shakllatirishga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimiga o'tishning yana bir afzallak tomoni professor-o'qtuvchilarga bo'lgan majburiyat va talablarni oshiradi. Endi o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi vazifalarni, balki maslahatchi va muvofiqlashtiruvchilik vazifalarni ham bajaradi (1).

Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bildiradi. ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25–30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar fan 6 kreditli fan bo'lsa, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 150–180 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi (25*6=150; 30*6=180). Bakalavr yo'nalishidagi talabalar o'qish davomida jami 240 kredit, magistratura mutaxassisligidagi talabalari 120 kredit to'plashlari lozim bo'ladi.

Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilagan bo'lsa, undan 12 soati (30* 40%=12) auditoriya soatlari, 18 soati (30*60%=18) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ((30*6)*40%=72)) auditoriya darslarini, 108 soat ((30*6)*60%=108)) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi (3) .

Kredit-modul tizimida o'quv jarayoni 2 xil shaklda tashkil etiladi:

1. Audatoriyada ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya – 40%.

2. Mustaqil ta’lim – 60%.

Mustaqil ta’lim 2 turga bo‘linadi:

1. O‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mustaqil ta’lim ishlari: fan to‘garaklari, olimpiadalar, ilmiy anjumanlar, tanlov (musobaqa)lar, kurs ishlari va boshqalar (3).

2. Talabaning o‘zi tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar: o‘quv adabiyotlari va internet saytlari, glossariyalar, ma’lumotnomalar, keyslar va topshiriqlar to‘plami, videomateriallar, platform, forum, chatlar, sillabuss, dastur, jadvallar va boshqalar.

Kredit-modul tizimida fan sillabusini tayyorlashga juda katta ahamiyat beriladi va bu juda ham muhimdir. Kredit-modul tizimida OTMning har bir o‘qituvchisi o‘zining har bir fani bo‘yicha 4–5 varaqli fan dasturiga, ya’ni «sillabus»ga ega bo‘lishi va uni semestr boshida talabalarga taqdim etishi lozim. Fan dasturi o‘z ichida ushbu fanning maqsadlari, uning o‘quv dasturida tutgan o‘rni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o‘rganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan bo‘yicha semestr davomida o‘rganiladigan mavzular ro‘yxati, talabalar foydalanishi zarur va mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati, baholash mezonlari haqidagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Agar fan tanlanadigan fan bo‘lsa, talaba uchun bunday ma'lumotlarning ahamiyati yanada ortadi. Talaba, yuqorida aytilganidek, fanni tanlash yoki tanlamaslik bo‘yicha qarorga kelishi uchun fanning nomini yoki uni o‘qitadigan o‘qituvchining ismini bilishining o‘zigina kifoya qilmaydi. Talaba bunday qarorga kelishi uchun fan bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa. Agar kredit modul tizimi to‘g‘ri va to‘liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta’limi tizimida juda katta ijobiy o‘zgarishlarni olib kelishi, shuhbasiz. Chunki bu tizim oliy ta’lim tizimida ta’limning jahon tan olgan mukammal o‘lchov birligini olib kirilishiga, OTMlar o‘quv dasturlarida muvozanat va me’yor paydo bo‘lishiga, oliy ta’lim muassasalarda o‘qish jarayonining shaffoflanishiga, o‘quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma’lum ma’noda o‘zining mustaqil o‘quv dasturiga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Esanov. Oliy ta’limni kredit-modul tizimida tashkil etish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma, T., “Sano standart”, 2023.

2. А.Артёмов, Н.Павлов, Т.Сидорова. Модульно-рейтинговая система. Высшее образования в России. 1999.

3. В.В.Баум. Система зачётных единиц (кредитов) как один из инструментов признания квалификаций. М., РУДН, 2007.

Internet saytlari:

-https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul_tizimi

-https://kompy.info/1-mavzu-kredit-modul-tizimi-haqida-tushuncha.html

Tangriyev Alisher Jumanazarovich (Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti (PhD)

YOSH DZYUDOCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK HOLATLARI

Annotatsiya*. Mazkur tadqiqot ishimizda yosh dzyudochilarning musobaqa oldi tayyorgarlik davrlaridagi psixologik o‘zgarishlari aniqlab boriladi va dzyudochilar funksional holatlari baholanadi.*

Аннотация. *В данном исследовании определяются психологические изменения юных дзюдоистов в периоды предсоревновательной подготовки и оценивается функциональное состояние дзюдоистов.*

Annotation. *In this research, the psychological changes of young judokas during the pre-competition preparation periods are determined and the functional conditions of judokas are evaluated.*

Kalit so‘zlar: *yosh dzyudochilar, jismoniy yuklama, jismoniy sifat, psixologik holat, ruhiy ta’sir.*

Ключевые слова: *юные дзюдоисты, физическая нагрузка, физическое качество, психологическое состояние, психическое воздействие.*

Key words: *Young judokas, physical load, physical quality, psychological state, mental impact.*

Dolzarbligi. Hozirgi kunda dzyudo sport turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda, tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar olib borayotgan ko‘plab yosh dzyudochilarning mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtirish, sport pedagogik mahoratini oshirish, mashg‘ulot jarayonlarining

katta va kichik sikllarida tayyorgarlik turlarining zamonaviy usullar orqali tashkil etish kabi masalalarni oldinga surish mumkun [2.3]. Yosh dzyudochilarning musobaqa jarayonlari davomida yuqori natijalarga erishishlari tayyorgarlik davomida ularning psixologik tomondan ham tarbiyalab borish lozim. Tayyorgarlikning dastlabki bosqichida harakat sifatlarining rivojlanishi va dasturdagi jarayonlar sifatli ketma-ketlikda o‘zlashtirilishi masalalarini aniq tatbiq etish talab etadi va jarayon davomida sport psixologi nazoratida mashg‘ulotlarni tuzish o‘z natijasini ko‘rsatadi [4.5].

Nufuzli mavqega ega bo‘lgan katta musobaqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda yosh dzyudochilarning psixologik holatini yahshilash va rivojlantirish masalalari alohida o‘rinni egallaydi. Yosh dzyudochilarni psixologik holarlarini nazoratda ushlash mashg‘ulotlarni boshqarish tizimining zarur bo‘g‘inlaridan biridir. Mazkur muammo chet ellik olimlarning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan: A.Z.Bajayev, E.E.Bezin, S.L.Rubinshteyn, V.D.Shadrinlarning hamda mahalliy olimlar orasida A.N.Abdiyev, A. Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev, Z.A.Bakiyev, N.A.Tastanovlarning tadqiqotlarini alohida qayd etish kerak. Ko‘rinib turganidek, har bir sport turlari bo‘yicha yosh sportchilarni psixologiyasi bilan bog‘liq tayyorgarlik turlari mavjud [4.5.6.7.8.9.10.11.12].

Dzyudo sport turida o‘rganib chiqilgan ko‘pgina muammolar qatoriga musobaqa oldi tayyorgarligi davomida yosh dzyudochilarning psixologik holatlarini o‘rganish kabi bir qator masalalar ham mavjud [12]. Dzyudochilarning psixologik ko‘rsatkichlarini aniqlash, baho berish va musobaqa davomida psixik holatlarga baho berish masalalari to‘liq o‘rganib chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Yosh dzyudochilarning psixologik holatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari. Yosh dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik davomida psixologik holatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Yosh dzyudochilarning mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Yosh dzyudochilarning musobaqa oldi psixologiyasini o‘rganish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish. Chirchiq shahar bolalar va o‘smirlar sport maktabida shug‘ullanuvchi yosh dzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlari davomida o‘tkazildi. Tajribalarimizda o‘quv mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi yosh dzyudochilar ishtirok etdi (n=88).

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va muhokamasi. Yosh dzyudochilarning tayyorgarlik jarayonlari davomida qo‘llaniladigan vositalar samaradorligini aniqlashning eng maqbul usuli bu musobaqa davomida yosh dzyudochilarning ko‘rsatgan natijalari hisoblanadi. Mashg‘ulot yuklamalari tuzilmasini amalga oshirish jarayonida yosh dzyudochilarning tayyorgarlik samaradorligini belgilab beruvchi asosiy mezonlarni ishlab chiqish hamda psixologik holatlarni nazoratga olish samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Musobaqa oldi tayyorlov mashg‘ulot jarayonida mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari dinamikasi boshlang‘ich sport ixtisosligi bosqichidan sport takomillashuvi bosqichigacha sportchilar tomonidan bajariladigan o‘rta va uzoq masofalar hajmining ahamiyatli darajada o‘sib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Shu o‘rinda, musobaqa oldi mashg‘ulotlarida yosh dzyudochilarning psixologik ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida psixologik nazorat sinovi o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dastavval, 12–13 yoshli dzyudochilarning psixologik ko‘rsatkichlari aniqlanganda quidagicha natijalar kuzatildi. 12 yoshli dazyudochilarda musobaqa oldi davrida xavotirlanish ko‘rsatkichlari aniqlandi va tajriba guruhi dzyudochilarida tajribadan oldin qayd etilgan natijalar 9,70±1,83ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich natijalari tajribadan keyin 7,80±1,55ga kamaygani aniqandi. Xavotirlanish darajalari musobaqa oldidan ko‘plab sportchilarda yuqori bo‘lishi haqiqatdir. Ammo kerakli amaliyot jarayonlarini sportchilarga mashg‘ulotlar davomida tatbiq eta olish musobaqa jarayonidagi natijalarni tubdan o‘zgartira olish imkonini beradi. Bu kabi natijalar yosh dzyudochilar psixologik holatiga bog‘liqdir.

1-jadval

11–12 yoshli dzyudochilarning musobaqa oldi psixologik holati natijalari

Ko‘rsatkichlar	T/D guruhlari	12 yosh		13 yosh	
		Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
		x σ	x σ	x σ	x σ
Xavotirlanish darajasi	N	9,8±1,93	8,4±1,07	9,4±1,26	8,5±0,85
	T	9,70±1,83	7,80±1,55	9,10±1,79	7,60±1,35

Yosh dzyudochilarning xavotirlanish ko‘rsatkichlari nazorat guruhida ham o‘tkazilganda tajribadan oldin olingan natijalar 9,8±1,93ni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan keyin qayd etilgan natijalar 8,4±1,07ga kamaygani aniqlandi. Natijalar orasidagi statistik farq 1,4ga teng bo‘ldi (1-jadval).

Dzyudochilarning psixoligik halatlari har bir sportchida o‘ziga hos ravishda bo‘lib murabbiy tomonidan berilgan yuklamalarga hamda o‘zaro olishuv davomida raqibiga nisbatan agressiv munosabatda bo‘lish kabi psixik holatlarni to‘g‘i baholash va ruhiy holatlarini aniqlashda bizga sport psixologi yordami zarur hisoblanadi. Xavotirlanish darajasini aniqlash uchun 13 yoshli dzyudochilar bilan psixologik test o‘tkazganimizda nazorat guruhida mashg‘ulotlar olib borishayotgan dzyudochilarda tajribadan oldin 9,4±1,26ni, tajribadan keyin 8,5±0,85lik natijalar kuzatildi. Tajriba guruhi dzyudochilarida esa tadqiqotdan oldin xavotirlanish natijalari 9,10±1,79ga teng ekanligi aniqlangan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin olingan natijalar 7,60±1,35ga o‘zgardi. Ushbu natijalar orasidagi statistik ko‘rsatkichlari farqi 1,5ni tashkil qildi (1-jadval).

Tadqiqot amaliyotimiz davomida yosh dzyudochilarning ushbu sport turiga hamda musobaqa muobaynidagi g‘alabaga bo‘lgan motivatsiyalari ham inobatga olinadi. Motivatsiya nafaqat xatti-harakatlarni faollashtiradigan omillarni nazarda tutmaydi, shuningdek, ushbu maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni boshqaradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan omillarni o‘z ichiga oladi (garchi bunday motivlar kamdan kam hollarda bevosita kuzatilishi mumkin bo‘lsa ham). Natijada yosh sportchilar har bir usul va uslublarini kuzatiladigan xatti-harakatlarga asoslanib qilishlari haqida tez-tez xulosa chiqarishimiz maqsadga muvofiqdir.

Motivatsiya ko‘rsatkichlari orasida irodani mustahkamlashga qaratilgan qismi tadqiqot ishimiz mobaynidagi yosh dzyudochilarning psixologik nazorat sinovlariga ham baho berib o‘tsak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har bir yosh sportchining iroda kuchida bo‘lgan munosabati ularning yuksak marralarni qo‘lga kiritishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2-jadval

13–14 yoshli dzyudochilarning musobaqa oldi psixologik holati natijalari

Ko‘rsatkichlar	T/D guruhlari	14 yosh		15 yosh	
		Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
		x σ	x σ	x σ	x σ
Xavotirlanish darajasi	N	8,7±1,64	7,4±0,84	8,7±1,64	7,4±0,84
	T	9,20±2,04	7,4±1,71	9,20±2,04	7,4±1,71

Yosh dzyudochilarning xavotirlanish darajalarini aniqlash 13 yoshli sportchilar orasida ham o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, nazorat guruhi dzyudochilarining ko‘rsatkichlari tajribadan oldin 8,7±1,64ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajribadan keyin qayd etilgan natijalar 7,4±0,84ga qisqargani kuzatildi. Ushbu yoshdagi dzyudochilarning tajriba guruhida mashg‘ulot jarayonlarini olib borayotgan sportchilardagi ko‘rsatkichlar tajribadan oldin 9,20±2,04ga teng bo‘lgan bo‘lsa, tajribadan so‘ng 7,4±1,71ga kamaydi. Ko‘rsatkichlar orasidagi farq 1,8ga teng ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhi dzyudochilariga nisbatan tajriba guruhi dzyudochilarida xavotirlanish ko‘rsatkichi kamayganligi kuzatildi (2-jadval).

15 yoshli dzyudochilarning musobaqa oldi xavotirlanish ko‘rsatkichlari tajriba guruhidan tadqiqotdan oldin 9,20±2,04ni, tadqiqotdan keyin 7,4±1,71ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa tadqiqotdan oldin 8,7±1,64ga, tadqiqotdan keyin 7,4±0,84ga o‘zardi. Natijalar musobaqa jarayoni davomida yosh dzyudochilardagi xavotirlanish darajalari ancha yuqori ekanligi o‘z isbotini topdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 1–2-jadvallarda taqdim etilgan natijalar yosh dzyudochilarning musobaqa oldi tayyorgarlik tizimida xavotirlanish darajalariniтп yuqori bo‘lishi va kuchli hayajon ta’sirida o‘z imkoniyatlarini yetarli darajada ko‘rsatib bera olmasligining oldini olish maqsadida o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali olib borishlari uchun yetarlicha imkoniyat yaratib berilishi zarur. Ushbu natijalarga ko‘ra, yosh dzyudochilarning psixologik holatlari musobaqa oldi jarayonlarida jadallashib boradi va musobaqa davomida o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olishmaydi. 1- va 2-jadvalda ko‘rsatilganidek, tajriba guruhi dzyudochilarida nazorat guruhida mashg‘ulotlar olib borishgan dzyudochilarga nisbatan xavotirlanish ko‘rsatkichlari birmuncha ijobiy darajada ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari yakuniga kelib, shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz joizki, o‘quv-mashg‘ulot davomida yosh sportchilarning ruhiy holatlarini nazoratga olish va kerakli mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish uchun sport psixiatori nazorati ostida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuni ham e’tiborga olish kerakki, yosh

sportchilar musobaqa oldi tayyorgarlik davomida ham ma’nan, ham ruhan motivatsiya bilan tayyorgarlik jarayonlarini yakunlasa, yuqori natijalarga erishish koeffitsiyenti birmuncha yuqori bo‘lishi kazatilishi mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan” yig‘ilishdagi nutqi. 2018-yil 21-sentabr, “Xalq so‘zi”.
2. Mirziyoyev Sh.M. PQ-5281-sonli “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) XXXIII olimpiya oyinlari va XVII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”. 2021-yil 5-noyabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. PQ-226-sonli “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2022-yil 20-iyun.
4. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. T., “O‘zdjti”. 2005, 232-bet.
5. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений студентов, специализирующих в видах спортивных единоборств. Автореф. дис. д-ра. пед. наук, Т., 2004, с. 51.
6. Ахметов Р.В. Развитие силовых и скоростно-силовых качеств у борцов греко-римского стиля. Среднетерешанск, 2016, 43 с.
7. Бажаев А.З., Лукьяненко В.Л., Ханев В.В. Развитие силовых возможностей человека как базовая для реализации координационных способностей. Теория и практика ф.к., 2007, № 6, с. 52 – 54.
8. Бакиев З.А., Тастанов Н.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности. «Педагогик таълим», Т., 2008, №3, с.125–130.
9. Безин Е.Е. Скоростные способности спортсменов и методика их развития. Здоровье – сберегающ. технологии: физическая реабилитация и рекреация в высших учебных заведениях. Междунар. научн. конф., Белгород; Харьков, 2008, с. 11 – 13.
10. Рубинштейн С.Л. Проблема способностей и вопросы психологической теории. В хрестоматии “Психология индивидуальных различий”. Под общей редакцией Ю.Б.Гиппенрейтер, В.Я.Романова, изд. третье, из-во “Астрел”, М., 2008, с. 47 – 54.
11. Рубинштейн С.Л. “Способности”. В хрестоматии “Психология индивидуальных различий” под общей редакцией Ю.Б.Гиппенрейтер, В.Я.Романова, изд-е третье, из-во “Астрел”, М., 2008, с 31 – 46.
12. Шадрин В.Д. “Психология способностей”. В хрестоматии “Психология индивидуальных различий”. Под общей редакцией Ю.Б.Гиппенрейтер, В.Я.Романова, изд-е третье, из-во “Астрел”, М., 2008, с. 64 – 79.

Otamuratova Saodat Shonazarovna (UrDU Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi),
Rajabov Xudayor Madrimovich (UrDU Kimyo kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD),
Eshchanov Erkabay Uskinovich (UrDU Kimyo kafedrasi mudiri, p.f.n.),
Savutova Malohat Erkinovna (UrDU Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi)

“KARBON KISLOTALAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA SIRKA KISLOTANING QO‘LLANILISHIGA OID O‘QUV LOYIHASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada organik kimyo kursining “Karbon kislotalar” mavzusini o‘qitishda loyiha ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada sirka kislotaning ishlatilishiga oid o‘quv loyihasi materiallari yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы организации учебной деятельности учащихся на основе проектной образовательной технологии при обучении темы “Карбоновые кислоты” курса органической химии. Также в статье освещены материалы образовательного проекта по применению уксусной кислоты.*

Annotation. *This article discusses the issues of organizing educational activities of students on the basis of project educational technology on teaching the topic “Carboxylic acids” in the course of organic chemistry. The article also highlights the materials of the educational project on the use of acetic acid.*

Kalit so‘zlar: *loyiha ta’lim texnologiyasi, loyihaviy ta’lim modeli, o‘quv loyihasi, karbon kislota, sirka kislota, sirka.*

Ключевые слова: *технология проектного обучения, модель проектного обучения, учебный проект, карбоновая кислота, уксусная кислота, уксус.*

Key words: *project-based learning technology, project-based learning model, educational project, carboxylic acid, acetic acid, vinegar.*

Kimyoning tarixi va uning ko‘p sonli yangi yo‘nalishlariga tegishli juda katta hajmdagi ilmiy-nazariy va moddiy-faktik jamg‘armasidagi ma’lumotlarni yoritish va o‘rganishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish talab etiladi. Chunki zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan

foydalanmasdan turib kasbiy, ijtimoiy ahamiyatga va shaxsiy sifatlarga ega, jahon standartlariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda muayyan kasblarga oid kompetensiyalarni to‘la egallashlariga erishish, darslarni yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, individual xususiyati va shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda tashkil etish kabi ta’lim tizimining oldida turgan asosiy maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Loyiha ta’lim texnologiyasi yoshlarda yuqorida qayd etib o‘tilgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va ta’lim tizimi oldida turgan maqsadlarga erishishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi.

Loyihaviy ta’lim modelida o‘qituvchi tomonidan loyihalash ko‘rinishiga ega muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natijaga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o‘quv faoliyati tashkil etiladi.

Loyiha texnologiyasidan foydalanishga o‘rgatish tahsil oluvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. Binobarin, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida loyiha texnologiyasini takomillashtirishga e’tibor berilayotgani alohida dolzarblikni kasb etib, ta’lim jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini kengaytiradi.

O‘quvchilarning loyihaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishning ko‘plab usullari mavjud. Loyihalar ularning davomiyligiga qarab qisqa, o‘rta va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Loyiha ishtirokchilarining soniga ko‘ra esa individual, kichik guruhga mo‘ljallangan va jamoaviy o‘quv loyihalaridan keng foydalaniladi. O‘quv loyihasi axborot, ma’lumot va tadqiqot maqsadlarida o‘tkaziladi. Axborot maqsadidagi o‘quv loyihasida muammoning holati to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, uning tahlili, umumlashtirilishi, yoritilishi va muammoni hal etishning mavjud usullari va vositalari tasnifi, ularning ustunliklari va kamchiliklarini izohlash amalga oshirilib, o‘quv loyihasi natijalari maqola, referat, ma’ruza, keys va boshqalar ko‘rinishida taqdim etiladi. Tadqiqot maqsadlaridagi o‘quv loyihasi tadqiqotni amalga oshirish, o‘tkazilgan tadqiqot asosida muammoning asoslangan izohi, kelgusida uni yanada rivojlantirish va yangi muammolarni asoslashga qaratilgan bo‘lib, bunday o‘quv loyihasi natijasida muammolarni hal etish usullari va vositalari ishlab chiqiladi.[1]

Maktab va akademik litseylar kimyo kursiga oid darslarda ko‘proq o‘quvchilarning jamoaviy ishini tashkil etishga qaratilgan o‘quv loyihalaridan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ularda ma’lum bir mavzuga oid materiallar to‘liq va umumlashtirilgan holda ko‘rib chiqiladi. Bunday loyihalardan foydalaniladigan darslarda o‘quvchilarning xotiralari, nutqi, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘zlarini shaxsiy idrok etishlariga imkoniyat yaratiladi.

O‘quvchilarning loyiha faoliyatini tashkil etishda asosiy e’tibor o‘quvchilarga odatdagi narsalarda g‘ayrioddiylikni ko‘rishlariga yordam berish va shu yo‘l bilan kimyoning hayotga yaqin fanligini tushunishlari hamda uning imkoniyatlari cheksiz ekanligini ko‘rsatishdan iborat. Masalan, maktab va akademik litseylar organik kimyo kursining “Karbon kislotalar” mavzusi bo‘yicha sirka kislota va uning suvli eritmalarining qo‘llanilishiga doir o‘quv loyihasi orqali sirka qanday tarzda, qachon va qayerda paydo bo‘lganligi va u qanday maqsadlarda ishlatilganligi, shuningdek, ushbu birikmaning zamonaviy inson hayotida ham qanday o‘rin egallashini ko‘rsatib berishi mumkin. Ayniqsa, o‘quv loyihasida sirka kislotaning foydali xususiyatlari va uni ishlatishning turli usullari haqidagi ma’lumotlarning bo‘lishi darsda loyiha usulining qo‘llanilishini asosiy natijasi bo‘lib xizmat etadi. Chunki bu o‘quvchilarni darslarning amaliy yo‘nalishiga qiziqishini oshirish hamda ba’zi o‘quvchilarni shu kabi ilmiy loyihalar ustida mustaqil ravishda ishlashga o‘rgatishda qo‘l keladi. Sirka kislotadan amaliy foydalanishga oid o‘quv loyihasida quyidagi mazmundagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Sirka kislota va uning sirka deb ataluvchi suvli eritmasi mikrobiologik sintezning eng qadimgi mahsulotlaridan biridir. Sirka ishlab chiqarishning tafsilotlari 1864-yilgacha hech kimga oshkor etilmagan. Insoniyat tomonidan u juda qadimdan to hozirgi kungacha ziravor sifatida, tibbiy, gigiyenik maqsadlarda va kundalik turmushda amalda qo‘llanilib kelmoqda.[2]

---

[1] Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. Т., 2015, 139 – 142-бетлар.

[2] Степин Б.Д. Домашняя химия. Химия в быту и на каждый день [Настол. кн. для каждой семьи]. Б.Д. Степин, Л.Ю.Аликберова, Н.С.Рукк. Москва, РЭТ, 2001, с. 287.

Avvalombor, o‘quv tadqiqot loyihasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan “sirka” deb ataluvchi eritmaga oid materiallarga to‘xtalsak. Sirka tarkibida 3–5% sirka kislota tutgan suvli eritma hisoblanadi. U ikki toifaga ajratiladi: tabiiy va sintetik (boshqacha aytganda, sirka essensiyasi). Tabiiy sirka sharob, fermentlangan sharbatlar, pivo sharbati va boshqa shu kabi alkogolli suyuqliklarni fermentatsiyalash natijasida olinadi. Tabiiy sirka foydali mikroelementlar, turli vitaminlarni o‘z ichiga oladi va organizmni tozalash xususiyatiga ega. Shuning uchun u turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda ishlatiladi. Tabiiy sirka tarkibida sirka va boshqa oziq-ovqat kislotalari (limon, tartarat, olma va boshqalar), aldegidlar, efirlar, murakkab spirtlar mavjud bo‘lib, ularning kombinatsiyasi sirka aromatik xususiyatini yaratadi. Konsentrlangan sintetik sirka kislotasini suyultirish natijasida olingan sirka aromatik xususiyatlarga ega emas, lekin sirka kislotasining o‘ziga xos hidi bor.

Bugungi kunda sirka deyarli har qanday oziq-ovqat do‘konida mavjud bo‘lgan eng keng tarqalgan mahsulotlardan biridir. Oshxona sirkasi, asosan, sabzavotli salatlarda o‘simlik moyi bilan birgalikda ishlatiladi. Sirka pomidor va bodring tuzlamalarida asosiy rol o‘ynaydi va ulardan konservant sifatida foydalaniladi, chunki u oziq-ovqatning parchalanish jarayonini sekinlashtiradi. Sirka, ko‘pincha, arpabodiyon, sarimsoq va boshqa turli xil xushbo‘y o‘tlar bilan birga ishlatiladi.

Sirkadan ovqat pishirishda va xonalarni tozalashda, mukammal kosmetika mahsuloti va dog‘larni yo‘qotishda yaxshi vosita sifatida foydalaniladi. Ovqat pishirishda tabiiy sirkadan foydalanish yaxshidir. Sirka an’anaviy ravishda kislotalilik va mazali ta’m hosil qilish uchun ishlatiladi. Go‘shtni sirka ishlatib tuzlash uni yumshoqroq va shirali qiladi. Tuxumni qattiq qaynatib pishirish vaqtida 1 osh qoshiq sirka 0,5 litr suvga qo‘shilsa, bu tuxum qobig‘ini yorilishidan saqlaydi. Qozon yoki tovani tozalashda idishga 1:1 nisbatda suv bilan aralashtirilgan sirka solib, 4–5 daqiqa qaynatilgandan keyin toza suv bilan yuviladi. Agar ifloslanish qisman yo‘qolgan bo‘lsa, jarayonni yana qayta takrorlash mumkin. Kofe yoki choy ichidagi yuvish qiyin bo‘lgan qoldiqlarni, shuningdek, vaza ichidagi yashil qoldiqlarni olib tashlash uchun ularni, dastlab, 1 litr suvga 5 osh qoshiq sirka qo‘shilgan eritma bilan yuvish, keyin esa toza suv bilan chayish lozim. 1:1 nisbatdagi sirka va suv aralashmasi derazalarni osongina va samarali yuvishga yordam beradi. Oshxona yoki hammomdagi jo‘mraklarni yangidek bo‘lishi uchun matoni sirka bilan namlab, uni jo‘mrak atrofiga bir necha daqiqa o‘rab qo‘yiladi, so‘ngra uni suv bilan yaxshilab yuvib tashlanadi. Sirka mato yoki yog‘ochdan mum qoldiqlarini olib tashlash uchun ishlatilishi mumkin. Bu jarayon quyidagicha bajariladi: mum bilan bo‘yalgan sirtni suv va sirkaning teng nisbatda olingan eritmasida namlangan mato bilan yaxshilab artib olish kerak. Shuningdek, hatto eski bo‘lsa ham gilamdagi dog‘larni sirka bilan olib tashlash mumkin. Buning uchun 50 g tuz va 2 osh qoshiq sirkadan tayyorlangan xamirni gilamga surtilib, quritilgandan keyin uni vakuum qilinadi. Kiyimga, poyabzalga, yumshoq mebellarga yopishgan saqichni ham sirka yordamida olib tashlash mumkin. Buning uchun mato sirka bilan namlanadi, mikroto‘lqinli pechda bir daqiqaga qizdiriladi, so‘ngra saqich yopishgan joyni ushbu sirkali mato bilan qattiq bosgan holda tozalash mumkin. Choynak yoki boshqa idish ichidagi toshli cho‘kindilarni olib tashlash uchun ularning ichiga suv bilan aralashtirilgan sirka solib, taxminan, 15–20 daqiqa qaynatiladi. Hojatxonaning keramik yuzani tozalashda bir necha (10–12) soat oldin sirtni sirka bilan namlanadi (masalan, purkash vositasi orqali osongina namlanishi mumkin). Shundan so‘ng, sirt odatdagidek, tozalanadi va yuviladi. Axlat qutisidagi yoqimsiz hidlarni yo‘qotish uchun sirka 1:2 nisbatda suv bilan suyultiriladi va sirtni eritma bilan yuviladi.

Oshxona mebellari va pechdan yoqimsiz hidlarni yo‘qotish uchun ularning yuzasini 1:1 nisbatda suv bilan suyultirilgan sirka bilan artib olinadi. Ovqat pishirgandan so‘ng, tutun tortish uskunasi yoqilgan bo‘lsa ham, ko‘pincha oshxonada yoqimsiz kuygan hidlar (yog‘, baliq va boshqalar) qoladi. Uni yo‘qotish uchun past olovda 50 ml sirkani qaynatish kerak. Ushbu jarayondan so‘ng yoqimsiz hid yo‘qoladi. Xonani doimiy sigaret tutuni hididan xalos qilish uchun 1:1 nisbatda suv bilan aralashtirilgan sirka eritmasidan stollarga sepiladi va xonadagi barcha mebellarni ushbu eritmada namlangan mato bilan artib olinadi. Sovun qoldiqlarini olib tashlash va shu bilan birga dezinfeksiyalash uchun tukli yumshoq matoni bir kechada teng qismlarda olingan sirka qo‘shilgan suv bilan namlash kifoya. Ertalab matoni oqayotgan suvda yaxshilab yuvish kerak. Polni yuvish va dezinfeksiya qilish uchun 10 litr suvga 150 ml sirka qo‘shib ishlatish mumkin. Sirka yumshoq mebellarni changdan xalos bo‘lishiga va dezinfeksiya qilishga yordam beradi. Buning uchun uni 3 litr suvga 3 osh qoshiq sirka qo‘shilgan suvli eritma bilan namlangan choyshab yopish kerak.

Chumolilardan xalos bo‘lish uchun bir necha marta (5–10 soat oralig‘ida) hasharotlar ko‘rinadigan sirtni (stol, taglik, pol, idish-tovoq yuvadigan joy) sirka va suv teng qismlarda aralashtirib tayyorlangan aralashma bilan qayta ishlanadi. Teri buyumlari (qo‘lqop, portfel, poyabzal va boshqalar)ning ko‘rinishini

yangilash va yumshatishda sirkadan foydalanish mumkin. Bunda matoni sirka bilan namlab, yaxshilab siqib olinadi va mahsulot yuzasi yaxshilab artiladi. Rangli qalamlar bilan bo‘yalgan devor qog‘ozini tozalash uchun yumshoq cho‘tkani sirkaga botirib, undan ortiqcha suyuqlikni silkitib, devorlardagi dog‘larni ohistalik bilan artib olinadi. Mebel yuzasida stakanlar va boshqalardan qolgan oq dog‘larni bildirmaslik uchun sirka va zaytun moyini aralashtiriladi (1:1 nisbatda), so‘ngra yumshoq matoni namlab, mebel yuzasi u bilan artib olinadi. Mebeldagi (laklanmagan) mayda tirnalishdan qoldan izlarni iloji boricha sezilmasligi uchun sirka va yodni aralashtiriladi, salfetkani u bilan namlab tirnalgan joylarga yaxshilab ishlov beriladi.

Sirkani kir yuvish uchun ham ishlatish mumkin. Gazlamalardagi dog‘larni (sharob dog‘lari, dezodorantdan, terdan va hokazolardan qolgan) yo‘qotish uchun ifloslangan joyga ozgina sirka quyish kifoya qiladi, keyin mahsulotni odatdagidek yuvish mumkin. Kir yuvish mashinasiga kir yuvishdan oldin qo‘shilgan atigi 100 ml sirka ajoyib natijani beradi. Sirkaning yana bir foydali tomoni – matoning tolalarini yumshatadi. Kiyimlarni yoqimsiz hiddan xalos qilish uchun ularni bir kecha sirka eritmasida namlash kifoya (10 litr suvga 200 ml sirka eritmasi tayyorlanib, qaynatish darajasigacha qizdiriladi). Sovigandan so‘ng, kiyim-kechak joylashtiriladi va bir kechaga qoldiriladi. Ertalab mahsulotni odatdagidek yuvish kerak.

Avtomobillar uchun ham sirkaning foydali tomonlari ko‘p. Avtomobil oynalarining muzlashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularni eritmaga botirilgan mato bilan artib olish kerak (3 qism sirka, 1 qism suv bilan aralashtirilgan eritma).

Bog‘ va poliz uchun ham sirkaning foydali xususiyatlari talaygina. Sirkani bog‘ va ekinlarni turli zararkunandalariga qarshi kurashish uchun muvaffaqiyatli ishlatilish mumkin. Bundan tashqari, sirka ba’zi o‘simliklarga foydali ta’sir ko‘rsatadi, begona o‘tlardan xalos bo‘lishga yordam beradi, issiq havoda o‘simliklarni sirka eritmasi bilan tozalash kerak. Ushbu eritmani tayyorlash uchun 1 litr qaynatilgan suvga 5 osh qoshiq sirka, 2 osh qoshiq tuz va 1 osh qoshiq suyuq sovun solinadi, shundan so‘ng hammasi yaxshilab aralashtiriladi, sovitiladi va darhol o‘simliklarga purkaladi.

Sirka kolorado qo‘ng‘izi va uning lichinkalariga qarshi kurashuvchi ajoyib vositadir. Kartoshka butalarini 10 litr suv, 100 ml sirka va 200 g quruq xantal kukunidan tayyorlangan eritma bilan tozalash kerak (bu miqdor yuzta kartoshka ekish uchun yetarli, eritma tayyorlangandan keyin darhol ishlatilishi kerak), shira bilan kurashishga 1 litr suvda 1 osh qoshiq sirka eritmasi yordam beradi, o‘simliklarni burga va karam oqlaridan qutqarish uchun 8 litr suvga 2 osh qoshiq 70%li sirka eritmasidan solib aralashtirilib, karam va turp ko‘chatlariga sepiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sirka kislota va uning suvli eritmalarini qo‘llanilishiga doir ushbu o‘quv loyihasi materiallaridan nafaqat kimyogar o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatlarida foydalanishlari mumkin, balki ushbu materiallar bog‘bon, oshpaz va uy bekalari hamda boshqa turli soha vakillari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Azamov Sherzodjon Xusanboy o‘g‘li (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sherzodbekazamov95@gmail.com)

ZAMONAVIY INNOVATSION MAKTABDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uzluksiz ta’limning asosi bo‘lgan maktab ta’lim tizimining tarmog‘ini kengaytirish, zamonaviy innovatsion maktablarni tashkil etish va buning uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish haqida ma’lumot berilgan. Ta’lim tizimini isloh qilish, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini izchil rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, maqolada innovatsion maktabda rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari o‘rganilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о расширении сети системы школьного образования, являющейся основой непрерывного образования, создании современных инновационных школ, созданных для этого условиях, повышении качества обслуживания. На основе реформирования системы образования и создания конкурентной среды проводятся определенные работы по последовательному развитию системы образования. Кроме того, в статье рассматриваются теоретико-методологические основы организации развивающей образовательной среды в инновационной школе.*

Annotation. *This article provides information on the expansion of the branch of the school education system, which is the basis of continious education the establishment of modern innovative schools and the conditions created for this, as well as the improvement of the quality of servise. On the basis of reforming the educational system, creating a competitive environment certain works are being done on the consistent development of the educational system. Besides this the article studies the theoretical and methodological foundations of organizing a developmental educational environment in an innovative school.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion maktab, ta’lim muhiti, metodologik asoslar, ijodkorlik, ta’lim sohasi, ijtimoiy soha, individual faoliyat, rivojlantiruvchi ta’lim.*

Ключевые слова*: инновационная школа, образовательная среда, методические основы, творчество, образовательная сфера, социальная сфера, индивидуальная активность, развивающее обучение.*

Key words: *Innovative school, educational environment, methodologic foundation, creativity, the branch of education, social branch, individual activity, developmental education.*

Kirish. Mustaqil davlatlar rivojlanishi bilan jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar, dunyoqarashlar almashinuvi va ta’lim tizimini isloh qilish davrida mustaqil ish yurita oladigan yangi tipdagi o‘qituvchi kadrlarni fan sohasiga olib kirish zarurati tug‘ilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonlari. 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi [1].

Jahon ta’limi kompetentli yondashuv asosida o‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish orqali ta’lim jarayonini innovatsion-metodik ta’minotini yaratish, ularda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtayi nazardan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, fanga oid tayanch kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, kreativlik faoliyatini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish va amaliyotga keng tatbiq etishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi [2]. Kreativlik – ijodkorlik qobiliyati, eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida tan olingan. Umumiy biologik ta’limning asosiy vazifalaridan biri ham, biologik ta’limda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha muammolar yechimlarini topish hisoblanadi.

Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini izchil rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi kunda ta’lim oluvchilarni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun tavsiyalar, uslubiy ko‘rsatmalar va axborot resurslari bo‘lgan m’lumotlar bazasi yaratish kabi vazifalar belgilab berildi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi vaqtlarda pedagogik va psixologik adabiyotlarda “ta’lim sohasi” tushunchasi tez-tez ishlatilmoqda. “Ta’limning yangi qadriyatlari” tizimida ta’lim sohasi jamiyatda mavjud bo‘lgan “joy” sifatida tushuniladi, bu yerda munosabatlar va aloqalar to‘plami subyektiv ravishda o‘rnatiladi, unda turli tizimlarning (davlat, jamoat va aralash) shaxsning rivojlanishi va uning ijtimoiylashuvi uchun maxsus faoliyati amalga oshiriladi. Shuningdek, hammaning tajribasida sodir bo‘ladigan ichki shakllangan, individual ta’lim sohasi shakllanishi mumkin [3].

Maktabni rivojlantirish g‘oyalari ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlari hayot faoliyati uchun boshqariladigan madaniy-ma’rifiy muhit sifatida V.A.Suxomlinskiy, Sh.A.Amonashvili, V.A.Karakovskiy va boshqalarning maktabning mualliflik modellarida o‘rin olgan. I.D.Frumin, B.D.Elkoninning fikriga ko‘ra, turli yoshdagilar ta’lim sohasida maxsus ong va madaniyat sifatida ishlaydi, unda “madaniyatlar muloqoti” va “asrlar muloqoti”ni amalga oshiriladi. Bu kuchaytirish sohasi (A.V.Zaporojes), individual va yosh imkoniyatlarini to‘liq ifodalash sohasidir [4].

Yuqoridagi mualliflar tomonidan taklif etilgan ta’lim sohasi loyihasi haqidagi asosiy g‘oyalar ushbu maqola uchun qimmatlidir:

- ta’lim sohasini yaratishda ochiqlik g‘oyasi;
- tarbiyalanuvchilarni rivojlantirishga kompleks yondashuv g‘oyasi;
- ta’lim jarayonida shaxsga yo‘nalish g‘oyasi;
- insonparvarlikka yo‘naltirish tamoyili;

• yaxlitlik tamoyili;

• o‘quv jarayoni uchun dasturiy ta’minot.

Adabiyotlarda “ta’lim sohasi” tushunchasi tor va keng ma’noda talqin qilinadi. Shunday qilib, G.V. Kumarina Rossiya ta’lim sohasi haqida gapiradi, N.P.Kornyushkin, V.I.Slobodchikov va boshqalar mintaqaviy ta’lim sohasining metodologik va texnologik jihatlarini ko‘rib chiqadilar. Boshqa mualliflar maktabning ta’lim sohasini, maktabning tarbiya sohasini, o‘qitish sohasini, muloqotga yo‘naltirilgan ta’lim sohasini ko‘rib chiqadilar. Shu bilan birga, ta’lim sohasiga murakkab tuzilma sifatida qaraydilar. Hozirgi vaqtda ta’limning ko‘p madaniyatli soha tushunchasi tobora ko‘proq kiritilmoqda [5]. Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, ba’zi mualliflar “makon” tushunchasini “soha” tushunchasining sinonimi deb hisoblashadi.

Tadqiqot metadologiyasi. Ta’lim sohasining metamorfik tushunchasi keng tarqalgan. Bilim imkoniyatlarining rivojlanishi va xilma-xilligining individual shakllari majmuyi sifatida taqdim etilgan ta’lim jarayonlari (yoki muassasa, tizim) shunday nomlanadi. Bolalar-kattalar guruhi, sinf yoki maktabni bunday tushunish, birinchi navbatda, ularni kengroq ijtimoiy sohaga kiritilgan imkoniyatlar va tanlovlar sohasi (bir vaqtning o‘zida amalga oshirish) sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyatning juftlikdagi (o‘qituvchi-shogird) qarashlari bartaraf etiladi. Darhaqiqat, guruhda taqsimlangan (yashash) jarayonlari o‘qituvchining tahlili va faoliyat predmetiga aylanadi.

Ta’lim sohasining yana bir tushunchasi analogiya orqali quriladi. Muayyan ta’lim tizimi, birinchidan, joy, idish, ikkinchidan, sohani to‘ldiruvchi quyi bo‘shliqlar, joylar, obyektlar to‘plami sifatida taqdim etiladi. Biroq bu takrorlash emas, balki o‘xshashlikdir. Shuning uchun ta’lim sohasida unchalik ko‘p partalar yoki alohida maktablar emas, balki ta’lim jarayonining butun mohiyatini belgilovchi turli omillar, shart-sharoitlar, ta’lim subyektlarining aloqalari va o‘zaro ta’siri mavjud.

Tahlillar va natijalar. Pedagogik nuqtayi nazardan, shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim sohasining “tasavvuri” ta’lim mavzusini belgilaydi. Murakkab va ko‘p bosqichli soha tashkiloti va o‘zini-o‘zi tashkil etish tasavvuri ta’lim muassasasining oddiy empirik tasviri (muassasa sifatida) va uni tizim sifatidagi tasavvuri o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi o‘z-o‘zini tashkil etish vazifasini bajaradi. Shaxslarga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim tushunchasi uchun bu hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u quyidagilarga imkon beradi:

• bolalar turli faoliyatlarda va turli jamoalar bilan o‘zaro munosabatda o‘zlarini belgilashlari;

• o‘qituvchilar bolalarni keng ijtimoiy va madaniy jihatdan ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish;

• ota-onalarning keng ko‘lamli ta’lim xizmatlarini yaratishda (mijoz sifatida) ishtirok etishi;

• tashkilotchilar ta’lim qiziqishlari va sharoitlarining xilma-xilligiga e’tibor qaratgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari.

Ta’limning asosiy loyiha vazifasi haqida gapirar ekan, V.I.Slobodchikov ta’lim sohasini birgalikdagi hayot faoliyati va barcha yoshdagi guruhlarning uchrashuvlari, birgalikdagi (ijtimoiy) hayot maqsadlarini aniqlash, unda ishtirok etish orqali inson ta’lim olish sohasi sifatida ko‘rib chiqadi [6]. Uning fikriga ko‘ra, ta’limning yangi shakli bizning bu boradagi an’anaviy tasavvurlarimizni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ta’lim – madaniyat sohasida va tarixda shaxs sifatida shakllanish, insoniy qiyofani egallash yo‘li va shakli. Shuning uchun, V.I.Slobodchikovning so‘zlariga ko‘ra, ta’lim sohasida uchta asosiy vazifa hal qilinadi:

1. Muayyan madaniy-tarixiy sohada odamlarning mazmunli hayot va faoliyat tarzini shakllantirish va insonning hozirgi holatini bartaraf etish orqali ildiz otish.

2. Insonni boshpanasiz qoldirmaydigan odamlar jamoalarini yashash imkoniyatlarini yaratish.

3. Odamlar o‘rtasidagi egotsentrik injiqlikka va madaniyatlar ichidagi nisbiylikka yo‘l qo‘ymaydigan, hayotning qadrli tasvirlari va hayot shakllarini avlodlarga yetkazish madaniyatini tarbiyalash.

N.B.Krilovaning fikricha, makon – insonni o‘rab turgan ijtimoiy soha (umuman – makromuhit, o‘ziga xos ma’noda – bevosita ijtimoiy muhit, mikromuhit sifatida), shaxsning bevosita faoliyati zonasi, uning yaqin rivojlanishi va harakati [5]. Muallif bolaning ijtimoiylashuvi sodir bo‘ladigan ko‘plab sohalarni ajratib ko‘rsatadi, jumladan, bolani o‘z ichiga olgan (oila, ma’lumot guruhi, sinf) jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ta’lim va bevosita madaniy sohasi. Ijtimoiy-madaniy muhit har bir bolaga berilgan muayyan ijtimoiy soha bo‘lib, u orqali jamiyatning madaniy aloqalariga faol kiradi. Bu uning hayot faoliyatining turli (makro va mikro) sharoitlari va ijtimoiy (rolli) xatti-harakatlarining birligi, bu jamiyatning o‘zaro ta’sirga ochiq bo‘lgan qismi sifatida taqdim etilgan o‘ziga xos tabiiy, moddiy va obyektiv muhitdir.

Ta’lim sohasi–bu ijtimoiy-madaniy sohaning bir qismi, ta’lim tizimlari, ularning elementlari, o‘quv materiallari va ta’lim jarayonlari subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir zonasi. Ta’lim sohasining asosiy elementi – ma’lum bir ta’lim muassasasi va sinfining ta’lim sohasidan bir necha federal, mintaqaviy darajalargacha katta murakkablik o‘lchoviga ega.

Xulosa va takliflar. Ushbu korxonada ham debitorlik va kreditorlik qarzlarning oldini bitta dastur asosida va uni nazorat qilish asosida uddalab bo‘lmaydi. Buning uchun bevosita keng qamrovli dastur ishlab chiqish lozim. Avvalo, shartnoma tuzayotgan davrda oluvchining moliyaviy holatini to‘liq o‘rganib chiqish lozim. Bu, albatta, korxonalarda marketing faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Debitor qarzlarni boshqarish quyidagilarni ko‘zlaydi: birinchidan, mablag‘lar aylanish tezligi davrini boshqarish, ikkinchidan, o‘zini oqlamaydigan debitor qarzlar (yo‘qolgan, buzilgan boyliklar) bo‘lmasligining nazorati, uchinchidan, debitor qarzlarni kamaytirish. Boshqaruv jarayonida potensial xaridorlarni va tovar (xizmat)lar uchun hisob-kitob shakllarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, avans olish, oldindan to‘lash va hokazolar. Xaridorlarni tanlash quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin:

♦ ularning oldingi vaqtlarda to‘lov intizomi; moliyaviy ahvollarining holati, to‘lash darajasi.

♦ debitor qarzlarni bartaraf etishni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun debitor qarzlar kelib chiqqan vaqtidan 1-oygacha, 3-oygacha, 6-oygacha va hokazo guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiq. Maqsadga erishish uchun qaytarish muddati kelgan, lekin hozircha oborotda turgan pullarni saqlashga yordam beruvchi usullardan, investitsion soliq kreditini qo‘llash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi «Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-388-sonli qarori.
2. Vahobov Sh.V. Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni resurslardan foydalanish usullarining ilmiy-nazariy asoslari. “Экономика и социум”, № 11 (90), 2021.
3. Achilov A.N. Accounting for inventory at the chemical industry of the Republic of Uzbekistan. Theoretical Applied Science. 2019, №. 11, p. 5 – 7.
4. Achilov A.N. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodijotida kimjo sanoatining tutgan o‘rni, ahamijati, muammolari va tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishni takomillashtirish masalalari. “Iqtisod va molija” ilmi-amaliy jurnal, 2018, №. 4, p. 25.
5. Achilov A.N. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar turkumlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va ular hisobini takomillashtirish masalalari. “Экономика и финансы” (Uzbekistan), 2019, №. 9.
6. Achilov A.N. Mamlakatimizda kimyo sanoatida tovar-moddiy zaxiralarning sarfini hisobga olish va uni takomillashtirish masalalari. “Экономика и финансы” (Uzbekistan), 2018, №. 8.

Otajanova Lola Ozodovna (UrDU doktoranti)

TARIXIY ASARLAR TARJIMASIDA KIYIM-KECHAK LEKSEMASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi kiyim-kechakka oid so‘zlarning Y.Bregel tomonidan ingliz tiliga tarjimasi haqida ma’lumot beriladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается информация о переводе слов, связанных с одеждой, в «Фирдавс уль-Икбал» Муниса и Огахи на английский язык со стороны Ю.Брегеля.*

Annotation. *This article provides information about the translation of words related to clothes in Munis and Agahi’s “Firdavs ul-Iqbal” into English by Y.Bregel.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, tarixiy kolorit, tarjima usullari, transliteratsiya, sarlavha osti izohlari va analog.*

Ключевые слова*: перевод, историческая окраска, приемы перевода, транслитерация, сноски и аналогия.*

Key words: *translation, historical coloring, translation methods, transliteration, subtitles and analogue.*

Tarixiy asarda aks etgan tarixiy-milliylikning o‘ziga xosligini namoyish etadigan tarixiy shaxslarning qiyofasi – xarakterini, shuningdek, kiyim-kechaklar orqali ifodalangan saroy vakillarining hashamatli hayot tarzining real manzarasini yaratish uchun har bir qahramon qiyofasiga oid tafsilotlarni o‘girish alohida e’tibor talab qiladigan jarayon.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, an’analari, albatta, insoniyatning kiyim-kechaklarida ham o‘z aksini topadi. “Milliy kiyimlar moddiy va ma’naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarni ko‘rsatuvchidir. Kiyimlarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, diniy e’tiqod, nafosat va inson umrining fasllari, u yashagan joy va zamon, xo‘jalik mavsumlari, hayotdagi quvonch yoxud qayg‘uli voqealar namoyon bo‘ladi”.[1] O‘zbek tilidagi kiyim-kechaklarlar to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, M.Asomiddinova arab tilidan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlarini o‘zbek tilida tutgan mavqeyiga ko‘ra ikki qismga ajratadi:

a) eski o‘zbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan, tarixiy voqelikni yoritgan badiiy, tarixiy, yozma adabiyotlarda uchraydigan nomlar: *abo, qabo, qina’, dalq, jubba, xil’at, dekla/dokla/ deklay/daklay, rido, xirqa, aloqa, amoma, burqa* va boshqalar;

b) eski o‘zbek tilida uchrovchi va hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llaniluvchi nomlar: *jubba, astar, mamug /mamuq, libos, lozim/lozima, baxmal/maxmal, sadaf, hoshiya* kabilar.[2] Ogahiy tarixiy asarlarida kiyim-kechakni umumlashtirib ifodalovchi arabcha va forscha o‘zlashma bo‘lgan *libos* (ko‘pligi *albisa*), *kisvat*, *xil’at*, *xilo’*, *sarupo* so‘zlari ishlatilgan.[3] Asar tarjimasi tahlilida biz faqat birinchi guruhga mansub kiyim-kechakka oid leksemalarni tahliliga e’tibor qaratamiz.

Xilo’i foxira, *xilo’i tillado‘z*, *xilo’i mulukona* – xon tomonidan in’om qilinadigan faxriy kiyim-bosh:[4] *“His majesty, the late khan, with his innate generosity, showed him full favor and kindness and bestowed on him a gilded belt and precious* ***robes*** *of honor”*(216) – *“komil va navozishoti shomil taqdimg‘a yetkurub, kamari tillo va* ***xilo’i*** *garonbaho”* (222).

Sarpo – fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, maxsus tantana va to‘y marosimlarida mehmonga taqdim qilinadigan bosh-oyoq kiyim ma’nosini anglatadi. *Sarpo* so‘zi *sarupo* shaklida ham ishlatiladi. Biroq shuni eslatib o‘tish joizki, ingliz tiliga tarjima shaklida ishlatilgan *outfit* birligi aynan asliyatdagi mazmunni anglatishga qodir emas. Bu so‘z ma’lum bir tantana va marosimlarda kiyiladigan kiyim-kechaklar to‘plami ma’nosini anglatib kelgan holda, *sarupo* realiyasi vazifasini to‘la-to‘kisligicha ifodalashga ojiz. Tarjimada tushunmovchilikning oldini olish maqsadida Y.Bregel *sarupo* so‘zini tarjima jarayonida analog bilan tarjima qilib, kitobxonni to‘liq xabardor qilish maqsadida matn osti taglama tarjima usuli orqali kitobxonga ma’lumot berib o‘tishni ma’qul topgan: *“On that day the late khan gave a big feast and granted all the amirs royal* ***outfits (sarupa****) and innumerable gifts”*(216) – *“Ul kun xoni mag‘fur ulug‘ to‘y berib, jami umarog‘a* ***sarupoy****i shohona va in’omi bekarona bila barumandlig‘ bag‘ishlab, …”*(222). *Sarupa*, or *sarupay* was a present in the form of clothes that could be granted on various occasions, especially to an official at his appointment or as a reward for service. In Khiva *sarupa* were distributed to the troops after successful battles, which apparently means that a large wardrobe was included in the army train during military campaigns.

Xil’at kiyim-kechakni ifodalovchi realiyasini “Firavs ul-iqbol” asarida bir necha marotaba uchratishimiz mumkin. Bu realiya haqida X.L.Mahammadiyev o‘zining ilmiy ishida shunday ma’lumot berib o‘tadi: “Arabchadan o‘zlashgan bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da shunday ko‘rsatilgan:

[1] http://dsr.nii.ac.jp/khiva/uz/04life.html. Xorazm milliy kiyimlari

[2] Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. Toshkent, 1981, 14-bet.

[3] O‘razboyev A.D. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi. Toshkent, 2018, 74-bet.

[4] Shu manba.

1. Hashamatli kiyim; sarpo, umuman, kiyim; zarbaft xil'at – kimxob to‘n. Darhaqiqat, shoir dostonlarida, she'riyatida xil'at, asosan, shohlar, zodagonlar, boy-badavlat kishilar kiyimi sifatida ko‘zga tashlanadi".[1]

*"[As well as] a golden **robe** and priceless silk [atlas]*
He was immersed in gold from head to foot" (277)–
*"Tillo **xil'atu** atlasi bebaho,*
Bo‘lib poy to sar g‘ariqi tillo"(284)

Xon hayotxonasidagi libos *xil'at* realiyasi bilan ifodalanib, bu liboslardan xon va inoqlar iltifot qilib, ishonchli kishilariga ziyofatlarda ehson qilganini uchratamiz: "*precious robes of honor"* (414) – *"xil'ati garonbaho"* (407). *Xil'at* o‘tmishda ham xuddi hozirgi vaqtda bo‘lgani kabi, erkak ham ayollarga xos kiyim turi hisoblanadi. Biroz fonetik o‘zgarishga uchragan bu so‘z endilikda *xalat* shaklida qo‘llanmoqda. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da *xil'at va xalat* so‘zlarining izohlanishiga e'tibor beraylik:

XIL'AT [a. – tuhfa, in'om qilingan ust kiyim]. 1) esk.kt. Odatda, in'om, hadya qilinadigan qimmatbaho to‘n (398).[2]

Biroq ayrim holatlarda tarjimada *robe* leksemasi *xil'at* va *sarupo* realiyalari uchun ham ishlatilgan bo‘lib, ba'zi o‘rinlarda *sarupo* realiyasi *outfit* birligi bilan ifodalangan. Shunisi noaniqki, *robe* leksemasining nimaga asoslanib, *xil'at* va *sarupo* so‘zlarini tarjima qilishda berilgani asossizdir: "*They attired the monarch in **a robe of honor (sarupa)**"*(259) –*"Kiyurdilar shahanshahg‘a sarupo"* (262).

Jig‘a – bosh kiyimiga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi. *Jig‘a* tarjima tiliga *aigrette* analogi yordamida o‘girilgan.[3] *Aigrette* – a tuft of feathers such as that borne by the Egret and some other birds; a spray of gems, or similar ornament, worn on the head.[4] Bundan shu kelib chiqadiki, asliyat va tarjima mantlaridagi bu ikkala til birligi mazmun va vazifa jihatidan to‘liq mos kelgan va asliyatdagi sharqona koloritni ifodalashda adekvatlikka erishilgan:

*"On his head was seen a **aigrette (jigha),***
Which added beauty and lustre to the golden crown (afsar)"(277)–
*"Boshida bo‘lib **jig‘akim** jilvagar,*
Tillo afsarig‘a berib zebu farr"(284)

Chakmon – odatda, jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to‘n.[5] Asliyatda keltirilgan ushbu realiya tarjima tilida faqat tasviriy yo‘l bilan birga, qavs ichida transliteratsiyada ifodalangan: "*a precious **woolen robe (chekmen)** with a gilded belt"*(485) – *"tillo kamarlik **chakmani**"* (447).

Tarjima asliyatdagi realiyaning aynan qanday matodan tikilganini ifodalagan. Biroq *chakmon* birligining milliy kiyim sifatida tarjima shaklida qanday vazifani va qay holatda kiyilishini ifoda eta olmagan. Ta'kidlash kerakki, tarixiy kiyimlarning ko‘pchiligi – *chakmon*, *xil'at*, *xilo'* va *sarupo* realiyalari asarda deyarli barcha o‘rinlarda *robe* so‘zi bilan o‘girilgan. Shu sababdan to‘liq izoh bergan holda, sarlavha ostida quyidagicha ko‘rsatilishi kerak edi: 1. Chekman was a form of clothes that could be put on in cold weather, especially as an outfit. It was men's cloth, which was made from wool of camel or sheep.

Po‘ta – bir necha ma'nolarga ega bo‘lib, o‘lchov birligi, "fo‘ta va salla, ro‘mol" ma'nolarini anglatadi. Tarjimon bu realiyani transkripstiya usuli bilan ifodalagan. Lekin asliyatda ham *po‘ta* leksemasining aynan qaysi ma'noda kelganligi noma'lum. Umumiy holatda tarjimon bu realiya haqida kitobxonda real manzarani gavdalantirish uchun tarjimada *futa* so‘ziga matn ostida izoh berishni ma'qul ko‘rgan: "*On 10 Jumadi I, Friday, ambassadors from Kurdistan came and brought as presents six horses and three pieces of fine **futa** made of expensive fabric*" (419*).–"Jumoda-l-avvalning o‘nida juma kuni Kurdistondin elchilar kelib, olti ot va uch nafis **po‘tayi** qiymatbaho peshkash chektilar"* (410). *Futa* – a long piece of fabric used for turbans and waistbands.

Dastor, amoma – bosh kiyim hisoblanib, boshga o‘ralgan mato-salla. Tarjimada bu realiyalar *turban* leksamasi orqali ifodalangan. **Turban** – دولبند, *dulband* fors tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, bir necha fonetik shakllarga ega. Oksford ingliz tili izohli lug‘atida quyidagicha izohlanadi: 1. **a**. A head-dress of

[1] https://fayllar.org/ozbek-va-tatar-tillarida-kiyim-kechak-nomlarining-qiyosiy-tahl.html?page=2
[2] https://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiy-asarlarida-o-zlashgan-kiyim-kechak-leksemalari
[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008, 96-bet.
[4] The Oxford English Dictionary, Volume 1. Oxford, Clarendon Press, 1989, p. 274.
[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008, 448-bet.

Muslim origin worn by men of Eastern nations, consisting of a cap round which is wound a long piece of linen, cotton, or silk. **b**. As the symbol of Islam, or of those who profess it:[1] *"Another was the following. He endeavored to revive the custom of wearing* ***the turban (dastar u imama)"*** (184) – *"Yana biri ulkim,* ***dastor va amomakim****, toji muhammadiy va sunnati ahmadiydur…"*(197).

Asliyatda bir ma'noni anglatgan realiya ikkita leksema orqali ifodalangan bo'lishiga qaramay, Y. Bregel *dastor* va *amoma* sinonim birliklarini analog orqali tarjima qilgan. Aynan shu vazifani berish bilan kifoyalanmasdan, qavsda realiyalarni transkripsiya orqali ham ifodalashni ma'qul topgan.

Tarixiy davr ruhini qayta yaratish va voqea-hodisalarning mohiyatini tarjima tili vakillariga aslicha yetkazish maqsadida kiyim-kechakka oid realiyalarni tarjima qilishda Y.Bregel kompleks usullardan samarali foydalangan:

1. Kiyim-kechak detallari tarjimasini transkripsiya va transliteratsiya usuli bilan sahifa ostida yoki tarjima nashri ilovasida batafsil izohlab o'tilgan: *po'ta – futa.*

2. Realiyaning tarjima tilidagi vazifadosh analogini berish orqali tarjima qilgan: *dastor, amoma – turban, xilloi garonbaho – robes of honor.*

3. Realiayalar tarjimasi jarayonida analog, tasviriy usul va transliteratsiyaning bigalikda ifodalanishi: *outfits(sarupa) – sarupo, woolen robe (chekmen) – chakmon jig'a – aigrette (jigha).*

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har qanday tarixiy kontekslarning tarjima jarayonida kompleks yondashuvning afzal tomonlari ko'p. Jumladan, u tarixiy realiyani asl holida ko'rsatadi va to'liq ma'lumot hamda sharh olishda yordam beradi. Tarixiy asarlarni hozirgi zamon tillariga o'girishda yuqorida sanab o'tilgan talablardan tashqari, yana ilmiy (tarixiy, etnografik hamda falsafiy) tahlil hamda tadqiqot ham talab qilinadi. Bu jihatning muhimligi, ayniqsa, asardagi tarixiy-milliy koloritni qayta yaratish jarayonida yanada ortib boraveradi.

O'razboyev Abdulla Durdibayevich ("O'zbek tilshunosligi" kafedrasi professori v.b., f.f.d.),
Otajonova Farog'at G'afurjonovna ("O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi;
farogatotajonova69@gmail.com)

HOFIZ XORAZMIY DEVONI ILK G'AZALIDA LEKSIK RESURSLAR ISTIFODASI

Annotatsiya. *Maqola mavjud ma'lumotlarga tayangan holda, turkiy tilda Alisher Navoiyga qadar mukammal devonni birinchi o'laroq tuza olgan Hofiz Xorazmiy g'azaliyoti, xususan, devondan o'rin olgan birinchi g'azal tahliliga bag'ishlanadi. Hofiz Xorazmiy devon tuzish an'analarini barcha talablariga ko'ra katta muvaffaqiyat bilan uddasidan chiqqanligi hamda leksik resurlar tarkibi haqida ma'lumotlar maqola mazmunini tashkil etgan.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу газели Хафиза Хорезми, особенно первой газели из дивана, который первым создал совершенный диван на тюркском языке до Алишера Навои, на основе имеющейся информации. Хафиз Хорезми успешно руководил традициями создания девона по всем требованиям, а информация о составе лексических ресурсов составляет содержание статьи.*

Annotation. *The article is dedicated to the analysis of Hafiz Khorezmy's gazelle, especially the first gazelle from the divan, who was the first to create a perfect divan in the Turkic language before Alisher Navoi, based on the available information. Hafiz Khorezmi successfully managed the traditions of creating Devon according to all requirements and information about the composition of lexical resources is the content of the article.*

Kalit so'zlar: *poetika, ijod, devon, leksik resurslar, g'azal, hamd mazmunidagi g'azal.*

Ключевые слова: *поэтика, творчество, диван, лексические ресурсы, газель, газели с хвалебным содержанием.*

Key words: *poetry, divan, lexical sources, gazelle, laudatory gazelles.*

Hofiz Xorazmiy g'azaliyoti devondan qasida, tarkibband, tarji'band kabi janrlardan keyin qo'lyozmaning 60-sahifasidan boshlanadi.

Yaratgan borliqni yo'qdan paydo qilar ekan, o'z jamoli husniga o'zidan boshqa barchani oshiq va shaydo qildi. Butun jahon Yaratgan jamolining mazhari sifatida vujudga keldi hamda undagi hamma narsa Haq taolo jamolining zuhuri sanaladi mazmuni mujassam bo'lgan. Mana shu g'oya, falsafiy tushunchalar mumtoz adabiyotimiz vakillarining juda ko'pchiligi ijodida o'z aksini topgan. Jumladan, har bir

[1] The Oxford English Dictionary, Volume 18. Oxford, Clarendon Press, 1989, p. 679.

narsada yaratgannning jamoli, umuman, qudrati mavjud ekanligi, har bir ashyo uning izmida bo‘lishi bilan birgalikda uning azamati, ya’ni buyukligini anglatishga xizmat qilishini Alisher Navoiy:

Har qayon boqsam ko‘zumga ul quyoshdin nur erur,
Har sari qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.[1]

degan misralar bilan ifodalagan edi. Yoki Munis Xorazmiy mazkur jihatlarni inobatga olgan holda:

Har naqshi tasavvurotidin ojiz etib,
Inson-u malak ahlini shaydo qildi.[2] –

deydi “Firdavs ul-iqbol”da.

Haqiqatan, bu masalani Alisher Navoiy hazratlari butun borliq Yaratgan husnining mir’oti, ya’ni ko‘zgusi ekanligini ta’kidlagan holda, “Hayrat ul-abror”da

Mazhar olub husninga mirot-i g‘ayb
Jilva qilib anda hayoloti g‘ayb –

deydi va mazkur dostonda yuqoridagi misralarga hamohang ravishda juda katta va chuqur falsafiy masala yuzasida gap ketadi.

Haq taolo jahonni yaratar ekan, falaklarni paydo va nihon (yashirin) qildi. Bu degani falakiyot bugungi kun ilm-fani isbot qilinganidek, insonning shuuri singdira oladigan, aqli qabul qila oladigan qismi “paydo”, insonning aqlimiz qabul qilmaydigan, shuurimiz yetmaydigan: ko‘rish, eshitish, anglash qobiliyatimizdan tashqari bo‘lgan qismi esa “nihon”dir. Shuning uchun ham,

Ey dar hamo olam paydo tu, nihon tu
Ham dardi dili oshiq, ham asli muddao tu, –

deydi Husayn Xorazmiy Alisher Navoiy hazratlari “Majolis un-nafois”da qayd etgan baytlarida.

Alisher Navoiy butun borliq ko‘zgu kabi yaratgan husni uchun mazhar, ya’ni, namoyishgoh sifatida uning qudratini ko‘rsatib beruvchi manzil ekanligi haqida quyidagi baytlarni aytadi va shu bilan birgalikda nima uchun aynan shunday ekanligi ham sharhlanadi:

Bo‘ldi jahon vajhida har axtari
Ko‘zgu kibi husning uchun mazhari.
Munda g‘aroyibki misol aylading
Barchani mir’oti jamol aylading.
Ganjing aro naxd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi,
Turfa kamolinga dog‘i komil ul
Sirli nihoningg‘a dog‘i homil ul.

Yuqorida Hofiz Xorazmiy aytganidek, o‘z husn-u jamoliga barchani oshiq-u shaydo qilinishidan maqsad bu insonning yaratilishi edi. Chunki Ollohning kalomini anglay oladigan ham faqat inson va uning yashirin sirlarini ko‘tara oladigan, homil bo‘la oluvchi ham faqat inson edi. Bu qadar chuqur fikrlarni Hofiz Xorazmiy bir baytning o‘zida ifoda qilishga, g‘oyalarni bir bayt doirasiga singdirib bilishga harakat qiladi. Bu boradagi buyuklarning fikrlarini bir-biriga yaqin ekanini Ogahiyning quyidagi “Taviz ul-oshiqin”ning hamd g‘azalidagi bayti ham ko‘rsatadi:

Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingg‘a
Bu ko‘zgu ichra bo‘ldi necha naqshi bul ajab paydo.[3]

Ma’nosi: butun olamni tengsiz husningа mazhar, ya’ni, namoyishgoh aylaganing sababli mana shu ko‘zgu ichra – bizga sening qudratingni namoyon qiluvchi borliq ichra qanchadan qancha ajablanarli naqshlar, kishi aqlini lol qoldiradigan ajoyibotlar paydo bo‘ldi.

Jamoli oftobini jahong‘a jilva qilg‘ali,
Ko‘rarsang bordur (ur) har zarraning joninda yuz savdo.

Baytning mazmunidan yaratgan o‘z jamolini namoyish qilar ekan, unda har bir zarraning jonida yuz savdo borligini ko‘rasan, ya’ni, butun borliq eng kichik zarralardan yig‘indisidan tarkib topar ekan, har bir zarra Yaratganning nazorati ostida ekanligi ta’bir qilinmoqda. Chunki yaratganning jamoli butun

---

[1] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. Тошкент, “Фан”, 1983, 163-бет.

[2] Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд, 1-китоб, Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахт-саодат жаннати). Тошкент, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019.

[3] Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд, девон, нашрга тайрловчилар Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2014, 26-bet.

borliqqa namoyish qilinadi deganda, har bir jonzod, har bir yaratilmish, har bir maxluq yaratganning ne'-matidan bahramandligi nazarda tutilmoqda. Mana shu mazmunni Hofizning yana bir g'azalida uchratamiz.

Olamni tutdi andoq dilbar jamoli birla,
Kim, har ko'ngul murodin berur kamoli birla. (35-g'azal)

Yaratuvchi, o'z qudratini namoyish qilish uchun butun borliqni mazhar qilgan ekan, har bir ko'ngil murodiga butkul yetishi uchun bisyor imkoniyatlar degani. Haqning jamoli butun borliqda zuhur etganini ko'rish uchun Sa'diy Sheroziy aytganlaridek, ko'm-ko'k daraxtlarning har bir yaprog'i Haq Taoloni tanish, ma'rifat hosil qilish yo'lida har biri bitta daftar ekanligini anglashimiz, teran nigoh bilan nazar tashlashimiz kerak. Bizning ko'nglimiz bir oyna va bu oyna musaffo bo'lgani sayin unda Yaratgan jamoli jilo topib boradi. Xuddi mana shu g'oya keyingi baytda o'z ifodasini topar ekan:

Qachon oyina-yi joning jamolindin jilo topsa,
Jahon ichra ko'rungay erdi barcha dilbar-i zebo.

Ushbu g'azalga munosib tarzda 79-g'azaldan olingan iqtibosga e'tibor qaratsak:

Oyina-yi ko'nglingni gar sof aylasng ag'yordin,
Andin so'ng oyinada ul yorni qilg'il talab. (79)

Biz borliqda yor jamoli aksini ko'rish uchun o'z qalbimizni boshqalardan – ag'yordan mosuvolloh (Ollohdan boshqa har qanday narsalar) tozalashimiz kerak. Qalb sof bo'lishi uchun barcha dunyoviy manfaatlardan xoli bo'lishi kerak, shundan keyingina soflangan ko'zguda – qalbda Yor jamoli aks etadi. Xiralashgan ko'zguda aks ko'rib bo'lmagani singari, qalbimizni dunyoviy illatlardan ta'ma, beqanoatlik kabi illatlardan tozalamas ekanmiz, unda yor aksini topa olmaymiz. Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Yor aksin mayda ko'r deb, jomdin chiqdi sado".

G'azal davomida:

Ne gabr-u, ne musulmon-u, ne tarso ne yaxudiylar,
Ne mo'min , ne muvahhidkim, anga quldur bari haqqo. –

der ekan shoir bir necha din vakillarini sanaydi. gabr ham, musulmon ham, otashparast va yahudiylar ham barchasi Yaratganning qulidir. Bir tomondan, bu baytlarda hozirgi zamon tili bilan aytganda, diniy tolerantlik aks etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson qaysi aqidada bo'lishidan qat'i nazar, Haqqa tomon intilishi o'z ifodasini topgan. Har bir din vakili, dinlarning ichidagi har bir mazhab vakili o'zini haq yo'lda deb hisoblaydi. Faqat bu yerda gap har kim o'zi haq, ammo asl haq ichra bo'lish masalasi qoladi. Baytda qo'llangan "gabr" so'zini oladigan bo'lsak, bu so'z xususida mashhur avestoshunos olim Ibrohim Purdovud uni oromiy so'zlardan bo'lib, arabcha "kofir" so'zi bilan o'zakdosh deb aytgan. Ya'ni "gabr" so'zi arabcha "kofir" so'zining fonetik o'zgarishidir. Bu haqda fikr bildirayotib ilova qilish kerakki, *kofir* so'zining *gabr* so'zi talaffuzi o'rtasida o'xshashlik bor, ammo bu *kofir* aynan *gabr* so'zidan olingan deyishga asos bo'lmaydi. Chunki aqidaga oid qadimiy mo'tabar kitoblarda ham *kofir* so'zing *kafara* – yashirmoq, ko'mmoq[1] ma'nosini anglatuvchi fe'lidan olingani haqida fikr bildiriladi. G'iyosiddin Rampuriy "G'iyos-ul lug'at" asarida kofir so'ziga izoh berar ekan, *kofir* – Haqni botillik bilan ko'mgani uchun shunday deb nomlanishini ta'kidlaydi. Kofir, haqiqatdan ham, ko'muvchi degan ma'noda ekanligini Misr lahjasida dehqon tushunchasini ifodalovchi so'zlardan biri ham "kofir" so'zi bilan ifodalanishidan angalash mumkin.

Demak, "yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar" deb Navoiy ta'riflaganidek, dehqon yerni yorib urug'ni ko'mganligi uchun shunday nomlangan. *Kofir* so'zi qadimgi Hind tilidagi "gabra" so'zi bilan o'zakdosh sanaladi. Kofir so'zi bilan bog'liq yana bir mumtoz adabiyotimizda uchraydigan so'z "gabrak"[2] bo'lib, bu otashparast, zardushtiy degan ma'noni anglatadi. Turk tilida ham *gavr* so'zi otashparast, g'ayridin ma'nosini anglatishi kurd tilida uchraydi. "Tarso"[3] so'zi lug'atlarda nasroniy yoki otashparast degan ma'noni anglatadi. Ushbu so'z etimologiyasi forsiy "tarsidan" "qo'rqmoq" ma'noli so'z bilan bog'ana-di. Birinchidan, "Xudodan qo'rquvchi", ikkinchidan nasroniylar yoki otashparastlarga nisbatan qo'llanilihi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, atalish tamoyillari, ya'ni, nominatsiya prinsiplariga ko'ra arab tilidagi "rahb" so'zi ham aynan shu ma'noni bildiradi. Pahlaviy tilida tarso "tarsaq" shaklida qo'llanilgan va aytish muhimki, *tars* – qo'rqmoq so'zi bilan bog'langan va rus tilidagi qo'rqoq ma'nosidagi *trus* so'zi bilan o'zakdoshdir.

---

[1] http://arabus.ru/search/كفر

[2] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦ 1884

[3] 484 شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦

Muvahhid so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham, Alisher Navoiy asarlari lug‘atlarida ham o‘z aksini topmagan, “Farhange zaboni tojiki” va uning yangi nashri “Farhange tafsiriye zaboni tojiki”da[1] bu so‘z izohlanib, bu so‘z “Xudoga ishonuvchi va Xudoni yakka-yu yagona deb biluvchi deb izohlangan” va bu so‘z o‘zagida vahid-yagona so‘zi yotibdi.

Tarso so‘ziga kelganda “Lison ut-tayr”dagi *tarso* qiz obrazi juda mashhur:

Shayx ashk aylab ravon ruxsorig‘a
Arzi iymon etti tarso yorig‘a, – deyiladi.
Behisht ichra agar bo‘lmasa yodi, qa’r-i do‘zaxdur,
Aning yodi bila do‘zax erur chun jannat-i a’lo.

Hayratlanarlisi, Hofiz Xorazmiy ijodidan Navoiy hazratlari bexabar bo‘lgan, lekin buyuk mutafakkirlar fikrlash tarzi, bayon uslubida bir-biriga naqadar yaqin bo‘lishini ushbu baytlar ko‘rsatib turibdi. Bayt mazmunidan Haq taolo yodi bilan jannatga kirgan odam uchun do‘zax ham jannat kabi bo‘ladi. Ya’ni jannatni jannat qiladigan, Haq taoloning yodidir. Navoiy ruboiysi:

Qo‘rqutma meni tamug‘din ey zohidi yax,
Jannat mang bo‘lg‘usi debon urma zanax.
Kim, do‘zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do‘zax.

Xususan, oxirgi misralarning mazmuni biz mutolaa qilayotgan bayt mazmuniga hamda ifoda usullariga, qo‘llangan so‘zlar (do‘zax, jannat, yodi), tushunchalarining mutanosibligida hayratlanarli o‘xshashlik mavjud. Boshqa tomondan esa buning ajblanarli emas, chunki sharq mutafakkirlari tasavvufda jannat jannat bo‘lishi uchun Haq taolo yodi bo‘lmog‘i kerak, inson qaysi tomonda va qaysi holatda bo‘lishidan qat’iy nazar, Haq taolo yodidan ayrilmasligiga ishora qilinyapti.

Baytda lingvopoetik jihatdan olib qaralganda, ikkita muhim jihat ko‘zga tashlanadi:

1. Mutarodif so‘zlar – sinonim so‘zlarning qo‘llanishi: behisht-jannat.

2. Behisht, jannat tushunchalarining do‘zax tushunchalariga qarama-qarshi qo‘yilishidir. *Yod* so‘zining baytda takror qo‘llanilishi nutqning aybli jihati emas, fazilati bo‘lib xizmat qilinadi. Ikki marta qo‘llangan *yod* so‘zi o‘quvchi zehniga ifodalanayotgan fikrning ham yod bo‘lib ketishi uchun xiz-mat qilmoqda:

Behisht ichra agar bo‘lmasa yodi, qa’r-i do‘zaxdur,
Aning yodi bila do‘zax erur chun jannat-i a’lo.

Ko‘rinyaptiki, ikkinchi misradagi *yodi* so‘zining qo‘llanishi maxsus sintagma va ma’noga ega bo‘lib, fikrni qat’iylashtirishga xizmat qilgan. Jannat ma’nosidagi *behisht* so‘zi lug‘aviy jihatdan yondashganda “Avesto”dagi *vahishta* so‘ziga aloqador bo‘lib “yaxshi joy” degan ma’noni bildiradi. Uning “beh” qismi hozirgi fors tilida qo‘llaniladigan *behzod, behruz* so‘zlari tarkibidagi; ingliz tilidagi eng yaxshi ma’nosidagi *best* so‘zi bilan o‘zakdosh sanaladi. Do‘zax unga qarama-qarshi ma’noda *dujangha* – eng yomon joy mazmunini kasb etadi.

Shifo qonun-i ishqindin sinab jon birla izdarsang,
Sanga shogird bo‘lgay ul zamonda bu Ali Sino.

Bu yerda e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan so‘zlar *shifo* va *qonun* so‘zlarining qo‘llanilishi. Ishq qonuni bilan dardingga shifo izlar ekansan, bu bilan sen o‘zingga Ibn Sino senga shogird bo‘ladi. *Shifo* va *qonun* so‘zlarining qo‘llanilishi orqali iyhom hosil qilingan, chunki yaxshi bilamizki, Ibn Sinoning yirik asarlaridan biri “Qonun fit-tib” bo‘ladigan bo‘lsa, yana biri “Kitob ash-shifo”, ya’ni bu yerda *shifo* va *qonun* so‘zlari ham o‘z lug‘aviy ma’nosida ham Ibn Sino shaxsiyatiga ishora qiluvchi so‘zlar sifatida kelmoqda. *Izda* so‘zini oladigan bo‘lsak, Hofiz Xorazmiy tilida *izla* so‘zi *izda* shaklida qo‘llangan. Chunki – *la,* aslida, *-da* qo‘shimchasining fonetik varianti hisoblanadi. Hozirda qozoq, qirg‘iz tilida faol qo‘llaniladi. Shuningdek, Alisher Navoiy tilida bugungi kunda *-la* shaklida bo‘lgan ayrim qo‘shimchalar *-da* shaklida (*qo‘lda, yo‘lda* kabi so‘zlarda) qo‘llangani ma’lum:

Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo‘lim
Qo‘ldasa Xusrav bila Jomiy qo‘lim, –

deydi “Hayrat ul-abror”da Navoiy. Bu Ali Sino birikmasidagi “bu” Abu so‘zining qisqargan varianti sanaladi. Vazn talabi bilan *Abu* so‘zi *Bu* shaklini olishi mumkin.

[1] Sayfiddin Nazarzoda tahriri asosidagi “Farhange tafsiriye zabone tojiki”. Dushanbe, 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov A. O‘zbek tili taraqqiyotida o‘g‘uz lahjasining o‘rni. Toshkent, 2018, 15-bet.
2. Hofiz Xorazmiy she’riyatidan. Tuzuvchi H.Sulaymon. Toshkent, 1980, 24-bet.
3. Madrahimov O. O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug‘ati. Urganch, “Xorazm”, 1999, 75-bet.
4. Mahmudov R. Isfand fitonimining tarixiy ildizlari. “Ilm sarchashmalari”, 2014, 11-son, 73-bet.
5. Navoiy asarlari lug‘ati. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 282, 561-betlar.
6. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. Toshkent, “Fan”, 1971, 177-bet.
7. Türkmençe-türkçe sözlük. Ankara, 1995, 169-bet.

Nazarova Nargiz Mardonovna (Andijon davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar (aniq va tabiiy fanlar) kafedrasi katta o‘qituvchisi; Nargiz1972@mail.ru)

YAXSHILIK VA YOMONLIK KONSEPTINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada yaxshilik va yomonlik konseptining fanlararo bog‘liqligi, lingvistik xususiyatlari olimlarning qarashlari asosida yoritiladi. Yaxshilik va yomonlik konseptining hissiy va axloqiy jihatlarini paremiologik birliklar asosidagi tahlili bayon qilinadi.*

Аннотация*. В данной статье на основе взглядов ученых выделены междисциплинарность и лингвистические особенности концепта добра и зла. Описан анализ эмоционально-нравственных аспектов концепта добра и зла на основе паремиологических единиц.*

Annotation. *In this article, based on the views of scientists, interdisciplinarity and linguistic features of the concept of good and evil are highlighted. An analysis of the emotional and moral aspects of the concept of good and evil is described on the basis of paremiological units.*

Kalit so‘zlar*: leksik-semantik xususiyatlar, kognitiv-diskursiv, lingvistik-madaniy yondashuvlar.*

Ключевые слова*: лексико-семантические признаки, когнитивно-дискурсивный, лингвокультурологический подходы.*

Key words*: lexico-semantic features, cognitive-discursive, linguoculturological approaches.*

Dunyoni aks ettirish mexanizmini o‘rganish va uning bilim natijalarini dunyoning lisoniy manzarasi shakllariga birlashtirish bilan bog‘liq muammolar zamonaviy lingvistikada, garchi turli yillarda ularni o‘rganishning turli jihatlari aktuallashtirilgan bo‘lsa ham, hozirgi kungacha dolzarb va munozarali hisoblanadi. So‘nggi paytlarda dunyoning milliy til manzaralarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tadqiqotlar psixologik, etik dunyoqarashlarni namoyon etish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, haqiqat, yolg‘on, taqdir kabi psixologik, axloqiy tushunchalarni qamrab oladi. Shunga o‘xshash umuminsoniy g‘oyalar qatorida yaxshilik va yomonlik kategoriyasi o‘rin olgan bo‘lib, madaniy, kognitiv, diskursiv, sistem-paradigmatik yondashuvlar asosida yoritilgan. Bu kategoriyalar turli xil maxsus toifalarga tegishli tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan kognitiv qurilishga ega bo‘lib, turli xususiy kategoriyalar: aksiologik, axloqiy, emotsional kabilardan tashkil topadi.

Falsafada yaxshilik va yomonlik uchta toifaga ajratilgan:

a) yaxshilik va yomonlik metafizik hodisalar sifatida, shaxsga bog‘liq tabiiy hodisalarda namoyon bo‘ladi;

b) yaxshilik va yomonlik jamiyatda inson tomonidan namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisalar sifatida;

d) yaxshilik va yomonlik axloqiy va xulqiy hodisalar sifatida.

Yaxshilik kategoriyasining o‘ziga xos xususiyatlarini turli tillarda ko‘rib tahlil qilish, ularning umumiy va xususiy jihatlarini farqlashga yordam beradi. Bunda semantik xususiyat maydon nuqtaiy nazaridan ko‘riladi.

Semantik maydon tilshunoslikda XX asrdan rivojlana bordi va olimlar diqqat markazini egalladi. Lisoniy semantik maydonda tushunchaning tarkibiy tuzilishini, uni tashkil etuvchi birliklarning tabiatini, chegaralarini aniqlash bilan bog‘liq masalalar o‘rganiladi.

“Yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyasi insonning ichki kechinmalarini tavsiflar ekan, leksik-semantik maydonda leksik paradigmalar tilini aniqlash bilan bog‘liq leksik-sematik so‘z sinflari, leksik – semantik guruhlar va kichik guruhlarni tashkil etadi. Olimlar tomonidan “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari ta’riflandi, semantik jihatdan tasniflandi, ushbu tushunchalar tabiati, ma’no chegaralari, ma’no mustaqilligi va boshqa so‘zlar bilan o‘zaro bog‘liqlik jihatlari aniqlandi.

Hozirgacha leksikografik tadqiqotlarni nazariy rivojlantirish sohasida juda ko‘p semantik, kontseptual, ideografik, tezaurus lug‘atlar o‘rganilgan bo‘lib, so‘zlarni semantik jihatlarini ham yoritadi. Bu, o‘z

navbatida, dunyoning milliy til manzarasini o‘rganishni kuchaytiradi. Leksik-semantik maydon–bu tarkibiy jihatdan tashkil etilgan so‘zlar to‘plamini bitta denotativ tasnifi, bu quyidagilarga imkon beradi: uni “leksik-semantik guruhlar, o‘ziga xos tuzilmalar” bo‘lgan dunyoning lingvistik manzarasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqib, madaniy va milliy tilni hisobga olgan holda, o‘ziga xoslik belgilarini aniqlaydi”.[1] Bu lug‘atni tarkibiy va semantik o‘rganish bo‘lib, u 70–80-yillarda jadal rivojlanib, XX asrda milliy tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlarni o‘rganishga imkon berdi. Dunyoning lisoniy manzaralarini aks ettiruvchi til birliklarning lug‘atini tuzish jarayonida turli darajadagi so‘zlarning guruhlari va ularning o‘zaro aloqalar aniqlandi. Keyinchalik, tadqiqotlar jarayonida tilning leksik-semantik bo‘shliqlarini o‘rganish antropologik tilshunoslikka muvofiq tabiatni tushunishda inson omili aktuallashtirdi. V.N. Solnsev ta’kidlaganidek, “til dunyoni aks ettirmaydi, balki dunyo haqidagi bilimni ifodalaydi”.[2] Yuqorida bayonot kognitiv mohiyatini aks ettiradi.

Til va ongning o‘zaro bog‘liqligi muammosini ko‘rib chiqishda yondashuvlarda inson omilining roli ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar tomonidan dunyoni bilish va olingan bilimlarni mustahkamlash, kognitiv asoslangan so‘zlar sinflarini o‘rganish manbalari ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, Fokonye konsepsiyasida til va dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim inson tafakkuri orqali amalga oshirilishi aytiladi, chunki biz odatdagidek “haqiqat” deb ataydigan narsa, aslida, so‘zlovchining fikrini namoyish etishi bo‘lish mumkin.[3] Yaxshilik va yomonlik leksik-semantik maydonini shakllantirishdagi umumiy tendensiyalar va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash tillar zamonaviy bosqichga xos bo‘lgan poliparadigmatik prinsip asosida hal qilinadi va usullar majmuasida uning strukturaviy hamda semantik xususiyatlariga xos texnikalar, til va nutqni o‘rganishdagi kognitiv-diskursiv va lingvistik-madaniy yondashuvlar asosida yoritiladi.

Bunda materialni tadqiq qilishning tarkibiy-sematik usullari alohida ahamiyatga ega. Ma’lumki, semantik maydon ierarxik tarzda tashkil etilgan, undagi elementlar struktur munosabatlar bilan bog‘liq. Aniqlangan xususiyatlarga qarab, tushunchalar har xil leksik-semantik guruhlar ajratiladi, ularning har birini o‘ziga xos leksik semantikasi bor va shunga ko‘ra, “so‘z sinfiga mansub ma’nolarni aniqlash, semantik belgilarini qiyoslash so‘zning semantik strukturasini qayta tiklash uchun boshlang‘ich nuqta bo‘ladi”.[4]

Alohida semantik kompleks quyidagilarni o‘z ichiga oladi: barcha leksemalariga xos bo‘lgan kategorik-leksik sema va differensial Semalar (DS). Mazkur maqola materialni tahlil qilish mantig‘i va modeli:

1) nemis va o‘zbek tillarida yaxshilik va yomonlik konseptining o‘zaro munosabati;

2) har bir LSGning leksik tarkibi va ichki tarkibiy tuzilishining tavsifi;

3) yaxshilik va yomonlik leksik-semantik maydonini leksemalarini turli tillarda struktur tahlili;

4) maydonni hosil qiluvchi har bir LSG xususiyatlarini semantik maydonga xos umumiyligini aniqlash;

5) har ikki tilda yaxshilik va yomonlik kategoriyasi ifodalanishining umumiy va spetsifik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Etika lug‘atida yaxshilik axloqning eng muhim toifalaridan biri sifatida tasniflanadi, bunda “axloqiy xususiyatlarni umumlashtirilgan shakli ijobiy, axloq talablarining mazmuniga zid bo‘lgan jihatlar salbiy xususiyat kasb etadi”.[5]

“Yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari ham tilshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanar ekan, bunda konsepsiyalarni tahlil qilish va tizimlashtirish, ularni tasniflashga oid tadqiqotlar olib borishga undadi. Tilshunos olimlar L.A.Blinova, N.A.Kupina umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi axloqiy tushunchalarning quyidagi guruhlarini ajratdilar: 1) xulq; 2) haqiqat; 3) ma’naviyat; 4) gumanizm, insonparvarlik; 5) vijdon; 6) baxt.[6]

---

[1] Уфимцева А.А. Лексика как фактор формирования языковой картины мира. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. М., 1988, с. 122 – 136.

[2] Солнцев В.Н. О лингвистических мирах. Знание языка и языкознание. М., 1989, с. 56–71.

[3] Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Languages. 2nd ed. Cambridge, MA: MIT Press, 1994, p. 15.

[4] Koporskaya E.S. “Semantic archetype” of physical movement verbs in its relation to the structure of the verb class. Vocabulary. Grammar. Text. M., 1996, p. 113.

[5] Философский словарь. Под ред. Л.Ф.Ильичева, П.Н.Федосеева. М., Сов. Энциклопедия, 1983, 840 с.

[6] Блинова Л.А., Купина Н.А. Нравственные концепты в лексическом освещении (по материалам совр. публицистики). Функциональная семантика слова. Екатеринбург, 1993, с. 20 – 31.

Tadqiqotlar natijasida turli xalqlarning milliy madaniyati o‘ziga xosligi, milliy xarakteri kuzatildi. Y.V.Bromley va R.G.Podolniy etnos a’zolarning madaniy birligi ularda etnik yoki, ko‘pincha, milliy xarakter deb ataladigan psixikaning o‘ziga xos xususiyatlarining mavjudligi bilan uzviy bog‘liq deya ta’kidlaydilar.[1]

A.P.Melnikovning fikricha esa “milliy xarakterni millatning ruhiyati yoki milliy psixologiya bilan tenglashtirish mumkin emas. Bu ko‘proq namoyon bo‘lish shakli odamlarning xulq-atvori, urf-odatlari, didi, madaniyati bilan bog‘liq. Milliy xarakter – bu tarixiy hodisa, ijtimoiy munosabatlarning mahsulidir”.[2] Milliy xarakterning yadrosi milliy stereotiplar deb ataladi. Turli xalqlarning milliy xarakterini o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda, ularning ehtiromi, ularning urf-odatlariga munosabatlariga munosabatini ta’kidlash kerak. Ular ota-bobolari tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilishga harakat qilishadi. Lingvistik ongning yadrosida faqat bitta juftlik mavjud: yaxshi (yaxshi) – yomon (yomon). Milliy xarakterning eng muhim tushunchasi bu “an’analar”dir. Yaxshilik va yomonlik konsepti adolat, sharaf, vijdon, jasorat, bag‘rikenglik, baxt kabi axloqiy qadriyatlarni ifoda etish shakllarini qamrab oladi. Turli xalqlarning fikriga ko‘ra, yovuzlik gunohdir, inson va yaxshilik – bu yaxshilik bilan qaytadigan yaxshi ish.

Nutqda – yomonlik qilib, yaxshilikni kutmang. – kim yomonlik qiladi, yomonlik bilan uchrashadi, matallari mavjud. So‘nggi yillarda tilshunoslikda turli tillar madaniyatida “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarini ifodalash muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Yaxshilik va yomonlik kabi masalalar universal axloqiy toifalar sifatida o‘rganilmoqda.

O‘rganilgan materiallar “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining hissiy va axloqiy jihatlarining xilma-xilligini ko‘rsatadi. Ular insonning samimiylik, saxiylik, yumshoqlik, sezgirlik kabi fazilatlarni namoyon etish qobiliyatini yangilaydi. “Yaxshilik” tushunchasi mehmondo‘stlik, vijdon, kamtarlik, jasorat, do‘stlik, sevgi, mehnatsevarlik va “yovuzlik” tushunchasi – axloqsizlik, sharmandalik, hasad, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, hiyla-nayrang, mag‘rurlik, ochko‘zlik, qo‘rqoqlik, dangasalik, qiziqish, g‘iybatga moyillik, ayyorlik leksemalar bilan ifodalanadi.

“Yaxshilik” va “yomonlik” atamalari tushunchalari, ya’ni yaxshilik: 1) yaxshi; 2) yaxshilik; 3) mehribonlik; 4) yaxshi harakat; 5) yaxshi munosabat va “yomonlik”: 1) yomon; 2) gunoh; 3) zarar; 4) baxtsizlik; 5) yovuzlik; 6) yovuz kuch, boshqa tomondan lug‘atlarda keltirilgan ta’riflarda chegaralanadi.[3]

Shu bilan birga, “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari juda ko‘p qirrali bo‘lib, ularni o‘rganishda lakunalar mavjud. Bu, birinchi navbatda, boy frazeologik va paremiologik materiallarda aks etadi. Masalan, *Yaxshiga yondash, yomondan qoch. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga.* Tahlil qilingan frazeologik va paremiologik materiallar yaxshi so‘zining quyidagi leksik ma’nolarini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi:

I. Insonga, uning atrofidagi dunyoga, ya’ni insonning harakatlariga ijobiy munosabat kabi semantik guruhlarni o‘z ichiga olgan yaxshi ishlarga qaratilgan ma’noda:

1) yaxshilik boshqalarga nisbatan bag‘rikeng munosabat sifatida;

2) yaxshilik boshqalarga nisbatan adolatli munosabat sifatida;

3) jamiyatda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, shu jumladan, mikropollar kabi:

a) yaxshilik oqsoqollarga hurmat sifatida;

b) mehmondo‘stlik fazilatning ajralmas elementi sifatida.

II. Insonning ijobiy axloqiy va xulqiy fazilatlari: vijdon, kamtarlik, jasorat, do‘stlik, sevgi, mehnatsevarlik mano‘larini aks ettirishi.

“Yomonlik” so‘zining quyidagi leksik ma’nolari aniqlandi:

I. Atrofdagi odamga nisbatan salbiy munosabat hamda insonning axloqiy yoki jismoniy zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari kabi semantik guruhlarni o‘z ichiga olgan leksemalar:

1) yovuzlik boshqalarga xoin, yomon munosabat sifatida;

2) yomonlik boshqalarga nisbatan qo‘pol, beparvo munosabat sifatida.

II. Insonning salbiy axloqiy va xulqiy fazilatlari: axloqsizlik, sharmandalik, hasad, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, mag‘rurlik, ochko‘zlik, qo‘rqoqlik, dangasalik, qiziquvchanlik, tuhmat, ayyorlik ma’nolarini aks ettirishi.

---

[1] Бромлей Ю.В., Подольный Р.Г. Человечество – это народы. М., “Мысль”, 1990, с. 392.

[2] Меньшикова С.И. Концепты «добро» и «зло» в структуре метаконцепта «нравственность». Вестник ТвГУ. Серия «Филология». Выпуск «Лингвистика и межкультурная коммуникация», 2009, № 3, с.78 – 86.

[3] Tseyaeva Z.A. Rossiya fanlar akademiyasining Qobardino-Balkar ilmiy markazi yangiliklari. № 1 (45), 2012.

Xulosa qilsak, yaxshilik va yomonlik konsepti turli tillarda turlicha ifodalanib, etnomadaniyatni aks ettirishda ahamiyatli sanaladi.

Ernazarova Hilola Ergashevna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: hilola.ernazarova84@mail.ru

BADIIY MATNDA IFODALANADIGAN KIRISH VA KIRITMALAR

Annotatsiya. *Kirish va kiritmalar matnning asosiy qismlaridan bo‘lib, ular matn mazmunini yaxshiroq tushuntirishga, emotsinal yondashishga imkon beradi. Kiritma gaplarning asosiy xususiyatlaridan yana biri ularning ma’lum gapga nutq momentida tug‘ilib qolgan ehtiyojga ko‘ra xuddi kutilmagandek, birdan kiritilishidir.*

Аннотация. *Интродукции и вводные слова являются основными частями текста, они позволяют лучше объяснить содержание текста, эмоционально подойти к раскрытию его содержания. Еще одна из основных особенностей вводных предложений состоит в том, что они вставляются в определенное предложение внезапно, как бы неожиданно, по потребности, возникшей в момент речи.*

Annotation. *Introductions and introductory words are the main parts of the text, they allow for a better explanation of the content of the text, an emotional approach. Another of the main features of introduce-tory sentences is that they are suddenly inserted into a certain sentence, as if unexpectedly, according to the need that arose at the moment of speech.*

Kalit so‘zlar: *kirish, kiritma, badiiy matn, ekspressivlik, lingvopoetika, gap,badiiylik, grammatik aloqa, semantika.*

Ключевые слова: *введение, ввод, художественный текст, выразительность, лингвопоэтика, предложение, художественная, грамматическая коммуникация, семантика.*

Key words: *introduction, input, artistic text, expressiveness, linguopoetics, sentence, artistic, grammatical communication, semantics.*

Kirish. Kommunikatsiya jarayonida til sathlarining barchasiga oid birliklar harakatga keladi, bunda sintaksisning o‘rni beqiyosdir. Nutqiy muloqotning asosiy birliklari bo‘lmish gap va matn aynan shu kom -munikativ sintaksis qonuniyatlari asosida shakllanadi. Kommunikativ sintaksis hamisha so‘zlovchi, tinglovchi va nutq o‘rtasidagi aloqalarni hamda bu aloqalardagi o‘ziga xosliklarni ham nazarda tutadi. Albatta, bunda semantik-struktur va sistem sintaksis qonun-qoidalarini nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi, chunki kommunikativ sintaksis aynan ana shu qonun-qoidalarning nutqiy realizatsiyasi jarayonlariga asosiy e’tiborni qaratadi, ana shularni o‘rganishni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi.

Adabiyotlar sharhi. Gap tarkibida mayl yoki modallik ma’nolari ham mavjud. Modallik gap kesimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda modallikning o‘zigina gapni tashkil etadi degan qarashlar ham mavjud. Chunki gapda mavjud va xilma-xil vositalar bilan ifodalangan taxmin, gumon, shubha, ishonch, qat‘iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zaruriyat, majburiylik kabi ma‘nolar ifodalangan har qanday hukm, fikrda ustuvor qiymati bilan ajralib turadi. Shu boisdan gap tarkibida gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan, so‘z birikmasi hosil qilmagan bo‘lsa-da, Pm dagi mazkur ma‘nolarga bevosita daxldor bo‘lgan subyektiv modallik munosabatini ifodalaydigan atov birliklari ko‘plab uchraydi: 1. Aka, bugun ota-onalar yig‘ilishiga dadam borardilarmi? – Dadam, albatta, boradilar, balki, onam ham borarlar. 2. To‘g‘ri, yomon odam jazosini tortishi kerak, – dedi Saida. 3. Bu chol, qizining so‘ziga qaraganda, hali juda baquvvat ekan. 4. Siz o‘ylab qarasam, shu lavozimga loyiq nomzod ekansiz [1.65].

Bunday atov birliklari va qurilmalar gap tarkibiga kirar ekan, [Pm] tarkibidagi modal va tasdiq ma‘nolarini muayyanlashtiradi, ya‘ni gapning kesimi bilan mazmunan bog‘lanadi. Shu boisdan ular modal yoki kirish kengaytiruvchilar deb ataladi. Kirish kengaytiruvchilar gapning konstruktiv b**o‘**laklari sanalmish ega va hollar kabi faqat va to‘g‘ridan to‘g‘ri gap markaziga munosabatda bo‘ladi. Biroq kirish kengaytiruvchilar Pm.ga grammatik jihatdan bog‘lanmaganligi bois unga nisbatan konstruktiv sifatini qo‘llab bo‘lmaydi. Biroq unga zich mazmuniy munosabatda bo‘lganligini inobatga olib ularni bo‘lak, gap bo‘lagi, gap kengaytiruvchisi deyish mumkin. Demak, kirish kengaytiruvchilar so‘z va gap kengaytiruvchilari oralig‘idagi “oraliq uchini” bo‘lganligi bois ularni gapning konstruktiv bo‘lmagan bo‘lagi atamasi bilan nomlash mumkin. Atamaning konstruktiv bo‘lmagan degan qismi hodisaning so‘z kengaytiruvchilari sifatiga egaligini ko‘rsatsa, bo‘lak uzvi gap kengaytiruvchilar sirasiga daxldorligini bildiradi.

Materiallar va metodlar. So‘zlovchining o‘zi bayon qilgan fikriga o‘z munosabatini bildirgan so‘zlar kirish so‘zlar hisoblanadi, shunday so‘z birikmasi esa kirish birikma deb ataladi. Bu kabi so‘zlar va so‘z birikmalari, gapiruvchining su vaziyatga bo‘lgan emotsional holatini ko‘rsatib beradi. Kirish so‘zlar va kirish birikmalar, asosan, modal so‘zlar bilan ifodalanib, turli ma’nolarni bildiradi:

♦ Ishonch va tasdiqni: *albatta, shubhasiz, ma’lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatan ham, so‘zsiz.*

♦ Gumonni: *ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin.*

♦ Shodlik yoki achinishni: *baxtimga, baxtga qarshi, attang, afsus.*

♦ Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: *menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha.*

♦ Bayon qilingan fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan...*

♦ Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog‘liqligini: *demak, shunday qilib, umuman, aksincha, ba’zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan.*

♦ Tasdiq yoki inkorni: *ha, yo‘q, mayli, to‘g‘ri* [2.125].

Muhokamalar. Badiiy matnda kirishlar ham ba’zi holatlarda yozuvchining badiiy maqsadiga uyg‘un ravishda badiiy-estetik qimmat kasb etishi mumkin. Aytaylik, muayyan bir kirish muayyan bir qahramon nutqida takror va takror qo‘llansa, o‘ziga xos poetik ta’kid oladi, qahramonni yoki uning biror hissiy holatni ta’kidlashga xizmat qiladi va buni yozuvchining lingvopoetik mahorati sifatida baholash mumkin bo‘ladi. Masalan, hajvchi yozuvchi N.Aminovning “Yelvizak” qissasidan olingan quyidagi parchada buni ko‘rish mumkin: – Voy, namuncha bedavo ekan bu, – dedi Zevarxon nozlanib. – Qurib ketgan ekanda boshqasi!..

– Qani, qo‘lingni cho‘z! – dedi Bashirjon dadil.

– Hozir... voy, – dedi Zevarxon belini tutib, oyog‘ini bukarkan. – Oyog‘im uvushib qoldi!..

Zevarxon majburiy bir qiyofada qo‘lini uzatarkan:

– Voy, ko‘pam shoshilmang! – dedi nozmi, qo‘rquvmi yoki hadikkami o‘xshash ovoz bilan... Bechora Zevarxon: “Voy!” – degancha o‘rnidan turib ketdi.

Ko‘rinib turganidek, “voy” kirish bo‘lagi to‘rt marta takrorlangan, Zevarxonning hissiy holatiga urg‘u berishga xizmat qilgan, poetik jihatdan aktuallashgan.

Ayrim hollarda yozuvchi poetik aktuallashtirish maqsadi bilan kirishlarni badiiy matnda kiritma pozitsiyasida qo‘llash orqali ham matn ta’sirchanligini oshiradi. Masalan, ajabo so‘zi taajjub ma’nosini ifodalaydigan kirish so‘z hisoblanadi. Ushbu matnda bu so‘z kirish pozitsiyasida qo‘llangan: Ajabo, chiroyli qiz-juvonlar hamisha tanishdek tuyuladi, qayerdadir ko‘rganga o‘xshayveramiz ularni (Erkin A’zam. “Bayramdan boshqa kunlar”). Bu so‘z kiritma pozitsiyasida qo‘llansa, kuchli poetik ta’kid oladi: Shu rashkdanmi, yo Muqaddasning yaqinligidanmi, bilmadim, o‘zimni xuddi lovullab yonayotgan gulxanning taptida toblanayotgandek his qilardim, a’zoyi badanimdan lovullab o‘t chiqib borardi. Muqaddas esa (ajabo!) go‘yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular, yuzlari gul-gul yashnab, o‘tkinchilarning diqqat-e’tiborini yana ham o‘ziga tortar edi (O.Yoqubov. “Muqaddas”). Ko‘rinib turganiday, ajabo so‘zi kirish pozitsiyasiga qaraganda, kiritma pozitsiyasida kuchliroq poetik ta’kidga ega. Quyidagi misolda inshoollo(h) kirish gapi kiritma pozitsiyasida kelib, kuchli ta’kid olgan, poetik aktuallashgan: Faqat so‘fi ko‘ngildan va uning nozik shishasidan bir narsa anglaydigan odam bo‘lmaganligidan bu kattakon ishining oqibatini xayol qilgan vaqtlarida “kelasi yilga (inshoollo!) Hajga ketish nasib bo‘ladi” degan umidlar bilan xursand bo‘lardi (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”). Quyidagi gaplarda esa voy tavba, asta’furulloh kirishlari kiritma pozitsiyasida qo‘llangan va poetik ta’kid olgan: Oltinoy bu kalta, havorang ko‘ylakda xuddi yettinchi-sakkizinchi sinfda o‘qiydigan qizchalarga o‘xshar, qaddi nozik, beli tegsa chars sinib ketadigan xipchinday ingichka, oyoqlari (voy tavba!) kinodagi raqqosalarning oyoqlariday uzun... (O.Yoqubov, “Adolat manzili”). Birov o‘q borib, uning qo‘liga tekkan desa, boshqa birov (astag‘furullo!) naqd og‘ziga tekkan deydi (Erkin A’zam. “Aralash qo‘rg‘on” [2.180].

Ilgariroq ko‘rib o‘tganimizdek, tilshunoslikda kirishlarni subyektiv munosabat ifodalay olishi, kiritmalarda esa bu xususiyatning yo‘qligi, ularning faqatgina obyektiv-izohlovchi tarzida gapga kiritilishi keng e’tirof etiladi. Ammo yuqoridagi misollardan ham anglashilib turganidek, bizningcha, kiritmalarda ham subyektiv munosabat o‘ziga xos bir tarzda, ya’ni ekspressiv baholash tarzida hatto odatdagidan kuchliroq ham ifodalanishi mumkin.

Xulosa. Kiritma qurilmalarning o‘rni ham gap tarkibida qat‘iydir. U asosiy fikrga qo‘shimcha, ilova fikrni ifodalaganligi bois gap avvalida kela olmaydi. Chunki asosiy fikr boshlanmasdan ilova fikrni berish noo‘rindir. Shuningdek, kiritma gap oxirida ham bo‘lmaydi. Kiritma gaplarning yana bir xususiyati

uning yig‘iq (kesimdangina iborat) bo‘lmasligidir. Demak, kiritma qurilmali gaplar mohiyatan qo‘shma gaplarga o‘xshaydi. Biroq grammatik shakl va intonatsion o‘ziga xoslik ularni farqlovchi belgidir. Misol sifatida O‘rmondan (u yerda yirtqich hayvonlar bor edi) bo‘kirgan ovozlar eshitilardi, gapini olaylik. Gap mazmunini O‘rmonda yirtqich hayvonlar bor, shuning uchun u yerda bo‘kirgan ovozlar eshitilardi, deya tushunish mumkin. Biroq uni O‘rmonda bo‘kirgan ovozlar eshitilardi, u yerda yirtqich hayvonlar bor edi, tarzida o‘zgartirilsa, gaplardagi grammatik mustaqillik kuchayib, ular qo‘shma gapni hosil qilmaydi, balki alohida sodda gaplarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne‘matov H. va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi. T., “Universitet”, 2000.
2. Mengliev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. Qarshi, 2003.
3. Imomov E., Kuldashev A.M. (2020). SEMANTIC FEATURES OF PROPER NAMES IN ENGLISH AND UZBEK. Theoretical & Applied Science, (1), p. 740–743.
4. Abdikarimovich I.E. (2022). LINGUOCULTURAL STUDY OF VOCABULARY DESCRIBING PROFESSIONAL TERMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.
5. Imomov E.A. (2022). LINGUOCULTURAL STUDY OF VOCABULARY DESCRIBING PROFESSIONAL TERMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), p. 1140 – 1144.
6. Imomov E. (2022). Some Comments on the Classification of Professional Vocabulary in the Languages. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, p. 423 – 425.
7. Abdikarimovich I.E. (2022). THE LEXICONS DESCRIBING PROFESSIONS USED IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Open Access Repository, 8(11), p. 156 – 159.
8. Abdikarimovich I.E. (2022). THE LEXICONS DESCRIBING PROFESSIONS USED IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Open Access Repository, 8(11), p. 156–159.
9. Abdikarimovich I.E. (2022). PROFESSION–SPECIFIC LANGUAGE TOOLS THAT IMPLEMENT THE VOCATIONAL LEXICON CATEGORY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), p. 1869 – 1872.
10. Imomov E.A. (2022). LINGUOCULTURAL STUDY OF VOCABULARY DESCRIBING PROFESSIONAL TERMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), p. 1140 – 1144.
11. Polovina L.V. (2023). THE PHENOMENON OF PERIPHRASIS IN MODERN RUSSIAN LANGUAGE. Open Access Repository, 9(2), p. 94 – 98.
12. Половина Л.В. (2019). Развитие методики обучения русскому языку у студентов педагогических вузов. Актуальные научные исследования в современном мире, (3-5), с. 74 – 76.
13. Половина Л.В. (2022). Роль и место самостоятельной работы в образовательном процессе Вуза. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), с. 265 – 269.
14. Polovina L.V. (2022). Features of the Study of Subordinate Tense in Schools with the Uzbek Language of Instruction. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 109 – 114.
15. Улмасова Д., Половина Л.В. (2022). Семантическая оппозиция «добро-зло» и способы её выражения в современном русском языке. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(2), p. 132 – 136.
16. Polovina L.V. (2021). Working with multi-root antonyms-adjectives in russian language lessons. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), p. 515 – 518.

Asronova Mohigul Musaboyevna (Andijon davlat universitet Fakultetlararo chet tillar (ijtimoiy va gumanitar fanlar) kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INGLIZ TILIDAGI PUBLITSISTIK DISKURSLARDA PAREMIYALARNING O‘ZIGA XOS KOGNITIV-PRAGMATIK VAZIFALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilida maqollarning tilidagi publitsistik diskurslarda paremiyalar o‘ziga xos kognitiv-pragmatik mazmuni va vazifalari, ijtimoiy va individual ongiga moslashuvi munosabati xususida fikrlar ommaviy axborot vositalaridan olingan tahlili misollari asosida yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены примеры анализа пословиц на английском языке в публицистических дискурсах на языке паремий в связи с их специфическим когнитивно-прагматическим содержанием и задачами, адаптацией к социальному и индивидуальному сознанию.*

Annotation. *This article deals paremias in publicistic discourses in the language of proverbs in English on the basis of specific cognitive-pragmatic content and tasks, examples of analysis of thoughts from the media on the attitude of adaptation to social and individual consciousness.*

Kalit so‘zlar: *paremiya, gazeta diskursi, pretsedent bayonotlar, kognitiv-pragmatik mazmun.*

Ключевые слова: *паремия, газетный дискурс, прецедентные утверждения, когнитивно-прагматическое содержание.*

Key words: *paremia, newspaper discourse, precedent statements, cognitive-pragmatic content.*

Paremiyalarning mazmuni va vazifalari nutqda amalga oshadi. Paremiyaning ona tili ijtimoiy va individual ongiga moslashuvi munosabati bilan tilning paremiologik fondi doimo to‘ldirib boriladi. Ushbu moslashuvning natijasi paremiyaning leksik, sintaktik va morfologik darajada o‘zgargan, ammo asl prototip bilan semantik aloqani saqlab qolgan versiyasidir. Paremiyani o‘zgartirish zarurati ikki omildan kelib chiqadi: bir tomondan, paremiya ijtimoiy va madaniy merosning elementi sifatida, boshqa tomondan, muloqotning yangi shartlari va mahalliy ma’ruzachining kommunikativ vazifalariga javob beradigan “tayyor mahsulot”.

Ingliz paremiyalarini o‘zgartirishning asosiy usullariga quyidagilar kiradi:

a) morfologik (tashqi, ichki va nutqning bir qismidan ikkinchisiga o‘tishi);

b) sintaktik (negativ formani tasdiq bilan almashtirish, affirmativ formani negativ bilan almashtirish, gapning kommunikativ turini o‘zgartirish, komponentlarni distant joylashtirish (uzilish);

d) komponentlar tarkibini o‘zgartirish (kengaytirish, komponentni almashtirish, komponentlar tarkibini kamaytirish (ellipsis);

e) semantik (paremiya tomonidan qo‘shimcha ma’no soyasini olish, okkazional konnotatsiya yaratish, frazeologik boy kontekst yaratish, ikki yoqlama aktuallashish, kontekstual defraseologizatsiya).[1]

Paremiyalarning xususiy diskursdagi kognitiv-pragmatik vazifalari:

Axborot makonidagi voqelikning fakt va hodisalari haqidagi ma’lumotlarni uzatish: *new broom sweeps clean – the Tory broom would sweep clean* – yangi supurgi toza supuradi.

Kommunikativ – kuchli ishontirish vositasi sifatida dialoglarda alohida rol o‘ynaydi: *make haste slowly – make slowness hastily* – o‘zbek tilida shoshgan qiz erga yolchimaydi. Estetik – muallifning estetik his-tuyg‘usini qondirish istagida amalga oshirilgan – *bird may be known by its song – the author may be known for his writing* – qush uning qo‘shig‘i bilan tanilgan bo‘lishi mumkin – muallif o‘z yozuvi bilan tanilgan bo‘lishi mumkin. Emotsional-ekspressiv funksiya – so‘zlovchining bayon mavzusiga munosabatida ifodalanadi: *gift horse with rotten teeth – looking the gift horse in the mouth and finding far too many rotten teeth* .

Paremiyalarning maxsus (xususiy) funksiyalari paremiyalardan ma’lum kontekstda foydalanilganda amalga oshadi, ular bu holda publitsistik diskursda namoyon bo‘ladi:

1. Umumlashtiruvchi funksiya paremiya – transformatsiyalarning oldindan aytib o‘tilgan ma’lumotlarni umumlashtira olish qobiliyatida amalga oshadi. Misol uchun, Bo‘yin yoki hech narsa →“bo‘yin yoki biror narsa”.

2. Sharhlash funksiyasi asosiy kommunikativ vazifa – qo‘shimcha izoh berish, o‘qitish yoki baholashdan iborat bo‘lganda amalga oshiriladi.

Tarix takrorlanmoqda → “Tarix takrorlanmoqda, Toni Bleyr uni qayta yozmoqda”.

Struktur yondashuv lingvistik metodologiyaga, ya’ni matnning ramziy tabiati nuqtai nazaridan asoslanadi. Maqollar artikulyatsiyasining turli struktur darajalarida farq qilishi aniqlandi. Maqollar uchta alohida struktur tekislikka – lisoniy struktura rejasi, mantiqiy struktura rejasi va voqelik rejasiga ega. Turli xalqlarning maqollari o‘rtasidagi farq ularning etnik majoziy tuzilishida, mahalliy voqeliklarda va tushunchalarda yotadi va umumiy narsa ularning mantiqiy mazmunida, ular tomonidan uzatiladigan real hayot o‘rtasidagi munosabatlar tabiatidadir.[2]

Kognitiv tilshunoslik inson aqli, tafakkuri va ular bilan bog‘liq ruhiy jarayonlar va holatlarni o‘rganadi. Mazkur yo‘nalish g‘oyalariga mos ravishda kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.[3]

Kognitiv-lingvistik yondashuvning maqsadi milliy tilning muayyan tushunchasini aks ettiruvchi turli lisoniy birliklarni o‘rganishdan iborat. Ushbu yondashuv doirasidagi tadqiqot vazifalariga tushunchaning tavsifi, uning xususiyatlarini aniqlash kiradi. Ko‘pgina tadqiqotlar yoki ikki yoki uch xil til materiali

[1] Антонова О.Н. Функциональные свойства паремий-трансформов в англоязычном публицистическом дискурсе: дис. …канд. филол. наук. 10.02.04. Антонова Ольга Николаевна. Москва, 2012, 175 с.

[2] Алефриенко Н.Ф. Фразеология и паремиология. Учеб. пособие для бакалаврского уровня филологического образования, Москва, «Наука», 2009, 344 с.

[3] Никифоров Г.С. Психология здоровья. Учеб. пособие, СПб., 2002; СПб., 2006, с. 23.

asosida bir necha tushunchalarni o‘z ichiga olgan matn bo‘laklarini taqqoslash bo‘yicha yagona tushunchani tahlil qilishga asoslangan (masalan, hurmat, dangasalik, do‘stlik, vaqt va boshqalar).

Lingvokulturologik yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar tezisiga asoslanadi. Til belgilarining xalq madaniyati va mentalitetini ifodalash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqotchilar kognitiv tilshunoslikning “tushuncha”, “ong”, “tafakkur” kabi atamalaridan foydalanadilar.

Paremiyaning tarkibi geterogen – maqol va hikmatli so‘zlardan tashqari paremiologik fond xalq aforizmining turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tilshunoslikda paremiyalar va aforizmlarni to‘g‘ri farqlash muammosi mavjud. Bu tushunchalarni aniq ajratib ko‘rsatish kerak.

Aforizm-muayyan muallifning umumlashgan, to‘liq va chuqur fikrlashi, ixcham, nozik shaklda ifodalanishi, aniq ifodaliligi va hukmning yaqqol ekanlii bilan ajralib turadi. Paremiyalar – xalq tilidagi aforizmlar bo‘lib, shaklning bir xilligi, ma’noning reprezentativligi va ega, odatda, edifikatsion ma’no bilan xarakterlanadi. Paremiya nutqdagi barqaror anonim umumlashtiruvchi so‘z bo‘lib, majoziy ma’nodan mahrum emas va didaktik maqsadlar uchun foydalanishga mosdir.[1]

Paremiyalar semantik va intonatsion to‘liqlik va sintaktik segmentatsiyaga ega. Sintaktik jihatdan paremiyalar gaplarda (masalan, maqollar, aytimlar, omenslar) yoki sahna yoki dialog hosil qiluvchi bir necha matnlarda (masalan, masallar, ”bir martalik” hazillar, topishmoqlar) ifodalanishi mumkin. Paremiyalarga to‘liq jumlalar (masalan, qo‘lqopdagi mushuk sichqonni ushlamaydi) va jumlalar (yangi lordlar, yangi qonunlar) bo‘lgan so‘zlar kiradi.

Hozirgi kunda olimlar paremiologiyaga nisbatan ko‘proq birliklarni qo‘sha boshlamoqdilar.[2] Shunday qilib, hikmatlar va hikmatlardan tashqari, paremiya to‘plamlari yaqinda hikmatlarni o‘z ichiga oladi – so‘zlar, hazillar, topishmoq, e’tiqod, xurofot va hatto vaqti-vaqti bilan tushlarning ta’birlari kiradi.

So‘zlar hukmga teng bo‘lmagan barqaror ifodalardir. So‘zlar tashqi kontekstdan semantik mustaqillikka ega emas va ularning faoliyati, asosan, nutqni bezash va diversifikatsiya qilish qobiliyatiga bog‘liq.[3]

Paremiyalar matn bir qismining ham, butun matnning ham sarlavhasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu funksiya quyidagi misolda tasvirlangan. Amerikalik jurnalist nutqida maqol butun nutqni umumlashtiradi. U qisqacha kirish-salomlashish, universitet bitiruvchilari uchun o‘nta darsni o‘z ichiga olgan batafsil asosiy qism va qisqacha xulosadan iborat:

Well, Class 2005, it does it for me. I’m new to the material out. It seems to me that what I want to say here this afternoon can be summed up with the old proverb “happiness is this time, not an address.” Bringing joy and passion and optimism to your work is not what you should do when you get to the top. This is how you get to the top. If I’ve had any success as a journalist since I sat where you were 30 years ago, it's because I've found a way to enjoy this trip as if it were my destination. I had almost as much fun as a cub reporter doing overnight shift at upi, as I did when I traveled with Secretary of state Baker, as I now like as a reviewer. Oh yes, I went through boring moments and bad seasons-believe me, I have it. But often I found ways to learn and enjoy part of each work. You can't bet your whole life on any destination. You also need to do travel work.<...>Thank you. [Thomas L. Friedman 'journalism as life’, Williams University, May, 2005].

Pretsedentning xususiyati paremiyalarga gazeta diskursida axborotni talqin qilish uchun bir xil signal sifatida harakat qilish imkonini beradi va shu bilan nutqning eng muhim ma’lumotlarini semantik tanlash vazifasini bajaradi.

“Life is something that is only cursed after each other.

Life outside of college is just like life in it: something nutty one after another, some of them terrible, but all mixed with enough beauty and goodness to keep you going. This is your job-to continue. Your duty is to help – without stopping. The art you create can glorify it. The science you are looking for can prove its value. The law in which you are in practice can go through its advantages. The faith you receive is the earthly manifestation of your God” [Tom Hanks. “four forces”].

Muallif universitetda va uni bitirgandan keyingi hayotni taqqoslaydi, bu taqqoslashda paremiyani qo‘llaydi. U “la’nati” sifatini “nutty” sifati bilan almashtiradi. Aktyorning fikricha, hayot o‘rnini ijobiy va

[1] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., Современная энциклопедия, 1969, 608 с.

[2] Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремиология. Уч.пос.для бакалавриата. М., “Наука”, 2009, 59 с.

[3] Shu manba. 248 с.

salbiy voqealar egallaydi, uning borishini bashorat qilib bo‘lmaydi. Hayotni tasvirlash uchun maqoldan foydalanish muallifning munosabatiga alohida e’tibor qaratishga yordam beradi. Shunday qilib, bu misolda paremiya eng muhim axborotni semantik tanlash vazifasini bajaradi.

*Barton Swaim is author of "*The Speechwriter: A Brief Education in Politics*" and a contributing columnist for The Post.* Here’s a general rule of political language: Lines generated to accomplish political objectives aren’t much help in the realm of governance. Even the most memorable ones, having accomplished their original purpose, become useless almost instantly. John F.Kennedy’s famous antimetabole about negotiation, for example – "Let us never negotiate out of fear, but let us never fear to negotiate" – nicely preempted criticisms of a new administration’s foreign policy. But how useful is it as a principle, really? Another line that pops up again and again in U.S. policy debates is Ronald Reagan’s famous dictum, "Trust, but verify".

But I will go back for more? Ask a stupid question. Damn right, I do. (Ask a stupid question and you will get a stupid answer) (The Guardian 11/06/2005).

Bu misolda paremiyaning transformatsiyalangan versiyasidan foydalaniladi. Komponent tarkibida qisqarish – ellipsis mavjud. Keskir maqol oldingi gapda berilgan savolga rasmiy javob beradi va shu bilan matnning strukturaviy tashkil etilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Goipova Saidaxon Madaminjon qizi (Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi;
e-mail:saida.goipova@mail.ru)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “KO‘NGIL” SEMANTIK MAYDONINING MAQOL VA MATALLARDA QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “ko‘ngil” so‘zining maqol va matallarda qo‘llanilishi va turli xil ma’nolarni anglatishi tahlil qilingan va misollar bilan tushuntirib berilgan. O‘zbek xalq maqollarida “ko‘ngil”so‘zi ko‘proq yaxshilik qilishga undovchi maqollarda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida esa “soul” turli xil ma’nolarda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin.*

Аннотация. *В данной статье анализируется и поясняется на примерах употребление слова «душа» в английском и узбекском языках в пословицах и поговорках и его разные значения. В узбекских народных пословицах мы видим, что слово «сердце» употребляется в пословицах, призывающих делать больше добра. В английском языке «душа» используется в разных значениях.*

Annotation. *In this article, the use of the word “soul” in English and Uzbek languages in proverbs and sayings and its different meanings are analyzed and explained with examples. In Uzbek folk proverbs, we can see that the word “soul” is used in proverbs urging to do more good. In English, "soul" is used in different meanings.*

Kalit so‘zlar: *maqol, matal, maydon, semantika, ko‘ngil, paremiya, leksik birlik, semantik tahlil.*

Ключевые слова: *пословица, поговорка, поле, семантика, разум, паремия, лексическая единица, семантический анализ.*

Key words*: proverb, matal, field, semantics, mind, paremia, lexical unit, semantic analysis.*

Kirish. Maqol – xalqning kuzatishlari hosilasi bo‘lgan hikmatli ibora. U xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lib, qisqa va lo‘nda, obrazli, gammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora,chuqur mazmunli gapdir. Shu bilan birga, u muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, ijobiy fazilatlari jamlangan. Asrlar mobaynida xalq tilida sayqallangan, ixchamlashgan, saqlanib kelingan va soddalashgan.

Ko‘nglingni birga ber,
Kuchingni yerga ber.

Ushbu maqolda qalbni bir insonga berish, kuchni esa yerga berish ma’nosida inson mehnatsevarlikni sevishi kerakligi ma’nosini beradi.

Ko‘ngil to‘g‘ri uchun,
Qulf-o‘g‘ri uchun.

Yuqoridagi maqolda esa to‘g‘rilik va egrilik ma’nosini ifodalab kelgan. Chunki halol va to‘g‘ri insonning qalbi ham toza bo‘ladi. Qulfni esa har doim o‘g‘rilar buzib, o‘g‘riliklar qilgani uchun to‘g‘rilik va egrilikni qiyoslashda qo‘llanilgan. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning maqollaridan, dastlab, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “ko‘ngil”ning qanchalik nozikligi haqida fikr bildirganini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘ngil deganlari misoli shisha,

Sinib qolmasin u, uni hamisha

Ushbu misralarda ko‘rishimiz mumkinki, ko‘ngil nozikligini shishaga qiyoslagan. Biz bilamizki, shisha bir singangandan so‘ng uni qayta tiklab bo‘lmaydi, ko‘ngil ham xuddi shu kabidir, ya’ni, biror yomon gap bilan yoki biror yomon ish bilan ko‘ngilga ozor berib, dilini og‘ritsa, ko‘ngilni ham qayta tiklab bo‘lmaydi, u ham shisha kabi nozik bo‘ladi, degan ma’nolarni anglatishini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida til leksik qatlamidagi semantik maydon masalasi o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab olimlar e’tiborini torta boshlagan. Ushbu tarixiy jarayonda nemis olimlari Y.Trir, V.Portsik, G.Ipsen, shuningdek, rus tilshunoslari G.Shuur, V.Admoni, A.Bandarko, Y.Guliga, Y. Shendels olib brogan tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligida esa maydon nazariyasi A. Nurmonov, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, K.Rahmonberdiyev, Sh.Shokirov, Sh.Nazirovalarning shu sohaga doir ilmiy tadqiqotlarida ma’lum miqdorda o‘z yechimini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada “ko‘ngil” leksemasi bilan qo‘llanilgan bir qancha o‘zbek va ingliz paremiyalari ko‘rib chiqiladi va uning maydondagi o‘rni o‘rganiladi. Uning o‘zbek va ingliz tillaridagi semantikasi tahlil qilinadi. Ushbu maqol va matallarda “ko‘ngil” so‘zining turli xil ma’nolarda ishlatishimiz mumkinligi ham o‘rganiladi.

Tahlillar va natijalar. Maqol, matallarni tahlil qilish shu semantik maydon strukturasini belgilashda katta yordam berishi, shubhasiz. Tilning leksik-semantik sohasida maqol va matallarning ahamiyati beqiyosdir. Leksik-semantika o‘zida ma’lum bir xalqning tarixi, xalqning faoliyati, dunyoqarashi, va psixologiyasini mujassamlashtiradi, etnik mentalitetning o‘ziga xos taraflarini ko‘rsatib bera oladi. Misol tariqasida o‘zbek tilidagi bir qancha maqollar va matallarning tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Matal – tugal ma’noga ega bo‘lmagan hikmatli so‘z, ibora. U hayotiy voqeani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, iboradir matalda o‘xshatish, kinoya, taqqoslash, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Masalan, *qizil qor yoqqanda.*

To‘ni yomonni it qopar,

ko‘ngli yomonni haq topar.

Qora ko‘ngil – yara ko‘ngil.

Ushbu o‘zbek xalq maqollar misolida ham biz to‘g‘rilik va egrilik ma’nolarini anglashimiz mumkin. Yuqoridagi qora ko‘ngil deyilganda ham ichi qora, ya’ni, niyati yaxshi bo‘lmagan insonlarga, biror nimadan ko‘ngli xotirjam bo‘lmagan insonlarga nisbatan qo‘llanilgan.

Bir ko‘ngil imorati – ming makka ziyorati [4].

Ushbu maqolda esa bir insonning ko‘nglini olish, ya’ni, unga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lish yoki uning kayfiyatini ko‘tarish yoki unga biror-bir yaxshilik qilib, uning ko‘nglini olish – ming Makka ziyoratiga tenglashtirilgan. Ushbu maqola ham isonlarni yaxshilik qilish orqali savob olishga undaydi. Aksincha ma’noda esa:

Ko‘ngil torligi – xorlik maqoli ishlatiladi. Demak, inson ichini tor qilishi, ya’ni, ko‘p odamlarni xushlamaslik oqibatida oxiri xorlikka olib kelishini tushunamiz.

Ko‘ngilning olasi–xudoning balosi.

Ko‘ngli qoradan pes yaxshi

Ko‘ngli qoraning yuzi qora.

kabi bir qancha maqollar ham umumiy ma’noda yomonlik qilish ma’nosida qo‘llaniladi. Ko‘ngli ola, ko‘ngli qora deganda ham biz ichi qora, ya’ni niyati yaxshi bo‘lmagan insonlarni tushunamiz. Aksincha ma’noda esa:

Oq ko‘ngillikning oti ham ozmas,

To‘ni ham to‘zmas. [4]

Maqolida esa oq ko‘ngil ya’ni niyati yaxshi insonning o‘ziga ham moliga ham hech nima bo‘lmasligini tushunamiz. Shuning uchun insonlar yaxshi bo‘lishi, yaxshi niyat qilishi zarurligini tushunamiz.

O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas – Kishi biror narsaga o‘rganib, odatlanib qolsa, garchi u ziyon bo‘lsa ham, uni tark etolmaydi, degan ma’noda ishlatiladigan matal (asosan, yaramas odatlar haqida).

Har bir tilda maqollar va matallar o‘sha tilni, albatta, bezaydi, bir xillikdan qutqaradi. Ularning kengroq ma’nolarda qo‘llash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, “ko‘ngil” so‘zi ingliz tilida “soul” deb qo‘llaniladi va ingliz tilida ham “soul” leksikasi bilan bir qancha maqollar ham mavjud bo‘lib, ularning bir qanchasini tahlil qildik:

Diseases of the soul are more dangerous than those of the body.

Thought to refer to mental and emotional disorder or spiritual torment as opposed to bodily pain [1].

Vijdon, qalb azobi tana og‘rig‘idan ko‘ra xavfliroqdir.

Tana og‘rig‘idan farqli o‘laroq, ruhiy va hissiy yoki ruhiy azob-uqubatlar tanadagi og‘riqlardan azobliroq degan ma’noda qo‘llaniladi.

For example: Jane was sad and said to him: “Diseases of the soul are more dangerous than those of the body”. Jeyn xafa edi va unga dil og‘rig‘i, tana og‘rig‘idan kuchliroqdir, dedi.

*gripe one’s soul – ko‘ngliga tegmoq***,**

Inf. to annoy someone. *That kind of thing really gripes my soul! John, have I ever told you that you gripe my soul?* [7]

Inf. kimnidir bezovta qilmoq. Bunday narsa, albatta, mening ko‘nglimga tegdi! Jon, senga hech nolidimmi?

not a living soul – tirik jon yo‘q

Not a single person. *Don’t worry, I'll make sure he doesn't tell a living soul about*

what he saw.As we entered the town, there wasn’t a living soul on the streets, and the whole place was eerily silent.

Hech kim yo‘q. Xavotir olmang, men u ko‘rgan narsasini tirik jonga aytmasligiga ishonaman ya’ni hech kimga aytmasligiga ishonaman. Biz shaharga kirganimizda, ko‘chalarda biror tirik jon yo‘q edi va hamma joy dahshatli jimlik edi.

Wise old soul-qari bilganni- pari bilmas [7].

An especially sagacious and sensible person who has a deeper understanding or appreciation of thin gs than most.*My mother is quite the wise old soul. No matter what my problem is, she always seems to kn ow what I should do.*

Ko‘pchilikka qaraganda, narsalarni chuqurroq tushunadigan yoki qadrlaydigan, ayniqsa, aqlli, tajribali va dono odam. Mening onam juda dono. Mening muammom nima bo‘lishidan qat’iy nazar, u har doim nima qilishim kerakligini biladi.

Xulosalar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqoridagi tahlillardan, o‘zbek tilida “ko‘ngil” leksik-semantik maydonining juda keng ekanligini va “ko‘ngil” semantik maydoniga kiruvchi maqollar va matallarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan juda ko‘p ma’nolarga ega ekanligini ko‘rib chiqdik. Bu esa til o‘rganuvchi insonlarining tafakkurida olamning lisoniy tasvirining aks etishini o‘rganib chiqishiga katta yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с. 380.

2. Abduvaliyev M. To‘siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi sintaktik birliklar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1988, 4-son, 62 – 66-betlar.

3. Mirzaqulov T. O‘zbek tili morfem paradigmatikasi va sintagmasi masalalari. DDA. T., 1994, 18-bet.

4. A.Madvaliyev. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 457 – 461-betlar.

5. Sh.Iskandarova. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fanlari.dok. avtoreferati, T., 1999.

6. Qo‘chqortoyev I. So‘zlarning leksik-semantik to‘dalari haqida. ToshDU ilmiy asarlari, 359-chiqish, T., 1969.

7. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s dictionary. Sixth edition. Edited by Sally Wehmeier. Oxford university press, 2000, p. 83.

Nizomiddinova Dildora Nosirovna (Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

JOY NOMLARI – LISONIY BOYLIGIMIZ, MILLIY IFTIXORIMIZ

Annotatsiya. *Xalqimiz tarixi, turmush tarzi, urf-odati, kasb-kori, xo‘jalik faoliyatiga oid ajoyib ma’lumotlar joy nomlarida saqlanib qoladi. Binobarin, toponimlar ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan va bizga ma’naviy-ma’rifiy meros qilib qoldirgan qimmatli boyligidir. Ushbu maqolada xalqimiz aql-zakovatining mahsuli, ma’naviy qadriyatlarimizning uzviy bir bo‘lagi bo‘lmish joy nomlarining o‘tmishdagi nomi hamda istiqlol davridagi o‘zgartirish kiritilgan nomlar xususida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В географических названиях сохранились большие сведения об истории, образе жизни, обычаях, профессиях и хозяйственной деятельности нашего народа. Поэтому топонимы являются ценным достоянием, созданным нашими предками на протяжении веков и оставленным нам в качестве духовного и просветительского наследия. В данной статье рассматриваются прошлые названия топонимов, которые являются продуктом интеллигенции нашего народа,*

неотъемлемой частью наших духовных ценностей, а также названия, которые были изменены в период независимости.

Annotation. *Great information about the history, lifestyle, customs, professions and economic activities of our people is preserved in place names. Therefore, toponyms are a valuable asset created by our ancestors over the centuries and left to us as a spiritual and educational heritage. This article discusses the past name of place names, which are a product of our people's intelligence, an integral part of our spiritual values, and the names that were changed during the period of independence.*

Kalit so‘zlar: *toponim, etnonim, oykonim, antropotoponim tabiiy, xalqona nomlar; rasmiy, sun’iy toponimlar, neotoponimlar, tarixiy toponim, urug‘, qabila.*

Ключевые слова: *топоним, этноним, ойконим, антропотопоним натуральный, народное название; официальные, искусственные топонимы, неотопонимы, исторический топоним, род, племя.*

Key words: *toponym, ethnonym, oikonym, anthropotoponym natural, that is, folk names; official, that is, artificial toponyms, neotoponyms, historical toponym, clan, tribe.*

Toponimlar deb ataluvchi joy nomlari – xalqimiz aql-zakovatining mahsuli, ma’naviy qadriyatlarimizning uzviy bir bo‘lagidir. Joylarga bejiz va besabab nom berilmaydi. Har bir nomda tariximizning kichik bir zarrasi o‘z aksini topadi. Joy nomlari bizni o‘tmish davrlarga yetaklaydi, ota-bobolarimiz bosib o‘tgan shonli yo‘l bilan tanishtiradi.

Xalqimiz tarixi, turmush tarzi, urf-odati, kasb-kori, xo‘jalik faoliyatiga oid ajoyib ma’lumotlar joy nomlarida saqlanib qoladi. Binobarin, toponimlar ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan va bizga ma’naviy-ma’rifiy meros qilib qoldirgan qimmatli boyligidir.

O‘lkamiz hududidagi toponimlar til xususiyatlari va joylarni nomlash talablariga qaysi darajada javob berishiga ko‘ra 2 guruhga: tabiiy, xalqona nomlar, rasmiy, sun’iy toponimlarga ajraladi.

Taniqli nomshunos olim, professor E.Begmatov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, tabiiy, ya’ni xalqona nomlar o‘zbek tilida asrlar davomida stixiyali ravishda paydo bo‘lgan toponimlar bo‘lib, ularning ijodkori xalqdir. Bunday toponimlarning aksariyati qadimiy davrlardan shu kunlarga qadar tarix sinovlaridan o‘tgan, silliqlanib, qisqa va lo‘nda so‘zlar shaklida kelgan, milliy til toponimik tizimining talablariga moslashgan atoqli otlardir. Tabiiy toponimlarda xalqning donoligi, nom qo‘yishdagi o‘ziga xos san’ati yaqqol sezilib turadi.

Qadimiy, xalqona toponimlarning bir guruhini urug‘, qabila, qavm nomlari – etnonimlar asosida vujudga kelgan joy nomlari tashkil etadi. Respublikamizda Qipchoq, Jaloyir, Urganji, Nayman, Do‘rmon, Mang‘it, Qashqar, Kenagas, Qipchoq, Arab, Xitoy, Telov, Minglar, Qangli, Qo‘ng‘irot, Qatag‘on, Qovchin, Chimboy, Uyshun, Bahrin, Qiyot, Qirqlar, Qushchi, Yuzlar, Uyrot, Bag‘ish kabi qishloq nomlari shular jumlasiga kiradi. Mazkur toponimlar va shunga o‘xshash ko‘plab joy nomlari mamlakatimizning qaysi qismida qanday urug‘, qabilalar, xalqlar yashaganligi to‘g‘risida guvohlik bera oladi.

Tarixiy joy nomlarida aholining iqtisodiy turmush tarzi – shug‘ullanuvchi kasb-kori, xo‘jalik faoliyati ham o‘z aksini topadi. Ma’lumki, kishilar qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug‘ullanib, hayot kechirganlar. Ularning ma’lum kasb-kor sohasida ixtisoslashuvi joy nomlarida o‘z “izi”ni qoldirgan. Ayrim qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha nomlari o‘sha joyda keng tarqalgan kasb-hunar nomlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan. Toshkent shahridagi Egarchi (egar-jabduq tayyorlash bilan shug‘ullanuvchilar mahallasi), O‘qchi (kamon o‘qi yasaydigan ustalar ko‘chasi), Samarqand shahri va uning atroflaridagi So‘zangaron (igna tayyorlovchilar mahallasi), Naqqoshon (naqsh chizish, naqsh yaratish kasbi bilan shug‘ullanuvchilar qishlog‘i), Miskaron (miskarlar yashaydigan mahalla), Qo‘qon shahridagi Baxmalbof (baxmal to‘quvchilar mahallasi), Degrezlik (qozon quyuvchilar, cho‘yangarlar mahallasi), Ko‘rpabof (ko‘rpa qavuvchilar, ko‘rpa tayyorlovchilar mahallasi), Marg‘ilon shahridagi Yo‘rmado‘z (chok turlaridan biri – yo‘rma to‘quvchilar mahallasi), Miltiqsoz (miltiq tayyorlovchilar mahallasi), Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanidagi Namatgaron (kigiz, ya’ni namat bosish kasbi bilan shug‘ullanuvchilar) qishloqlari ham kasb-hunarni bildiruvchi so‘zlar bilan yuritilgandir.

Joyning tabiiy-jug‘rofiy sharoiti – o‘simliklar dunyosi, hayvonot olami, erning relyef shakllari, tuprog‘i va uning xususiyatlari ham aholi maskanlarining nomlanishida muhim omillardan hisoblanadi. Chunonchi, Respublikamizda Jiydali, Yong‘oqli (Buvayda tumani), Yulg‘unzor (Uchko‘prik tumani, G‘umayli (Dang‘ara tumani), Mingtut (O‘zbekiston tumani), Qatortut (Baliqchi tumani), Tolqishloq (Beshariq tumani), Shaftolizor (Oltinko‘l tumani), Qamishtepa (Qo‘shtepa tumani), Tikonli (Nurota tumani) singari joylar mavjud bo‘lib, bu toponimlar o‘simlik nomlari bilan aloqador holda vujudga kelgan. Jarqishloq, Jarmahalla, Jarqo‘rg‘on, Jarko‘cha, Tepaqishloq, Tepaqo‘rg‘on, Chuqurqishloq, Chuqur

ko‘cha, Do‘ngqishloq qishloqlarining nomlanishiga relyefni bildiruvchi so‘zlar asos bo‘lgan. Qumqishloq, Qummahalla, Qumko‘cha, Qumtepa, Sho‘rqishloq, Sho‘rmahalla, Sho‘rtepa, Sho‘roqer toponimlari esa tuproqning tarkibiga ko‘ra yaratilgan joy nomlari sanaladi.

Bir qator tarixiy joy nomlari obyekt (joy)ning o‘rnashgan yeri, hajmi, o‘lchovi, paydo bo‘lish vaqtiga ko‘ra atalgan. Respublikamizning turli hududlarida uchrovchi Buloqboshi, Tegirmonboshi, Soybo‘yi, Ariqboshi, Ko‘llabi, Yuqoriqishloq, O‘rtaqishloq, Pastqishloq, Yuqorimahalla, O‘rtako‘cha, Quyiguzar, Quyimahalla, Kattaqishloq, Kattako‘cha, Kattaqo‘rg‘oncha, Kichikqo‘rg‘oncha, Yangiqishloq, Yangiqo‘rg‘on, Eskiqishloq, Eskimahalla singarilar shunday nomlar jumlasiga kiradi.

Bayon qilingan fikrlardan ko‘rinadiki, tarixiy joy nomlari muayyan ma’no kasb etadi, ma’nosiz toponimlar yo‘q. Ularda qiziq-qiziq tarixiy faktlar, muhim tarixiy voqea-hodisalar o‘z aksini topadi. Yuqorida qayd etilgan ashyoviy dalillar buni isbot etib turibdi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, joy nomlariga munosabat tubdan o‘zgardi. Toponimiya masalalariga davlat miqyosida ahamiyat berila boshladi. Mamlakatimizning barcha viloyat, tuman, shahar hokimliklari huzurida toponimik komissiyalar tuzildi. Komissiyalar nomlarni tartibga solish, tarixiy toponimlarni tiklash, yangi nomlar yaratish kabi masalalar bo‘yicha bir qator ishlarni amalga oshirdilar.

Milliy istiqlol yillari davomida respublikamizning viloyat, shahar, tumanlarida eski tuzum mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lgan, mustamlaka davri g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi, hech qanday milliy ma’no, xususiyat kasb etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab ko‘chalar, mahallalar, guzarlar nomlari fuqarolarning taklif va mulohazalari asosida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda o‘zgartirildi. Bir qancha tumanlar, shaharlarning tarixiy, qadimiy nomlari tiklandi. Farg‘ona viloyatidagi Beshariq, Dang‘ara, Uchko‘prik; Andijon viloyatidagi Asaka, Shahrixon; Toshkent viloyatidagi Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, Zangiota, Qibray, Surxondaryo viloyatidagi Muzrabod, Qiziriq, Buxoro viloyatidagi Jondor tumanlarining nomlari ana shunday qayta iste’molga kiritilgan toponimlarga yaqqol misol bo‘la oladi.

Istiqlol yillarida ko‘plab toponimik obyektlarga milliy ruh bag‘ishlash maqsadida yangi nomlar berildi. Ularning ayrimlari sharqning buyuk allomalari – Ahmad Farg‘oniy, Zamaxshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Ismoil Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Xo‘ja Ahror, Ali Qushchi, ona-yurt uchun jonini fido qilgan buyuk sarkardalar – Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur nomlari bilan atala boshlandi.

Bundan tashqari, yangi nomlar – neotoponimlar orasida istiqlol kishilarining ozod va gulgun turmushini, baxtli hayotini, orzu-istaklarini, intilishlarini ifodalovchi toponimlar ham alohida o‘rin tutadi. Istiqlol, Elobod, Gulobod, Iqbol, Navro‘z, Yangihayot, Navnihol, Ziyokor, Mustaqillik, Fidoyilar, Gulbahor, Bo‘ston, Navbahor, Yoshlarobod, Do‘stlarobod, Taraqqiyot, Kamolot, Ma’rifat, Do‘stlik, Saxovat, Ahillik, Jasorat, Adolat, Birdamlik, Shodlik, Hurriyat, Ixlos deb ataluvchi qishloq, mahalla va ko‘chalar bularga yorqin misoldir.

Xullas, joy nomlari – lisoniy boyligimz, milliy iftixorimiz, Vatanimiz ko‘rki, yurtimiz jamolidir. Ularni o‘rganish, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. Toshkent, 1992.
2. Aliev A. Namangan toponimikasidan. “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, Toshkent, 1968.
3. Aslonov A. Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili. NDA, Toshkent, 2005.
4. Begmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi. Toshkent, 1998.
5. Охунов Н. Топонимика районов Кокандской группы. AKD, Ташкент, 1978.
6. Oxunov N. Antropotoponimika nima? Toshkent, 1984.
7. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. Toshkent, 1989.
8. Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. Toshkent, 1994.
9. Oxunov N. Muqaddas qadamjolar. Qo‘qon, 2005.
12. Nizomiddinova D., Vasilakhon I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPONYMS IN THE FORM" OT+VERB” AND VERB+ OT. In *A*rchiveofConferences. Vol. 1, №. 1, pp. 128 – 129).
13. Nosirovna N.D. (2022). ABOUT SOME ANTHROPOOYKONYMS OF FERGANA VAL-LEY. GalaxyInternationalInterdisciplinaryResearchJournal, 10 (12), p. 1124 – 1131.
14. Nosirovna N.D. (2022). Regarding the Study of the Simple Names of the Fergana Region According to the Morphological Structure. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 1(5), p. 82 – 85.
15. Nosirovna N.D. (2022). Anthropotoponyms are a priceless treasure of our language, a monument of our history. Emergent: JournalofEducationalDiscoveriesandLifelongLearning (EJEDL), 3(02), p. 16–19.

16. Nizomiddinova D., Vasilakhon I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPONYMS IN THE FORM OT+VERBƏ AND VERB+OT. In ArchiveofConferences (Vol. 1, № 1, pp. 128 – 129).

17. Ubaydullaevna N.S., Mehmonalievich T.A., Mamirovna H.K., Nosirovna N.D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.

Ahmedova Marhabo (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (marhabo.ahmedova18@gmail.com)

OGAHIYNING “RIYOZ UD-DAVLA” ASARIDA JAVOR VA ZIYORATGOH NOMLARI

Annotatsiya. *Maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning keng hajm va katta ko‘lamdagi “Riyoz ud-davla” tarixiy asari onomastik fondining bir qismini tashkil etuvchi javor ziyoratgoh nomlari, nekronimlar alohida tizim sifatida o‘rganilgan. Asardagi nekronomik ko‘rsatgichlarning ayrimlari lingvistik tahlil etilgan.*

Аннотация. *В статье как отдельная система рассматриваются названия мест паломничества, входящие в состав ономастического фонда масштабного исторического труда Мухаммада Ризы Огахи «Рияз уд-давла». Некоторые некрономические показатели, привенные в работе, подвергаются лингвистическому анализу.*

Annotation. *In the given article, the names and nicknames of the Javor pilgrimage site, which are a part of the extensive historical work “Riyaz ud-davla” by Muhammad Riza Agahi, are examined as a separate system. Some of the necronomic degrees are analyzed linguistically in the work.*

Kalitlar so‘zlar: *tarixiy asar, onomastik fond, onomastik ko‘lam, nekronomik indikator, javor va ziyoratgoh nomlari.*

Ключевые слова: *историческое произведение, ономастический фонд, ономастический объем, некрономический показатель, названия святынь.*

Key words: *historical work, names of shrines, onomastic fund, onomastic scale, and necronomic indication.*

Muhammad Rizo Ogahiyning ushbu katta hajm va ko‘lamdagi tarixiy asari onomastik fondining bir qismini javor ziyoratgoh nomlari – nekronimlar tashkil qiladi. O‘zbek tilida nekoronimlar alohida tizim sifatida o‘rganilgan ishlar kam.[1]

Dastlab, asardagi mazkur tip onomalarning ko‘rsatkichlari – nekronimik indikatorlarning ayrimlari haqida qisqacha to‘xtalamiz.

Ravza روضه – tor ma’noda Muhammad alayhissalom maqbarasi. “Shahanshohi irfondastgohning ravzayi qudsiyosor va maqbarayi foyiz ul-anvorig‘a nisordurkim,..” (246[b]).[2] So‘zning mazkur ma’nosi Alisher Navoiy asarlarida ham bor:

Mash’ale bo‘lmish malak ilgida ravzang boshig‘a
Oy charog‘i kechalar bu nilgun toram aro.[3]

Ravzaning birlamchi ma’nosi “ko‘kalamzor”, “chamanzor”, “bog‘” bo‘lib,[4] ko‘pligi *riyoz* رياض dir. Asarda so‘zning bu ma’nosi ham ishlatilgan: “Qilichniyozboy avval ul havli mazorie’ig‘a musharraf bo‘lub, ul bog‘ va rabotni bino va imorat qilib erdi, ul *ravzayi* marg‘ub bu jihatdin aning otig‘a mansub bo‘ldi,.. (287b); “Va ul dag‘i bog‘e erdi, musaffoliqda jannat *riyozig‘a* ta’na urar erdi va *ravzae* erdikim, xushsafoliqda falak gulshanig‘a sarzanish yetkurar erdi”. (287b) Har ikkala misolda forsiy *bog‘* va arabcha *ravza* so‘zlari orqali tarodif san’ati (sinonim so‘zlardan foydalanish mahorati) ko‘rinib turibdi.

Mazkur so‘zning asl ma’nosi “bog‘” uning jannat ma’nosini kasb etishiga asos bo‘lgan. Asarda *ravza*ning jannat ma’nosi bilan bog‘liq quyidagi birikmalar mavjud: 1. *ravzayi xuldi barin* gulistonidek sabz-u xurram (248a). 2. Ravzayi rizvon: *ravzayi rizvon* tarovatin oshkor qilib, ...(338a); *ravzayi rizvon* tarovatin yetkurdi. (278a). *Ravzayi rizvon* birikmasidagi *Rizvon* **رِضْوَان** Zamaxshariy tomonidan “xozini behisht” **خازن بهشت** – jannat xazinaboni deb izohlangan.[5]

[1] Аслонов А. Шофиркон некронимлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1999, 4-сон, 63–65-бетлар.

[2] Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Риёз уд-давла. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Ашё рақами 5364. II. Мақоладаги мисоллар ушбу манба асосида бўлиб, қавс ичи саҳфа рақамини англатади.

[3] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Биринчи том. Т., “Фан”, 1987, 33-бет.

[4] Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003, 331-бет.

[5] Маҳмуд Замахшарий. Муқаддимат ул-адаб. Исмлар. Тошкент, “Наврўз”, 2017, 183-бет.

A.Dehxudo *ravza* so‘zi fiqh istilohi sifatida Madinadagi payg‘ambar alayhissalom manzili va Masjidi nabaviydagi minbar orasidagi joy ekanini qayd etadi.[1] Asar davomida ushbu so‘zning umuman maqbara, qabr ma’nosida ham qo‘llanganini ko‘ramiz: “Shayx Najmiddin Kubro alayhi-r-rohmaning *ravzayi* mutabarrikasining shimoliya tarafi...” (318^{b}).

Juvor so‘zi avliyolar, buyuk ilohiyot olimlari maqbara, marqadlari qoshidagi masjid, maktab, madrasa, xonaqoh degan ma’noni anglatadi. Mazkur so‘zning lug‘aviy ma’nosi 1) yonma-yonlik, qo‘shnilik; 2) himoya qilish, yonini olishdir.[2] G‘iyosiddin Rampuriy mazkur so‘zning to‘g‘ri shakli ommalashib ketganidek *javor* emas, balki *juvor* yoki *jivor* deb ko‘rsatadi.[3]

Juvor so‘zining nomlanish sababi shundaki, o‘tmishda maktab va masjidlar, ba’zi madrasalar ko‘p hollarda avliyolar, buyuk din olimlari maqbaralari bilan yonma-yon joylashgan. Shuning uchun ham *qo‘shni bo‘lib yashamoq* ma’nosidagi *jaavara* **جاور** fe’lining yana bir ma’nosi ilohiy fanlar bilan shug‘ullanmoq, zohidlikka berilmoqdir.[4] Shu tarzda *mujovara* so‘zi: 1) qo‘shnilik; 2) ilohiyot bilan shug‘ullanish, zohidlik kabi ma’no beradi.

Ogahiy tarixiy asarlarida *juvor*ning, ko‘pincha, maqbara, marqad qoshidagi ilohiyot o‘quv dargohi ma’nosi ko‘zga tashlanadi. Masalan, “...namozi digar vaqtida zubdat ul-orifin, umdat us-solikin Xoja Husomiddin shahid maqbaralari *juvor*idakim...” (272^{b}).

“Riyoz ud-davlada” yana quyidagi nekronimlar qo‘llanilganini ko‘ramiz:

Shayx Ahmad Toyifotiy maqbarasi. Bir o‘rinda Dorg‘ona hududida bo‘lib o‘tayotgan voqealar tafsilotida keladi: “Ul maqomi saodatiltizomda *Shayx Ahmad Toyifotiyning javori fayzosorida* o‘lturg‘an solur xalqi...” (268a).

Luqmon binni Muhammad Parranda maqbarasi. “Tajan daryosidin o‘tub, hazrati qutb us-solikin, faxr ul-vosilin, shams ul-millati va-d-din shayx *Luqmon binni Muhammad Parrandakim*, turkman xalqi ta’zim yuzidin ul janobg‘a *Ulug‘ bobo* derlar, javori fayzosorig‘a yovuqroq manzilkim, Qizilqiyog‘a mashhurdur,.. (271b).

Xoja Xusomuddin shahid maqbarasi. “...zubdat ul-orifin va umdat us-solikin *Xoja Xusomuddin shahid* maqbaralari javoridakim, Purvarobod qal’asi suyining saqqosidur,..” (272^{b}).

Alouddin xoja maqbarasi. Hazrat Alouddin xoja alayhirrahmaning javori fayzosorida oboyi izom va ajdodi kiromlari Muhammad Amin inoq va Amir Avaz inoqning maqbaralari ustida bir madrasayi oliy va sangin bino qildurdikim, fayzu safo koni, fazlu ilm ahlining makonidur va Madrasayi amoratg‘a mavsumdur. (278b). Alouddin xoja alayhirrahmaning javori foyiz ul-anvorida Madrasayi imoratning orqasig‘a muttasil bino qilg‘an joyda madfun bo‘ldi (356a).

Dorg‘on ota maqbarasi: Dorg‘on ota alayhirrohmaning javorig‘a vorid bo‘ldi (292b).

G‘arib ota maqbarasi: zubdut ul-avliyo, qudvatu-l-atqiyo G‘arib ota alayhi-r-rohmaning ziyoratig‘a musharraf bo‘lub, ..(295a).

Ota alayhirrohma maqbarasi. Chun hazrati podshohi mag‘fur tavoyifi mazkurg‘a manshuri lozim ul-imtisol irsol qilg‘andin so‘ng dushanba kuni O‘rtaquduq havolisidin ko‘chub, Gurgon yo‘lining ayritidin o‘tub, bir manzilda nuzul qilib, bir kecha lashkari sarsarharakat bila ul manzilda istirohat ko‘rguzdi, to tonglasikim, seshanba kuni erdi, ul yerdin ko‘chub, Boloyi sham’ otlig‘ quduqning atrofin a’lomi saodatfarjomning mohchayi anvari shu’osho’idin munavvar qildi. Va bir oqshom ul manzilda tavaqquf qilib, Ota alayhirramaning javori foyiz ul-anvorida tavattun va sukno ko‘rguzgan taka xalqining jonsipor sardorlari va xizmatguzor navkarlarig‘a ostoni davlatposbon mulozamati sharafig‘a tezrak foyiz bo‘lsunlar deb misoli marhamatishtimol irsol qildi (337b).

Go‘runish bobo maqbarasi. Va chahorshanba kuni mazkur mavze’din nahzat alamin jilvagar va azimat qadamin sur’atgustar qilib, Go‘runish bobo otlig‘ buzrukvorning atrofig‘a qadami fayzosori vusuli bila tarovati beandoza yetkurdi (337b)

Badal ota maqbarasi: mazkur daryoning janubiya tarafida Badal ota alayh ir-rahmaning javorin kavkabayi volog‘a qarorgoh qildi (339b).

Xoja jonboz maqbarasi. Mirsaroydin rukub qilib, falaq ibtidosidin shafaq intihosig‘acha yo‘l yurub, bir farsaxliq miqdori masofat qat’ qilg‘andin so‘ng Xoja jonboz otlig‘ bir buzrugvorning javori fayzosorig‘a yetushub,.. (340b).

---

[1] King Dehkhoda. Kingroid.co@gmail.com

[2] Навоий асарлари учун қисқача луғат. 85-бет.

[3] غياث الدين محمد. غياث اللغات . لكهنو. ١٨٨٦. ص.١٥٧

[4] Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. С. 148.

Bobo arab – javor nomi. “Va tonglasi shanba kuni *Bobo arab* javoridin ko‘chub,..” (341b).

Imom Nisoiy – maqbara nomi. “...*imom Nisoiykim*, hazrati Nabavi sallallohu alayhi vasallamning kalomi mo‘jiznizomining roviysidur, aning ostonayi qudsiyoshiyonasi atrofin mustasqari a’lomi zafar-farjom qildi”. (341b).

Ahmad Tolqoniy maqbarasi. Hazrati Ahmad Tolqoniyning javori fayzosorida (346b); hazrati Ahmad Tolqoniy javoridin nahzat ko‘rguzub,.. (346b). *Tolqon* – Qazvin va Ahbar o‘rtasida joylashgan shaharcha. Tog‘liq hudud. Qadimiy joy nomi bo‘lib, “Shohnoma”, “Hudud ul-olam”, “Tarixi jahonkushoy”, “Tarixi mo‘g‘ul” kabi asarlarda tilga olingan. Tolqon qadimdan ipak ishlab chiqarishda mashhur bo‘lib, harirlari tolqoniy deb nom qozongan. Asarda tilga olingan Ahmad Tolqoniy–Abulxayr Ahmad bir Yusuf Tolqoniy bo‘lib, “Kitob ul-ansob” muallifi Sam’oniy ma’lumot bergan.

Sori hoji maqbarasi. Otg‘a rukub qilib, hazrati a’lo xoqoniyni dag‘i ul safarda o‘ziga hamroq etib, hamul kun kechrak Fitnakdin o‘tub Sorihoji otlig‘ buzrugvorning javori foyiz ul-anvoridakim, borgohi sipehrishtiboh barpo qililib erdi, nuzul qildi. (359^{b}).

Pahlavon Mahmud maqbarasi. “*Pahlavon Mahmud* quddisa sirrih il-azizning javori fayzosorida madfun bo‘lub osudalig‘ topti”. 364a; “Pahlavon Mahmud quddisa sirruhuning maqbarayi mutabbarakalari ziyoratig‘a musharraf bo‘lub,.. (255a)”; “...avval qudvat ul-orifin, zubdat us-solikin, qutb ul-avliyo murshid ul-atqiyo maxsusi borgohi mulki vadud hazrati *Pahlavon Mahmud quddisa sirruhu ostonasi* ziyoratig‘a musharraf bo‘lub,..” (314a).

Imom ar-Rizo maqbarasi. “Ul yerdin hazrati *imom ar-Rizo alayhi-t-tahiyyatu va-s-sanoni* ziyorat qilib, ruhi pokidin futuhi beg‘oyat va fayzi benihoyatg‘a musharraf bo‘ldi”. (260a).

Jigarband ota ziyoratgohi. “Dushanba kuni ul marhaladin harakat ko‘rguzub, *Jigarband ota* ziyoratig‘a musharraf bo‘lub,..” (267a).

Imom Bektosh ziyoratgohi. “Hazrati imom *Bektosh alayh ir-rahmaning ostonayi qudsiyoshyonasi* havolisig‘a vorid bo‘lub, ahkomi ziyoratni ixlosi tamom bila bajo kelturub, osudalig‘ topdi” (347a).

Shayx Jamoliddin ziyoratgohi. *Shayx Jamoliddin qaddasa sirrah ul-azizning maqbarayi mutabarrakasi* ul qal’a fazosining tarafi janubida voqe’dur,..” (341b).

Shayx Abdulloh Muborak ziyoratgohi. “Qutbi osmoni hidoyat, markazi doirayi haqiqat, taqvo va porso ahlig‘a toji torak *Abdulloh ibn Muborak qaddasallohu sirrohuning qadamgohi sharofatintinoh* va maqbarayi saodatintibohining tavofig‘a musharraf bo‘lub, arvohi tayyibalaridin istimdodi himmat qildi”. O‘zbek mumtoz adiblarining Abdulloh Muborakka alohida e’tiborini Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”ida[1] va So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin”ida mazkur piri murshid bilan bog‘liq hikoyatlar keltirilgani ham ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, asarda nekronimlar miqdori salmoqli bo‘lib, jug‘rofiy doirasi ham keng. Asarda o‘rni bilan Ogahiy o‘tgan azizlarni ziyorat qilish, undan ma’naviy bahramandlik xususida ham o‘z mulohazalarini bayon qilib ketgan. Masalan, “...umdat ul-avliyo, zubdat ul-atqiyo, mahrami borgohi mulki vadud hazrati Pahlavon Mahmud va at-tahiyata va-s-sanoning fayzosor va xurshidanvor mazorining ustidagi xonaqahi sipehr-ishtibohg‘akim, hazrati sohibqironi davlatposbonning padari buzrugvori, sultoni firdavsmakon Muhammad Rahim Bahodirxonning me’mori iltifotidin bino topib, safo va ziynatda gardun gunbazig‘a ta’nazan, ulluv va rif’atda arsh kungurasig‘a soyaafkan erdi, mazkur masjiddin chiqib, ixlos qadami bila mazbur buzrugvorning humoyun marqadi ziyorati uchun xulusi niyat bila piyoda xirom ko‘rguzdi va jame’i ulamo-yu umaro bila ziyoratxonayi firdavsnishong‘a doxil bo‘lub, tasarru’ va maqomda orom tutub, kamoli shikastalik va furutanlik bila mazkur buzrukvorning ruhi purfutuhidin iltijoyi istionat va istimdodi himmat qildi.

Qit’a:

Eyki, bo‘lmoq istasang gardun masallik sarbaland,
Aylagil boshingni xoki ostoni avliyo.
Bog‘i umring nuzhatafzo istasang qilg‘il fido,
Durri ashking marqadi jannatnishoni avliyo.
Masnadi davlatda gar bo‘lmoq tilarsen barqaror,
Qil ziyorat sidq ila topsang makoni avliyo.
Nozir o‘lmoq istasang maqsad yuziga surma qil,
Xoki dargohi maloyik posboni avliyo.

[1] Ғаффоров Н. “Ҳайрат ул-аброр”да Абдуллоҳ Муборак образи ва нафс талқини. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1998, 4-сон, 18-бет.

Hodisoti dahrdin amn istasang yuz ajz ila,
Bo'l g'ubori dargahi dorulamoni avliyo. (22^b –23^b)

Asardagi nekornimlar tahlil ham uning onomastik ko'lami haqida tasavvur berish bilan Ogahiyning har bir lisoniy detaldan mohirona foydalana olish salohiyatini namoyon qiladi.

Ro'zmetov Hamidjon Qalandarovich (Urganch davlat universiteti dotsenti),
Avezberdiyeva Nafisa Komuljonovna (UrDU Roman-German kafedrasi o'qituvchisi),
Ro'zmatova O'g'iljon (Urganch davlat universiteti 4-kurs talabasi)

"AZIZIM" ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk fransuz yozuvchisi, fransuz romantizm va naturalism maktabi namayondasi Gi de Mopassanning "Bel Ami" romanida bosh qahramon davr ijtimoiy-siyosiy voqeyliklarini aks ettirishda ayollardan o'z maqsadiga erishish yo'lida ayyorona foydalanganligi yoritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос об отношении к женщинам, их использовании при достижении корыстных целей, при отображении социально-политической действительности в романе «Милый друг» великого французского писателя Ги де Мопассана, представителя школ романтизма и натурализма.*

Annotation. *This article depicts the great French writer Guy de Maupassant, a representa-tive of the French school of romanticism and naturalism, in the novel "Bel Ami" clarifies how the main character cunningly used women to achieve his goals in reflecting the social and political realities of the era.*

Kalit so'zlar: *romantizm maktabi, naturalizm adabiy oqimi, inson fizonomiyasi, ajdodlar evolutsiyasi, burjua jurnalistlari hayoti, shuhratparast va xudbin odam, kiborlar jamiyati, ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyi.*

Ключевые слова: *школа романтизма, литературное направление натурализма, физиономия человека, эволюция предков, жизнь буржуазных журналистов, честолюбивый и эгоистичный человек, аристократическое общество, социальное положение женщин.*

Key words: *romanticism school, the literary stream of naturalism, human physiognomy, ancestral evolution, bourgeois journalist's life, an ambitious and selfish person, arrogance society, the place and status of women in society.*

Jahon adabiyotida o'z o'rniga ega buyuk fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan ijod bo'sag'asiga qadam qo'yganda, uning qarshisida uch bo'g'iniga mansub adabiy meros – Stendal, Onore de Balzak va Flober tanqidiy realizm, Viktor Gyugo, Jorj Sand va Myusse romantizm hamda Emil Zolya va aka-uka Gonkurlar ijodidagi naturalizm turadi. Shuning uchun ham, keyinchalik, Mopassan ijodini o'rgangan adabiyotshunoslar, shuningdek, tanqidchilarining asarlarida har uchala maktab an'analarini ko'rish mumkinligini ta'kidlashadi.[1]

Darhaqiqat, yozuvchining o'zi Stendal, Balzak, Flober realizmga ergashganligini uqdirsa-da, uning 300 dan ortiq novella va 6 ta romanini ("Hayot", "Azizim", "Mont-Oriol", "Pyer va Jan", "O'limdek kuchli", "Bizning qalbimiz") o'qiganimizda, romantizm maktabi mahoratiga xos bo'rttirma ifodalarini ham, naturalizm qalamkashlaridagi inson fizonomiyasi va ajdodlar evolutsiyasi tasvirini ham kuzatishimiz mumkin.[2]

Muallif asarlaridagi voqealar, asosan, u tug'ilib o'sgan Fransiyaning Normandiya viloyatida bo'lib o'tadi. Dvoryan mahzabiga mansub ota oilaviy mojarolar oqibatida ikki o'g'lini xotiniga tashlab ketadi. Bolalarining o'qimishli kishilar bo'lib yetishishini istagan Lora de Mopassan xonim ularning tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Yoshligidanoq badiiy ijodga, she'r yozishga bo'lgan qiziqishlarini sezgan Lora xonim bo'lajak yozuvchini o'z do'sti taniqli adib – Gustav Floberga shogirdlikka beradi. Qattiqqo'l ustoz maktabida shakllangan yozuvchi hayotning o'sha davr qiyinchiliklarini boshidan o'tkazadi, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilar bilan muloqotda bo'ladi. Yozuvchi ko'rgan-kechirgan voqealarni, keyinchalik, o'z asarlari mazmunida beradi.[3]

Mopassan romanlarini deyarli novellalari bilan bir davrda yozadi. Ularda novellalardagi sujetni davom ettirib, voqealar tasvirini yanada takomillashtiradi.

---

[1] Данилин Ю.И. Мопассан. Жизнь и творчество. М., 1968.
[2] Blondeau N. Littérature progressive du français. P., 2004.
[3] Ploquin F. Littérature française. P., 2001.

Yozuvchi o‘zining ikkinchi romani «Azizim»da burjua tuzimining real tasvirini gavdalantiradi va jurnalistika sohasidagi bor mahoratini ishga soladi. Uchinchi respublika siyosatining tub mohiyatini real kartinalarda ochib tashlaydi. Romanning mazmuniga adibning asarni yozishdan ikki yil oldin e’lon qilgan «Erkak fohisha» nomli pamfleti obyekt qilib olingan. Bu yerda fohisha so‘zi buzuqi ma’nosidan ko‘proq «sotqin» ma’nosida kelgan bo‘lib, shu yo‘l bilan o‘ziga obro‘-e’tibor orttirgan erkaklar qiyofasini gavdalantirishga xizmat qiladi.[1]

Asarning boshida Jorj Dyuruaning oddiy normand dehqon oilasida o‘sib-ulg‘ayganini, ota-onasi uni ham boshqalar kabi o‘qimishli va odobli bo‘lishiga harakat qilganligini ko‘ramiz. Burjua hayoti oqimiga qo‘shilgan Dyurua pul ishlash maqsadida unter-ofitser formasida Fransiyaning Afrikadagi koloniyalariga jo‘nab ketganligini va mustamlaka xalq vakillarini kamsitish, ularni talash va o‘ljasini qo‘lga kiritishga qaratilgan harakatlarda qatnashganligini bilib olamiz. Bular qahramon fe’l-atvorining qo‘pol, shaxsiyatparast bo‘lib shakllanishiga ta’sir etadi. U Parijga o‘ta shuhratparast va xudbin odam qiyofasida kirib keladi.

“Azizim” romani o‘sha davr fransuz siyosatdonlari va ularning qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lgan burjua jurnalistlari hayotini, siyosiy nayrangbozliklarini, fahsh va razolat bilan to‘lgan ma’naviyatlarini fosh etadi. O‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tap tortmaydigan Dyurua ayollardan o‘z maqsadiga erishish, boylik orttirish, kiborlar jamiyatiga kirish uchun foydalanadi.

Romanda ayollar obrazi juda kuchli va keng yoritilgan. Ularning o‘sha jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi ham tasvirlangan. Asarda ahamiyatlilik darajasi turlicha bo‘lgan ko‘pgina ayollar obrazi mavjud. Ular ichida eng muhim o‘rin tutganlari sifatida Madelena Forestye, Klotilda de Marel, Virgini Valter va uning qizi Syuzannani keltirish mumkin.

Mopassan tasvirlagan jamiyat hayoti sharq xalqlari turmush tarzidan ancha uzoq. Sharqda oila muqaddas hisoblanadi. Oilada oilaga bo‘lgan ishonch, hurmat shakllantiriladi. Sharq ayollari uchun boyvachcharoq mijoz axtarib, Foli Berjerda izg‘ib yuruvchi Rashel, eri safarga ketganda Jorj bilan ko‘ngilxushlik qilishni sevadigan De Marel xonim kabilarning hayoti axloqsizlikning namunasi hisoblanadi. Shuning uchun ham hamma bir-biri bilan aralashib, betartib yashayveradigan, o‘z bag‘rida Jorj Dyurua kabi shaxslarni yetishtiruvchi jamiyat hayoti bizni ancha hayratga soladi.

Klotilda de Marel xonim – Dyuruaning ikkiinchi ma’shuqasi. U XIX asr burjuaziyasining tipik vakilasi: pul haqida tashvishlanmaydigan darajada boy, chiroyli va vaqtichog‘lik qilishni sevadi. Madlenadan farqli ravishda, na siyosatga va na boshqa narsalarga qiziqmaydi. U Jorj bilan xizmatchilarga o‘xshab kiyinib, oddiy ishchilar boradigan restoran, qovoqxonalarga borishni yoqtiradi. Dyuruani oddiy xalq ko‘ngil ochadigan g‘alati yerlarga borishga undaydi. “Klotilda uchrashuvga polotno ko‘ylak kiyib, boshiga vodevilda o‘ynaydigan aktrisalar iladigan ro‘mol o‘rab kelardi. Uning kiyimlari nafis, noyob, ayni chog‘da, oddiy bo‘lardi”.[2] Uni asarning eng yorqin obrazlaridan deyish mumkin. Klotilda o‘zining ayollik latofati va nazokati bilan ham o‘quvchi e’tiborini tortadi. Albatta, uni ijobiy qahramon deyishdan yiroqmiz. Oddiy xalqqa o‘zlarini beayb, begunoh farishta qilib ko‘rsatuvchi kiborlar jamiyatining vakilasi bo‘lmish De Marel xonimning qizi va eri bo‘lishiga qaramay, Dyurua bilan birga bo‘lishga intilishini oqlab bo‘lmaydi. Ammo unda faqat ayollardagina bo‘ladigan o‘ziga xos nozik xislatlar ko‘zga tashlanadi. Dyuruaning o‘zidan boshqa ma’shuqasi borligini bilsa ham, Madlenaga uylansa ham, hatto Klotildaga qo‘l ko‘tarsa ham, baribir, uni kechiradi, yana u bilan birga bo‘lish istagini bildiradi. Ular o‘rtasidagi munosabatga birinchi marta Rashel sababli sovuqchilik tushadi. Dyuruaning Madelenaga uylanishi Ikkinchi marta oralarining buzilishiga olib keladi. Ammo bu safar ham bu ayriliq uzoqqa cho‘zilmaydi. Keyin Dyurua Syuzanna bilan turmush quradi. Biroq bu gal ham Klotilda uni afv etadi. “…uning mayin qo‘llari seni kechirdim, yana yonimga kel deyayotganday edi”.[3] Jorj ham boshqa ayollardan ko‘ra ko‘proq unga moyilroq ekanini sezish qiyin emas. Balki, u Dyurua chindan ham sevgan yagona ayoldir. Asarning aynan De Marel xonim haqidagi jumlalar bilan tugashi ham buni isbotlaydi. “Xonim o‘sha-o‘sha latofatli, go‘zal edi, uning ko‘zlari o‘sha-o‘sha sho‘x olov sochib turardi… ko‘zlarida De Marel xonimning siymosi gavdalandi”.[4]

Madelena Forestye – Dyuruaning yuqori martabali odamlar bilan tanishishiga, jurnalistik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida eng ko‘p yordam bergan ayol. “Xonimning ko‘zlari ko‘kimtir kul-

[1] Мопассан Ги де. Ҳаёт. Азизим. Новеллалар. Т., 1987.
[2] Maupassan Gi. de. Bel-Ami. M., 1981.
[3] O‘sha manba.
[4] O‘sha manba.

rang, o‘zgacha jozibador edi. Burni chimdib qo‘yilgandek nozik, dudoqlari to‘lg‘in, dahani momiqday, bag‘oyat latofatli va go‘zal edi: unda makr va hiyla ifodasi ham yo‘q emasdi”. Madelena erkinlikni sevuvchi ayol bo‘lib, nikohni, o‘z erkini cheklashiga yo‘l qo‘ymaydi. “Men nikohni o‘zimga zanjir deb bilmayman, qilayotgan ishlarim haqida hisob bermayman”. Bundan tashqari, uni tergashlarini, unga nasihat qilishlarini, rashk qilishlarini ham yoqtirmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zini nazorat qilishlarini istamaydi. Madelenaning tahsinga loyiq jihati shundaki, unda go‘zallik bilan o‘tkir aql ham mujassam edi. “Jorj uning teran aqliga, hamma narsadan favqulodda xabardorligiga va aloqalarining zo‘rligiga qoyil qolib kelardi. Undan o‘tkir diplomat chiqishi mumkin edi.

Dastlab, Forestye, keyinchalik, Dyurua imzosi bilan nashr etilib, “Fransuz hayoti”ni mashhur qilgan, eng ko‘p shov-shuv ko‘targan maqolalarning asl muallifi Forestye xonim edi. Bu uning mahoratli jurnalist ham ekanligini ko‘rsatadi. Dyurua do‘sti Forestyeni yo‘qlab kelganda doimo Forestye xonimni eriga nimalarnidir aytib yozdirayotgan holda uchratadi. Ko‘pincha, katta yozuv stolida erining hujattlarini tahrirlayotganini ko‘rib, do‘stining ishlarini uning xotini bajarishini tushunib yetadi. Buning ustiga uning o‘sha davrda faqat erkaklargagina xos deb hisoblangan siyosatga qiziqishi, uni yaxshi bilishi, nozik kinoya va qochirimlarga boy maqolalari bilan ko‘pchilik erkaklardan ustun turishi o‘quvchida unga nisbatan iliqlik uyg‘otadi. Erining o‘limidan so‘ng Jorj unga dil izhor qilgan paytda, Madelenaning sovuqqonligiga guvoh bo‘lamiz. U xuddi Dyuruani eshitmayotgandek, indamasdan turaveradi. Uni hissiyotga beriluvchan ayol deb bo‘lmaydi. Aksincha, u mulohazali, uzoqni ko‘rib ish qiladi. Dyuruaga ham aynan uning uzoqqa bora olishiga ko‘zi yetgani uchun turmushga chiqadi. Shu bilan birga, uning kamchiliklari va zaif tomonlari ham bor. Erining vafotidan so‘ng, uni tushkun va ojiz ahvolda ko‘ramiz. Afsuski, u ham o‘z zamonasining ko‘pchilik ayollari singari, umr yo‘ldoshiga sadoqatli emas. U Tashqi ishlar vaziri Larosh-Matye bilan munosabatlarining fosh bo‘lishi tufayli Dyurua bilan ajrashadi. Bundan oldin esa uning Vodrek bilan aloqalari borligini taxmin qilish mumkin. Graf ularnikida tez-tez mehmon bo‘lib turgan. Har hafta Madlena uchun gullar keltirgan. Vodrekning o‘lim to‘shagida ekanligini eshitgan Madelena qattiq iztirobga tushadi.

Vodrek vafotidan so‘ng o‘zining barcha boyligini Madelena Forestyega qoldiradi. Biroq Dyurua Vodrekdan Madelenaga qolgan merosning yarimini qo‘lga kiritishi bilan, Syuzannaga uylanish uchun u bilan ajrashadi. Bu bilan Forestye xonim to‘xtab qolmaydi. Oradan biroz vaqt o‘tib, “Qalam” gazetasida xuddi Forestye va Dyurua maqolalariga quyib qo‘ygandek o‘xshash siyosiy maqolalar paydo bo‘ladi. Ularning muallifi Jan Ledol – kelishgan, aqlli, yaqinda Jorjning sobiq rafiqasi bilan tanishib qolganligi ma’lum bo‘ladi.

Jorj Dyurua hayotidagi yana bir ayol Virgini Valter xonimdir. Uni yo‘ldan ozdirish Dyuruaga qiyin bo‘lmadi. Yoshi kattaroq bo‘lishiga qaramay, hamon go‘zalligini yo‘qotmagan bu ayol kelishgan, navqiron Jorjga telbalarcha oshiq bo‘lib qoladi. Xonim har hafta cherkovga borishni kanda qilmaydigan, cherkovning xayriya ishlarida faol qatnashadigan ayol edi. U umrida biror marta ham g‘iybat bo‘ladigan ishlarni qilmagan. Chinakam qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan xotin. Jorj bilan munosabat o‘rnatishi to‘g‘ri qaror emasligini bilsa ham, vijdoni qiynalsa ham, o‘zini qo‘lga ololmaydi. U o‘zining tuban tushganidan qiynalar, har safar uchrashganlarida, jazmaniga tavba-tazzarular, qarg‘ish-nadomatlar yog‘dirar edi. Ammo oshiq-u beqaror bo‘lib qolgan xonim uning yoshida kulguli bo‘lib ko‘rinadigan bolalarcha qiliqlar qilib, sevgilisining ko‘nglini olmoqchi bo‘ladi. “Uning tuyg‘ulari yoshlik nimaligini bilmagan, lekin darrov qarib, qo‘rimsiq bo‘lib qolgan tuyg‘ular edi”. Oxiri shu darajaga borib yetadiki, Jorj undan bezor bo‘lib ketadi. Jazmanining o‘z qizi Syuzannaga uylanishi esa uni aqldan ozdiradi. “Ko‘rsangiz, kampir bo‘lib qolibdi deysiz: sochlari butunlay oqarib ketibdi”.[1]

Dyuruaning shuhrat va boylik cho‘qqisiga ko‘tarilishiga sababchi bo‘lgan yana bir ayol – Valter xonimning kenja qizi Syuzanna. “Qo‘g‘irchoqqa o‘xshab ketadigan bu qizning aqli juda o‘tkir bo‘lib, odamni kutilmaganda chaqib olar… bir zumda o‘tirganlarning ichaklarini uzguday kuldirib yuborar edi”. Ammo endigina 16 yoshga kirgan Syuzanna Dyuruaning unga faqatgina boylik va mavqega erishish uchun uylanmoqchi ekanligini fahmlamaydi. Jorj Dyurua to‘ydan keyin qizning 10 ming frank sepini qo‘lga kiritadi. Yosh va g‘o‘r bu qizchani qarmoqqa ilintirish xamirdan qil sug‘urganday oson kechdi. Jorj uni olib qochmoqchiligini aytganda, Syuzanna suyunib ketadi: “Qanday baxt! Siz meni olib qochasiz! Qachon?” Kitoblarda o‘qilgan tungi olib qochishlarning ko‘hna jozibasi, aqlni shoshiradigan ajoyib sarguzashtlar birdan uning ko‘z o‘ngida tush yanglig‘ gavdalanib o‘tdi… “U bu ish o‘zining nomiga dog‘ tushirishini, oilasi sha’ni va obro‘siga putur yetkazishi mumkinligini xayoliga ham keltirmaydi.

[1] Maupassan Gi. de. Bel-Ami. M., 1981.

Bir qarashda, asarda unchalik ham muhim ahamiyatga ega emasdek tuyuladigan yana bir obraz borki, uni ko‘zdan qochirmaslik kerak. Bu Jorj Dyuruaning onasi. “Baland bo‘yli, oriq, yelkalari bukilgan, g‘amgin, ona suti og‘zidan ketmay mehnatga o‘rgangan, hazilvon eri umr bo‘yi sho‘xlik qilib, xo‘randalarning yonida o‘tirib birga ichishgani holda, bu umr bo‘yi kulish nimaligini bilmagan chinakam qishloqi xotin edi”.[1] Uni XIX asr oddiy dehqon ayollarining umumlashma obrazi deyish mumkin. Madelena uchun oddiy dehqonlar hayoti qanchalik qiziq bo‘lsa, kampir uchun ham keliniga o‘xshagan “laxta ko‘ylak kiygan oyimtilla”larning hayot tarzi shunchalik g‘alati. Bu ikkala ayolning go‘zallik borasidagi tushunchalari ham turlicha. Kampirning fikricha, kelin degan “lobar, ferma qizlariday sog‘lom, ikki yuzi olmaday, zotdor baytalday yarqirab turgan“ bo‘lishi kerak. Uning Madelenani yoqtirmagani shundoq sezilib turadi, to ular jo‘nab ketguncha ham qovog‘ini ochmaydi: “qo‘llari qadoq, qaddi og‘ir mehnatdan bukilgan zahmatkash dehqon ayol shaharlik oyimtillani ko‘rganda shundan boshqacha qarolmagan bo‘lardi”. Nihoyat, Jorj rafiqasi bilan jo‘nab ketayotganda xuddi o‘g‘lining kelajagini bashorat qilganday, uni xavfdan ogohlantirganday “Ishqilib, oxirida afsuslanib qolmasang bo‘ldi, bolam”, deb qo‘yadi.

Asar oxirida o‘quvchi o‘z maqsadiga erishish uchun oldiga faqat bitta yo‘lni tanlagan, kelishgan, savlatli, shop mo‘ylovli, qirg‘iy burun erkaklar toifasidan bo‘lgan, badavlat xonimlarni ovlashdan o‘z faoliyatini boshlagan va jamiyatdagi o‘zi orzu qilgan pog‘onani egallash uchun ayollardan ayyorona foydalangan Dyurua faoliyatiga qoyil qoladi.

Kabulova Zamira Adilbayevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD), kabulova@mail.ru)

YANGI DAVR O‘ZBEK VA QORAQALPOQ SHE’RIYATIDA INVERSIYA HODISASI

Annotatsiya. *Maqolada lirikada nutq bo‘laklari almashinuv jarayoni o‘ziga xosligi, milliy adabiy tilda grammatik me’yorlar o‘zgaruvi vazifadoshligi hamda badiiy ifoda stilizatsiyasi takomili yangi davr o‘zbek va qoraqalpoq she’riyati misolida tadqiq qilinadi. Unda inversiya hodisasi mazmun-mohiyati, rivoya texnikasi shakllanishida marom o‘rni, falsafiy ta’kid estetik ta’sirchanligini ta’minlash omillari xususida mushohada yuritiladi. Adabiy talqin muhim sharti sifatida istiloh so‘z-idrok-tafakkur yaxlitligini belgilaydi, tahlil malakasining ritmik xususiyatlarini tavsiflaydi.*

Аннотация. *В статье рассматривается специфика процесса обмена частями речи в лирике, роль грамматических изменений в национальном литературном языке и развитие стилистики художественной выразительности на примере современной узбекской и каракалпакской поэзии. Рассмотрена сущность явления инверсии, роль ритма в формировании техники повествования, факторы, обеспечивающие эстетическую эффективность философского акцента. Как важное условие литературной интерпретации термин определяет целостность слововосприятия-мышления, характеризует ритмические особенности аналитических способностей.*

Annotation*. The article examines the specifics of exchanging parts of speech in lyric poetry, the role of grammatical changes in the national literary language and the development of stylistics of artistic expression on the example of modern Uzbek and Karakalpak poetry. It observes the essence of the phenomenon of inversion, the role of rhythm in the technique’s formation of narration, and the factors that ensure the aesthetic effectiveness of philosophical emphasis. As an important condition of literary interpretation, the term defines the integrity of word-perception-thinking and describes the rhythmic features of analytical skills.*

Kalit so‘zlar: *inversiya, nutq bo‘lagi, grammatik me’yor, ifoda, tasvir, stilizatsiya, til, idrok, tafakkur, estetik ta’sirchanlik, mushohada, falsafa, mantiq, ritm, rivoya texnikasi, adabiy talqin, yangi davr she’riyati, lirik subyekt, poetik mahorat, uslub, tahlil malakasi, ruhiyat.*

Ключевые слова*: инверсия, часть речи, грамматическая норма, выражение, образ, стилизация, язык, восприятие, мышление, эстетическая чувствительность, наблюдение, философия, логика, ритм, техника повествования, литературная интерпретация, поэзия нового времени, лирический сюжет, поэтическое мастерство, стиль, аналитические способности, психика.*

Key words*: inversion, part of speech, grammatical norm, expression, image, stylization, language, perception, thinking, aesthetic sensitivity, observation, philosophy, logic, rhythm, narration technique, literary interpretation, new era poetry, lyrical subject, poetic skill, style, analytical skills, the psyche.*

[1] Maupassan Gi. de. Bel-Ami. M., 1981.

Fanda inversiya hodisasi (lot. unversio – o‘rin almashtirish) – gap bo‘laklari odatdagi intizomi o‘zgaruvini tavsiflaydi. Unda ma’no ta’kidlovi, birinchidan, nutqda emotsional-ekspressiv ta’sirchanlik, bo‘yoqdorlik ottenkasi quyuqlashuvini ta’minlaydi, ikkinchidan, poetik mantiq barqarorlashuvini belgilashga xizmat qiladi. Joriy holatda mutant yangilanish (ifoda tubdan qayta badiiy tiklanishi) tasvir ruhiyati o‘ziga xosligini urg‘ulaydi. Vaholanki, joriy istiloh “she’riy nutqda gap bo‘laklarining tilshunoslik qoidalariga muvofiq bo‘lgan odatdagi o‘rnining almashtirilishi... nutqni muayyan ritmga solib, gapning ta’sirchanligini ta’minlaydi, shoirga salmoqli fikr tashuvchi so‘zni zarur o‘ringa olib chiqish imkonini beradi”.[1]

Marom o‘zgaruvi, urg‘u belgisi, ma’no ta’kidi, ifoda va tasvir o‘rin almashinuvini tadqiq sahniga chiqaradi, ijodkor fitrati yo‘nalishini ochiqlaydi, g‘oyani izohlaydi:

Bir hikmat o‘qiyman xazonlarda men:
“Yashagin-u, biroq yaproq bo‘lma sen”.[2]

Badiiy nutq maxsus shakli tarzida inversiya gap bo‘lagi normal grammatik intizomdan og‘ishadi. Mushohadaga ifoda malakasi, tasvir ruhiyati hamda hissiy idrok ta’sirchanligini ta’minlashga imkon beradi. Asosiy urg‘uni asosiy o‘ringa olib chiqish uning ustuvor vazifasi, “bir hikmat” sinoati hayotiy tajribani dallillash vazifasini o‘taydi. Kitobxon diqqat markazini muayyan nuqtaga yig‘ish, matn maromini belgilash uning fazilati! Uning negizida tahlil va talqin omixtalashadi. Aynan tasvirda harakat va holat uyg‘unlashadi, mushohada tarzi markazlashadi. Binobarin, ijodiy malakada tasvir va ifoda bir-birini to‘ldiradigan omilga aylanadi:

Сизлер таянышы ана халқымның,
Өзбекистан атлы уллы журтымның.[3]

Qoraqalpoq shoirasi N.To‘resheva borliqni poetik idroklash malakasi hamda ifoda uslubida Zulfiya, H.Xudoyberdiyeva adabiy an’analari ta’siri seziladi. Joriy holat masalaga aniq g‘oyaviy-estetik pozitsiyadan yondashuv, tildagi emotsional bo‘yoqdorlik va tasvirdagi tavsifiylik yorqinligida bo‘rtib turadi, matnda nutq bo‘laklari intizomini muttasil o‘zgartirish, grammatik mezonlar o‘rni almashtiriluvi aksar vaziyatda mushohadaga ko‘tarinkilik, ifodaviylik hamda ta’sirchanlik ruhini bag‘ishlaydi. “Tayanchi ona xalqimning”– o‘zbek polvonlari milliy qadriyatlar davomchisi sanaladi, “O‘zbekiston” porloq kelajagi yurt himoyasi uchun hamisha shay farzandlar fidoyiligi bilan o‘lchanadi. “Алғаным көп халқымнан, бергеним аз”, deya iqror bo‘lgan ijodkor fitratida ajib bir hissiy harorat seziladi, unda inson irodasiga ishonch, milliy iftixor tuyg‘usi hamda vazmin ohang barqarorligi qabarib ko‘rinadi. Shoira adabiy talqinida muammo konkret hayotiy-maishiy xarakter kasb etadi, ma’naviy-axloqiy o‘lcham urg‘usi muallif izlanishlariga ko‘rk bag‘ishlaydi.

Inversiya stilistik usul sifatida she’riy nutq jozibasini hosil qiladigan vosita, muayyan poetik mantiq maromi so‘zni ta’kidlash vazifasini o‘taydi. O‘quvchi diqqat markazini boshqarishda uslubiy birlik muhim o‘rin tutadi, tushuncha badiiy ifodaga o‘zgaruvi aynan shu istiloh tabiatiga bog‘liq! Millat dardi sifatida shakl topgan g‘oya salmog‘ini ifodalash aslida iqtidor bilan malakalanadi, tuyg‘udan hayratga ingan, hayratdan mushohadaga ko‘chgan adabiy talqin ijod falsafasini shakllantiradi. Odatda, ijodkor she’riy nutqni poetik voqelikka aylantiradi, badiiy zavq malakasi va estetik ta’sirchanlik ijtimoiy yo‘nalish darajasi bilan o‘lchanadi. Unda tasvir yo‘sini va tasavvur miqyosi markazlashadi, unda ko‘ngil rozi va holat ifodasi omixtalashadi, unda teran tahlil ham yorqin taassurot bir-birini to‘ldiradi:

Osmon har maysadan boshlar so‘roqni,
Zaminning ko‘ksiga sanchib olar tug‘.
Yong‘oq yorib chiqar yashil po‘stloqni –
Tuproqdan otilib chiqar har urug‘.[4]

Xosiyat Rustamova talqinida ruhoniy shiddat natijasi o‘laroq, tabiat jonlanadi – holat ifodasi badiiy umumlashma markazlashuviga yo‘l ochadi. Bir tomondan, “osmon har maysadan boshlar so‘roqni, zaminning ko‘ksiga sanchib olar tug‘”, ikkinchi tomondan, “yong‘oq yorib chiqar yashil po‘stloqni, tuproqdan otilib chiqar har urug‘” manzara yonma-yonligini ta’minlaydi. Ko‘ngil asrori mohiyati teranligiga kirib borish mayli, inson eng inja sezimini taftish aylashga intilish ijodkor fitratiga xos zarif fazilatlar, muallif munosabatli nutqi zamirida tafakkurni tahlilga bo‘ysundirish istagi yotadi. “Tuproqdan otilib chi-

[1]Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. T., “Yangi asr avlodi”, 2010, 82–83-betlar.
[2] Oripov A. Adolat ko‘zgusi. Toshkent, “Adolat”, 2005, 35-bet.
[3] Торешова Н. Әзийзим (қосықлар топламы). Нукус, “Қарақалпақстан”, 2009, 12-бет.
[4] Rustamova X. Ishg‘ol. Toshkent, “Adabiyot va san’at”, 2011, 61-bet.

qish”ga urinayotgan urug‘ harakatida yashash uchun kurash hissi mavjlanadi. Holat ruhiy tarangligida tezkorlik va shiddat bir-birini to‘ldiradi. Ma’no originalligidan shakliy tajriba hosil qiladigan shoira odatiy tasvirni mantiqan ta’kidlashni yoqtiradi. Kechinma rasmini chizish vositasida muallif holat ruhiyatiga mos va xos tasavvurni ham urg‘ulaydi:

Do‘stlar ketsa galma-gallari bilan,
Har kim ham mard turmas hollari bilan,
Tunlar bedor otgan tunlarim bilan
Munglashlarim, sirlasharim – dutorim.[1]

B.Genjemuratov yangi davr qoraqalpoq she’riyati peshqadam vakillaridan biri, uning ijodida ruhiy kechinma tadriji aql, idrok va sezimni ijod falsafasiga aylantiradi. Ko‘ngil sarzanishlaridan sizib chiqadigan tuyg‘u salobati, manzilli ifoda malakasi va qabariq tasvir yo‘sini shoir ijodiy ampulasini belgilaydigan muhim omil, unda tasavvur siqiqligi, mushohada teranligi hamda holat tarangligi markazlashadi. Asosiysi, muallif pozitsiyasi aniq, ma’no originalligini ta’minlash hamda poetik imkoniyatdan samarali foydalanish mahorati ijodkor salohiyatini dalolatlaydi. Hamisha kayfiyat va ruhiy holatni bir-biriga payvandlashga mayl ifoda uslubi o‘ziga xosligini belgilaydi. Ijodkor adabiy zavqini tayin etadigan jozib va tuyg‘un tashbehlar, yorqin va betakror sifatlashlar, dunyoqarash qatidan o‘sib chiqadigan salmoqdor mushohada ijodkor fitrati yashovchanligini ham tayinlaydi.

Shakily o‘ziga xos uyg‘unlikda shoir botiniy iztirob hajmini umumlashtiradi, “tunlar bedor o‘tgan” onlar ifodasi yolg‘izlik falsafasini tavsiflaydi. Kuy chalinishi va limmo-lim dard zalvori bir-biriga hamohang, ikki tushunchada “umrdan ham uzun armon” ustuvor, “kamalak ko‘ksin yorgan” hayajon go‘yo istiqbolga eltar yo‘ldek tasavvur uyg‘otadi. Ijodkor bilan og‘riqni baham ko‘rish dutor zimmasiga tushadi, cholg‘u asbobida muallif hamdardlikni tuyadi. Yordamga kelgan inversiya hodisasi siqiq poetik g‘oyaga aniqlik kiritish vazifasini bajaradi, ritmni ochiqlaydi.

“Nazmiy sohadagi faoliyatda san’at yaratolgan ijodlardan so‘zga javobgarlikni idroklash bo‘yicha ham yashovchan ibratlar meros qoladi. Ular erishgan, intilishgan mezonlar asl muddaoga bexato eltuvchi maqbul yo‘riqlar sifatida jozibasini saqlaydi. Navoiy shoirlik (“Tengri ehsoni”) o‘z peshonasiga bitilgan qismatligi uchun shukrona aytgan, mas’uliyatni hislab esa hayratomuz bezovtalangan”.[2] So‘z va san’atga e’tiqod chinakam shoirda ijodiy andisha hosil qiladi. Poetik maqsad-muddaoni aniq belgilash o‘ziyoq iqtidorni taqozolaydi. Aslida, she’rda shoir ham ma’no, ham mantiq qarama-qarshiligiga duch keladi. Joriy holat, bir tomondan, ruhiy kechinmadoshlik tabiati bilan bog‘lansa, ikkinchi tomondan, ifoda o‘zgaruvini tavsiflaydi. Tasvirda muallif falsafiy konsepsiyasi mantiqiy taraqqiyotga erishadi, ritm ohang va ifoda omixtalashuvini ta’minlaydi.

Umuman, yangi davr o‘zbek va qoraqalpoq she’riyatida inversiya hodisasi faol stilistik birlik sifatida nutq bo‘laklarini grammatik me’yordan tashqari holatda qo‘llashga xizmat qiladi. Qonun-qoidaga muvofiq o‘rin almashinuvini ta’min etadigan uslubiy qo‘llanma, birinchidan, rivoya texnikasini muayyan maromga soladi, ikkinchidan, fikr-mushohadani mantiqiy ta’kidlash amalini bajaradi, uchinchidan, o‘quvchi diqqat markazini muttasil tutib turishga zamin hozirlaydi, to‘rtinchidan, nutq ta’sirchanligi hamda ifodaviyligini kuchaytiradi. So‘zni zarur o‘ringa olib chiqishga ixtisoslashgan figurada ritm ustuvorlashadi. Joriy holat tasdig‘ini A.Oripov, I.Yusupov, N.To‘resheva, U.Hamdam, B.Genjemuratov shakliy-uslubiy izlanishlarida kuzatish mumkin. She’riy nutq muhim sharti sifatida inversiya hodisasi ijtimoiy-falsafiy talqindan badiiy ifoda hosil qiladi, so‘z, ijod va e’tiqodni yaxlitlashtirishga yordamlashadi, ruhiyat manzaralarini umumlashtiradi.

Mustafoqulov Ro‘ziqul Boynazarovich (Termiz davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

SHOIR BOLTA YORIYEV IJODIDA POETIK MAHORAT

Annotatsiya. *Ushbu maqola shoir Bolta Yoriyev ijodida poetik mahorati haqida yozilgan. Bolta Yoriyev ijodida simvolik lirikaga xos she’rlar, tuyg‘ular ifodasi ham mavjud. To‘g‘ri, bu sohada u alohida mahorat ko‘rsatishni o‘ziga maqsad qilib olmagan. Faqat hayot, jamiyat, inson haqidagi qarashlarini ifodalashga simvolik vositalar, ramziy obrazlardan ham o‘z o‘rnida foydalanib o‘tadi. Masalan, uning «Kaklik» she’rida qafasga o‘rgatilgan qush timsolida erkning o‘g‘irlanishiga qarshi isyon ko‘tariladi.*

[1] Genjemuratov B. Ukuzdaryo bitiklari. Toshkent, O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2006, 41-bet.
[2] Shermurodov T. Jozib izhor izlab. Toshkent, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009, 44-bet.

Аннотация. *В данной статье речь идёт о поэтическом мастерстве поэта Болты Ёриева. В творчестве Болта Ёриева есть и стихи, характерные для символической лирики, выражения чувств. Правда, он не ставил перед собой цели показать особые способности на этом поприще. Он использует только символические средства и символические образы для выражения своих взглядов на жизнь, общество и человека. Например, в его стихотворении «Куропатка» воспитанная в клетке птица восстает против кражи свободы.*

Annotation. *This article is written about the poetic skills of the poet Bolta Yoriev. In the work of Bolta Yoriev, there are also poems typical of symbolic lyrics, expressions of feelings. True, he did not set himself the goal of showing special skills in this field. He only uses symbolic means and symbolic images to express his views about life, society, and man. For example, in his poem «Partridge», a bird trained in a cage revolts against the theft of freedom.*

Kalit so‘zlar: *shoir, ijod, poetik, lirika, tuyg‘u, hayot, jamiyat.*

Ключевые слова: *поэт, творчество, поэтический, лирика, чувство, жизнь, общество.*

Key words: *poet, creativity, poetic, lyrics, feeling, life, society.*

Kirish. Bolta Yoriyev (1941–2020) poetik mahoratni oshirish, so‘zning sehr kuchini yuzaga chiqarish, tasviriylikni ta’minlash yo‘lida izlanib ijod etadi. Shuning uchun ham uning she’rlarida o‘zbek tilining fonetik, leksik-semantik va grammatik vositalaridan uslubiy ta’sirchanlik yo‘lida foydalanishga intilib, samaraga erishilgan o‘rinlar ko‘plab uchraydi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, uning she’rlari, asosan, barmoq vaznida bitilgan. Aruzda yozilgan she’rlari kam uchraydi. Biz Bolta Yoriyev ijodida turli she’riy janrlar va shakllarni uchratamiz. Ular orasida publitsistik ruhdagi, ishqiy-muhabbat, intim-kechinma ruhidagi, simvolik-ramziy ifodadagi hamda hajviy ruhdagi she’rlar mavjud.

Publitsistik lirika, janr xususiyatiga ko‘ra, jangovar ijtimoiy masalalarga poetik javob tarzida yozilgan bo‘ladi. Bolta Yoriyevning «Hamyurtlar» she’ri dunyo xalqlari birligi, tinchlik haqida yaratilgan bo‘lsa, «Tutash qalblar» she’ri o‘zbek va tojik xalqlari do‘stligiga bag‘ishlangan. Tadbirkor Qurbon Amirqulovga bag‘ishlangan “Qurbon aytur» turkumidagi «Ishlash uchun yashadim», «Tomchidan qo‘shsang...”, “Ilm-u hunardan” va boshqa she’rlari mehnat, himmat, saxovat, ilm-u hunar egallash va boshqa mavzularni qamrab olgan.

Tahlil va natijalar. She’riyatda katta ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-publitsistik qarashlar bilan bir qatorda, sevgi-muhabbat, ishqiy-lirik kechinma, vafo-sadoqat bilan bog‘liq bo‘lgan intim tuyg‘ular ham ifoda topadi. Bolta Yoriyev ijodida ham bunday tuyg‘ularni ifodalovchi ko‘plab asarlar mavjud. “Shu deraza bor bo‘lsin doim”, “Sunbula”, “Devor bor, o‘tolmayman”, “Do‘stginam, bu dunyo armon uyidir” va boshqa she’rlari shular jumlasidandir.

Bu haqda yuqorida ham eslatib o‘tdik.
O, sayyod! Cho‘qqida otash o‘q otib,
Etsang bo‘lmasmidi uni chilpora,
Jismidan shijoat, g‘urur yo‘qotib,
Qullikka ko‘nikma bergandan ko‘ra!

Bolta Yoriyev badiiy ijodida ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz misradan iborat bandli she’rlar uchraydi. Masalan, “Sen Bahromdan ol o‘rnak”, “Savdo” kabi she’rlari, bir qator qo‘shiqlari, g‘azallari, janr xususiyatiga ko‘ra, ikki misrali bandlardan tashkil topgan. Shoirning uchliklari, “Beshinchi fasl” va boshqa ayrim she’rlaridagi bandlar uch misradan iborat. To‘rtliklari, “Varzob bo‘yi bo‘y ekan”, “Xotirada tiklayman hamon” va boshqa ko‘plab she’rlari to‘rt misrali bandlarda shakllansa, “Nega urding mushukni?”, “Sizda she’riyatda chechanlik a’lo”, “Farzand bilan”, “G‘anining qo‘shiqlari”, “She’r o‘zin oqlamasa”, “Yaltir-yultir” va boshqa she’rlari besh misralik bandlardan tashkil topgan. “Bugun to‘ying sharaflay deb”, “Yoshlar davrasiga kelgan shoirman” kabi she’rlarida bandlar olti misradan, “Paxtakor sha’niga” she’rida bandlar yetti misradan iborat.

Shoir o‘z qalamini, yuqorida ko‘rganimizdek, sonet janrida ham sinab ko‘rdi, sonetlar gulchambari, sonet-doston ham yaratdi, ayrim yevropalik mumtoz shoirlarning sonetlaridan tarjimalar qildi. Uning qo‘shiqlari orasida g‘azal shaklida tartib berilganlari ham, xalq qo‘shiqlari ohangida yaratilganlari ham mavjud. «Omonyor», «Termizim og‘ushida» kabi qo‘shiqlari, «Atigi bir kun» dramasidagi o‘lanchi yigit-qizlar aytishuvlari bunga dalil bo‘ladi.

Ma’lumki, she’riy nutqda qofiya alohida ahamiyat kasb etadi. Qofiya she’rlarda misralarni ritmik jihatdan uyushtirishga, ularning ohangdor va jarangdor bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. She’rda eng xarakterli uyqash so‘zlar misra oxiriga qo‘yilib, qofiya hosil qilinadi. Shoirlar she’riy asar yaratishda qo-

fiyaga alohida ahamiyat berishadi. Chunki qofiya she'r mazmunini, muallif g'oyaviy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qilib, she'riy asarda katta g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

Antonim so'zlar ham she'riy asarda, umuman, nutqda qarama-qarshi qarashlarni, zid tushunchalarni, kontrast tasvirlarni kuchli ifodalash xususiyatiga egadir. Bolta Yoriyevning ham o'z asarlarida ularning unumli va o'rinli foydalangan holatlari ko'p uchraydi. Masalan, «Bu dunyo o'lmagan qulniki ekan» she'rida dunyo haqida quyidagicha mulohaza yuritiladi:

Bu dunyo ishlari chapparastadir,
Bugungi sog' ishing erta xastadir.
Pishgandan pishmagan dasta-dastadir,
Bu dunyo o'lmagan qulniki ekan.
Har ishni rejalab tuzganlar ko'pdir,
Tuzganni mo'ljallab buzganlar ko'pdir.
Ozganlar ham ko'p-u, o'zganlar ko'pdir,
Bu dunyo o'lmagan qulniki ekan.

E'tibor berilsa, ushbu matnda «sog'» – «xasta», «pishgan» – «pishmagan», «tuzgan» – «buzgan», «ozgan» – «o'zgan» antonim so'zlari tasvirdagi mazmunni, muallifning dunyo haqidagi qarashlarini aniq ifodalab, badiiy tasvirdagi kontrast tushunchani belgilab, mazmunni chuqur ifodalashga xizmat qilgan.

Antonim so'zlar ziddiyatli holatlarni aniqlashtirib ifodalash xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, xalq maqollarida, topishmoqlarda, hikmatli so'zlarda ko'p uchraydi, ya'ni ularni hosil qilishda o'zak rolini o'ynaydi. Bolta Yoriyev qo'llagan hikmatli so'zlarda ham bu holni ko'plab uchratamiz. Masalan, «Firibgarning yolg'oni ko'p, rostidan», «Shafqatsizning dushmani ko'p, do'stidan», «O'smoq bo'lsang – havas qil, O'lmoq bo'lsang – hasad qil», «Yaxshi farzand birikuvga boshlasa, Yomon farzand malomatga qoldirgay», «Oqni qora deganlarga azob ko'p», «Umr yo'lin kengligi ko'p, tangi ko'p», «Mard emas nomardning tuzini», «Naqd borida nomard qilmas nasiya» va boshqalar.

Xulosa. She'riy asarlarda jozibali va ta'sirchan tasvirlar yaratishda, inson qalbidagi kechinmalarni nozik aniqlikda ifodalashda o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, simvol (ramz), jonlantirish, sifatlash, mubolag'a, kichraytirish kabi badiiy tasvir vositalarining ahamiyati kattadir. Bolta Yoriyev ham bu vositalardan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanishga harakat qiladi.

Metafora yashirin o'xshatish deyiladi. U voqea-hodisa, fe'l-atvor, xususiyatlarni tasvir etadi. Masalan, «Alpomish va Normo'min Suhrob» dostonida Normo'min Suhrob Kotibdan hol-ahvol so'rab borganda shunday deydi:

Odamzodning fe'li turfa yaralgan,
Haloli ko'p, firibi ko'p, pesi ko'p.

Bu yerda badfe'l odamlar pesga o'xshatilgan. O'xshatish vositalari tushib qolgani uchun, o'xshatish metaforaga aylangan. Bunday metaforalarni sifatlovchi metaforalar deyish mumkin.

Yoki shoir sonetlaridan birida:
Quvonch-bandargohi – qirg'oq qaydadir,
Suvning o'rtasida ungan nilufar,

deydi. Bu yerda quvonchga, visolga yetish manzili bandargohga tenglashtirilayapti, sevgili yor esa nilufar deb nomlanyapti. Qo'l yetib bo'lmas, o'rtada ayriliq turgan oshiqning kayfiyati bu metaforalarda ta'sirli aniqlikda ifoda topgan.

Ba'zan o'xshatishlar mubolag'ali tus ham oladi. Bunda narsa, voqea-hodisalar tasviri mahobatlashtiriladi. Masalan:

O't mashinang o'q ariqlar tuzguday,
Hayqirishi cho'l uyqusin buzguday.
Haybat bilan temir qo'lin uzatsa,
Chuqur kovlab, yer tomirin uzguday.

Bu yerda o'xshatish hosil qiluvchi qo'shimcha -day emas, balki -guday deb qarash kerakka o'xshaydi. Chunki hozirgi o'zbek tilida «tuzgu», «buzgu», «o'zgu» shakli yo'qdir.

She'riyatda sinekdoxa ham o'ziga xos badiiy tasvir vositasidir. Unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi, ba'zan esa butun orqali ayrim bo'lak haqida mulohaza bildiriladi. Masalan, jurnalist Tansiqboy Tumishevga bag'ishlangan she'rda shoir «Necha yillik bovurimdir, ko'z-qoshimdir», deydi. Bunda bag'ir, ko'z-qosh orqali yaqinlik, do'st, safdosh kishi nazarda tutilgan.

Metonimik tasvirda, ya'ni metonimiya qo'llangan matnda so'zning aloqadorlik asosida boshqa ma'noda qo'llanishi kuzatiladi. Masalan, shoir yuqorida eslatilgan she'rida «Elligining chin mehnati o'ttiz

bo‘ldi», deydi. Bu yerda «ellik», «o‘ttiz» sonlari kishining yoshi ma’nosida qo‘llangan, ya’ni, jurnalist 50 yil umr ko‘rdi-yu, ushbu yoshning 30 yilini haqiqiy mehnatga bag‘ishladi, degan ma’nosi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мустафоқулов Р. Фақирнинг йўли. ТерДУ Ахборот технологиялари маркази. Термиз, 2012, 1946-бет.
2. Ёриев Б. Умидим дунё. “Ёзувчи”, Т., 2001, 113-бет.
3. Ёриев Б. Ҳаётсеварлик. “Жайҳун”, Термиз, 1993.
4. Ёриев Б. Кузда учган турналар. “Жайҳун”, Термиз, 1995, 130-бет.
5. Мустафоқулов Р. Умр сабоқлари. “Сурхон-нашр”, 2002.
6. Ёриев Б. Кўнгил илинжлари. “Насаф”, 2007.
7. Ёриев Б. Абдужалилов Қ. Ғанининг қўшиқлари. “Жайҳун”, Термиз, 1997.
8. Мустафоқулов Р. Сурхон адиблари – болаларга. “Ёзувчи”, 2002.

Ruzimatova Gulzoda Sharipovna (UrDU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi)

O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI RIVOJIDA YANGICHA ESTETIK TAMOYILLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek bolalar she’riyati rivojida yangicha estetik tamoyillar tahlili xususida so‘z boradi. Shu bilan birga, bolalar ma’naviy olamini boyitadigan, estetik didini o‘stirishga xizmat qiladigan barkamol asarlar halqasi xorazmlik ijodkorlar tomonidan o‘ziga xos tarzda davom ettirilgani tadqiq etiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается анализ новых эстетических принципов в развитии узбекской детской поэзии. Кроме того, исследуется, что цепь произведений, обогащающих духовный мир детей и служащих развитию их эстетического вкуса, продолжалась хорезмскими художниками по-своему.*

Annotation. *In this article, it is discussed the analysis of new aesthetic principles in the development of Uzbek children’s poetry. In addition to this, it is researched that the chain of works that enrich children’s spiritual world and serve to develop their aesthetic taste was continued by Khorezm artists in their own way.*

Kalit so‘zlar: *bolalar she’riyati, yangilanish jarayonui, janr va mavzu ko‘lami, yumoristik ruh, badiiylik mezoni.*

Ключевые слова: *детская поэзия, процесс обновления, жанрово-предметный охват, юмористический дух, художественные критерии.*

Key words: *children’s poetry, renewal process, genre and subject scope, humorous spirit, artistic criteria.*

Umummilliy adabiyotning bir qismi sifatida bolalar adabiyotining ham o‘rni muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi bilamiz. Ta’kidlanadiki, XX asrning oxirgi choragida badiiy-estetik tafakkur, madaniy-ma’naviy hayotdagi o‘tish davri qiyinchiliklari, ijodiy evrilishlar, shakliy-uslubiy izlanish jarayonlari bolalar adabiyotida ham muayyan darajada o‘z ifodasini topdi.

Aytish joizki, zamon va kitobxon sinovidan o‘tgan asarlargina o‘z badiiy-estetik qiymatini saqlashda davom qildi, iste’dod, baribir, iste’dod ekanligini isbotlashga ulgurdi. O‘zbek bolalar adabiyotining yetuk namoyandalari bu millat ma’naviyatini, adabiyot bo‘stonini go‘zal namunalar bilan bezashdi. Adabiy-badiiy asarlar uzluksizligini, bolalar adabiyoti rivojlanishini ta’minlashda galma-gal, davrma-davr pillapoya vazifasini o‘tashdi.

O‘zbek bolalar adabiyotining darg‘alari bo‘lmish Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po‘lat Mo‘min kabi ijodkorlarning bolalar ma’naviy olamini boyitadigan, estetik didini o‘stirishga xizmat qiladigan barkamol asarlar halqasi bugun tadqiqot obyektimiz bo‘layotgan xorazmlik ijodkorlar Rustam Nazar, Ollabergan Po‘lat, Erpo‘lat Baxt, Sodiqjon Inoyatovlar tomonidan munosib davom qildirildi. Bu esa bolalar adabiyoti, xususan, umummilliy adabiyotning bebaho, o‘ziga xos namunalari ijodiyotida yuqorida nomlari tilga olingan ijodkorlarning ham ma’lum darajada o‘rni borligidan dalolatdir.

Ba’zi ilmiy manbalar, adabiy-tanqidiy chiqishlarda o‘zbek bolalar adabiyotining yuksala boshlagan davri o‘tgan asrning 60–70-yillaridagi adabiy jarayon bilan bog‘lab izohlanadi. Bu davr bolalar adabiyoti, shuningdek, o‘z ijodi xususida yetuk bolalar ijodkorlaridan biri Rustam Nazar: “Men turli adabiy janrlarda kuchimni sinab ko‘rdim, lekin o‘zimni aynan bolalar adabiyotida kashf etdim, – deb yozgan edi. – Bo-

lalar uchun she’r mashq qila boshlaganimda yoshim o‘ttizdan oshgandi…Ammo o‘sha davrda bolalar adabiyotining, xususan, she’riyatining badiiy saviyasi yuqori emasdi. Bolalar adabiyoti deganda, asosan:

Oq paxta, oppoq paxta,
Biz senga inoq paxta!

kabi deklamatsiya ruhidagi quruq she’rlar tushunilardi. Faqat 70–80-yillarda Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Abdusaid Ko‘chimov, Miraziz A’zam, Hamza Imonberdiyev, Kavsar Turdiyeva kabi shoirlar mag‘zi to‘q, fikrlovchi she’riyat namunalarini yaratib, bolalar adabiyoti oqimini yangi o‘zanga burishdi”. Rustam Nazarning o‘zi ham shu o‘zanda oqdi, suzdi, quloch otdi. Faol izlandi, intildi, kashf etdi. «Yashasin quyoshli kun», «Rangli favvora», «Mo‘jiza» kabi she’riy to‘plamlari bilan yosh kitobxonlar qalbidan joy olgan shoirning deyarli har bir she’ri ohorli, yangi topilmadek.[1]

Mana bir misol:
Maqsadiga erishgay
Intilsa kim, chopsa kim.
Hatto qorni yondirar,
Qalovini
Topsa kim.
Jon koyitmas dangasa,
Izlash tugul qalovni –
O‘chiradi, erinib,
Yonib turgan
Olovni! [2]

Ushbu she’r “Dangasa” deb nomlanadi. She’rning birinchi bandi bilan ikkinchi bandi ziddiyatga asoslangani bilan originallik kasb etadi. She’rda estetik vazifani bundan tashqari, qofiyadosh so‘zlarning ustalik bilan qo‘llanishi ochib bergan bo‘lsa, tarbiyaviy vazifani dangasa bo‘lmaslik haqidagi tanqidiy fikr ifodalagan.

Xorazmlik qalamkash Ismoil Ollaberganning “Xorazmlik ijodkorlar” (2019) kitobida Xorazm adabiy muhitining kechagi va bugungi kuni, vohada yashab milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan marhum ijodkorlarimiz va bugungi kunda adabiyotning turli adabiy turlarida to‘lib-toshib ijod qilayotgan qalam ahli, shuningdek, ertamiz umidi bo‘lgan yosh ijodkorlar to‘g‘risida ixcham ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Shu mazmundan kelib chiqib, kitob uch qismga bo‘lingan:

1. Barhayot siymolar.
2. Qo‘lda qalam, dilda ilhom bilan.
3. Istiqlol ilhomlari.

Tadqiqot obyekti sanalgan ijodkorlarning har to‘rt nafari ham bu kitobga kiritilgan bo‘lib, Rustam Nazar 1-qismdan, Ollabergan Po‘lat va Sodiqjon Inoyatov 2-qismdan, Erpo‘lat Baxt 3-qismdan o‘rin olgan. Jami 66 nafar ijodkor hayoti va ijodi haqida qisqa, ammo juda muhim ma’lumotlar jamlangan mazkur kitobdagi yuqorida nomi zikr qilingan to‘rt nafar ijodkorning hammasini bolalar adabiyoti degan buyuk bir ma’naviy qudrat birlashtirib turadi. To‘g‘ri, bu ijodkorlarning kattalar adabiyotiga, umummilliy adabiyotga taalluqli ijodiy namunalari ham bor. Bunday bo‘lishi. tabiiy. Ammo bolalar dunyosiga xos mo‘jizaviy so‘z san’ati – bolalar adabiyotiga bo‘lgan ayricha muhabbat bu ijodkorlarni aynan mana shu sohada ko‘proq ijod qilishga, bolalarning diliga adabiyot atalmish buyuk qudratni naqshlashga undagan bo‘lsa, ajab emas.

“Bolalar adabiyoti” deganda, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma’lumot beradigan sho‘x va o‘ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham shoir-u nosirlarimiz hazilkash, sho‘x, o‘yinqaroq, topqir bolakaylar haqida hazil-huzulga boy yumoristik she’r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar, nabotot va hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar, parranda, darrandalarni misol qilib, ibratomuz ertag-u masallar yozadilar, Vatan – kindik qoni to‘kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ota-onalar hurmatini sharaflash ruhidagi she’r-u dostonlar yaratadilar, bolalarni ilm-ma’rifat nuridan bahramand bo‘lishga chorlovchi – maktab, kitob va boshqa turli o‘quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo. Albatta, bu mavzularning har biri ham umrboqiyligi va bolalar adabiyotida doimo sezilarli mavqe kasb eti-

[1] Bolalar adabiyoti. T., “O‘qituvchi”, 2013.
[2] https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/rustam-nazar/.

shi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Biroq “Ana shu haqiqatlarni har bir avlod qanday qayta kashf qilyapti va bu kashfiyotlarning badiiyat darajasi qanday?” degan savol doimo oldimizda ko‘ndalang turishi ham, shu boisdan, tabiiy.[1] Rustam Nazar o‘zi haqida: “Men bolalar she’riyatini jiddiylashtirishga, unga kattalar adabiyotiga xos unsurlarni olib kirishga harakat qildim“, deb yozganida uning bu bo‘stonga qadam qo‘yishdan maqsadi oydinlashadi va uning bolalar adabiyotida ham, kattalar adabiyotida ham badiiy-estetik jihatdan barkamol asarlar yarata olganligidan dalolat beradi. Shoirning «Yerdagi quyosh» she’rida asfalg‘t yo‘lga quyosh suratini chizib, keyin esa loqaydlikdan hafsalasi pir bo‘lgan jingalaksoch qizaloqni uchratamiz. «Yuki og‘ir, vaqti ziq» odamlar uning jajji quyoshini bemalol toptashmoqda edi. She’r esa qizchaning kutilmagan tarzdagi o‘ziga xos falsafiy xulosasi bilan yakunlanadi:

Xafa edi qizaloq,
Jim turardi bir yonda.
Yaxshi hamki odamlar
Yurishmaydi osmonda!

Yo‘qsa, shoshib, beparvo,
To‘rxalta-yu qop tashib –
O‘tishardi haqiqiy
Quyoshni ham toptashib.[2]

Albatta, yuqorida tilga olingan taniqli shoirlarning o‘zbek bolalar she’riyati taraqqiyotidagi xizmatlari katta va o‘ziga xos. Xususan, Rustam Nazar ijodining sara namunalari o‘z davrida bolalar adabiyotining chinakam yutug‘i sanalgan. Qaysidir ma’noda aytish mumkinki, badiiy-falsafiy lirikaning takomiliga munosib hissa qo‘shgan, to‘rtlik, g‘azal, sonet, turkum she’rlari va dostonlaridagi hikmatga yo‘g‘rilgan qarashlari, yaxlit qilib aytganda, ulug‘ shoir, mohir tarjimon Matnazar Abdulhakim Xorazm adabiy muhitida yaralgan adabiy to‘garakning sarboni edi. Rustam Nazar, shuningdek, Ollabergan Po‘lat, Erpo‘lat Baxt, Sodiqjon Inoyatovlar bu adabiy buloqning suvini ichdi, bir-birlarining ijodini adabiy-badiiy nuqtayi nazardan tahlilga tortishdi, ijod tarozisida o‘lchashdi, baho berishdi. Shu bilan birga, adabiy tanqidchilik faoliyatlarini ham olib borishdi. Bir so‘z bilan aytganda, kichik vohaning katta yuragidagi go‘zal insoniy tuyg‘ularni vohadagi katta avlod vakillari sho‘ro davridagi bahzi mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan, turli badiiy usullar vositasida, obrazli iboralar, qochirim va kinoyalar orqali bola ongiga muayyan haqiqatlarni yetkazishga hissa qo‘shishdi.

Bu davrga kelib, bir tomondan, ijtimoiy hayotda yangilanishga intilish harakati yuz berayotgan va ijod erkinligi kun tartibidan o‘rin ola boshlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fikrlar plyuralizmi tufayli ko‘plab yosh iste’dodlar adabiyot maydoniga kirib kelishayotgan edi. Ular o‘z ijod namunalari bilan badiiy tafakkurni u yoki bu yo‘sinda yangilashga kirishdilar. Xususan, Matnazar Abdulhakim rahnamoligi va Rustam Nazarning katta iste’dodi ta’siri ostida vohadagi boshqa ko‘plab shoirlar ijodida yangilanishga – istiqlol davri Xorazm vohasi bolalar she’riyatining shakl-shamoyilini, mazmun-mundarijasini boyitishga, uning yetakchi taraqqiyot tamoyillarini belgilashga intilish kuchayib bormoqda edi. Rustam Nazar aynan Xorazmda turib ijod qilgan, o‘z ijodi bilan nafaqat Xorazm adabiy muhitida, balki butun Respublika bolalar adabiyotida shakllangan alohida figura edi. Uning ijodi bolalar psixologiyasini chuqur tadqiq qilishga asoslangan. Shoir bolajonlar ruhiyatini juda yaxshi bilgan. Bir she’rida u bolalarning dunyoni anglashga bo‘lgan urinishini ustalik bilan ifodalab, bitta bolajonning hayratini ukasining nima uchun tinmay yig‘lashini tushunishga urinish asnosidagi manzarani ifodalash orqali zavqli asar yaratgan. She’r quyidagicha davom etadi:

...U nimadan bezovta,
Nega hadeb yig‘laydi?
Tushuniksiz holati
Bag‘rimizni tig‘laydi.

Bu serg‘alva dunyoda
Ko‘pdir to‘siq va g‘ovlar.
Cho‘chitarmi uni yo
Oldidagi sinovlar?

[1] Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 1-жилд. Шеърият. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2006, 3-бет.
[2] Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 1-жилд. Назм. Тошкент, Чўлпон номидаги НМИУ, 2017, 213-бет.

Darhaqiqat, istiqlol yillarida adabiyotni rivojlantirish, ijodkor mehnatini qadrlashga milliy tiklanish jarayonining bir qismi sifatida qaraldi. Chunonchi, istiqlol yillarida o‘zbek bolalar she’riyati va nasrining eng sara namunalari jamlanib, ikki jildli “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi”ning hamda rus tilida bir jilddagi o‘zbek bolalar she’riyati antologiyasining chop etilgani madaniy hayotimizda o‘ziga xos voqea bo‘ldi.[1] Mazkur nashrlarga munosabat bildirilib, matbuotda e’lon qilingan maqolalarda har uchala to‘plam ham yosh kitobxonlar uchun munosib tuhfa ekani ta’kidlanib, o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotini badiiy mukammal namunalar misolida ko‘rsatishda ushbu nashrlar muhim manba sifatida e’tirof etildi. Jumladan, R.Barakayev fikricha: “Har uchala antologiya qamrab olingan davr, saralangan asarlar badiiyati nuqtayi nazaridan ham, mavzular rang-barangligi jihatidan ham, o‘zbek bolalar adabiyoti she’riyati va nasrini bugungi yosh kitobxonlarga tanishtirishi va bolalar adabiyotimizning bir asrdan ortiqroq vaqt mobaynidagi qiyofasini ko‘rsatishga xizmat qilishi bilan ham yosh kitobxonlarga munosib tuhfa bo‘ldi”. Undan tashqari, R.Barakayevning “Jonajonim she’riyat”, Z.Ibrohimovaning “Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari”, “Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar”, A.Rasulovning “O‘zlik sari yo‘l”, Q.Qahramonovning “Bolalikka oshufta ko‘ngil”, Dilshod Rajab va G.Jo‘rayevalarning “Mahorat marralari” kabi kitob, qo‘llanma, risola, adabiy portretlari ham mustaqillik yillarida o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, she’riyati tadqiqi jonlanganini ko‘rsatadi. Ularda o‘zbek bolalar she’riyatining janr va mavzu ko‘lami, yumoristik ruhi, badiiylik mezoni tadqiq etiladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan kitoblardagi ilmiy-nazariy fikrlar, bolalar adabiyotimizning ko‘p yillik tadqiqotchilaridan S.Matjonov va R.Barakayevlarning qarashlariga tayangan holda, istiqlol davri bolalar adabiyoti, xususan, she’riyatining yangilanish jarayoniga quyidagi to‘rt manba zamin bo‘lgan deyish mumkin:

1) xalq og‘zaki ijodi;
2) o‘zbek mumtoz adabiyoti;
3) XX asr o‘zbek adabiyoti;
4) jahon bolalar adabiyoti;
5) istiqlol davrining erkin-pluralistik tafakkuri.

Zotan, istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati yuqoridagi manbalarning eng sara jihatlarini o‘zida jamlayotgan adabiyotdir. Har qanday davr, har qanday tuzumda ham adabiyot o‘zining san’at hodisasi sifatidagi asosiy vazifalaridan chekinmagandagina, uzoq yashab qolishini tarix allaqachon isbotlagan. Ammo ijodkor muayyan jamiyat a’zosi ekan, uning qonuniyatlari, mafkurasi ta’siri shoir ijodida u yoki bu darajada o‘z aksini topishi tayin. Zero, adabiyotning vazifasi inson va uning qalbini sayqallash ekan, u bu ezgu ishni, eng avvalo, o‘z zamonasi kishilari ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular, fikrini band etgan o‘ylarni badiiy ifodaga ko‘chirishdan boshlaydi.

Adilova Fotima (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; adilovafotima2@gmail.com)

FRENSIS XODSON BERNETT IJODIDA BOLALAR OBRAZINING EVOLUTSION BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz mustamlakachiligi davridagi bolalar adabiyotining rivojlanish xususiyatlari atoqli anglo-amerikalik yozuvchi Frensis Xodjson Bernett ijodi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Muallif o‘zining eng mashhur “Kichik malika” romani va “Sirli bog‘” qissasida bolalar obrazlari evolutsiyasiga e’tibor qaratadi. Ushbu ish bizga ingliz bolalar adabiyotining ba’zi gender jihatlarini batafsil o‘rganish va ularning Angliyada Viktoriya va Edvard davridagi jamoatchilik fikriga ta’siri darajasini tahlil qilish imkonini beradi.*

Аннотация. *Статья рассматривает особенности развития английской детской литературы времен британского колониализма в преломлении к творчеству выдающейся англо-американской писательницы Фрэнсис Ходсон Бернетт. Автор акцентирует внимание на эволюции образов детей в ее самом известном романе «Маленькая принцесса» и повести «Таинственный сад». Данная работа позволит подробнее изучить некоторые гендерные аспекты английской детской литературы и проанализировать степень их влияния на общественное мнение Англии времен викторианства и эдвардианства.*

[1]Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 1-жилд. Шеърият. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2006; Ўзбек болалар адабиёти антологияси. 2-жилд. Наср. Тошкент, Чўлпон номидаги НМИУ, 2006; Антология узбекской детской поэзии. Ташкент, “Шарқ”, 2007.

Annotation. *The article deals with the features of the development of English children's literature of the times of British colonialism in the light of the work of the outstanding Anglo-American writer Francis Hodgson Burnett. In Russia, her works have not yet been studied from the point of view of imperial views on the world order. The author focuses on the evolution of the images of children in her most famous novel "The Little Princess" and the story "The Secret Garden". This work will allow us to study in more detail some gender aspects of English children's literature and analyse the degree of their influence on public opinion in England during the Victorian and Edwardian times.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, bola obrazi, ruhiyat, bosh qahramon, xarakter, mahorat, tabiyat.*

Ключевые слова: *детская литература, образ ребенка, психика, герой, персонаж, мастерство, характер.*

Key words: *children's literature, image of a child, hero, psychology, skill, character.*

XVII asr boshidan boshlab ingliz ijodkorlari tomonidan bolalar uchun adabiyotlar nashr etilishi bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlar yuz berdi, chunki bolalarga alifbo va imlo, shuningdek, axloq, odob va dinni o'rgatish uchun maktabda foydalanish kitoblari nashr etilgan. O'sha paytda maktab kitoblarining mazmuniga puritanlik e'tiqodlari ta'sir ko'rsatdiki, bolalarda yomonlikka moyil axloqni o'rgatilish siyosati olib borilayotgan edi. Biroq bu davrda mashhur hikoya va ertaklarni o'z ichiga olgan chapbooklar deb nomlangan arzon nashr etilgan kitoblar ham ishlab chiqarila boshladi. Ushbu kitoblarda qat'iy axloqiy hikoyalar mavjud emasligi sababli, ular, ko'pincha, Puritan e'tiqodlaridan voz kechish uchun tanqid qilingan (Gangi. 2004). Puritanik tafakkur oxir-oqibat Jon Lokk falsafasi bilan tavsiflangan ma'rifatparvarlik g'oyalariga o'z o'rnini bo'shatib berdi, bu esa bolalar nuqtayi nazarini yozilishi mumkin bo'lgan "bo'sh varaq"ga o'zgartirdi. Bu davrda axloqiy ertaklar va ertaklar hali ham nashr qilinar edi, lekin bolalar kitoblarida ham so'z o'yinlari, topishmoqlar, qofiyalar va o'yinlardan iborat yengil kitoblar paydo bo'la boshladi. Bolalar kitoblarida Gulliverning sayohatlari, Ivanhoe va Robinzon Kruzo kabi, dastlab, kattalar uchun yozilgan hikoyalar ham olingan.

XVII asrgacha bolalar kichik kattalar sifatida ko'rilgan, ammo ma'rifat va romantik davrlarda bolalik o'smirlik (yoshlik) va balog'at yoshidan farq qiladigan begunohlik davri sifatida qaraldi (Avery&Kinnell. 1995). Nuqtayi nazarlardagi bu o'zgarishlar, ayniqsa, minikattalar emas, balki begunoh va o'ynoqi mavjudotlar sifatida ko'rilgan bolalar uchun kitoblar yozish va nashr etish uchun yangi bozorni yaratdi. 18-asrda bolalar kitoblari yozuvchisi Jon Nyuberi bolalar hikoyalariga bag'ishlangan birinchi nashriyotni ochish orqali bolalar adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'zining hikoyalarini, shuningdek, boshqa bolalar kitobi mualliflarining asarlarini nashr etdi (Gangi. 2004). Faqat bolalar hikoyalari uchun nashriyot g'oyasi jamiyatning bolalar haqidagi fikridagi o'zgarishlarni aks ettirdi. XIX asrda bolalar o'yinlari va zavqlanishlari uchun ko'proq kitoblar, shu jumladan, Randolf Kaldekot tomonidan yozilgan birinchi rasmli ki-tob ham yozildi.

Bolalar adabiyotining dastlabki tarixi ijtimoiy o'zgarishlar yozuvchilar va kitob nashriyotlarini bolalar uchun maxsus kitoblar yaratish va ishlab chiqarishga qanday ta'sir qilganini ko'rsatadi. XVIII – XIX asrlarda bolalar adabiyoti bozori mustahkam shakllanganligi sababli, XX asrda bolalar adabiyotidagi o'zgarishlar kitob mazmuni bilan bog'liq bo'ldi. Misol uchun, Birinchi jahon urushi va Ikkinchi jahon urushi o'rtasidagi davr idealizm va kashshoflik ruhini aks ettiruvchi kitoblarning ko'payishini ko'rsatdi, masalan, Laura Ingalls Uaylder tomonidan 1932 va 1943-yillarda nashr etilgan "Preriyadagi kichik uy" seriya-sidagi kichik shahar hayoti namoyishi (1971). Biroq, bu davrdagi hikoyalar hali ham jiddiy va realistik yozuvlarni o'z ichiga oladi, masalan, Margaret Wise Braunning yosh bolalar uchun ishining soddaligi va soddaligi yoki Loisning "Qulupnay qizi" kabi hikoyalarida tasvirlangan hayot haqiqati va qiyinchiliklari. Lenski (1945), u kambag'al, ishlaydigan fermer qizining kurashlarini o'rtoqlashdi (Hunt., 1995).

Realistik hikoyalarning paydo bo'lishi 1960 va 1970-yillardagi ijtimoiy va siyosiy inqilobga hamroh bo'lgan realizm tomon katta siljish boshlanishidan avval edi. 1930–1950-yillar orasida yozuvchilar ijtimoiy muammolar va qiyinchiliklarga, masalan, qashshoqlik bilan bog'liq kurashlarga oid mavzularni ko'rib chiqishga tayyor bo'ldilar; ammo 1960 va 1970-yillarda realizmga asoslangan bolalar kitoblari to'lqini paydo bo'ldi. Beverli Clearly, Judy Blume va Pol Zindel kabi mualliflar o'sish, o'lim, semizlik va boshqa muammolar haqida yozganlar, bu esa qabul qilinadigan, ehtimol, bolalar tushunishi uchun zarur bo'lgan chegaralarning o'zgarishini ko'rsatdi. Bu oldingi mualliflar uysizlik, irq va jinsiy aloqa haqida yozgan M.E.Kerr, Sintia Voigt va Robert Kormierning yozishiga yo'l ochdilar. 1960 va 1970-yillardagi bolalar adabiyotining realizmi o'sha davrda tarixiy, siyosiy va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'plab o'zgarishlarga o'xshab, tub o'zgarishlarni ko'rsatdi. Shunday yorqin yozuvchilardan bo'l-

gan Frensis Xodson Burnett asarlaridagi qahramonlar va yozuvchini bolalarga yetkazib berayotga tasvirlar XIX asrning yaqqol ko‘zga tashlangan asarlariga aylandi. XIX asrning boshlarida Frensis Xodjson Bernett “Kichik malika” va “Yashirin bog‘” klassik asarlarini yozgan, sarguzasht romanlar o‘g‘il bolalar emas, balki qahramonlar sifatida qizlarga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Frensis Xodson Burnett–bolalar uchun ko‘plab asarlar yaratgan taniqli ingliz yozuvchisi. Uning kitoblari hali ham yorqin tasvirlar va qahramonlarning chuqur psixologik tahlillari bilan mashhur. Ushbu maqolada biz Frensis Xodson Burnett ijodidagi bola obrazining kognitiv rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqich – tasavvur dunyosini bilish. Burnett asarlarida bola obrazining kognitiv rivojlanishining birinchi bosqichida tasavvur dunyosini shakllantirish jarayoni tasvirlangan. Uning kitoblarining qahramonlari, odatda, o‘z orzulari va xayollarida yashaydigan bolalardir. Ular o‘z dunyolarini hamma narsa mumkin bo‘lgan joyda, har kim bo‘lishi mumkin bo‘lgan joyda yaratadilar va xohlagan narsani qiladilar. Masalan, “yashirin bog‘” kitobida Bosh qahramon Meri sirli bog‘ni topgandan keyingina o‘z tasavvuriga kira boshlaydi. Bu bog ‘ nafaqat u yangi do‘stlar topadigan joy, balki uning ichki dunyosining ramzi hamdir. Aynan shu bog‘ tufayli Meri o‘z hayoti avvalgidan ko‘ra yaxshiroq va qiziqarli bo‘lishi mumkinligini tushuna boshlaydi.

Ikkinchi bosqich – empatiya va ijtimoiy tushunishni rivojlantirish. Bola obrazining kognitiv rivojlanishining ikkinchi bosqichida Burnett ijodida empatiya va ijtimoiy tushuncha rivojlanadi. Uning kitoblaridagi qahramonlar dunyo nafaqat o‘z orzulari va istaklari bilan cheklanib qolmasligini, balki boshqa odamlarning ham o‘z hikoyalari va muammolari borligini anglay boshlaydilar. “Kichkina Malika” kitobida bosh qahramon Sara Kru uning imtiyozlari oddiy narsa emasligini va boshqa bolalar ham u kabi yashashlari shart emasligini tushuna boshlaydi. Bu uning boshqa bolalarga nisbatan hamdardlik va hamdardlik ko‘rsatishni boshlashiga olib keladi va ularga hech bo‘lmaganda axloqiy jihatdan yordam berishga harakat qiladi.

Uchinchi bosqich–hayotingiz uchun javobgarlikni qabul qilish. Burnett ijodidagi bola obrazining kognitiv rivojlanishining uchinchi bosqichida qahramonlar o‘zlari hayotlari uchun javobgar ekanliklarini anglay boshlaydilar. Ular shunchaki o‘z orzulari va xayollarida yashay olmasliklarini va kelajagiga ta’sir qiladigan haqiqiy qarorlar qabul qilishlari kerakligini tushunishadi. “Kichik Lord Fauntleroy” kitobida bosh qahramon, dastlab, haqiqiy, Lord bo‘lishni orzu qilib, o‘z tasavvurida yashaydi. Biroq, u o‘zini haqiqiy hayotda topganda, u o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish va qiyin qarorlar qabul qilish kerakligini tushunadi.

To‘rtinchi bosqich – o‘z-o‘zini bilish va hayotda o‘z o‘rnini topish. Burnett ijodidagi bola obrazining kognitiv rivojlanishining to‘rtinchi bosqichida qahramonlar o‘zlarini shaxs sifatida anglay boshlaydilar, hayotda o‘z o‘rnini izlaydilar va o‘zlarining qadriyatlari va e’tiqodlarini aniqlaydilar. “Kichkina Malika” kitobida Sara Kru o‘zining haqiqiy qadriyati Malika bo‘lish va xohlagan narsasiga ega bo‘lish emas, balki mehribon va hamdard inson bo‘lish ekanligini tushuna boshlaydi. Bu uning e’tiqodi va haqiqati uchun kurashishni boshlashiga olib keladi.

Shunday qilib, Frensis Xodson Burnett ijodida bola obrazining kognitiv rivojlanishining to‘rt bosqichini ajratish mumkin. Har bir bosqichda uning kitoblari qahramonlari ma’lum bir yo‘lni bosib o‘tishadi, bu ularga yaxshiroq va rivojlangan shaxs bo‘lishga yordam beradi. Burnett nafaqat orzularingizda yashash, balki haqiqatni qabul qilish, hamdardlik ko‘rsatish va hayotingiz uchun javobgar bo‘lish muhimligini ochib beradi. Uning kitoblari hali ham shaxs sifatida rivojlanish va o‘sishni istagan bolalar va kattalar uchun dolzarb va muhimdir. Ular bolalarga hayot shunchaki o‘yin emasligini va har bir insonning o‘ziga xos qiymati va ahamiyati borligini tushunishga yordam beradi.

Uning kitoblari hali ham mashhur va dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki ular barcha yoshdagilar uchun muhim bo‘lgan universal darslarni o‘z ichiga oladi. “Kichik malika” – Frensis Xodjson Bernett tomonidan yozilgan, birinchi marta 1905-yilda nashr etilgan roman bo‘lib, u Londondagi internat maktabiga yuborilgan badavlat oiladan bo‘lgan Sara Kru ismli yosh qiz haqida hikoya qiladi. Otasi vafot etib, boyligi yo‘qolgach, Sara qashshoqlik va bandalik hayotiga tushib qoladi, lekin uning mehribonligi va ijobiy munosabati uning qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Romanning asosiy mavzularidan biri – tasavvur kuchi va ijobiy fikrlashdir. Sara o‘zining hayoliy va hikoyalar dunyosiga chekinib, qiyin sharoitlarga qaramay, o‘z qadr-qimmatini va umidini saqlab qola oladi. U atrofdagilarni ham xuddi shunday qilishga ilhomlantiradi va uning ijobiy munosabati oxir-oqibat omadni jalb qiladi.

Yana bir muhim mavzu – boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik va ularning odamlar hayotiga qanday ta’sir qilishi. Sara kambag‘al yetim sifatida hayotga moslasha oladi, ammo romandagi

boshqa qahramonlarning ko‘pchiligi o‘z sharoitlarining keskin o‘zgarishiga bardosh bera olmaydi. Roman, shuningdek, sinfiy va ijtimoiy tengsizlik masalalarini o‘rganadi, chunki Sara turli ijtimoiy doiralar orasida harakatlana oladi va odamlarga boyligi va mavqeyiga qarab qanday munosabatda bo‘lishini bevosita ko‘radi.

Umuman olganda, “Kichik malika” umid, tasavvur va mehribonlik qudrati haqida ko‘ngil ochadigan va ilhomlantiruvchi hikoyadir. U qiyinchiliklarga chidamli bo‘lish va boshqalarga, ularning ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, ularga rahm-shafqat va hurmat bilan munosabatda bo‘lish muhimligi haqida muhim saboqlarni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, Frensis Xodson Burnettning ijodi bola obrazining kognitiv rivojlanishini adabiyotda qanday aks ettirishning yorqin namunasidir. Burnett o‘z qahramonlari orqali bolalarning yaxshi va rivojlangan shaxs bo‘lishiga yordam beradigan muhim hayot saboqlarini beradi.

References:

1. Anderson R.C., Pearson P.D. (1984). A schematheoretic approach view of basic processes in reading comprehension. In P.S. Pearson (Ed.), Handbook of reading research (pp. 255–291). White Plains, NY, Longman.
2. Applebee A.N. (1973). The child’s concept of story. Ages two to seventeen. Chicago: University of Chicago Press.
3. Athanases S. (1998). Diverse learners, diverse texts. Exploring identity and difference through literary encounters. Journal of Literacy Research, 30, p. 273 – 296.
4. Banks J. (1993). The canon debate, knowledge construction, and multicultural literature. Educational Researcher, 22 (5), p. 4 – 14.

Xolmurodov Abduhamid (NavDPI professori, f.f.d.)

XAYOL DUNYOSINING TURFA RANGLARI

Annotatsiya. *Maqolada N.Afoqovaning she’riy to‘plamidan o‘rin olgan she’rlarning mavzu ko‘lami, badiiy xususiyatlari, shoiraning poetik mahorati haqida so‘z boradi. Hozirgi o‘zbek she’riyatining tadrijiy rivoji, badiiy, uslubiy yangilanishlar, jahon she’riyati tamoyillarini o‘zlashtirishdagi izlanishlar tahlil etilgan.*

Аннотация. *В статье говорится о тематике, художественных особенностях и поэтическом мастерстве поэтессы из поэтического сборника Н.Афоковой. Анализируются постепенное развитие современной узбекской поэзии, художественно-методические обновления, поиски в освоении принципов мировой поэзии.*

Annotation. *The article deals with the subject, artistic features and poetic skill of the poetess from the poetry collection N.Afokova. The gradual development of modern Uzbek poetry, artistic and methodological updates, the search for mastering the principles of world poetry are analyzed.*

Kalit so‘zlar: *poetika, she’rxon, tafakkur, tamoyil, shamoyillar, tagma’no, tuyg‘u, qahramon.*

Ключевые слова: *поэтика, поэт, мышление, принцип, символы, коннотация, чувство, герой.*

Key words: *poetics, poet, thinking, principle, symbols, connotation, feeling, hero.*

Bugungi she’riyat butun dunyo tashvishlari zalvorini yelkaga olib, ko‘ngilning eng olis puchmoqlaridagi g‘oyat dilgir, g‘oyat inja, g‘oyat murakkab tuyg‘ularni tilga ko‘chirishga, chaqiriq va hayqiriqlarni bosib ketgudek qudratini namoyish etishga, poetik badiiy tafakkur shamoyillarini yangicha kashf etishga intilmoqda. O‘tgan asrning 80-yillari o‘rtalaridan boshlangan bu nazm to‘lqini mustaqillik epkinlari, erkin va ozod his-tuyg‘ular evrilishlari, yangi asrning buyuk bashariy orzu-umidlarga doya bo‘lgulik nasimlari bilan to‘lishdi, baquvvat ildizlarga ega bo‘ldi. Iste’dodli shoira Nodira Afoqova she’riyati ana shu baquvvat ildizlardan biri.

Yangi asrning ham deyarli chorak asri o‘tdi. Shu qisqa davr ichida she’riyatda yuz bergan o‘zgarishlar, yangicha poetik tafakkurning jilolari adabiyotshunoslikning doim diqqat-e’tiborida bo‘lib, tahlil va tadqiq chig‘irig‘idan o‘tkazib kelinyapti. Ammo she’riyatning bugungi shakl-u shamoyilini hali to‘laqonli yoritib berolgan emas. Shuning o‘zi ham she’riyat to‘xtovsiz taraqqiyotda, o‘zgarishlar va yuksalishlar girdobida yashayotganligini ko‘rsatadi. She’rni tahlil qilish, ilmiy tadqiq etish nasrga nisbatan birmuncha qiyin va murakkab. Negaki, hozir tahlilga yondashuv turlicha. Bugungi she’riyatda aks etayotgan tuyg‘ular po‘rtanasini anglab olish ham she’rxondan katta idrok, bilim va saviya talab qiladi. Taniqli munaqqid Hamidulla Boltaboyev aytganidek: “...shoir “men”ining o‘zi bosh qahramon. Uning tabiati, ruhiyati, boringki, adabiy madaniyati ham bizga saboq bo‘lishi, shoir biz avval tuymagan tuyg‘ularni tuy-

dirishi, biz ko‘rib anglamagan badiiy haqiqatni anglashga yordam berishi kerak. Bu bilan ijodkor o‘zi iste’dodini tarbiyalaydi, balki millatning badiiy didi va saviyasining o‘sishiga yordam berishi mumkin”.[1]

N.Afoqovaning “Yolg‘izning yori” she’rlar to‘plami yangi tuyg‘ular, tashbehlar, so‘zning rangorang ma’no tovlanishlari, poetik idrokning o‘ziga xos shakllari bilan bezangan. Bu she’rlarni birdaniga hazm qilib bo‘lmaydi, har bir satr, so‘z ustida bosh qotirish, tagma’nolar mohiyatini anglab yetishga urinish talab etiladi va shu asnoda shoirani har bir she’rxon o‘zicha kashf etadi, har bir she’rxon o‘zicha his-tuyg‘ular bo‘hronida o‘z savqi-ta’bini sinovdan o‘tkazadi. Bugungi she’riyat ana shunday shaklu shamoyilda she’rxonni tarbiyalamoqda. “Bo‘g‘zimga tiqildi gulning ul isi...”, “Qalb bilan yashamoq og‘ir bu dunda”[2] kabi misralar qa’ridagi ma’no-mazmun she’rxonni xayol daryosiga cho‘mdiradi, gul isining bo‘g‘izga tiqilishi, qalb bilan yashashning og‘irligi daf’atan tushuniksizday, g‘alizday tuyuladi, ammo so‘zlarning tagma’nosidagi shira hushyor torttiradi, gul isiga tashnalik, qalbning uyg‘oq bo‘lishiga da’vat ko‘ngilning nozik torlarini tebratib, hayrat va hayajon uyg‘otadi.

“Har bir she’r – kayfiyat, munosabat, betakror o‘zlik, dunyoni yangicha ko‘rish. She’riyatdagi xarakter haqida gapirish – umumlashma topish, zarradagi katta haqiqatni ko‘rish, so‘zning rangi, isi, tarovatini his etishdir”,[3] deydi munaqqid A.Rasulov. To‘plamda bu talablarga javob bera oladigan, poetik tasvir, ifodaning yangicha ko‘rinishlari ko‘p. Har bir she’r mutolaasi shoiraning poetik diapazoni she’rdan-she’rga kengayib, miqyoslari kattalashib borganligini ko‘rish mumkin. Shoira she’rlarida lirik qahramonning ichki dardi, og‘riqlari, dard va alamlari she’rxonni befarq qoldirmaydi, uning-da ko‘ngil torlarini chertib, hayot va o‘lim, muhabbat va nafrat, yashamoq va kurashmoq, adolat va razolat, zulmat va yorug‘lik o‘rtasidagi kurashlarda Hazrati Inson ongi, shuuri, ruhiy, ma’naviy, madaniy olami yuksalib borishi, komillikka intilishiga sabab sanalishini his eta boshlaydi, olamga, borliqqa teranroq nigoh bilan boqishga ehtiyoj sezadigan bo‘ladi. “Shoirnnig o‘limi” she’rida shunday hislarni tuyish, ularga asir bo‘lish, qalbga qo‘rg‘oshinday quyilayotgan so‘zlar sehridan titrash, larzaga tushish she’rxonga behad ulug‘ lazzat baxsh etadi. “Dunyo – balozor – tashbeh, tashbeh bo‘lganda ham hech kimda uchramaydigan, daf’atan xayolga kelmaydigan tashbeh. Chunki “lolazor”, “sabzazor”, “gulzor”...bunday yasama so‘zlarni tilimiz lug‘at tarkibidan istagancha topish mumkin va bu ona tilimiz tabiatiga, strukturaviy xususiyatiga xos. Balo – kishi boshiga kutilmaganda tushadigan savdo, tashvish, noxush bir holatni ifodalaydi, balozor baloning ko‘pligi, hadsizligi. Shoir noyob iste’dod egasi, u dunyoni baxtli qilaman deb, o‘zi baxtsiz bo‘ladi, dunyo yaralariga malham bo‘laman deb, o‘zi qalbini yaralaydi, bir umr balolar iskanjasida yashaydi. Ammo uning bu fidoyiligini u yashagan jamiyat, odamlar bilishdimi, unga hamdard bo‘loldilarmi? Mana bu o‘ta og‘riqli savol. Bunga shoirning javobi haqiqiy isyon kabi yangraydi:

Ul adam tunini, azal tunini
Sirli asotirday va bayram kabi
Tasavvur etaman nechun, yo Rabbiy![4]

So‘zlar zarbidan, tuyg‘ular to‘lqinidan yurak sirqirab ketadi. Axir “adam tuni”, “azal tuni”–yo‘qlik, abadiy sokinlik tavsifi shoir qismatining intihosini ko‘z o‘ngingizda gavdalantiradi. Shoir o‘limini “sirli asotirday”, “bayram kabi” kutib olishining boisiga keltirilgan sabab yana ham kishini dilgir qiladi, balozordan xalos bo‘lish parishon xayol dunyosini to‘zg‘itadi, taskin va tasallidan xayolning yuksak cho‘qqisiga olib chiqadi. Chunki:

G‘urbatni tark etting, nihoyat,
Zulmatni tark etting, nihoyat.
Kiborlar minnatin tark etib ketting.
Oxir g‘am diyorin tark etib ketting.[5]

“Nodirabegim” she’rida shoira tarixga murojaat qiladi. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qon xonligida shariat qonunlari buzilayotgani, Nodirabegimning saltanat ishlarida mavqeyi va obro‘si oshib borayotganini bahona qilib, qo‘shin tortib keladi. U Nodirabegim va uning ikki nevarasini qatl etadi. Tarixning bu dahshatli xatosi necha bir zamon o‘tsa ham, xalq yodidan o‘chib ketmaydi, Turon elining

[1] Болтабоев Ҳ. Улуғбек Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбатлар, “Истиқлол. Адабиёт. Танқид”. Т., “Turon zamin ziyo”, 2013, 13-бет.
[2] Афоқова Н. Ёлғизнинг Ёри. Тошкент, “Muharrir”, 2022, 37-bet.
[3] Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар, “Шарқ”, Т., 2007, 16-бет.
[4] Афоқова Н. Ёлғизнинг Ёри. Тошкент, “Muharrir”, 2022, 14-бет.
[5] Shu manba.15-bet.

bir-biriga yog‘iy bo‘lganligi alami ko‘ngillardan o‘chmaydi, shoirayi davronni tahqirlagan Nasrulloxonning qilichi shoira bo‘g‘ziga tiralib turganday tuyuladi... She’r mahzun kayfiyat uyg‘otadi, millatnnig noahilligi, ilm-ma’rifat fidoyilarining ayanchli qismati buyuk fojia ekanligi iztirob bilan misralar qatiga joylangan.

Ko‘hna tarix qa’rida bunday fojialar ko‘p bo‘lgan. Ammo bir-birini sotish, qirg‘in qilish, bir-biri bilan yovlashish va shuning oqibatida bosqinchilarga qul bo‘lib qolish bizdagidek hech qayerda bo‘lmagan. Olim Ilhom G‘aniyev “Rauf Parfi O‘zturk dunyosi” kitobida buni alohida ta’kidlagan. Chingiziylarga darvozani lang ochib bergan Mahmud Yalavoch, Spitamenni zaharlagan, mag‘lub bo‘lishiga sabab bo‘lgan, Yildirim Boyazid va Amir Temurni bir-biriga dushman qilgan, Bobur va Shayboniyxon o‘rtasiga adovat urug‘ini sochgan, Mo‘min Mirzoni qatl ettirgan, Toshkent qamal qilinganda o‘rislarga sotqinlik qilganlar o‘zimizning oramizdan chiqqanligini afsus bilan eslaydi. Rauf Parfi O‘zturkning “O‘ldirsang o‘zingni o‘ldirding faqat, Assalomu alaykum, dorning og‘ochi”[1] misralarida aynan ana shu fojia ko‘zda tutilgan. Nasrulloxonning bosqinchi qolib, Nodirabegimni qatl etgani fojiasi Nodira Afoqova she’rida ham o‘kinch bilan ifodalanganligini ta’kidlaydi. Bu o‘kinch

Taftish bo‘ldi to‘shakkacha, sirdoshgacha,
Qon sachradi botayotgan quyoshgacha...
Oh, Buxoro, nomusingga tushdi motam...
Ojizaga qilich chopgan er bo‘larmi?..
Qo‘qon yoqdan otlar boshin egib qaytdi...
Shamol emas huvlagan u, Molaroyim,
Qo‘qoningiz hanuz tortar ohlar, oyim.[2]

misralarida ta’sirli ifodasini topgan.

To‘plamdan o‘rin olgan she’rlarning har biri haqida soatlab fikr yuritish, bahs-munozara qilish mumkin. Misralardagi mazmun-mohiyatni har bir she’rxon o‘zicha anglashi, idrok etishi, tabiiy. Muhimi, shoira she’rlari kishini o‘ylashga, fikr yuritishga, mushohada qilishga, xayol dunyosining keng ufqlarida parvoz etishga undaydi. Buning uchun she’rlarni astoydil berilib mutolaa qilish lozim. Mutolaa kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilayotgan hozirgi vaqtda nihoyatda muhim. Ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsi shunday degan:

“O‘qish – bizning hayot haqidagi tasavvurlarimizni, boshqa odamlarning fe’l-atvorlari va ehtiyojlari to‘g‘risidagi tushunchalarimizni kengaytiradi, kitob olamiga o‘zining “men”i hududidan chiqishga nihoyatda katta yordam beradi”.[3]

N.Affoqovaning “Yolg‘izning Yori” to‘plamidan o‘rin olgan she’rlari ham kitobxonning dunyoqarashini kengaytiradi, poetik tafakkur sehrini his etishni o‘rgatadi, o‘z “men”ini topishga yordam beradi.

Norboyeva Dilafro‘z Jumaqulovna (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

RUS ADABIYOTINI O‘RGANISHDA TARJIMA MASALALARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus va o‘zbek adabiyoti badiiy asari namunalari haqida so‘z yuritiladi. Tarjima xalqimizni jahon ilm-fani, texnikasi, madaniyatining ulkan yutuqlari bilan tanishtirish va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berishdek muqaddas vazifani bajarishda g‘oyat muhimdir. Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko‘rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o‘xshash janrlar haqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda rus va o‘zbek adabiyotini o‘zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются образцы художественного произведения русской и узбекской литератур. Переводческое дело очень важно для выполнения священной задачи приобщения нашего народа к великим достижениям мировой науки, техники, культуры и развития общественной мысли, воспитания его в духе дружбы между народами. Известно, что в узбекской литературе, как и в русской литературе, есть произведения, созданные в разных жан-*

[1] Ғаниев Илҳом. Рауф Парфи Ўзтурк дунёси, Тошкент, “Muharrir”, 2021, 24 – 25-бетлар.
[2] Афоқова Н. Ёлғизнинг Ёри. Тошкент, “Muharrir”, 2022, 73 – 74-бетлар.
[3] Голсуорси Жон. Адабиёт ва ҳаёт. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (О.Шарафиддинов таржималари). Т., “Маънавият”, 2020, 76-бет.

рах, и они состоят из сказок, рассказов, романов и других видов произведений. Когда учащиеся информированы об этих схожих жанрах, появляется возможность сравнить русскую и узбекскую литературу.

Annotation. *This article discusses samples of a work of art in Russian and Uzbek literature. Translation is very important for fulfilling the sacred task of familiarizing our people with the great achievements of world science, technology, culture and the development of social thought, educating them in the spirit of friendship between peoples. It is known that in Uzbek literature, as well as in Russian literature, there are works created in different genres, and they consist of fairy tales, short stories, novels and other types of works. When students are informed about these similar genres, it becomes possible to compare Russian and Uzbek literature.*

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, janr, adabiyot, ertak, hikoya, roman, ijod, manba, o‘zaro ta’sir.*

Ключевые слова: *художественное произведение, жанр, литература, сказки, рассказы, романы, творчество, источник, взаимное влияние.*

Key words: *work of art, genre, literature, fairy tales, stories, novels, creativity, source, mutual influence.*

San’at koshonasining shinam va go‘zalligi bino chizmasining qanchalik puxta va aniqligiga, bezaklarning bejirimligiga, me’morning mahorati va quruvchilarning mehnatiga bog‘liq. Ammo bunda binoning qanday materialdan qurilganligi, qurilish materialining sifati ham katta ahamiyatga egadir.

Badiiy tarjimada esa asosiy «qurilish materiali», tarjimaning birinchi va eng zarur elementi bo‘lgan so‘zning o‘rni beqiyos kattadir.[1] Bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning hamma muammolari – badiiylik hosil qilish, uslub yaratish, milliy koloritni aks ettirish so‘z muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyot mashg‘ulotlarida boshqa millat va xalqlar adabiyotini o‘zaro qiyoslab o‘rganish, o‘quvchilar bilimlarini boyitish, badiiy adabiyot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganishda birmuncha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, anchagina rus ijodkorlarining asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Maktab o‘quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalari ham mazkur qilingan tarjima asarlardan olingan namunalardan iboratdir.[2] Ko‘p yillik pedagogik kuzatishlar natijasida chiqarilgan xulosadan kelib chiqib, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganish usullariga doir ko‘zga tashlanarli uslubiy qo‘llanma yoki tadqiqotlarni uchratmadik.

Ilk rus adabiyoti haqida o‘zbek sinf o‘quvchilari 4–7-sinfda tanisha boshlaydilar. Tabiiyki, bu sinflarda o‘quvchilar rus adabiyoti namunalarida aks etgan mavzu va boshqa adabiy-badiiy vositalar hamda ularda keng qo‘llanilgan badiiy janr turlari bilan tanishadilar.

Yuqori sinflarga kelib esa rus adabiyoti namunalarini chuqurroq o‘rganish imkoniyati keng bo‘lib, hajman yirik, janr jihatdan xilma-xil bo‘lgan asarlar tanlab olingan va o‘zbek adabiyoti darsligi ham o‘quv rejasiga kiritilgan. Chunki tarixan boy, turli janrlarda yaratilgan rus adabiyoti o‘z mazmuni, qalamga olingan rus xalqi tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlari baynalmilal ahamiyatga ega bo‘lib, barcha xalqlar vujudga keltirgan ma’naviy qadriyatlarning uzviy qismini tashkil etadi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko‘rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o‘xshash janrlar haqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda rus va o‘zbek adabiyotini o‘zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, har ikki millat o‘quvchilarining ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga o‘zaro ta’siri xususida umumiy ma’lumotlar manbalarda yetarlicha qayd etilgan.

“Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalq tiliga tarjima qilish, deb yozgan edi rus adibi V.G. Belinskiy, ularning o‘zaro yaqinlashishlariga, bir-birlariga g‘oyalar almashishiga asos bo‘ladi, ana shundan yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi”.[3] Darhaqiqat, jahon adabiyotining Shekspir singari ulug‘ siymolari tilimizga tarjima qilingan shoh asarlari bilan birga qonimizga singib ketdi.

Badiiy tarjima san’atkorlarning jonbozlik bilan qilgan mehnati tufayli biz o‘z Pushkinimiz va o‘z Lermontovimizga, o‘z Shevchenkomiz va o‘z Tolstoyimizga ega bo‘ldik. Endilikda genial Navoiy bilan

---

[1] G‘aybulla Salomov. Til va tarjima. O‘quv qo‘llanma, “Fan”, T., 1996, 98 – 106-betlar.

[2] Шейман Л.А. Основы методики преподавания русской литературы в узбекской школе. Фрунзе, 2001, с. 80–82.

[3] Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык, Изд-во «Ўқитувчи», Ташкент, 2007.

birga Gyugo va Shiller asarlarini, Hamza bilan birga Gorkiy va Mayakovskiy kitoblarini, Oybek bilan birga Sholoxov va Mirza Ibrohimov romanlarini o‘qimoqdamiz. A.Qahhor va M.Ismoiliyning tarjimalari orqali buyuk so‘z ustalari L.N.Tolstoy va A.P.Chexovning ajoyib asarlarni o‘qishga muyassar bo‘ldik, G‘. G‘ulom, A.Muxtor va M.Shayxzodalarning tarjimalari orqali V.V.Mayakovskiy ijodiniig inqilobiy ruhi va g‘oyaviy qudratini sezdik, R.Abdurahmonov va Sh.Tolibov tarjimalaridan N.V.Gogol va N.G.Chernishevskiy asarlarining nafosatini his qildik, Shamsharov va L.Ibrohimovlarning tarjimalaridan I.S.Turgenevni tanidik, Mirtemir va Zulfiya tarjimalari tufayli N.A.Nekrasovga muhabbat bog‘ladik. Shunday qilib, o‘zbek adabiyotining mundarijasi kengayib, internatsional mazmuni tobora ortib bormoqda.

Xalqimizni jahon fani, texnikasi, madaniyati va ijtimoiy fikr taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan bahramand qilish, uni xalqlar do‘stlign ruhida tarbiyalash kabi muqaddas vazifani amalga oshirishda tarjimachilik ishi g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Yaqin vaqtlargacha asarning qanday tarjima qilinganini ko‘rsatish uchun uning qanchalik «sodda» va «tushunarli» ekanligini asosiy o‘lchov birligi, mezon qilib olinar edi. Ammo endilikda bunday umumiy va muhmal ko‘rsatkich tarjima muxlislarini ham, tarjimonlarning o‘zlarini ham qanoatlantirmaydi. Boshqacha aytganda, tarjimondan asarning umumiy mazmuni va g‘oyasini emas, yozuvchiiing o‘ziga xos tili va uslubini, uning badiiy mushohada formasini, kitobning tashqi va yuzaki jismi-yu, latofatini emas, balki uning asosiy bisoti: ichki harorati va badiiy xususiyatlarini to‘la-to‘kis aks ettirish talab qilinadi.

Ma’lumki, har qanday tarjima, V.G.Belinskiy so‘zlari bilan aytganda, asl nusxa tilini bilmagan kishilar uchun mo‘ljallanadi. Ayni sharoitda badiiy asarni o‘zbek tilida qayta tiklash, ya’ni adekvat tarjima yaratish mas’uliyati yana ham oshadi. Bunday badiiy mukammal tarjima yaratib bo‘ladimi? Buyuk nemis shoiri Gyote o‘zining «Faust» yasarinnng Jerar tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasini o‘qib, shunday degan: «Nemis tilida men «Faust»ni qayta o‘qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonga soladi va u sof, yangi va o‘tkir tuyuladi».[1] Demak, shoir o‘zi yozgan asarni o‘z aslida, ya’ni, ona tilida emas, balki uning fransuzcha tarjimasida o‘qib, undan chuqur estetik zavq olgan. Binobarin, bundan Gyote fransuz bo‘lib, «Faust»ni fransuz tilida yozganida, uni xuddi ana shundan qilib yaratgan bo‘lar edi, degan xulosa chiqarish mumkin. Zotan, badiiy tarjima xislatlaridan biri ham shundan iborat. Badiiy tarjima praktikasida hozirgacha jiddiy o‘rganilmay kelinayotgan muammolar juda ko‘p. Bulardan mazkur ishga taalluqli ayrim masalalarni tilga olib o‘tish o‘rinlidir. Chunonchi:

1. Kitobxonga tushunarli va sodda til bilan tarjima qilish avtor va asarning til hamda uslub xususiyatlarini «soddalashtirish»ga, to‘g‘rirogi, siyqalashtirishga asos beradimi?

2. Aksincha, avtorning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko‘rsatadimi?

3. Nima uchun badiiy asarni tarjima qilishning aniq, qat’iy prinsiplari bo‘lsa ham, bir asarni, masalan, o‘n kishi ag‘darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan o‘n xil tarjima hosil bo‘ladi? Umuman, tarjimada bunday xilma-xillikka yo‘l qo‘yish mumkinmi?

Uslub yozuvchining o‘zi, uning butun bor-bisoti, vujudi, yurak tepishi, badiiy mushohada formasi, uning ovozi demakdir.[2] Binobarin, agar tarjimada avtorning uslubi to‘g‘ri berilmagan bo‘lsa, bunday tarjimaning asl nusxa jismiga mosligiga, aslo, ishonib bo‘lmaydi. Unda tarjimon, beixtiyor, avtorning o‘rniga o‘zini qo‘ygan bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori, yozuvchi va mohir tarjimon Korney Chukovskiy o‘zining «Tarjima san’ati» nomli mashhur asariga quyidagi rus xalq maqolini epigraf qilib olgan edi: «Tarjima xuddi xotinga o‘xshaydi: to‘g‘ri bo‘lsa, chiroyli emas, chiroyli bo‘lsa, to‘g‘ri emas». Bu maqol tarjima san’atining asosiy xususiyatnni, uning zaminidagi mavjud ziddiyatni juda to‘g‘ri aks ettirgan. Zero, to‘g‘ri tarjima etishni maqsad qilib qo‘ygan kishi, ko‘proq, hijjalab tarjima qilishga, muddaosi chiroyli tarjima qilishdan iborat bo‘lgan kishi esa... ko‘proq, o‘zini avtorlashtirishga moyil bo‘ladi.

Bizningcha, ham to‘g‘ri va ham chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san’at asari bo‘la oladi, bundan tarjima yaratishnnng o‘zi esa chinakam san’atdir. Bunday san’at tarjimondan to‘g‘ri tarjima «qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to‘g‘ri tarjima qilish mahoratini egallash talab etadi.

Tarjima amaliyotida quyidagi xilma-xilliklar uchrab turadi:

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e’tiqodi bir-biridan jiddiy farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tafovutlar.

---

[1] G‘aybulla Salomov. Til va tarjima. O‘quv qo‘llanma, “Fan”, T., 1996, 108 – 115-betlar.

[2] Турьянская Б.И. Материалы к урокам литературы в 5–7 классах. М., “Русское слово”, 2006, с. 253.

2. Tarjimonlarning tarjima qilish prinsiplarini har xil talqin etishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar.

3. Tarjimonlarning uslubi avtor uslubiga ta'sir etishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar.[1]

Ana shu uchta sabab tufayli, agar bir asarni, masalan, o'nta tarjimon o'z tiliga o'girsa, natijada bir-biridan farq qiladigan o'n xil tarjima hosil bo'ladi (Albatta, bunda qonuniy hodisalargina nazarda tutilib, mas'uliyatsizlik va e'tiborsizlik tufayli yo'l qo'yiladigan o'zgarishlar nazardan soqit qilinadi). Shuning uchun ham har bir tarjimon o'z tarjimasinnng mutlaq avtori bo'lsa, ayni asarning o'z tiliga qilingan va qilinadigan hamma tarjimalariga avtor bo'lishni da'vo qilolmaydi. Masalan, V.Shekspirning «Hamlet» tragediyasi rus tiliga o'n besh marta o'girilgan bo'lib, hozir ham shu asarning bir-biridan jiddiy farq qiladigan B.Pasternak va M.Lozinskiy tarjimalari baravar nashr qilinadi. Badiiy tarjima 2X2=4 deb qat'iy hal qilinadigan mexanik ish bo'lmay, balki ijodiy ish ekanligi, avtor uslubini har bir tarjimon o'ziga xos uslub bilan tiklashga intilishi tarjimachilik praktikasida yuz berayotgan ana shu tafovutlarga sabab bo'ladi. «Uslub» tushunchasi keng ma'noda va tor ma'noda talqin qilinadi. Keng ma'noda muayyan yozuvchining yoki ayrim asarning uslubi tushuniladi. Masalan. L.N.Tolstoy bilan A.P.Chexovning badiiy uslubi bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Ayniqsa, rus adabiyoti she'riyati bilan bog'liq tarjima namunalarini o'quvchilarga yetkazishda o'qituvchidan har ikkala tilni bir-biriga qiyoslash mahorati, qolaversa, tarjimonning she'r matnini aslidan farqli jihatlarini anglash, his qilish qobiliyatini talab qiladi. Shuningdek, she'r matnini bir-biriga qiyoslar ekan, eng muhim holat she'r matnini o'quvchilarga ifodali o'qib berish ham muhim ma'naviy-uslubiy jarayondir.

O'zbek sinflarida o'rganilayotgan rus yozuvlari, shoirlari haqida ma'lumot berish jarayonida ular ijod qilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot haqida berilgan obraz shaklidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir. Nazarimizda, rus adabiyoti o'rganilayotgan mashg'ulotda, ularning asarlarini o'zbek tiliga o'girgan tarjimonlar haqida ham o'qituvchilar qisqa ma'lumot berib o'tsalar, o'quvchilar tarjimonshunoslik sohasidagi katta mehnat talab qiladigan ilm ekanligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Umarova Gulbahor Jumanovna (Qo'qon davlat Pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi)

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA AYRIM TERMINLARNING BADIIY O'XSHATISHLAR HOSIL QILISHI

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalaridagi ayrim terminlarni o'xshatishlar hosil qilishi, asarda qo'llangan o'xshatishlarning hissiy-emotsionallikni ifodalash xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Hikoyalarda o'rinli qo'llanilgan o'xshatishlarni fe'llar bilan bog'lanishi tahlilga tortilgan.*

***Аннотация**. В статье показано, как некоторые термины из рассказов Абдуллы Кахара образуют аналогии, а также особенности, с которыми сравнения, используемые в произведении, выражают эмоциональность. Связь уместно используемых в рассказах аналогий с глаголами была подвергнута анализу.*

***Annotation**. This article outlines the way in which certain terms in the stories of Abdullah Qahhor form metaphors, and the characteristics of the metaphors used in the work to express Sensu-emotionality. The connection of appropriate metaphors with verbs in the stories has been subject to analysis.*

***Kalit so'zlar**: lingvopoetika, o'xshatishlar, fe'llar, hissiy-emotsionallik, badiiy adabiyot, termin, leksika.*

***Ключевые слова**: лингвопоэтика, сравнения, глаголы, эмоционально-эмоциональные, художественная литература, термин, лексика.*

***Key words:** linguopoetics, metaphors, verbs, emotional-emotionality, fiction, term, lexicon.*

Badiiy matnning ta'sirchanligini, qimmatini oshirishda o'xshatishlarning o'rni nihoyatda katta. O'xshatish deb "ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalashga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1. O'xshatish subyekti. 2. O'xshatish etaloni. 3. O'xshatish asosi. 4. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari. Masalan: Alisher tulki-

[1] Черкезова М.В. Русская литература в национальной школе. М., 2011, с. 91 – 103.

day ayyor bola. Bunda Alisher – o‘xshatish subyekti, tulki – o‘xshatish etaloni, ayyor – o‘xshatish asosi, -day – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi [1.75].

Mohir hikoyanavis, ulkan so‘z ustasi Abdulla Qahhorning ona tiliga kuyunchaklik bilan bo’lgan munosabati, uning boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi adibning ba’zi maqolalari qatori qissa, hikoyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tili leksik boyligidan yuqori darajada xabardor bo‘lgan Abdulla Qahhor ularni o‘z o‘rnida qo‘llash borasida ham mohir edi.

Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamrab bera oladi” [2.14], degan edi Abdulla Qahhor. Mana shunday ulkan mahoratni adibning ayrim hikoyalarida keltirilgan o‘xshatishlarni tahlil qilish va ularni fe’llarga bog‘lanishi jarayonini o‘rganish orqali bunga yana bir bor amin bo’lamiz.

Masalan: Ot munkib ketganda egarning ustidan dumbaloq oshib tushgan paranjisiz qiz o‘ynoqi kaptardek abjirlik bilan o‘zini o‘ngarib oldi-da, juvonga yordam bergani shoshildi [3.261]. Keltirilgan misolda qiz – o‘xshatish subyekti, kaptar – o‘xshatish etaloni, o‘ynoqi – o‘xshatish asosi, -dek – o‘xshatish shakliy ko‘rsatkichi. Bu o‘rinda adibning mahorati shundaki, otdan dumbaloq oshib tushgan qiz abjirlik bilan o‘zini o‘ngarib olishini o‘quvchining ko‘z o‘ngida qushga – o‘ynoqi kaptarga qiyoslab gavdalantirgan. Bundan tashqari, kaptarning abjirlik harakatini shaxsga mohirona ko‘chirgan.

Yo‘l ustidan chiqib qolgan chaqqon kaltakesaklar o‘qday otilib kavaklarga, tosh oralariga kirib ketadi, ba’zan dadilrog‘i uzoqroqqa borib bu qanaqa odamlar ekan deganday boshini ko‘tarib irg‘ib chiqqan ko‘zlari bilan baqrayib qarab turadi [3.262]. Yuqoridagi misolda kaltakesaklar – o‘xshatish sub’ekti, o‘q – o‘xshatish etaloni, otilmoq – o‘xshatish asosi, -dek – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Bu o‘xshatish turida ham adib kaltakesaklarni chaqqonlik bilan kavaklarga, tosh oralariga bekinishini o‘qning otilishiga o‘xshatib badiiy ta’sirchanlikni oshirgan. Qolaversa, otilmoq holat fe’lidan ham o‘rinli foydalangan.

Maston yuki og‘ir aravani tortib borayotgan otday oyoqlarini tirab yuqoriga intilar, Turg‘unoy esa engashib ikki kaftini tizzasiga qo‘yib zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qadam tashlardi.

Turg‘unoyning o‘pkasi to‘lib, gapdan to‘xtadi. U mast kishiday gandiraklab borardi. Maston uni qo‘ltiqlab oldi [3.263]. Har ikkala misolda ham yozuvchi o‘xshatishlarning ta’sirchan kuchini yarata olgan. Adib uzoq yo‘l azobidan juda charchagan Turg‘unoy va Mastonni tepalikka qiynalib chiqish holatini tasvirlar ekan, Mastonni yuki og‘ir aravani tortib borayotgan otga, ertaning bu kundan yaxshi bo‘lishi umidi yashab orzulari chilparchin bo‘lgan Turg‘unoyning holatini esa gandiraklab ketayotgan mast kishiga o‘xshatadi. Maston yuqoriroqqa chiqib, dasht tomonga qaradi. Ufqdan berida o‘rgimchakdek o‘rmalab, arava kelar edi. Turg‘unoy yovvoyi quyonday har bir so‘z, har bir harakatdan hurkib o‘tirarar va to Maston olib bermaguncha, qo‘l uzatib bir narsa olmas edi.

Turg‘unoy gapga aralasha olmay bedalar ichida bir bog‘ bedaday silkinib borar edi. [3.268]. Ushbu misollarda ham adib o‘xshatishlarning go‘zal namunasini yaratgan. Aravaning kelishini (o‘rgimchakdek o‘rmalab), Turg‘unoyni (yovvoyi quyonday), (bir bog‘ bedaday) deya ta’riflab asar mazmunini o‘quvchiga yanada tushunarli va ta’sirchan yoritilishiga erisha olgan.

Qanday bo‘lsa ham bolani tushirish kerak. U Mehrini ko‘rpaga o‘rab, yangi qilinayotgan kigizday yumalatdi; qorniga yostiq bilan urdi, ustiga chiqib o‘tirdi; qo‘qqisdan qattiq qo‘rqitdi. Bularning hech qaysisi foyda bermadi. [3.259] Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasida keltirilgan ushbu parchada qizining kuyovi Faxriddindan farzand ko‘rishini sira istamagan Niso buvi holatini ko‘rsatish uchun adib homilador qizini homilasini tushirish uchun uringan harakatini yangi qilinayotgan kigizdek yumalatishga o‘xshatadi. Kigiz odatda qo‘y junidan qadimda tirsaklab, tizzalab urib tayyorlangan, keyin yumalatib o‘rab qo‘yilgan. Yozuvchi kitobxonning ko‘z o‘ngida Mehrining holatini ro‘y-rost ochib berish uchun onasi kiyizday yumalatdi deb ta’riflagan. Bu o‘xshatish orqali ham ijodkor o‘z maqsadiga erisha olgan.

Yonida o‘tirgan a’lam uning so‘zini ma’qullab boshini qimirlatdi. Bu hovlinig egasi boy ham yuraksiz, egasining orqasiga o‘tibgina huradigan laychadey, har zamon so‘zlar va bir og‘iz so‘zida o‘zining pusht-panohi bo‘lgan qo‘rboshiga qarab qo‘yar edi [3.268]. Tebranib yonayotgan sham zo‘r mo‘jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi [3.273].

Qo‘rboshining o‘ng yog‘ida o‘tirgan o‘nboshi to‘pponchadan uch martaba o‘q uzib polvonni yiqitdi. O‘nboshining boshiga qandaydir miltiqning qo‘ndog‘i zarb bilan tushib qovoqdek yordi [3.273]. Adibning “Ko‘r ko‘zning ochilishi” hikoyasida hovli egasi boyni (egasining orqasiga o‘tibgina huradigan lay-

chaga), tebranib yonayotgan shamni (zo‘r mo‘jizaga), o‘nboshining boshiga tushgan miltiqning qo‘ndog‘ini (boshni qovoqday yorishiga) o‘xshatib tengsiz tasvir vositalarini yarata olgan.

